


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



**YUQORI MOLERULYAR BIRIKMALAR
VA POLIMER MATERIALLAR KIMYOSI
FANLARIDAN LABORATORIYA
MASHG'ULOTLARI UCHUN
USLUBIY QO'LLANMA**

TOSHKENT-2019

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**T.Babayev, M.Muxamediyev, D.Gafurova, M.Mahkamov,
D.Shaxidova, T. Raximov, X.Mirzoxidov**

**YUQORI MOLEKULYAR BIRIKMALAR VA POLIMER
MATERIALLAR KIMYOSI**

fanlaridan laboratoriya mashg'ulotlari uchun uslubiy qo'llanma

Toshkent - 2019

Uslubiy qo'llanma Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti polimerlar kimyosi kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan bo'lib, o'z ichiga yuqori molekulyar birikmalar sintezi, ularning eritmalarini va kondensirlangan holatlaridagi xossalari, kimyoviy va mexanik xossalari hamda tuzilishlar bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha izohlarni qamrab olgan.

Har bir bo'lim bo'yicha nazariy qism va laboratoriya ishlarini olib borish bo'yicha izohlar berilgan.

Uslubiy qo'llanma universitetlarning kimyo fakultetlari bakalavriatura talabalarining "Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi" umumiy kurs o'quv dasturlariga mos ravishda tuzilgan bo'lib, universitetlarning kimyo fakultetlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Qo'llanma yuqori molekulyar birikmalar kimyosi va fizikasi o'qitiladigan boshqa oliy o'quv yurtlarining talabalari, magistrantlari, doktorantlar va shu soha ilmiy xodimlari uchun ham foydadan holi emas.

Taqrizchilar:

Akbarov X.I. – kimyo fanlari doktori, professor, O'zbekiston Milliy universiteti kimyo fakulteti, fizikaviy kimyo kafedrasi mudiri

Bekchanov D.J. - kimyo fanlari doktori, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, kafedra mudiri

Mazkur uslubiy qo'llanma kafedrayig'ilishida ko'rib chiqilgan (2019 yil 24 oktabrdagi 5-son yig'ilish bayonnomasi).

Mazkur uslubiy qo'llanma fakultet uslubiy kengashida ko'rib chiqib ma'qullangan (2019 yil 29 oktabrdagi 3-son qarori bayonnomasi).

Universitet uslubiy kengashining 2019 yil 9 noyabrdagi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan (bayonnomasi №2).

SO'ZBOSHI

Mazkur uslubiy qo'llanma respublikamiz universitetlari kimyo fakultetlarida 5140500-“Kimyo” va 5141400- “Polimer va kompozitsion materiallar kimyosi” ta’lim yo’nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan bakalavriatura talabalarini, keyinchalik qanday mutaxassislikni olishdan qat’iy nazar, kimyogar-bakalavr bilishi lozim bo’lgan yuqori molekulyar birikmalar kimyosi assoslari va uning muhim amaliy xususiyatlari bilan tanishtirishdan iborat.

Umumiy kursni o’qishda asosiy e’tibor yuqori molekulyar birikmalar makromolekulalarining katta o’lchami va zanjirsimon tuzilganligi sababli quyi molekulyar birikmalardan farqlanuvchi xossalarni tushuntirishga qaratilgan.

“Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi” va “Polimer materiallar kimyosi” umumiy nazariy kurslari talabalar tomonidan laboratoriya ishlarini bajarish bilan birga olib boriladi.

Tavsiya etilayotgan uslubiy qo'llanma yuqori molekulyar birikmalar va polimer materiallar kimyosi kursi bo'yicha mo'ljallangan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun mo'ljallangan bo'lib, u umumiy kursning o'qitilish tamoyillariga mos ravishda tuzilgan.

Uslubiy qo'llanmaning asosiy vazifasi talabalarga kursning umumiy nazariy qismida beriladigan polimerlar sintezi, kimyoviy o'zgarishlari, fizik-kimyoviy hamda mexanik xossalari, tuzilishi kabi sohalarini chuqurroq anglash va o'zlashtirishga yordam berishdan iborat.

Qo'llanma Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti kimyo fakultetining polimerlar kimyosi kafedrasida bir necha yil davomida ishlab chiqilgan amaliy mashg’ulotlar bo'yicha uslubiy qo'llanmalar hamda xorijiy mamlakatlarda yaratilgan tajribalar asosida yaratilgan bo'lib, hozirgi zamon polimerlar kimyosi va fizik kimyosining eng asosiy bo'limlarini o'z ichiga qamrab olgan. Qo'llanmada 100 ga yaqin amaliy laboratoriya mashg’ulotlarini bajarish uchun izohlar berilgan va bu ishlar asosida oliy o'quv yurtlari uchun tanlov asosida polimerlar kimyosidan laboratoriya mashg’ulotlari rejasini tuzish imkoniyatini beradi.

Qo'llanmada keltirilgan nazariy va amaliy materiallar universitetlarning 5140500-“Kimyo” va 5141400- “Polimer va kompozitsion materiallar kimyosi” ta’lim yo’nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan bakalavriatura talabalari malakasiga qo'yilgan talablar va mazkur dasturlarga mos ravishda tuzilgan, ammo tavsiya etilayotgan kitob kimyo texnologiya institutlarida va boshqa mutaxassisliklarda o'qitilayotgan polimerlar kursi uchun ham qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkin.


Uslubiy qo'llanmani texnikaviy va nashrga tayyorlash ishlari polimerlar kimyosi kafedrasi tayanch doktoranti Orziqulov B.T. tomonidan bajarilgan.

I BOB. POLIMERLAR SINTEZI


1.1. POLIMERLANISH REAKTSIYALARI

Polimerlanish deb qo'shimcha mahsulotlar ajralib chiqmaydigan va reaktsiyaga kirishayotgan moddalarning elementar tarkibi o'zgarmaydigan bir qancha molekulaning birikish reaktsiyasiga aytiladi.


Polimerlanish reaktsiyasi umumiyl holda quyidagicha tasvirlanishi mumkin:




Odatda monomer sifatida tarkibida qo'shbog' bo'lган moddalar xizmat qiladi.




Polimerlar hosil bo'lsh reaktsiyalarini qatnashayotgan monomerlar soniga qarab, gomopolimerlanish (bitta monomer) va sopolimerlanish (ikki yoki undan ko'p monomerlar) deb farqlanadi. Ba'zi hollarda tarkibida qo'shbog' bo'lмаган monomerlar asosida ham polimerlanish sodir bo'lshi mumkin:



Zanjirli polimerlanish uchta elementar reaktsiyadan iborat:
Faol markazning hosil bo'lishi



Zanjir rivojlanishi



Zanjir uzilishi




bu erda, M_1 -monomer molekulasi; M^{\cdot} -faol markaz; $M_2^{\cdot}, M_3^{\cdot}, \dots, M_{n-1}^{\cdot}, M_n^{\cdot}$ - rivojlanayotgan radikallar; M_n - polimer molekulasi.

1.1.1. Radikal polimerlanish


Zanjir rivojlanishi natijasida π - bog' σ - bog'ga aylanadi. Bu reaktsiya π - va σ - bog'lar energiyalari farqi hisobiga issiqlik chiqishi bilan boradi.

Juftlanmagan elektron yo'qolishi bilan reaktsion zanjir uziladi (o'sishdan to'xtaydi). Shu sababli ikki radikalning o'zaro ta'siri zanjir uzilishiga olib keladi.

Bunday jarayonning eng oddiy misoli bo'lib erkin radikallarning o'zaro birlashish-rekombinatsiyalanish:




yoki disproportsilanish reaktsiyasi hisoblanadi:




Radikal polimerlanishni initsirlash usullari

Polimerlanishni boshlash uchun zarur initsirlovchi erkin radikallar quyidagi usullar bilan olinadi:


Termik initsirlash. Erkin radikallar manbai bo'lib monomerlarning o'z molekulalari, masalan, stirol, metilmekrifikat va etilen xizmat qiladi. termik polimerlanishni ba'zan monomerning ikki molekulasi to'qnashishida bog'lar uzilishi natijasida avvaliga biradikal hosil bo'l shidan iborat bimolekulyar reaktsiya deb ham qaraladi:



Hosil bo'lgan biradikal monomer molekulasi bilan to'qnashib initsirlovchi radikal hosil qiladi:



Bunda Ch.Uolling tomonidan taklif etilgan bimolekulyar initsirlash mexanizmi ancha ishonchli:




Fotopolimerlanish. Yorug'lik kvanti yutilganda molekulalar qo'zg'algan holatga keladi. Fotoinitsirlash haroratga bog'liq bo'limgani uchun bu jarayonning faollanish energiyasi nolga yaqin. Fotopolimerlanish tezligi qo'shimcha faol radikallar hosil qiluvchi manba-sensibilizatorlar (peroksidlar, erituvchilar) ishtirokida ortishi mumkin. Fotopolimerlanish reaktsiyasining tezligi yorug'likning intensivligiga bog'liq bo'lib, yorug'lik intensivligining kvadrat ildizi qiymati bilan belgilanadi:

$$V = K \sqrt{I} \text{ yoki } V = K \cdot I^{0.5} \quad (1.1)$$

Elektrokimyoviy initsirlash. Bunda polimerlanishni boshlovchi faol markazlar (erkin radikallar, kation va anionlar, ion-radikallar) elektr toki ta'sirida vujudga keltiriladi.

Radiatsion polimerlash – monomerlarni α -, β -, γ - nurlari, rentgen nurlari, tezlatilgan elektronlar va boshqa yuqori energiyali zarrachalar bilan nurlantirilganda ham polimerlanish reaktsiyasini initsirlovchi erkin radikallar hosil bo'ladi. Kichik unumli o'zgarishlarda radiatsion polimerlanish fotokimyoviy polimerlanish qonuniyatlariga bo'y sunadi.

Moddiy initsiatorlar yordamida polimerlash-sanoatda va ilmiy tadqiqot amaliyotida eng ko'p ishlatiladigan usuldir. Initsiatorlar sifatida peroksidlar va diazobirkimlar radikallar manbai sifatida ko'proq ishlatiladi. Keng miqyosda ishlatiladigan peroksidlarga benzoil peroksidni va diazobirkimlar vakili sifatida azo-izo-moy kislotasining dinitrili (DAK)ni ko'rsatish mumkin:




Initsiatorning parchalanishi haroratni ko'tarish yoki initsiator bilan reaktsiyaga kirishadigan maxsus moddalar-*promotorlar* qo'shish bilan tezlatiladi.




Radikal polimerlanish reaktsiyasini quyidagi sxema bo'yicha ifodalash mumkin:

I. Initsirlash reaktsiyasi (initsiator - DAK)


Hosil bo'lgan dimetiltsianmetil monomer molekulasi bilan birikib reaktsion zanjirni boshlaydi:




II. Zanjirning rivojlanishi



Zanjir uzilishi: a) rekombinatsiyalanish reaktsiyasi orqali



b) disproportsiyalanish reaktsiyasi orqali



Zanjir uzilish reaktsiyalaridan ko'rinish turibdiki, radikal polimerlanishda hosil bo'ladiqan mahsulot polidispers bo'ladi.

Radikal polimerlanishning umumiyligi tezlik tenglamasini quyidagicha ifodalash mumkin:


$$V = - \frac{dM}{dt} = k_p [R^\bullet][M] \quad (1.2)$$

Reaktsiyada faol markazlarning hosil bo'lishi bilan ularning sarf bo'lish tezligi teng bo'lsa, bu *statsionar holat* deyiladi. Amalda statsionar holatning vujudga kelishi ancha qiyin, ammo unga yaqin holatni vujudga keltirish mumkin. Bu *kvazistatsionar holat* deb ataladi.


YUqorida ko'rilgan radikal polimerlanish usullarida initsirlash tezligining pastligi, kam unumliligi, destruktsiya va zanjir uzatilish kabi qo'shimcha jarayonlar sodir bo'ladi.

Qator moddalar ishtirokida monomerlar polimerlanishi to'xtaydi. Samaradorligi bo'yicha bunday moddalar *ingibitorlar* va *sekinlatuvchilar*ga bo'linadi. Ingibitorlar sistemadagi barcha radikallarni o'chiradi. Sekinlatuvchilar ishtirokida polimerlanish to'xtamaydi, ammo juda past tezlikda boradi.


Misol sifatida stirol polimerlanishining gidroxinon bilan ingibirlanishini keltirish mumkin. Bunda haqiqiy ingibitor bo'lib gidroxinonning oksidlanish mahsuloti – initsirlovchi va rivojlanayotgan radikallar bilan semixinon radikalini hosil qiluvchi benzoxinon xizmat qiladi.



Ingibitorlar qatoriga polimerlanishni initsirlay olmaydigan, ammo radikallar bilan reaktsiyaga kirisha oladigan barqaror radikallarni kiritish mumkin. Bunday radikallardan difenilpikrilgidrazin va 2,2',6,6'-tetrametilpiperidin-oksil-1 hisoblanadi.



difenilpikrilgidrazin




2,2,6,6'-tetrametilpiperidin-oksil-1 (TANAN)


Radikal polimerlanishda hosil bo'lgan bitta faol markaz hisobiga to'g'ri kelgan monomer molekulalarining o'rtacha soniga *kinetik zanjir uzunligi* (ν) deb aytildi.

Polimerlanish kinetikasi va unga ta'sir qiluvchi omillar

Radikal polimerlanishning har bir bosqichi o'zining tezlik konstantasi bilan xarakterlanadi:



yoki umumiy ko'rinishda



bunda, k_{in} -initiatsiyasining tezlik konstantasi; k_p - zanjir rivojlanish reaktsiyasining tezlik konstantasi.

Polimerlanish reaktsiyasining umumiy tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$V = k_{uh}^{0,5} \cdot \frac{k_p}{k_{y3}^{0,5}} [I]^{0,5} [M] \quad (1.3)$$

ammo ko'pchilik hollarda polimerlanish tezligining monomer va initsiator kontsentratsiyalariga bog'liqligi quyidagi empirik tenglama bilan ifodalanadi:

$$V = K [I]^n [M]^m \quad (1.4)$$

bu yerda $K = k_p \cdot \left[\frac{k_{uh}}{k_{y3}} \right]^{0,5}$; n va m ning qiymatlari sharoitga qarab 0,5 dan va 1 dan chetlanishi mumkin.

Demak, radikal polimerlanish tezligi monomer va initsiator kontsentratsiyalariga bevosita bog'liq ekan.

Haroratning kimyoviy reaktsiya tezligiga ta'siri Arrenius tenglamasi bilan ifodalanadi:


$$k = A \cdot e^{-\frac{E}{RT}}$$

bu yerda, k -reaktsiyaning tezlik konstantasi; A -**predeksponensial** ko'paytiruvchi, u sterik omil deb ham yuritiladi; E - reaktsiyaning faollanish energiyasi.


Polimerlanish jarayonlari uchun faollanish energiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$E = E_p + \frac{E_{uu}}{2} - \frac{E_{y_3}}{2} \text{ yoki } E = \frac{E_{uu}}{2} + (E_p - \frac{E_{y_3}}{2}) \quad (1.5)$$

Ma'lumki, E_r ning qiymati ko'pchilik monomerlar uchun 29 kDj/molga yaqin, E_{uz} 12-21 kDj/mol atrofida, $E_r - E_{uz}/2$ esa 18,8 - 23 kDj/molga teng. Agar $E_{in}=125$ kDj/mol (benzoil peroksidi yoki azobirikmalar bilan initsirlaganda ko'pchilik hollarda uchraydigan faollanish energiyasi) deb




1-rasm. Polimerlanish tezligining haroratga bog'liqligi.



2-rasm. Polimerlanishing faollanish energiyasini aniqlash grafigi.

olsak, umumiylar faollanish energiya E uchun 84 kDj/mol qiymatni olamiz.

Ko'pchilik polimerlanish reaktsiyalari ma'lum bir haroratda qaytar bo'lib qoladi, ya'ni polimerlanish bilan depolimerlanish muvozanatga keladi:




bu yerda, k_r - zanjir rivojlanish reaktsiyasining tezlik konstantasi; k_{dep} -teskari reaktsyaning tezlik konstantasi.

Muvozanat vaqtidagi harorat yuksak harorat (T_{yuk}) deb ataladi.

Monomer tuzilishining polimerlanishga ta'siri

To'yinmagan uglevodorodlar polimerlanganida bitta qo'shbog' uzilib ikkita oddiy C-C bog' hosil bo'ladi va issiqlik ajralib chiqadi.




π -bog'ning uzilishi hisobiga ikkita σ -bog' hosil bo'ladi.

C=C bog' energiyasi 145,5 kkal/mol va C-C bog' energiyasi esa $84 \cdot 2$ kkal/mol bo'lgani uchun bularning farqi reaktsyaning issiqlik effekti qiymatini belgilaydi:

$$84 \cdot 2 - 145,2 = 22,5 \text{ kkal/mol}$$


Ko'pchilik monomerlarning polimerlanish issiqligi bu qiymatdan kichik. Masalan, propilen va izobutilendagi metil guruhi elektronondonor o'rindosh bo'lGANI uchun elektronlarni metilen guruhning o'rindoshi bo'lMAGAN uglerod atomi tomon yo'naltirishi oqibatida qo'shbog' qutblanadi:




Qutblanish oqibatida o'rindoshli etilen molekulasida bitta uglerod atomi elektron buluti yuqori zichlikka, ikkinchisi esa past zichlikka ega bo'ladi:



Etilen yoki butadien molekulasiga galloid, nitril yoki karboksil kabi qutbli guruhlar kiritilishi ulardagi qo'shbog'ning qutblanganlik darajasini kuchaytiradi. Bu guruhlar elektron aktseptor o'rindoshlar bo'lGANI uchun elektronlarni o'ziga tomon tortadi:



Natijada elektronlar zichligi o'rindoshli uglerod atomi tomon siljiydi:



Polimerlanishning initsirlash reaktsiyasi tezligi monomerning reaktsion qobiliyatiga bog'liq. Monomerning qutblanish darjasini ortishi bilan uning reaktsion qobiliyati va polimerlanishni initsirlash tezligi kuchayadi.

1.1.2. Radikal sopolimerlanish reaktsiyalari


Ikki va undan ortiq turli xil monomerlarni birgalikda polimerlash *sopolimerlash* deyiladi va bunda hosil bo'lgan yuqori molekulyar birikmalar *sopolimerlar* deb nomlanadi.

Ko'p hollarda sopolimer tarkibi shu sopolimer uchun olingan dastlabki monomerlar aralashmasi tarkibidan farq qiladi.

Mayo va Lyuis sopolimerlanish reaktsiyasida monomerlar reaktsion qobiliyatini ifodalash uchun quyidagi *sopolimerlanish differentsiyal tenglamasini* taklif qilganlar:

$$\frac{d[M_1]}{d[M_2]} = \frac{[M_1]}{[M_2]} \cdot \frac{r_1[M_1] + [M_2]}{r_2[M_2] + [M_1]}$$

r_1 va r_2 kattaliklar sopolimerlanish konstantalari yoki monomerlarning nisbiy faolligi deyiladi va sopolimerlanayotgan sistemaning muhim xarakteristikalaridan hisoblanadi. Bu kattaliklarga «monomer tarkib-polimer tarkib» egrisining ko'rinishi bog'liq bo'ladi (3-rasm).



3-rasm. Sopolimer tarkib diagrammasi. 1- $r_1=0,1$;
 $r_2=1,0$; 2- $r_1=r_2=0,135$;
 $3-r_1=10$; $r_2=0,1$; 4- $r_1=1,0$
 $r_2=1,0$; 5- $r_1=0$; $r_2=0$

$r_1 \cdot r_2 = 1$ bo'lgan hollarda "ideal" sopolimerlanish deyiladi, yani bunda sopolimer tarkibi dastlabki monomerlar aralashmasi tarkibiga mos keladi. Reaktsiyaga kirishayotgan monomerlar tuzilishigagina bog'liq bo'lgan kattaliklarni r_1 va r_2 bilan muvofiqlashtirish maqsadida T. Alfrey va Prays har bir zanjir o'sish konstantasi to'rt parametr orqali ifodalanadigan «Q-e sxema» deb ataluvchi sistemani taklif qildilar:

$$r_1 = \frac{k_{11}}{k_{12}} = \frac{Q_1}{Q_2} \exp[-e_1(e_1 - e_2)]$$

$$r_2 = \frac{Q_2}{Q_1} \exp[-e_2(e_2 - e_1)]$$

bu yerda R - o'sayotgan radikalning reaktsion qobiliyatini ifodalovchi kattalik; Q - qo'shbog'ning o'rindosh bilan tutashganlik darajasiga mutanosib parametr; e_1 va e_2 -radikal va monomer qutblanganligini ko'rsatuvchi kattaliklar bo'lib musbat (+) yoki manfiy (-) ishoralanishi mumkin.

r_1 va r_2 larni hisoblash usullari

Berilgan monomerlar jufti uchun sopolimerlanish konstantalarini quyidagicha aniqlanadi: M_1 va M_2 monomerlar aralashmasini har xil tarkibda boshlang'ich konversiyalarda (reaktsiya davomida reaktsion aralashma tarkibini o'zgartirmay saqlash maqsadida, odatda reaktsiya unumi 10% dan kam bo'lган darajada) olib boriladi, hosil bo'lган sopolimer ajratib olinib ikkala M_1 va M_2 komponentlar miqdori (sopolimer tarkibi)ni aniqlanadi.

r_1 va r_2 ni quyidagi usullar bilan hisoblash mumkin:

Mayo-Lyuis usuli;

Faynemann-Ross usuli;

Abkin-Gindin-Medvedev usuli;

Ezrielev-Broxina-Roskin usuli;

Kelen-Tyudesh usuli

1.1.3. Ionli polimerlanish


Yuqori molekulyar birikmalar hosil bo'lshiga olib keluvchi ionli polimerlanish ham, radikal polimerlanishdek, zanjirli reaktsiyadan iborat, ammo bunda rivojlanuvchi erkin radikal emas, kation yoki anion bo'ladi. Ionli polimerlanish katalizatorlar ishtirokida boradi va katalizator xarakteri hamda hosil bo'ladigan ion zaryadiga qarab *kation* va *anion* polimerlanishga bo'linadi.

Kation polimerlanish. Makromolekula hosil bo'lishida rivojlanayotgan faol markaz musbat zaryadga ega bo'lган jarayonlar kation (elektrofil) polimerlanish deyiladi. $C=C$ qo'shbog'li to'yinmagan monomerlar kation polimerlanishining asosiy mezonini bo'lib qo'shbog'ning nukleofilligi hisoblanadi.


Odatda katalizatorlar sifatida kislota tabiatli moddalar: protonli va aprotonli kislotalar, Lyuis kislotalarining elektron donorli birikmalar bilan komplekslari, $Ph_3C^+ \cdot SbCl_6^-$ turdagи karboniy tuzlari, $Et_3O^+ \cdot SbCl_6^-$ xilidagi oksoniy tuzlari xizmat qiladi.

Lyuis kislotalari- $AlCl_3$, BF_3 , $SnCl_4$, $ZnCl_2$, $TiCl_4$ va boshqalardan yuqori molekulyar polimerlar hosil bo'lshiga olib keluvchi alkenlarning past haroratlari kation polimerlanishi uchun foydalaniladi.


Olefinlarning metall galogenidlari ta'sirida polimerlanish mexanizmini stirolning qalay to'rtxlorid ishtirokida polimerlanishi misolida ko'rish mumkin. Stirol $SnCl_4$ bilan ta'sirlashib, avvalo kompleks hosil qiladi va u navbatdagi stirol molekulasi bilan birikib faol markaz-karboniy ioni hosil qiladi:



Zanjir rivojlanish reaktsiyasi karboniy ionining zanjir uchida tiklanishi bilan monomer molekulasining birikishidan iborat:



Bunda rivojlanayotgan ion qarama-qarshi uchlarining to'qnashishi natijasida katalizatorning ajrab chiqishi va makromolekula uchlaridagi zvenolarning birida qo'shbog' hosil bo'lishi bilan zanjir uziladi:




Ba'zi hollarda katalizator kiritishning o'zi polimerla-nishning boshlanishiga yetarli bo'lmaydi. Sistemaga nam havoning kiritilishi ham tezda polimerlanishning boshlanishiga sabab bo'ladi. Bunday reaktsiyada suv *sokatalizator* vazifasini bajaradi.

Kation polimerlanishda suv bilan bir qatorda kislotalar ham sokatalizator vazifasini o'taydi. Sokatalizator katalizator molekulasi bilan ta'sirlashganda proton ajrab chiqadi:



Ajrab chiqqan proton monomer molekulasi bilan ta'sirlashib faol markaz - karboniy ioni hosil qiladi:



Ko'pincha kation polimerlanishning umumiy faollanish energiyasi manfiy qiymatga ega bo'ladi. Demak, ionli polimerlanishning faollanish energiyasi radikal polimerlanish faollanish energiyasidan kam bo'ladi.

Ionli polimerlanishning faollanish energiyasi quyidagicha ifoda qilinadi:

$$E = E_{uu} + (E_p - E_{y3})$$

Bunda zanjir o'sishining faollanish energiyasi E_r ning qiymati 5 kkal/moldan 10 kkal/molgacha o'zgarishi mumkin.

Monomolekulyar mexanizmlı zanjir uzilishda kation polimerlanish elementar reaksiyalarining tezliklari quyidagi tenglamalar bilan ifodalanadi:

Faol markazning hosil bo'lishi:

$$V_{uu} = K_{uu} [M][K]$$

Zanjirning rivojlanishi:

$$V_p = K_p [M][M_n^+]$$

Zanjirning uzilishi:

$$V_{y3} = K_{y3} [M_n^+]$$


bu yerda $[M_n^+]$ -faol markaz kontsentratsiyasi; $[K]$ -katalizator kontsentratsiyasi; $[M]$ – monomer kontsentratsiyasi.

Polimerlanish darajasi (\bar{P}) bilan monomer kontsentratsiyasi orasida quyidagicha bog'lanish bor:

$$\frac{\bar{P}}{P} = \frac{V_p}{V_{y3}} = \frac{K_p [M][M_n^+]}{K_{y3} [M_n^+]} \quad \text{yoki} \quad \frac{\bar{P}}{P} = K [M]$$

Demak, kation polimerlanishda mahsulotning polimerlanish darajasi katalizator kontsentratsiyasiga bog'liq bo'lmas ekan.


Anion polimerlanish. O'sayotgan zanjir uchida faol markaz anion bo'lsa, bunday zanjirli polimerlanish *anion polimerlanish* deyiladi. Zanjir o'sish bosqichi monomerning β -uglerod atomiga anionning nukleofil xujumi natijasida sodir bo'lib, natijada yangi σ - bog' hosil bo'ladi, π -bog'ning juft elektronlari oxirgi α - uglerod atomiga ko'chadi:



Anion polimerlanish I va II guruhlar metallari, ularning alkillari, arillari, amidlari, alkoksiddi, kuchsiz asoslar-gidroksiddi, aminlar va fosfinlar hamda ionlatuvchi nurlatish usuli bilan initsirlanadi.


Anion polimerlanish mexanizmini to'yinmagan birikmalarning kaliy amidi (KNH_2) ammiak muhitida polimerlanishi misolida ko'rish mumkin:


Faol markazning hosil bo'lishi




K^+ bu yerda qarshi ion vazifasini o'taydi.

Zanjir rivojlanishi






Zanjir uzilishi



Bu misolda zanjir erituvchi, ya'ni ammiak ta'sirida uziladi. Polimerlanish tezligi monomer kontsentratsiyasi kvadratiga va katalizator kontsentratsiyasining kvadrat ildiziga mutanosib.

Ishqoriy metallar, ularning amidlari bilan akril kislota hosilalari - akrilonitril, metakrilonitril, metilmekrakrilat yaxshi polimerlanadi. Ko'pincha, ayniqsa, sanoatda anion polimerlanish katalizatorlari sifatida metallorganik birikmalar, masalan, n-butillitiydan foydalaniladi:



Polimerlanish litiy organik birikmalar ishtirokida inert erituvchilar (uglevodorodlar) muhitida anion koordinatsionli mexanizmda borib stereotartibli polimerlar hosil bo'lishiga olib keladi.

Ma'lum sharoitlarda, erituvchi yoki monomerga zanjir uzatilish bo'limganda va boshqa uzilish reaksiyalarida anion mexanizmda polimerlanuvchi ba'zi sistemalarda, «jonli» polimerlanish deb ataluvchi, polimer zanjirlar hosil bo'ladi va ular uzoq vaqt (1-2 haftagacha) saqlanib polimerlashni boshlash xususiyatini saqlab turadi.


Stereospetsifik polimerlanish. Taktik strukturalar (izotaktik yoki sindiotaktik) hosil bo'lishi bilan sodir bo'ladigan polimerlanish reaksiyalarini *stereospetsifik polimerlanish*, bunday polimerlar esa-*stereotartibli polimerlar* deb ataladi.

Koordinatsion polimerlanish katalizatorlari orasida *stereospetsifik* nomini olgan Tsigler-Natta kompleks katalizatorlari alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda Tsigler-Natta katalizatorlari sifatida ikki birikma - o'tish metali va I-III guruh metallarining kombinatsiyasi ($\text{TiCl}_3 + \text{Al}(\text{C}_2\text{H}_5)_3$) tushuniladi.

Tsigler-Natta geterogen katalizatorlarini tayyorlash uchun TiCl_4 ni $\text{Al}(\text{C}_2\text{H}_5)_3$ bilan uglevodorod muhitida aralashtirilganda Ti^{4+} Ti^{3+} gacha

qaytariladi va yuqori disperslikda katalitik faol cho'kma (kolloid dispers) $\beta - TiCl_4$ hosil qiladi; buning sirtida alkil guruhlar tutgan faol markazlar joylashadi:



Alyuminiyalkilxlorid eritma va katalizator sirtida I yoki II kompleks ko'rinishida bog'langan cho'kma orasida taqsimlanadi.

Nazorat savollari

1. Polimerlanish tezligi harorat ko'tarilishi bilan ortsa, jarayon radikal mexanizmda boradimi yoki ionli mexanizmda boradimi? Harorat ta'siridan tashqari initsirlash mexanizmini aniqlash uchun yana qaysi tajriba usullaridan foydalanish mumkin?
2. Radikal polimerlanishning elementar bosqichlarini yozing.
3. Radikal polimerlanishning asosiy initsirlash usullarini sanab bering
4. Polimerlanish reaktsiyasini termodinamika nuqtai nazaridan tushuntiring.
5. Ingibitorlar nima? Ingibirlanish mexanizmini yozing.
6. «Gel-effekt» nima? U qanday sharoitlarda hosil bo'ladi?
7. Ionli polimerlanish bilan radikal polimerlanishning qanday umumiyliliklari bor?
8. Ionli polimerlanish reaktsiyalariga katalizator tanlash nimaga asoslangan?
9. Kation polimerlanish mexanizmi va uning qonuniyat-lari.
10. Stirolning $SnCl_4$ ishtirokida polimerlanish mexanizmini yozing.
11. Akrilonitrilning $NaNH_2$ ishtirokida anion polimerlanish reaktsiyasi mexanizmini yozing.
12. Ion-koordinatsion polimerlanish nima?
13. Butadienning butillitiy ishtirokida polimerlanish mexanizmini yozing.
14. Initsirlash tezligi va uni aniqlashning qanday usullarini bilasiz?
15. Zanjir o'sish va uzilish tezliklari konstantalari va ularni aniqlash usullari nimadan iborat?
16. Stereotartibli polimerlarga misollar keltiring.
17. Na-naftalin bilan initsirlanadigan metilmekrilitning polimerlanishi suvli, tetragidrofuranli va nitro-benzolli eritmalarda olib borilgan. Polimerlanish tezligi qaysi erituvchida maksimal bo'ladi?

18. Quyida keltirilgan sistemalardagi har bir katalizatordan initsirlovchi zarracha yoki faol markazni ko'rsating:

Monomer	Katalizator
$C_6H_5CH=CH_2$	$(C_6H_5CO_2)_2$
$CH_2=C(CN)_2$	$(CH_3)_3C-COOH + Fe^{2+}$
$CH_2=C(CH_3)_2$	Na – naftalin
$CH_2=CH-O-H-C_4H_9$	H_2SO_4
$CH_2=CH-Cl$	BF_3
$CH_2=C(CH_3)-CO_2CH_3$	$H-C_4H_9Li$
$CH_2=O$	$H-C_4H_9Li$
$CF_2=S$	$H-C_4H_9Li$

Reaktsiya tenglamalarini yozing. Sanab o'tilgan har bir monomerni polimerlash uchun qaysi katalizatorlardan foydalanish mumkin? Javobingizni izohlang. Har bir holatda reaktsiyani amalga oshirish uchun qanday reaktsiya sharoitlari (ya'ni harorat, erituvchi) talab etiladi?

19. Katalizator sifatida $TiCl_4$ va sokatalizator sifatida H_2O ishtirokida izobutilenni benzolda kation polimerlanish reaktsiyasini tahlil qiling. Reaktsiyaning ma'lum sharoitlarida aniqlanishicha polimerlanishning tajriba tezligi

$$V_p = [TiCl_4][изобутилен][H_2O]^{\alpha}$$

tenglama bilan ifodalanadi. Zanjir uzilishi rivojlanayotgan zanjir va katalizator-sokatalizator kompleksining qayta guruhlanishi natijasida to'yinmagan so'nggi guruhga ega polimer hosil bo'lishi bilan boradi.

Shu polimerlanish mexanizmini yozing va polimerlanish tezligi hamda polimerlanish darajasi tenglamalarini chiqaring.

20. Radikal sopolimerlanish reaktsiyasida qanday omillar sopolimer tarkibiga ta'sir ko'rsatadi?

21. Sopolimerlanish konstantalarining fizik ma'nosi nima?

22. Nima uchun sopolimer tarkibi reaktsiya davomida o'zgarib boradi?

23. Sopolimerlanishning kompozitsion xilma-xilligi nima? Qanday sharoitda sopolimer tarkibi bilan dastlaki monomerlar tarkibi bir xil bo'ladi?


24. «Q-e» cxema nimani anglatadi?

1.2. POLIKONDENSATLANISH REAKTSIYALARI

Polikondensatsiya reaktsiyasi uchun amaliyotda -OH, -NH₂, -COOH funktsional guruhli monomerlardan foydalaniladi. Polikondensatlash reaktsiyasi bo'yicha olingan polimerning elementar zvenosi tarkibi dastlabki monomer tarkibiga mos kelmaydi. Quyi molekulyar birikmalar sifatida suv, spirt, ammiak, vodorod xlorid va boshqalar ajrab chiqadi.

Polikondensatlanish reaktsiyalari asosidagi kimyoviy jarayonlar xarakteriga ko'ra muvozanatlari va nomuvozanat polikondensatlanishga bo'linadi.



Odatiy muvozanatli kondensatsiyaga eterifikatsiya reaktsiyasi misol bo'la oladi:



yoki umumiy holda



Bu yerda A va B – reaktsiyaga kirishayotgan molekulalar qoldiqlari; a va b funktsional guruhlar; ab - quyi molekulyar qo'shimcha mahsulot. Qayta-qayta kondensatlanish yoki *polikondensatlanish* natijasida yuqori molekulyar birikma hosil bo'ladi:




Umumiy holda $\text{H}-[\text{NH}-(\text{CH}_2)_n-\text{CO}]_n-\text{OH}$ shaklida yozish mumkin.

Bir tur monomerning kondensatlanishi *gomopolikondensatlanish* deyiladi.


Polikondensatlanish reaktsiyasining amalga oshishi funktsional guruhlar orasidagi masofaga bog'liq. Agar - CH_2 guruhlar soni 5 tadan ortiq bo'lsa, funktsional guruhlar orasidagi masofa uzayib, polikondensatlanishga sharoit yaratiladi:



Dastlabki monomerlarning har biri ikkitadan kam bo'limgan bir turdag'i funktsional guruhlar tutgan bo'lsa, bular orasidagi reaktsiya *geteropolikondensatlanish* deyiladi. Bunga adipin kislotasi bilan geksametilendiaminning o'zaro polikondensatlanib neylon hosil qilish reaktsiyasini misol qilib ko'rsatish mumkin:



adipin kislotasi geksametilendiamin



Umumiy holda



shaklida yozish mumkin.

Polikondensatlanish reaktsiyasi yordamida chiziqli, tarmoqlangan va fazoviy polimer olish mumkin.

1.2.1. Polikondensatlanish kinetikasi

Polieterifikatsiya tezligi quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$V_p = - \frac{d[COOH]}{dt} = k_3 [C^+(OH)_2][OH]$$

Bu yerda $[COOH]$, $[OH]$ va $[C^+(OH)_2]$ karboksil, gidroksil va protonlangan karboksil guruhlari kontsentratsiyasi.

Reaktsiya tezligi uchun eng qulay ifodani protonlanish reaktsiyasi muvozanat konstantasidan foydalanib $[C^+(OH)_2]$ ni aniqlab hosil qilish mumkin:

$$K = \frac{k_1}{k_2} = \frac{[C^+(OH)_2][A^-]}{[COOH][HA]}$$

Bundan quyidagini hosil qilinadi:

$$-\frac{d[COOH]}{dt} = \frac{k_1 k_3 [COOH][OH][HA]}{k_2 [A^-]}$$

Bu tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$-\frac{d[COOH]}{dt} = \frac{k_1 k_3 [COOH][OH][H^+]}{k_2 \cdot K_{HA}}$$

bu yerda, K_{HA} - HA kislötaning dissotsilanish konstantasi. Katalizator sifatida kuchli HA kislota, masalan sulfat kislota qo'shilishi yoki qo'shilmasligidan qat'iy nazar, reaktsiya kinetikasi ancha o'zgaradi.

Karozers tenglamasi

Hosil bo'ladijan polimerlarning tabiatli funksional guruhlari soni va tabiatiga bog'liq. Monomerdag'i bunday guruhlari soni uning *funktsionalligi* deyiladi; shunga ko'ra bifunksional, trifunksional, polifunksional monomer turlariga bo'linadi.

Polimerlanish darajasi x va reaktsiya unumi (chuqurligi) r orasida U. Karozers tomonidan taklif qilingan matematik bog'liqlik mavjud:


$$p = \frac{2}{f} - \frac{2}{x f}$$

\bar{x} kattalikni o'rtacha polimerlanish darajasi deb qarash mumkin, chunki polikondensat polimeromologlar aralashmasidan iborat. Karozers tenglamasini quyidagi shaklga keltirib

$$\bar{x} = \frac{2}{2 - p f}$$

polikondensatlanish qancha oxirigacha borsa, polimerlanish darajasi shuncha yuqori bo'lishini ko'ramiz.

Adipin kislotasi bilan geksametilendiaminning polikondensatlanishida monomerlardan birining hatto 0,09% ortiqcha olinishi polimer molekulyar massasining 10 marta kamayib ketishiga olib keladi (4-rasm).




Bu yerda M_V , M_A va M_{ab} ortiqcha olingan komponentning, ikkinchi komponentning va reaktsiyaning qo'shimcha mahsuloti molekulyar massalari.

1.2.2. Polikondensatnish jarayonidagi destruktiv reaktsiyalar


Polikondensatlanishda turli xil destruktiv reaktsiyalar sodir bo'ladi. Destruktsiya reaktsiyalarining eng keng tarqalgani gidrolizdir. Gidroliz vaqtida asosiy molekulyar zanjir tarkibidagi bog'lar destruktsiya jarayoniga uchraydi va polimerning molekulyar massasi kamayib ketadi. Poliatsetallar, murakkab efirlar va poliamidlar oson gidrolizlanadi:



Kislota ta'sirida atsidoliz reaktsiyasi ketadi:



Spirit ta'sirida esa alkagoliz sodir bo'ladi:



Bu reaktsiyalar natijasida efir bog'larining va ozod funksional guruhlar sonlarining yig'indisi o'zgarmaydi, lekin poliefirning o'rtacha molekulyar massasi kamayadi.

1.2.3. Polikondensatlanishning amaliy usullari

Polikondensatlanish reaktsiyasini monomerlarning suyuqlamasida, eritmasida, fazalarga ajralish chegarasida (fazalararo polikondensatlanish) hamda qattiq holatida olib borish mumkin.

Suyuqlanmada polikondensatlash polimerlarni bosqichli sintez qilishning yuqori darajada o'rganilgan usullaridan biri bo'lib, u hosil bo'ladigan polimer suyuqlanish haroratidan 15-20°C dan yuqorida jarayonni amalga oshirish bilan ajralib turadi.

Eritmada polikondensatlash. Erituvchilar ishtirokida polikondensatlanish reaktsiyasini amalga oshirish reaktsion sistemaning qovushqoqligini keskin pasaytirish imkonini beradi va jarayonning so'nggi bosqichlarida funksional guruhlar ta'siridagi yuqorida ko'rsatilgan diffuzion chegaralanishlarni bartaraf etadi (yoki juda pasaytiradi). Bu ham polikondensatlanish tezligining oshishiga, ham yuqori unumda sezilarli darajada yuqori molekulyar mahsulot hosil bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari, suyuqlanmadagi reaktsiyaga nisbatan issiqlik almashishi yaxshilanadi, reaktsion aralashmada joylarda o'ta qizib ketish kuzatilmaydi va bu bilan bog'liq bo'lган destruktiv reaktsiyalarning oldi olinadi.


Eritmada polikondensatlash orqali hosil bo'lgan polimer eritma holida bo'lgani uchun (loklar, bo'yoqlar, pardalar, yigiruv eritmalarini va h.k.) sanoatda katta ahamiyatga ega.

Emulsion polikondensatlanish. Bu reaksiya ikki fazali sistemalarda boradi, bulardan biri fazalardan birining hajmi reaksiyon zona bo'lsa, ikkinchisi makromolekulalar hosil qiluvchi jarayonning so'nggi bosqichi kimyoviy reaksiya. Geterogen sistema bo'lishiga qaramay, polikondensatsiya eritmadaagi kabi, fazalardan birining tomchilarida boradi.

Emulsion polikondensatlash qaytmas hisoblanadi (muvozanat konstantasi K_r ning qiymati katta), lekin bu usul bilan qaytar polikondensatlash reaksiyalarini ham amalga oshirish mumkin.

Fazalararo polikondensatlash. Fazalararo polikondensatlash ikkita bir-biri bilan aralashmaydigan suyuqliklar yoki gaz va suyuqlik chegarasida sodir bo'ldi. Fazalararo polikondensatlanish geterogen qaytmas jarayon bo'lib, uning tezligi reagentning fazalar oralig'idagi sirtga diffuzlanishi bilan

xarakterlanadi. Dastlabki reagentlar polikondensat-lanishni olib borish uchun bir-birida aralashmaydigan alohida ikkita suyuqlikda eritiladi.



5-rasm. Fazalar orasidagi sirtdan hosil bo'lgan poliamid tolasini uzluksiz chiqarib olish: 1-yassi parda; 2-diamin va asosning suvli eritmasi; 3-fazalar orasida hosil bo'lgan polimer parda; 4-dixlorangidridning organik erituvchidagi eritmasi.

Fazalarga ajralish chegarasida yupqa polimer pardasi hosil bo'ladi, agar bu pardani olib tashlansa, yana yangi parda hosil bo'ladi. Odatda fazalararo polikondensatlash xona haroratida olib boriladi. Usulning afzalligi reaktsiya tezligining kattaligi va haroratining pastligidir. Bundan tashqari, bu usul reagentlarni yuqori darajada tozalashni talab qilmaydi. Boshqa usullar bilan polimerlarni sintez qilish qiyin bo'lgan hollarda fazalararo polikondensatlanish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qattiq fazada polikondensatlash. Qattiq fazada polikondensatlaganda monomer yoki oligomer uzoq vaqt davomida yuqori haroratlarda, lekin polimer (ba'zan monomer)ning suyuqlanish haroratidan pastda qizdiriladi. Polikondensatlash 150-400°C oralig'ida amalga oshiriladi. Qattiq fazada polikondensatlashda monomerlar sifatida ko'pincha alifatik aminokislotalar, aminlar va dikarbon kislotalar tuzlari, dikarbon kislotalar dixlorangidridlari va diaminlarning qattiq aralashmalari, ba'zan oksikislotalar hosilalari (masalan, n-atsetoksibenzoy kislotasi) ishlatiladi.

Nazorat savollari



1. Polikondensatlanish va polimerlanish reaktsiyalarining asosiy farqlari nimalardan iborat?
2. Polikondensatlanish reaktsiyasining yo'naliishi qanday mezonlarga bog'liq?
3. Muvozanatli va muvozanatsiz polikondensatlanish tushunchalari.
4. V.V. Korshakning noekvivalentlik qoidasi.
5. Karozers tenglamasining ahamiyati nimada?
6. Polikondensatlanish reaktsiyasida qanday destruktiv reaktsiyalar mavjud? Ularni yozing.
7. Polikondensatlanish reaktsiyasiga harorat qanday ta'sir qiladi?

8. Eng ko'p tarqalgan polikondensatsion polimerlarning olinishini yozing.

9. Bosqichli (migratsion) polimerlanish va uning polikondensatlanishdan farqi.


10. Polikondensatlanishda polimerning molekulyar massasi qanday omillarga bog'liq?

11. Quyidagi polikondensatlanish reaktsiyalari natijasida hosil bo'ladigan murakkab poliefirlarning strukturalarini tasvirlang:





12. Har bir polimerning strukturasi reaktsion aralashmadagi reagentlarning nisbiy miqdoriga bog'liqmi? Agar bog'liq bo'lsa, farq nimadan iboratligini tushuntiring.

13. Quyidagi polikondensatlanish reaktsiyalari natijasida hosil bo'ladigan murakkab poliefirlarning strukturasini tasvirlang:



14. Quyidagi monomerlarning polikondensatlanish jarayonida $m=2$ qiymatlarida tsikllanish imkoniyatini fikrlab ko'ring:



Reaktsiyaning qaysi bosqichi (yoki bosqichlari)da tsikllanish imkoniyati bor?

15 Reaksiya unumi 99,5% bo'lgandagi 15000 molekulyar massali poliamid olish uchun adipin kislotasi va geksametilendiaminning boshlang'ich nisbati qanday bo'lishi kerakligini hisoblang. Bunday polimer makromolekulalari uchlarida qanday guruhlar bo'ladi?

AMALIY MASHG'ULOTLAR


Yuqori molekulyar birikmalar sintezi bo'yicha bajariladigan amaliy ishlar uch qismga bo'lingan: polimerlanish, sopolimerlanish va polikondensatlanish reaktsiyalari. Har bir talaba shu qismlarda keltirilgan vazifalardan birini bajaradi.

A) POLIMERLANISH REAKTSIYASI

Radikal polimerlanish reaktsiyasining kinetikasi ko'pincha dilatometrik usulda o'r ganiladi. Dilatometriya usulining asosida polimerlanish reaktsiyasi davomida reaktsion aralashma hajmining kamayishi yotadi. Hajmning kamayishini o'lhash orqali hosil bo'layotgan polimerning miqdori va polimerlanish reaktsiyasi tezligini o'lhash mumkin.

DILATOMETRDA ISHLASH METODIKASI

1.6-rasmda dilatometrning umumiy ko'rinishi tasvirlangan. Dilatometr polimerlanish jarayoni boradigan rezervuar va kapillyardan iborat bo'lib, katetometr yoki gorizontal mikroskop yordamida kapillyardagi suyuqlik sathini pasayishi, ya'ni sistemaning siqilishi aniqlanadi.



1.6—rasm. Polimerlanish kinetikasini o'r ganishda ishlataladigan dilatometr.

Buning uchun avvalo dilatometrning kapillyarini radiusi o'lchanadi. Quruq dilatometrga ignali shprits orqali (yoki kapillyarli voronka orqali) distillangan suvni pastki rezervuardan 1 sm. cha yuqoriroq sathgacha quyiladi. Suvning bu sathi belgilanib olinadi va dilatometr analitik tarozida tortib olinadi. So'ngra dilatometrga kapillyarning teparoq qismi to'lguncha yana suv quyiladi, buni ham sathi belgilanib olingach, dilatometr yana tarozida tortiladi. Suvning ikki sathi orasidagi masofa o'lchanib, kapillyarning radiusi topiladi. Dilatometrning radiusi topilgach, suvni to'kib tashlab, dilatometr quritiladi va tarozida ogirligi tortib olinadi.

Dilatometri monomer bilan to‘ldirish va uning dastlabki hajmini aniqlashni quyidagicha amalga oshirish mumkin. Dastlab, bo‘sh dilatometri, keyin monomer yoki uning eritmasi bilan to‘ldirilgan dilatometri og’irligi aniqlanadi. Dilatometri to‘ldirish rezervuarni suyuq azot yordamida sovutish yoki kapillyar voronkachalar yordamida bajariladi. To‘ldirilgan dilatomertdagи suyuqlik meniski kapillyar tepasidan 2–3 sm pastda turishi kerak. To‘ldirilgan dilatometr termostatga o‘rnataladi va 10 daqiqa o‘tgach katetometr yordamida suyuqlik sathi belgilanadi. Suyuqlik hajmining kamayishi vaqt – vaqt bilan (1 – 2 daqiqada) 20 – 30 daqiqa davomida o‘lchab boriladi.

Monomerning polimerga aylanishi foiz miqdori quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$\bar{X} = \frac{\Delta V}{VK} \cdot 100$$

bunda: ΔV – reaksiyoning sistemaning hajmining o‘zgarishi,

$\Delta V = \pi r^2 \Delta h$ (r – dilatometr kapilyarini radiusi)

V – reaksiyoning sistemaning dastlabki hajmi, sm^3 , (tajriba xaroratada)

K – kontraksiya faktori (polimer va monomerning zinchliklarini farqidan kelib chiqadi.)

$$K = \frac{V_{sol.(mon)} - V_{sol.(pol)}}{V_{sol.(mon)}} = \frac{d_n - d_m}{d_n}$$

$V_{sol.(mon)}$, $V_{sol.(pol)}$ – monomer va polimerlarning solishtirma hajmlari; d_n , d_m – polimer va monomerning zinchligi.

Polimerlanish reaksiyasining tezligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi.

$$V_p = \frac{\Delta V}{V(V_{sol.(mon)} - V_{sol.(pol)})} \cdot \frac{1}{m \cdot \Delta t}$$

bunda m – monomerning molekulyar massasi;

Δt – hajmning ΔV ga o‘zgarishi uchun ketgan vaqt.

Ko‘pincha dilatometri to‘lg‘izayotganda reaksiyon aralashmaning hajmi uy haroratida o‘lchanadi, reaksiya sharoitiga keltirish uchun monomerning termik kengayishini e’tiborga olib tuzatma kiritiladi.

$$K^* = K[1 + \alpha_m(T_1 - T_2)]$$

K^* – tuzatilgan kontraksiya faktori;

α_m – monomerning termik kengayish koeffitsienti;

T_1 , T_2 – tajriba va monomerning hajmini o‘lchashdagi haroratlar.

Misol tariqasida metilmekrilatning polimerlanishini ko‘rib chiqaylik. (polimerlanish 60°C da, $V=1\text{ ml}$)

Δt , soat	kontraksiya, ml.	polimer miqdori, %.
0,35	0,003	1,21
0,75	0,010	4,05
1,55	0,021	8,50
2,15	0,030	12,1

Δt ni daqiqada o‘lchash amalda qulayroq.

Polimer unumini hisoblash, $\Delta t=2,15$ soat uchun:

$$X = \frac{0,030 \cdot 100}{\frac{1,00 \cdot 1,115 - 0,8399}{1,115}} = \frac{0,030 \cdot 100}{1,00 - 0,2468} 12,1\%$$

Shu xol uchun polimerlanish reaksiyasining tezligi quyidagicha hisoblanadi:

$$V_p = \frac{\Delta V}{V(V_{sol.(mon)} - V_{sol.(pol)}) \cdot m \cdot \Delta t} = \frac{0,030}{1,00 \cdot (1,115 - 0,8399) \cdot 100 \cdot 2,15} = \\ = 0,506 \cdot 10^{-3} \text{ mol/ml} \cdot \text{soat} = 0,506 \text{ mol/l} \cdot \text{soat} = 1,4 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l} \cdot \text{sek}$$

Jadval 1.1 da metilmekrilat uchun K va K* qiymatlari keltiridgan.

Jadval 1.1

Metilmekrilat uchun K va K* faktorlarining qiymatlari

1^0C.	$V_{\text{SOL}\cdot(\text{M})}$	$V_{\text{SOL}\cdot(\text{p})}$	K	K^*
20	1,063	0,8203	0,2252	0,2282
40	1,089	0,8304	0,2379	0,2440
60	1,115	0,8399	0,2468	0,2594
80	1,141	0,8497	0,2552	0,2750

Ba’zi bir monomerlar uchun bunday qiymatlar kitobning ilovasida keltirilgan.

1.1-ISH. METILMETAKRILATNING INITSIATORNI TURLI KONTSENTRATSIYALARIDA POLIMERLANISHI

Ishdan maqsad. Metilmekrilatning polimerlanish tezligiga initsiator miqdori ta'sirini o'rganish va reaktsiyaning initsiator bo'yicha tartibini topish.

Reaktivlar: Metilmekrilat, benzoil peroksidi, bidistillat, inert gaz.

Jihozlar: Dilatometr, shprits, termostat, shlifli kolba (50 ml), katetometr, sekundomer, shpatel, soat shishasi.

Ishning bajarilishi: Uchta kolbachada 15 ml dan benzoil peroksidning metilmekrilatdagi 0,2; 0,5; 0,7 % li eritmalari tayyorlab olinadi. So'ngra dilatometrni inert gaz bilan puflab olgach, uzun ignali shprits orqali eritmalardan birinchisini dilatometrning kapillyarini pastki qismigacha quyiladi. Dilatometrni endi monomer eritmasi bilan birga tortiladi va 70°C li termostatga o'rnatilib, 5 daqiqa dan keyin kapillyardagi suyuqlik sathi o'lchanadi (h_0), sekundomerni yurgizib, har 2-3 daqiqa suyuqlik sathining o'zgarishi yozib boriladi. Katetometr yordamida suyuqlik sathini o'zgarishi 30 daqiqlar chamasida davom ettiriladi. Shunday ishni qolgan eritmalar bilan ham bajariladi. Olingan natijalar quyidagi jadvalga yozib boriladi.

Jadval

Initsiatorning kontsentratsiyasi mol/l	Polimerlanish vaqtி t, daq.	$h_t = h_t - h_0$	Δh	$\Delta V \text{ cm}^3$	Polimer unumi, %

Initsiatorning kontsentratsiyasi quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$[I] = \frac{g \cdot 1000}{V_m \cdot M_u} \text{ mol/l}$$

g-initsiatorning miqdori, g; M_u -initsiatorning molekulyar massasi, V_m - monomerning dilatometrdagi hajmi.

$$V_m = \frac{g_m}{d_m t^0} \text{ cm}^3$$

g_m -monomerning og'irligi, g; $d_m t^0$ -monomerning reaktsiya sharoitidagi zichligi.

Hisoblash natijalaridan foydalanim, uch xil eritmadagi polimerning unumini vaqt o'tishi bilan o'zgarish grafigini chiziladi. Grafikdan vaqt birligida polimerning unumi X hisoblanib, polimerlanishning tezligi topiladi.

$$V = \frac{X \cdot d_m \cdot 1000}{t \cdot M_m \cdot 60 \cdot 100}; \text{ mol/l} \cdot \text{sek}$$

t -reaktsiya vaqtி, daq. M_m -monomerning molekulyar massasi, X - t vaqtidagi polimer unumi, %.

Olingan natjalardan $\lg V - \lg [I]$ koordinatalarida grafik chizib, hosil

bo'lgan chiziqning tga sidan initsiator bo'yicha tartibi topiladi.

1.2-ISH. MONOMER KONTSENTRATSIYASINING POLIMERLANISH TEZLIGIGA TA'SIRI

Ishdan maqsad: Vinil monomerini (masalan, stirol) eritmada polimerlanishini o'rganish va polimerlanish reaktsiyasini monomer bo'yicha tartibini aniqlash.

Reaktivlar: Stirol (yoki boshqa monomer), initsiator (azo-izomoy kislotasining dinitrili), erituvchi (CCl_4 yoki boshqa erituvchi).

Jihozlar: Dilatometr (1-2 ml hajmli) - 3 dona, Dyuar kolbasi yoki uzun kapillyarli voronka, katetometr, sekundomer, probirkalar.

Ishning bajarilishi: Uchta probirkada 0,0075 g dan initsiator solinadi va ustiga 1 ml dan stirol (yoki boshqa monomer) quyiladi. Monomer miqdori ko'proq olinadigan bo'lsa, initsiatorning og'irligi monomer massasiga nisbagan 0,5 % ni tashkil etishi kerak. Keyin probirkalar nomerlanib, ularga har xil miqdorda erituvchi (masalan, CCl_4) quyiladi. Monomer 1 ml dan olingan bo'lsa, erituvchi 0,5; 1,0 va 2,0 ml dan qo'shiladi. Quruq dilatometrlarni tortib olib, unga eritmalar quyiladi. So'ngra berilgan haroratda termostatda yuqorida bayon etilgan usulda polimerlanishni kinetikasi har bir eritma uchun o'rganiladi. Monomerning kontsentratsiyasi quyidagicha topiladi:

$$[M] = \frac{g \cdot 1000}{M \cdot V}; \quad \text{mol/l}$$

g-monomer og'irligi, g.; M-monomerning molekulyar massasi; V-eritmaning hajmi, ml.

Kuzatlgan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

Eritmaning kontsentrsiya mol/l	Baqt t , daq.	h	Δh	ΔV sm ³	X %

Jadvaldagi natijalar asosida polimerlanish tezligi V hisoblanadi va lgV ning lg[M] ga bog'liqlik grafigi chiziladi. $lgV = lgK + mlg[M]$ tenglamasidan m ning qiymati topiladi. Bu reaktsiyaning monomer bo'yicha tartibidir.

1.3-ISH. BUTILMETAKRILATNING RADIKAL POLIMERLANISHIDA INITSIRLASH TEZLIGINI ANIQLASH

Ishdan maqsad: Ingibitor yordamida butilmekrilat uchun initsirlanish tezligi (V_{in}) ni aniqlash.

Reaktivlar: Ingibitor-2,2, 6,6-tetrametil -4- oksipiperidil -N-oksil

(tanan), butilmetakrilat. initsiator -azoizomoy kislotasining dinitrili (AIMK).

Jihozlar: Dilatometrler (3 dona), termostat, katetometr, sekundomer, probirkalar, pipetkalar.

Ishning bajarilishi: Uchta probirkaning har biriga 0,01 g. dan AIMK solinib, ular 2 ml dan butilmetakrilatda eritiladi. Ikkinchini va uchinchi probirkalarga tananning 0,25% li spirtdagi eritmada (avvaldan tayyorlab qo'yilgan) 0,05 va 0,1 ml quyiladi (qo'shilgan eritmada ingibitorning og'irligi 0,000125 va 0,00025g ga teng). So'ngra probirkalardagi eritmalar yuqorida bayon etilgan usullar asosida dilatometrlerga quyiladi. Berilgan haroratda polimerlanish kinetikasini natijalari asosida hisoblar qilinadi va jadvalga yoziladi (natijalarni hisoblash yuqorida bayon etilgan).

Jadvaldagagi natijalar asosida polimer unumining (%) vaqtga bog'liqlik grafigi chiziladi. Polimerlanishning boshlang'ich tezligi tenglama yordamida hisoblab chiqiladi. Grafikdan induksion davrning kattaligi apiqlanadi. Induksion davr deb, dilatometr termostatga tushirilgandan polimerlanish boshlanguncha ketgan vaqtga aytiladi. Bu esa grafikdan topiladi.

$$V_{in} = \frac{\alpha[I_{ing}]}{t_{ind}}$$

Bu tenglama yordamida initsirlanish tezligi hisoblanadi. By tenglamada α -stexiometrik koefitsient bo'lib, u ingibitorning bir molekulasi nechta o'sayotgan zanjirni uzilishini ta'minlashini ko'rsatadi (tanan uchun $\alpha=1$). t_{ind} -induksion davr kattaligi, soniya. I_{ing} -ingibitor kontsentratsiyasi, mol/l.

Shunday qilib, polimerlanish tezligi (ingibitorsiz polimerlanishdagi qiymat ishlataladi) V va $[M]$ ni bilgan holda $K_r/K_0^{0.5}$ nisbatning qiymatini quyidagi tenglama asosida hisoblash mumkin:

$$V = V_{in}^{0.5} \frac{K_r}{K_{in}^{0.5}} [M]$$

1.4-ISH. STIROLNING ERITMADA POLIMERLANISHI

Ishdan maqsad: Polistirolning molekulyar massasini va polimer hosil bo'lish unumini polimerlanish vaqtiga bog'liqligini o'rganish.

Reaktivlar: Stirol, benzoil peroksid, benzol, izopropil spirti.

Jihozlar: 10 ml sig'imli ampulalar (4 dona), suv termostati, 25 ml sig'imli stakan (4 dona), chinni kosacha (4 dona), yassi tubli 100 ml sig'imli kolba (1 dona), viskozimetr, pipetkalar, sekundomer.

Ishning bajarilishi: 4 ml stirol va 16 ml benzolni kolbagaga quyib, unda 0,16 g benzoil peroksid eritiladi. Hosil bo'lgan eritma 4 ta ampulaga baravardan qilib o'lchab quyiladi. Ampulalarning og'zi kavsharlanib, 60^0C gacha qizdirilgan termostatiga quyiladi. Oradan 30 daqiqa o'tgach 1 - ampula, 60, 90, 120 minut o'tgach 2, 3 va 4 ampulalar termostatdan olib ochiladi. Qulaylik uchun ampulalar kesib ochiladi va hosil bo'lgan polimer eritmasi shisha

tayoqcha bilan qorishtirilib, 10 ml izopropil spirti (cho'ktiruvchi) quyilgan stakanlarga quyiladi. Cho'kmaga tushgan polimer eritmada silqitish (dekontatsin) bilan ajratiladi va yana izoproil spirti bilan bir-ikki marta yuvilib, oldindan tortilgan kosachalarga solinadi va 60-80°C da quritgich shkafida og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi. Hosil bo'lган polimerlar tortiladi va polimerni unumi monomer og'irligiga nisbatan foizda hisoblanadi. Hosil bo'lган polimerlarni molekulyar massasi viskozimetrik yo'l bilan topiladi. Polimer hosil bo'lishi va uning molekulyar massasini polimerlanish vaqtiga bog'liqlik grafiklari chiziladi.

1.5-ISH. AKRILONITRILNING OKSIDLANISH-QAYTARILISH INITSIATORI BILAN POLIMERLANISHI

Ishdan maqsad: Oksidlanish-qaytarilish reaktsiyasiga asoslangan polimerlanish initsiatorlari bilan tanishish.

Reaktivlar: Haydalgan akrilonitril (5g), ammoniy persulfat (0,15g), natriy tiosulfat (0,1 g)

Jihozlar 250 ml sig'imli uch og'izli, teskari sovutgich, aralashtirgich va tomchilatma voronka bilan jihozlangan reaktsion kolba (1 dona), suv hammomi, Bunzen kolbasi, Byuxner voronkasi.

Ishning bajarilishi: Kolbaga 20 ml distillangan suv, 0,15 g ammoniy persulfat va 0,1 g natriy tiosulfatdan tayyorlangan eritma quyiladi. Eritmaga 5g akrilonitril qo'shiladi va mexanik aralashtirgich bilan eritma aralashtirib turilgani holda 60°C li suv hammomida 2 soat qizdiriladi. Hosil bo'lган polimer cho'kmasi Byuxner voronkasida filtrlanib, sulfid ioniga nisbatan salbiy reaktsiya berguncha iliq suv bilan yuviladi. Hosil bo'lган polimerni 60°C li quritish shkafida og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi va massasi aniqlanadi. Polimer miqdori va uning eruvchanligi aniqlanadi. Polimerlanish reaktsiyasining mexanizmi yoziladi.

1.6-ISH. STIROLNING MUNCHOQSIMON (SUSPENZION) POLIMERLANISHI


Ishdan maqsad: Munchoqsimon polimerlanish reaktsiyasini olib borishni o'rganish.

Reaktivlar: Stirol (5g), benzoil peroksid (0,1g), polivinil spirti (0,1 g), distillangan suv (30 ml).

Jihozlar: Ikki og'izli, uzunligi 150 mm, diametri 40 mm bo'lган aralashtirgich va qaytarma sovutgich bilan jihozlangan shisha reaktor, suv hammomi. Zarrachalarni fraktsiyaga ajratadigan maxsus elakchalar.

Ishning bajarilishi: Reaktsion idishga (6-rasm) 30 ml distillangan suv

solib, unda 0,1 g polivinil spirti eritiladi. Eritmaning ustiga 5g stirol va 0,1 g benzoil peroksid qo'shilgach, aralashtirgich ishga solinadi, so'ngra reaktsion idish qaynash darajasigacha isitilgan suv hammomiga joylashtiriladi. Monomer tomchilari suyuqlik hajmiga baravar taqsimlanadigan tezlik bilan reaktsion muhit aralashtiriladi. Suv hammomidagi harorat 80°C ga tushirib, qizdirish yana 2 soat davom ettiriladi. Olingan munchoqsimon polimer bo'laklari distillangan suv bilan bir necha marta yuviladi va $30\text{-}40^{\circ}\text{C}$ li quritgich shkafda quritiladi. Chiqqan polimerning miqdori aniqlanadi va polistirol munchoqlarini fraktsiyalarga ajratilib, ularning miqdori topilib o'lchamlari bo'yicha taqsimlanish egri chizig'i chiziladi.



6-rasm. Qaytarma sovutgich va qorgich bilan jihozlangan reaktsion idish.

1.7.-ISH. STIROLNI MASSADA POLIMERLANISH KINETIKASI

Ishdan maqsad: Stirolni initsiatorning turli xil kontsentratsiyalarida polimerlanish tezligini o'rganish va initsiator bo'yicha reaktsiya tartibini topish.

Reaktivlar: Stirol, azo-bis-izo-butironitril, geksan yoki petroleyn efiri, inert gaz.

Jihozlar: Refraktometr, 20°C va 70°C li termostat, shlif probkali probirkalar (3 ta), byukslar (3 ta), 100 cm^3 li stakanlar (3 ta), pipetka, uzun ignali shprits, shpatel, soat oynasi.

Ishning bajarilishi: Uchta shlifli probirkaga 15 gr dan stirol quyib 0,2; 0,5; va 1 % (monomer og'irligiga nisbatan) initsiator qo'shiladi. Initsiator soat shishasida analistik tarozida aniqlik bilan tortib olinadi. Hosil qilingan eritmalar inert gaz bilan 10 daqiqa puflab yuboriladi (tozalangan azot bo'lsa ham bo'ladi). So'ngra probirkalar ogzi berkitilib, 70°C li termostatga joylashtiriladi. Har 10 daqiqada probirkalardan shprits orqali biroz eritma olib refraktometrda sindrish ko'rsatkichi topiladi. Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

Miqdor, g	Initsiator, %	Vaqt, daq.	n_D^{20}	Polimer unumi	
monomer	initsiator			g	%

Polimer unumini refraktometr yordamida topish, eritmaning sindirish ko'rsatkichini polimerlanish bilan o'zgarishiga asoslangan, chunki monomer va polimer uchun n_D^{20} har xil. Sindirish ko'rsatkich bilan polimer unumi orasidagi bog'lanish jadvalda keltirilgan.

Polimer unumini n_D^{20} ga bog'liqligi

n_D^{20}	polimer unumi, %	n_D^{20}	polimer unumi, %
1,5420	0	1,5500	16
1,5429	2	1,5504	17
1,5435	3	1,5508	18
1,5441	4	1,5511	19
1,5446	5	1,5515	20
1,5451	6	1,5518	21
1,5455	7	1,5520	22
1,5461	8	1,5523	23
1,5465	9	1,5525	24
1,5468	10	1,5528	25
1,5475	11	1,5531	26
1,5482	12	1,5534	27
1,5488	13	1,5537	28
1,5492	14	1,5540	29
1,5495	15	1,5543	30

Reaktsiya tezligini mol/l.sek. da 1.1 ishdagi kabi hisoblanadi. Olingan natijalardan foydalanib IgV lg[I] koordinatalarida grafik chizilib, hosil bo'lган то'г'ри chiziqning тга dan reaktsiyaning initsiator bo'yicha tartibi topiladi ($IgV=IgK+nlg[I]$).

1.8-ISH. ZAJIRNI UZATISH AGENTI ISHTIROKIDA STIROLNING MASSADA POLIMERLANISHI

Ishdan maqsad: Stirolni difenildisulfid ishtirokida polimerlanishini o'rganib, zanjirni uzatish konstantasini topish.

Reaktivlar: Stirol, difenildisulfid (yoki boshqa agent), etil spirti, benzol, inert gaz yoki azot.

Jihozlar: Shlif probkali ampuladan 4 ta, 100 sm³ li stakan 4 ta, termostat, viskozimetr, refraktometr, byukslar (4 ta), shpatel, soat shishasi.

Ishning bajarilishi: 4 ta shlifli probirkaga (yoki ampulaga) 10 g.dan stirol quyiladi va har biriga 0,2; 0,15; 0,1 va 0,05 g digidrooksidifenildisulfid solinadi. Eritma hosil qilingach, probirkalardan 0,8 sm³ ga yaqin eritma olinib n_D^{20} topiladi. Eritmalardan inert gaz o'tkazib yuborib, 99±5° li termostatga

joylashtiriladi. 2 soatdan keyin har bir probirkadan byukslarga namuna olinib, yana n_D^{20} o'lchanadi. Eritmada polimer miqdori quyidagi ifodadan hisoblanadi:

$$X = 1,73 \cdot 10^3 \Delta n_D^{20}$$

Ampuladagi eritmalaridan etil spirti bilan polistirol cho'ktiriladi. Cho'kmalar ajratib olinib quritiladi. Olingan polimerlar uchun viskozimetrik usul bilan xarakteristik qovushqoqlik $[\eta]$ topiladi. So'ngra quyidagi formuladan M_n hisoblanadi:

$$M_n = 184000 \cdot [\eta]^{14}$$

Natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

[S] mol/l	[M] mol/l	$[\eta]$	M_n	polimerlanish darajasi \overline{R}_n	$\frac{1}{\overline{R}_n}$	[S]/[M]

Jadvaldaggi natijalar asosida $\frac{1}{\overline{R}_n}$ -[S]/[M] koordinatalarida grafik chiziladi. Bu yerda [S]-digidroksidifenildisulfadni kontsentratsiyasi, [M]-stirolni (yoki boshqa monomerni) kontsentratsiyasi. Chizilgan to'g'ri chiziqni abstsissa o'qi bilan bergen burchak tangensi zanjirni uzatish konstantasini qiymatini beradi. C_s ni qiymatini Mayo tenglamasidan ham topsa bo'ladi. Buning uchun yuqoridagi grafikdan to'g'ri chiziqni ordinata o'qi bilan kesishguncha ekstropolyatsiya qiymati va undan $1/P_0$ ni qiymati topilib C_s hisoblanadi:

$$C_s \frac{[S]}{[M]} = \frac{1}{P_n} - \frac{1}{P_0};$$

1.9- ISH. METILMETAKRILATNI TURLI ERITUVCHILARDA POLIMERLANISHI

Ishdan maqsad: Erituvchi tabiatini polimerlanish reaktsiyasiga, polimerning hosil bo'lish miqdoriga ta'sirini o'rganish.

Reaktivlar: Metilmekrilat, azobisizobutironitril, CCl_4 , benzol, petroleyni, xloroform.

Jihozlar: 100 sm^3 li yumaloq kolba (3 ta), sovutgichlar (3 ta), 100 sm^3 va 250 sm^3 hajmli stakanlar, farfor chashkalari (3), viskozimetr, sekundomer, termostat, quritgich shkaf, soat shishasi.

Ishning bajarilishi: Stakanga 30 g metilmekrilat va 0,3 g initsiator solinadi. Olingan eritmani teng uch hajmga bo'lib, kolbalarga quyiladi. Har bir kolbaga 40 g dan erituvchilardan birortasi quyiladi (CCl_4 , benzol, atseton). Kolbalar sovutgichga ulanib $70^\circ C$ li termostatga o'rnatiladi. Reaktsiya 3 soat olib boriladi. Har bir eritmada stakanda petroleyni efiriga polimer cho'ktirib

olinadi. Polimerlarni farfor chashkalarida quritilib, eritma tayyorlanadi va vizkozimetrik usul bilan polimerlarni molekulyar massasi topiladi.

1.10- ISH. 2-METILSTIROLNING KATIONLI POLIMERLANISHI

Ishdan maqsad: 2-metilstirolni sulfat kislota ishtirokida polimerlash.

Reaktivlar: 2-metilstirol, sulfat kislota, metilenxlorid, benzol, etil spirti, quruq muz, distillangan suv, inert gaz.

Jihozlar: Uch ogizli kolba (100 sm^3), elektromexanik aralashtirgich, suv hammomi, 200 va 500 sm^3 hajmli stakan, pipetka, Byuxner voronkasi, soat oynasi.

Ishning bajarilishi: Uch og'izli kolba tozalanib obdon quritiladi. Kolbaga aralashtirgich, termometr va inert gaz kirishi va chiqishiga naylar o'rnatilib, 30 minut chamasida kolbadan inert gaz puflab qo'yiladi. Kolba 70°C gachasovutiladi. So'ngra kolbaga 10 sm^3 quritilgan va tozalangan α -metilstirolni 50 sm^3 metilenxloridda eritilib quyiladi. Pipetka orqali $0,1\text{ sm}^3$, $0,4\text{ sm}^3$ kontsentrlangan H_2SO_4 ni aralashtirib turib asta-sekin quyiladi. Natijada eritma eriy boshlaydi. Bu esa polimerlanish boshlanganidan dalolat beradi. 3 soatdan so'ng polimerning eritmasi 500 sm^3 hajmli stakanga quyiladi. Stakanga esa dastlab 400 sm^3 etil spirti quyilgan bo'ladi. Hosil bo'lган cho'kmani yuvib, benzolda eritib, etil spirtida qayta cho'ktiriladi. So'ngra polimer vakuumda quritiladi (50°C da).

Polimerni molekulyar massasini viskozimetrik usul bilan topiladi. Ishning yakunida polimerlanish reaktsiyasining mexanizmi yoziladi.

1.11-ISH. METILMETAKRILATNI MASSADA TURLI HARORATLARDA POLIMERLANISHI

Ishdan maqsad: Reaktsiya tezligiga harorat ta'sirini o'rganish va umumiyl faollanish energiyasini topish.

Reaktivlar: Metilmekrilit, benzoil peroksid, toluol, petroleyn efiri yoki geptan, inert gaz.

Jihozlar: Shliflangan probkali probirkalar (8 dona), termostatlar, 100 sm^3 sig'imli stakan (8 dona) pinetka, Byuxner voronkasi, shisha tayoqchalar, quritgich shkaf.

Ishning bajarilishi: 30 g metilmekrilitni stakanga quyib, unda $0,09\text{ g}$ benzoil peroksid eritilib. Hosil bo'lган eritmadan 3 sm^3 dan 8 ta probirkaga quyiladi va har biriga 3 sm^3 dan toluol solinib og'zi berkitiladi. 60 , 65 , 70 va 75°C li termostatga 2 tadan probirkalarni joylashtirilib 10 - 15% polimer hosil bo'lguncha ushlab turiladi. Probirkadagi eritmalar siropga o'xshab quyilib qolganda probirkalarni termostatdan olib, eritmasi petroleyn efir quyilgan stakanlarga tomchilatib quyiladi. Hosil bo'lган cho'kmalarni ajratib olinadi va quritiladi. (Polimerlanish olib borilayotganda himoya qiluvchi niqob kiyib olish

tavsiya etiladi.)

Polimer hosil bo'lish tezligini quyidagi ifodadan hisoblaymiz

$$V = \frac{X \cdot d_M \cdot 1000}{\tau \cdot M_M \cdot 60 \cdot 100} \quad \text{mol/l.sek}$$

X - polimerni vaqt birligida hosil bo'lgan miqdori, %

τ - vaqt, daq.:

d_M - monomerning zichligi, g/sm³,

M_M - monomerning molekulyar massasi.

Har bir harorat uchun reaktsiyaning tezlik konstantasini quyidagi ifodadan topiladi. Buning uchun [K], [I], [M] larni quyidagicha hisoblanadi:

$$K = \frac{V}{[I]^{0.5} \cdot [M]};$$

[I] va [M] ni ma'lum formulalardan foydalanib hisoblab olinadi.

$$[I] = \frac{g_u \cdot 1000}{V \cdot M_u}; \quad [M] = \frac{g_M \cdot 1000}{V \cdot M_M};$$

[I] va [M] - initsiator va monomerning kontsentratsiyasi, mol/l; g_u va g_M - initsiator va monomerning probirkadagi og'irligi; M_u va M_m - nitsiator va monomerning molekulyar massalari.

So'ngra $lgK - (1/T) \cdot 10^3$ koordinatalarida grafik chizilib, hosil bo'lgan chiziqning $lg\alpha$ sidan E/R ya'ni $E = tg\alpha \cdot R \cdot 2,303$ topiladi. ($R=8,3$ J/mol, K).

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

g_M	$t^\circ C$	polimerlanish vaqt, daqiqa	polimerlanish miqdori		K	lgK	$1/T \cdot 10^3$
			g	%			

1.12-ISH. STIROLNING KATIONLI POLIMERLANISHI

Ishdan maqsad: Stirolni $TiCl_4$ ishtirokida polimerlanishini o'rghanish.

Reaktivlar: Stirol, CCl_4 , dixloretan (obdon quritilgan), metanol, sovutgich aralashma.

Jihozlar: Uch og'izli kolba (350 sm³), zatvorli aralashtirgich, tomchilovchi voronka, termometr, pipetka (2 sm³)

Ishning bajarilishi: toza quritilgan kolbaga, aralashtirgich, termometr, voronka o'rnatilib, inert gaz bilan puflanadi. (3-5 minut) Hamma ishlar sistemaga suv (nam) tushmaslik sharoitida olib boriladi. So'ngra kolbaga 140 ml dixloretan quyilib 0°C gacha sovutiladi. Unga quruq pipetka yordamida 2 ml $TiCl_4$ qo'shilib, voronka orqali tomchilatib 7 ml stirol qo'shiladi. Monomer 30-40 daqiqa davomida qo'shiladi. Bu vaqtida kolbadagi harorat 0°C dan oshmasligi kerak. Monomer qo'shib bo'lingach reaktsiya yana 30 daqiqa davom ettiriladi. Hosil bo'lgan polimer eritmasini 150-180 ml metanolga quyib, hosil bo'lgan cho'kma ajratib olinadi va metanol bilan yuvilib, quritiladi.

Ishning yakunida polimerlanish mexanizmi yoziladi, polimerni unumi va 1 g polimer hosil bo'lish uchun sarf bo'lган katalizator miqdori topiladi.

1.13-ISH. MONOMER MOLEKULASIDAN ZANJIRNI UZATILISH KONSTANTASINI TOPISH

Ishdan maqsad: Erituvchi ishtirokisiz olib boriladigan polimerlanish reaktsiyasida monomerdan zanjirni uzatilish reaktsiyasining konstantasini topish.

Reaktivlar: Stirol, initsiator (benzoil peroksidi yoki azoizomoy kislotasining dinitrili), polimer erituvchilari.

Jihozlar: Termostat, polimerlanish uchun ampulalar, stakanlar (kamida 4 dona, 50 sm³ sig'imli), viskozimetrik, sekundomer, pipetkalar.

Ishning bajarilishi: Polimerlanish reaktsiyasini olib borishga mo'ljallangan stirol miqdoriga nisbatan (odatda 1 ml yoki 2 ml monomer olsa bo'ladi) 0,1; 0,3; 0,5; 1,0 % og'irlikdagi initsiatorlar analistik tarozida tortilib 4 ta nomerlangan ampulaga solinadi. Hammasiga berilgan bir xil miqdorda monomer quyiladi. Ampulalardagi initsiator monomerda erigach ularni og'zi yopiladi. (Shlifli ampulalar bo'lsa berkitiladi). Termostatdagi harorat 60°C bo'lgach unga ampulalar o'rnatilib polimerlanish olib boriladi. Ampulalardagi monomer quyuqlashgach (odatda 0,5 soatda) ular ochilib reaktsion aralashmadan alohida olingach spirt yoki boshqa cho'ktiruvchi quyilgan stakanlarda polimer cho'ktiriladi. Cho'kmani ajratib olib, quritgich shkafda quritiladi. hosil bo'lган polimerning molekulyar massasi viskozimetrik usul bilan topiladi.

Olingen natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

[I] mol/l	V mol'/l.sek	M _n	P _N	$\frac{1}{P_n}$	C _M

V-qiyimi (1.1 ish.) M_n-esa (1.8 ish.) yuqoridagi ifoda bilan hisoblanadi. $V = \sqrt{[I]}$ koordinatalarda grafik chiziladi. Agar ish to'g'ri olib borilgan bo'lsa reaktsiya tezligi initsiator kontsentratsiyasini kvadrat ildiziga to'g'ri proporsional bo'ladi. U holda

$$\frac{1}{P_n} = \frac{K_0}{K_p^2} - \frac{V}{[M]^2} + C_m$$

ifodasidan S_m topiladi.

Buning uchun $\frac{1}{P_n} - \frac{V}{M^2}$ koordinatalarda grafik chiziladi.

Hosil bo'lган to'g'ri chiziqni ordinata o'qi bilan (1/R) kesishgan qiyimi S_m ga teng bo'ladi.

1.14-ISH. Stirol kontsentratsiyasini polimerlanish tezligiga ta'siri

Ishning maqsadi: Stirolni CCl_4 əritmasida polimerlanganda monomer bo'yicha reaksiya tartibini aniqlash.

Reaktivlar: Stirol, 2,2- dinitril azo-bis-izomoy kislotasi (DAK), CCl_4 .

Jihozlar: Hajmi 2 ml 2 dona dilatometr, Dyuar idishi, termostat, katetometr, sekudomer, probirkalar 3 ta, pipetkalar.

Ishning bajarilishi: Uchta probirkani xar biriga 0,0075 g DAK, (monomer massasiga nisbatan 0,5 %), ustiga 1,6 ml dan stirol solinadi va probirkalar nomerlanadi. Keyin 1, 2, 3- prbirkalarga 0,5, 1,0 va 2,0 ml dan CCl_4 quyiladi.

Reaktsion aralashmaning boshlang'ich hajmini aniqlash uchun, dastlab bo'sh dilatometr tortib olinadi. Keyin dilatometrlarga probirkadagi eritma solinib, suyuqlik bilan birgalikda tortiladi. Ularni farqi orqali reaktsion aralashmani hajmi (V) aniqlanadi. Dilatometrni to'ldirish quyidagicha amalga oshiriladi, ya'ni suyuqlik meniski dilatometrni yuqori qismidan 4-5 sm pastrog'ida turishi kerak. Dilatometrni to'ldirish suyuq azot yordamida ampulani pastki qismini sovutish yo'li bilan amalga oshiriladi. To'ldirilgan dilatometr termostatga o'rnatiladi va 10 daqiqa o'tgach katetometr yordamida suyuqlik sathi belgilanadi. Suyuqlik hajmining kamayishi vaqtiga vaqt bilan (1-2 daqiqada) 20-30 daqiqa davomida o'lchab boriladi. Qolgan eritmalar bilan ham shu ishlar bajariladi. Olingan natijalar 1-jadvalga yozib boriladi.

1-jadval

Polimer lanish vaqtি, daq.	1-eritma			2-eritma			3-eritma		
	h, sm	ΔV	X, %	h, sm	ΔV	X, %	h, sm	ΔV	X, %

Monomerning polimerga aylanish foiz miqdori quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X = \frac{\Delta V}{V \cdot K} \cdot 100$$

Bunda: V-reaktsion sistemaning dastlabki hajmi (stirolni CCl_4 dagi zichliklari: 25% li eritmasida=1,315; 50% li eritmasida=1,116%; 75 % li eritmasida=0,978 g/sm³); ΔV -reaktsion sistemaning ayni vaqtidagi hajmining o'zgarish $\Delta V = \Delta h \cdot \pi r^2$, (r-dilatometr kapillyarini radiusi-0,5 mm)

$$K = \rho_p - \rho_m / \rho_p$$

K-kontraktsiya kooeffitsenti, monomerni polimerga aylanishida, monomer aralashmasi hajmining berilgan xarakatda o'zgarish darjasini bilan aniqlanadi. (monomer zichligi $\rho_m = 0,906 \text{ g/sm}^3$; polimer zichligi $\rho_p = 1,06 \text{ g/sm}^3$)

1-jadval ma'lumotlaridan polimer unumini (%) polimerlanish vaqtiga bog'liqlik grafigi chiziladi. Olingan egri chiziqdan polimerlarning boshlang'ich tezligi v (mol/l·s) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$V = \frac{x \% soat \cdot [M]}{3600 \cdot 100}$$

bunda, $[M]$ -monomer kontsentratsiyasi, mol/l;

$$[M] = \frac{q \cdot 1000}{V \cdot M}$$

q - monomer og'irligi (g);

M - monomer molekulyar massasi;

V - monomer va erituvchining umumiy hajmi.

$\lg V$ ning $\lg [M]$ bog'liqlik grafigidan egilishning tangens burchagi-tga topiladi, qiymat jihatdan reaktsiyaning monomer bo'yicha tartibi "m" teng bo'ladi.

Olingan natijalar 2-jadvalga keltiriladi.

Jadval-2

Monomer kontsentratsiyasi		Polimerlarning tezligi, mol/l·s	$\lg V$	$\lg [M]$
%	mol/l			

B) SOPOLIMERLANISH REAKTSIYASI

1.15-ISH. STIROLNI METAKRIL KISLOTASI BILAN SOPOLIMERLANISHI

Ishdan maqsad: Sopolimerlanish konstantalarini aniqlash.

Reaktivlar: Stirol, metakril kislota, initsiator, dimetilformamid.

Jihozlar: Ampulalar (3 ta), pipetkalar (2 ta), 100 sm³ hajmli stakan (3 ta), Petri kosachasi (3 ta), konussimon kolba (3 ta), termostat.

Ishning bajarilishi: Uchta toza ampulaga 0,015 g dan initsiator solinadi va ulardan birinchisiga 4 ml. stirol (CT) va 1 ml metakril kislotasi (MAK) quyiladi. Ikkinci ampulaga 2,5 ml CT va 2,5 ml MAK, uchinchi ampulaga esa 1 ml CT va 4 ml MAK kuyiladi. Har bir ampulalga 5 ml dan DMF yoki toluol quyiladi. Suyuqliklar initsiator erib ketguncha aralashtiriladi va ampulalar og'zi berkitiladi (gaz bilan kavsharlanadi yoki shlifli probka bilan berkitiladi). Ampulalar termostatga o'rnatilib 60°C da 20-30 daqiqa ushlab turiladi. Reaktsiya o'tkazilgach eritmalar stakanlardagi cho'ktiruvchi (geptan) ustiga tomchilatib quyiladi. Cho'kma filtrlanadi, yuviladi va quritiladi. hosil bo'lgan sopolimerlarda karboksil guruhini miqdori va undan foydalanib sopolimer tarkibi topiladi. Karboksil guruhlarni miqdorini topish uchun sopolimer DMF da eritilib KOH ning spirdagi 0,1 M eritmasi bilan titrlanadi:

$$\alpha = \frac{(V_1 - V_2) \cdot f \cdot 0,0045 \cdot 100}{g};$$

α - karboksil guruhning miqdori, %; V_1 va V_2 -polimer eritmasini va kontrol eritmani titrlash uchun sarf bo'lgan ishqor eritmasining miqdori, ml; g-polimerii og'irligi.

Karboksil guruhning miqdoridan foydalanib MAK ning sopolimerdagи miqdori topiladi:

$$X_2 = \frac{\alpha \cdot M_{MAK}}{M_{f,g}}$$

X_2 - MAK ning sopolimerdagи miqdori, %, M_{MAK} - MAK ning molekulyar massasi, $M_{f,g}$ - funksional guruhning molekulyar massasi; Stirolning sopolimerdagи miqdori $X_1=100-X_2$ dan topiladi. Yuqoridagi qayd etilgan monomerlarning dastlabki aralashmadagi miqdoridan va MAK ning sopolimer tarkibidagi miqdoridan foydalanib M_1 , M_2 , m_1 , m_2 ya'ni dastlabki aralashmadagi monomerlarning molyar qismi va sopolimer tarkibidagi monomer zvenolarining molyar qismlari hisoblanib jadvalga yoziladi.

M_1 va M_2 larni kontsentratsiyasini molyar qismga o'tkazish uchun reaktsiyaga olingan hajmiy nisbatlarni avvalo zichligi orqali og'irlik qismi o'tkaziladi. m_1 va m_2 lar esa quyidagicha topiladi:

$$m_1 = \frac{X_1/A_1}{X_1/A_1 + X_2/A_2}; \quad m_2 = \frac{X_2/A_2}{X_1/A_1 + X_2/A_2};$$

X_1, X_2 -lar monomerlarning sopolimerdagi miqdori % (og'irl.), A_1, A_2 -lar esa M_1 va M_2 monomerlarning molekulyar massasi.

Monomer aralashmasining tarkibi				Sopolimerning miqdori		Sopolimerning tarkibi			
hajm nisbatida		molyar qismda		g	%	og'irlik b-cha, %		molyar qism	
M_1	M_2	M_1	M_2			m_1	m_2	m_1	m_2

Jadvaldagagi natijalar asosida Mayo-Lyuis va Faynman-Ross usullari bilan r_1 va r_2 hisoblanadi. Vazifa sifatida Q va e larni ham hisoblash topshiriladi.

1.16-ISH. METILMETAKRILATNI METAKRIL KISLOTASI BILAN SOPOLIMERLANISHI

Ishdan maqsad: Sopolimerlanish konstantalarini Faynman-Ross usuli bilan aniqlash.

Reaktivlar: Metilmekrilat, metakril kislotsasi, azoizomoy kislotsasining dinitrili (initiator).

Jihozlar: Ampulalar (4 ta), pipetkalar (2 ta), 100 cm^3 hajmlli stakan (4 ta), soat oynasi (4 ta), konussimon kolba (4 ta), termostat, quritgich shkaf.

Ishning bajaralishi: 4 ta quritilgan, toza ampulalarga 0,005 g dan initiator solinadi va 5 ml dan metilmekrilat va metakril kislotsasining quyidagi molyar nisbatlarida quyiladi (4:1; 3:2; 2:3; 1:4). Aralashmalar to'la erib ketguncha kutiladi va ampulalarni og'zi kavsharlanib yoki shlifli probkalar bilan berkitilib 60°C li termostatga o'rnatiladi. Sopolimerlanish reaksiyasi 5-10% polimer hosil bo'lguncha davom ettiriladi. Keyin ampulalar sovutilib, undagi eritmalar stakandagi cho'ktiruvchiga (HCl ning 5% eritmasi) sekin asta tomiziladi. hosil bo'lgan cho'kma ajratilib, yuviladi va quritiladi.

Karboksil guruhning miqdori, MAK ning miqdori va boshqa hisoblar 1.14 ishdagi kabi bajariladi.

Vazifa: Sopolimerlanish konstantalari r_1 va r_2 hisoblanadi. Olingan natijalar asosida va metilmekrilatning Q va e qiymatlari asosida (ilovada keltirilgan) metakril kislota uchun ushbu faktorlar topiladi.

1.17-ISH. TARKIBI BO'YICHA BIR JINSLI SOPOLIMERLARNING OLINISHI

Ishdan maqsad: Kompensatsion yo'l bilan tarkibi bo'yicha bir jinsli bo'lgan sopolimerlarning olinishini o'rganish.

Peaktivlar: Monomerlar (kamida ikki monomer o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladi), initsiator (vazifaga qarab belgilanadi), erituvchi (olinadigan sopolimer uchun umumiy erituvchi).

Jihozlar: Teskari sovutgich, aralashtirgich, termometr bilan ta'minlangan uch og'izli kolba (sig'imi 250-500 ml), termostat, pinetkalar, stakanlar.

Ishning bajaralishi: Avvalo berilgan monomerlar uchun turli xil nisbatda (1.13, 1.14 ishlarda ko'rsatilgandek) sopolimerlanish reaktsiyasini boshlang'ich bosqichlarda olib boriladi va r_1 hamda r_2 larni qiymatlari topiladi. Berilgan tarkib uchun sopolimerlanish tezligi aniqlanadi.

Kompensatsion usul bilan tarkibi bo'yicha bir jinsli bo'lgan sopolimerni olish sopolimerlanishda faolroq reaktsiyaga kirishadigan monomerni vaqt-i-vaqt bilan (yoki uzluksiz) reaktsion aralashmaga qo'shib turishga asoslangan. Natijada reaktsiya davomida monomer kontsentratsiyalarini nisbati turg'unlikka erishadi. By esa sopolimer tarkibi bir xil bo'lishiga olib keladi.

Buning uchun monomerlarni berilgan nisbatda uch og'izli kolbaga quyiladi, monomerlarning og'irligiga nisbatan 1 % miqdorda initsiatorni erituvchida eritilib kolbaga quyiladi. Kolbaga sovutgich, termometr, aralashtirgich o'rnatilib termostatga joylashtiriladi. Berilgan xaroratda sopolimerlanish reaktsiyasi olib boriladi. Reaktsiya davomida ma'lum vaqt oralig'ida (masalan, reaktsiya unumi har 10% ga oshganda) faolroq monomerning hisoblangan miqdori qo'shib boriladi. Reaktsiya davomida reaktsion aralashmadan ma'lum miqdorda olinib, hosil bo'layotgan sopolimer cho'ktirib olinadi. Namuna quritilib, har bir sistema uchun o'ziga xos usul bilan sopolimerning tarkibi topiladi.

Qo'shiladigan monomerni miqdori quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$M_K = \frac{Q(M_1 + M_1)}{C - Q};$$

Bu yerda Q-reaktsiya unumi, % da, M_1 -faolroq monomerning dastlabki aralashmadagi miqdori, gr; M_2 -ikkinchi monomerning miqdori, gr; C-ni qiymati quyidagi ifoda bilan topiladi:

$$C = \frac{1+KP}{P(K-1)}; \quad K = \frac{r_1[M_1]+[M_2]}{r_2[M_2]+[M_1]};$$
$$P = \frac{(A-1) + \sqrt{(A-1)^2 + 4r_1r_2}}{2r_1}$$

Bu tenglamalarda $[M_1]$, $[M_2]$ - lar dastlabki aralashmadagi monomerlarning kontsentratsiyasi (molyar qismda), $A=[m_1]/[m_2]$ bo'lib, m_1 va

m_2 - sopolimer tarkibidagi monomerlarni kontsentratsiyasi (molyar qismda).

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

Reaktsiyani olib borish vaqt, daq	Reaktsiya unumi, %	Qo'shilayotgan monomerning miqdori, g	Olingan sopolimerning tarkibi, mol.qism

Vazifa: Berilgan sistema uchun oddiy va kompensatsion usul bilan olingan sopolimerlarning tarkibi solishtiriladi.

1.18-ISH. STIROL BILAN METAKRIL KISLOTASINI TURLI ERITUBCHILAR ISHTIROKIDA SOPOLIMERLANISHI

Ishdan maqsad: Erituvchi tabiatini sopolimerlanish reaktsiyasiga ta'sirini o'rghanish.

Reaktivlar: Stirol, metakril kislotasi (yoki akril kislotasi), dioksan, dimetilformamid piridin, toluol, azobisisobutironitril, KOH ning 0,1 n spirtli eritmasi, inert gaz.

Jihozlar: Termostat, shlif probkali ampulalar (5 dona), qopqoqli stakan (sig'imi 100 sm^3), sig'imi 100^3 li kimyoviy stakanlar (5 dona), Petri kosachasi (5 dona), konussimon kolba (sig'imi 250 sm^3) (5 dona).

Ishning bajarilishi: 100 sm^3 sig'imli stakanida 30 sm^3 2:1 molyar nisbatda tayyorlangan stirol bilan metakril kislotasining aralashmasi quyiladi. Monomer aralashmasining og'irligiga nisbatan 0,5 % miqdorda initsiator tortib olib, unga qo'shiladi. Initsiator erib ketgandan so'ng 5 ta ampulaga shu eritmada tashqari qolgan ampulalarga 5 sm^3 dan toluol, dioksan, dimetilformamid va piridin quyiladi. Ampulalar inert gaz bilan puflab yuboriladi va og'izlari berkitilib 60°C li termostatga o'rnatiladi. Ampulalardagi eritmalar biroz quyuqlashguncha sopolimerlanish reaktsiyasini davom ettiriladi. So'ngra ampulalar sovutilib reaktsion aralashmalardan birma-bir alohida stakanlarda hosil bo'lган sopolimer cho'ktirib olinadi. Dioksan va dimetilformamidli eritmalar uchun cho'ktiruvchi qilib suv olinadi. Toluol va piridinli eritmalar esa petroleyni cho'ktiruvchi qilib olinadi. Cho'kmalarni ajratib olinadi, yuviladi va quritiladi. Quritish ishlari Petri kosachalarida, og'irligi o'zgarmay qolguncha vakuumli shkafda olib boriladi. Sopolimerlarning tarkibi 1.14-ishdagi kabi karboksil guruhni titplash orqali topiladi. Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

№ №	Dastlabki aralashma tarkibi mol, %		Sopolimerlanish vaqtி, daq.	Polimer- ning unumi		Eri- tuvchi	Sopolimer tarkibi mol, %		Sopolimer- merlanish tezligi, % / min.
	M ₁	M ₂		g	%		m ₁	m ₂	

M₁, M₂- stirol va metakril kislotasining dastlabki aralashmadagi kontsentratsiyasi, molyar %, m₁, m₂ - stirol va metakril kislotasini sopolimerdagi miqdori, molyar %;

Vazifa: Sopolimer tarkibinig erituvchi tabiatiga bog'liqligini izohlang. Metakril kislotasining faolligiga erituvchilarni ta'sirini tushuntiring.

1.19-ISH. METILMETAKRILAT BILAN METAKRIL KISLOTASINI TURLI DARAJADA SOPOLIMERLANISHI

Ishdan maqsad: Sopolimer hosil bo'lish darajasini uning tarkibiga ta'sirini o'rghanish.

Reaktivlar: Metilmekrilat (MMA)₁ metakril kislotasi (MAK), initsiator, dimetilformamid (DMF), petroleyn efiri yoki geksan, inert gaz, KOH ning 0,1 n spirtli eritmasi.

Jihozlar: Shlif probkali ampulalar (V ta), pipetkalar (2 ta), qopqoqli 100 sm³ sig'imli stakan, 100 sm³ sig'imli stakan (6 ta), soat oynasi (3 ta), termostat, konussimon kolba (3 ta).

Ishning bajarilishi: Qopqoqli stakanda 0,1 mol MMA va 0,1 mol MAK aralashtirilib, ularning umumiy og'irligiga nisbatan 0,2 % miqdorda initsiator eritiladi. Hosil qilingan eritmadan 6 ta ampulalarga 3 sm³ dan quyiladi. Ampulalardan inert gaz o'tkaziladi va ularning og'izlari berkitiladi. Ampulalar 60°C li termostatga o'rnatilib har 30 daqiqada termostatdan bitta ampula olinadi. Ampula uy haroratigachasovutilib og'zi asta ochiladi va undagi aralashma DMF eritiladi. Hosil bo'lgan eritmadan polimer geptan yoki petroleyn efirida stakanlarda cho'ktiriladi. Cho'kma ajratib olinadi, tortilgan soat oynasiga qo'yib 30-40°C larda og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi.

Sopolimer tarkibi karboksil guruhni titrlash orqali topiladi (1.13-ishga qarang). Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

Dastlabki aralashmani tarkibi, mol/%	Polimer- lanish vaqtὶ, daq.	Sopolimer unumi	Sopolimer tarkibi	
			og'irl. g	molyar. %

M ₁	M ₂		g	%	m ₁	m ₂	m ₁	m ₂

Vazifa: Sopolimerlanish reaktsiyasining turli darajada, unumiga qarab uning tarkibini o'zgarishini tushuntiring.

1.20-ISH. METILMETAKRILAT BILAN AKRIL KISLOTASINING MONOMERLARINING TURLI NISBATLARIDA SOPOLIMERLANISHINI O'RGANISH

Ishning maqsadi: Metilmetakrilatni akril kislotasi bilan radikal sopolimerlanish konstantalarini aniqlash

Reaktivlar: metilmetakrilat (MMA), akril kislotasi (AK), DAK, geksan.

Jihozlar: ampulalar-4 dona, 10 ml li pipetkalar-2 dona, 100 ml li kimyoviy stakanlar 3-dona, shisha tayoqchalar-3 dona, Petri chashkalari-3 dona, konussimon kolbalar -3 dona, termostat.

Ishning bajarilishi: 3 ta yuvilgan va quritilgan ampulalarga 0,0075 g (monomer massasiga nisbatan 0,3% miqdorida) DAK initsiatori solinadi va quyidagi hajmiy nisbatlarda umumiyligi miqdori 2,5 ml bo'lgan MMA va AK aralashmasi quyiladi:

- 1) 2 ml MMA : 0,5 ml AK
- 2) 1,25 ml MMA : 1,25ml AK
- 3) 0,5ml MMA : 2ml AK

Keyin har bir ampulaga 2 ml dan dioksan quyiladi va ampula kavsharlanib 60°C haroratlari termostatga joylashtiriladi. Reaksiya sopolimerlanish unumi 5-10% bulgunicha olib boriladi, unum tizimning qovushqoqligini visual ravishda kuzatish orqali aniqlanadi (reaksiya eritma qiyom holatiga kelgunicha, tafminan 40 minut atrofida olib boriladi). Keyin ampulalar xona haroratiga qadar sovutiladi va ochiladi. Eritma asta sekinlik bilan aralashtirib turgan holda cho'ktiruvchi (geksan) bor stakanga quyiladi. Bo'sh ampulalar oz miqdordagi (1-2 ml) cho'ktiruvchi bilan chayqatiladi va u ham polimer cho'kmasi bor stakanlarga quyiladi. Cho'kma oldindan tortib olinlgan soat shishasiga solinib vakuum-quritgichli pechda doimiy massaga kelgunicha quritiladi.

Sopolimer tarkibidagi AK miqdori sopolimerning dimetilformamiddagi eritmasini KOH ning spirtdagi 0,1 n eritmasi bilan titrlash orqali aniqlanadi.

Karboksil guruuhlar miqdorini aniqlash

Karboksil guruuhlar miqdori va kislotasi soni tadqiq qilinayotgan polimerning aniq tortib o'lchangan namunasi eritmasini ishqorning spirtli eritmasi yordamida titrlash yordamida aniqlanadi.

Buning uchun tadqiq qilinayotgan polimerning 0,0002g aniqlikda tortib olingan (0,2-0,3 g) ikkita namunasi 15-30 ml dimetilformamidda eritib fenolftalein ishtirokida 0,1 n ishqor eritmasi bilan pushti rangga kirguncha titrlanadi. Ikki namuna analizi natijasidan o'rtacha qiymat chiqariladi. Parrallel ravishda nazorat tajribasi

o'tkaziladi. Karboksil guruhlar miqdorini α % qiymati quyidagi tenglama yordamida hisoblanadi:

$$\alpha = \frac{(V_1 - V_2) \cdot f \cdot 0,0045 \cdot 100}{g}$$

bu yerda: V_1 – tadqiq qilinayotgan namunani titrlash uchun sarflangan 0,1 n ishqor eritmasi hajmi, ml;

V_2 – nazorat namunasini titrlash uchun sarflangan 0,1 n ishqor eritmasi hajmi, ml;

f – 0,1 n ishqor eritmasining tuzatish koefitsienti;

0,0045 – aniq 0,1 n ishqor eritmasiga mos keluvchi $-COOH$ guruhlari miqdori;

g – sopolimer namunasining massasi, g.

Karboksil guruhlari miqdorini aniq bo'lganida monomerning sopolimerdag'i miqdorini quyidagi tenglama yordamida hisoblash mumkin:

$$x_2 = \frac{\alpha \cdot A_2}{A_{f,g}}$$

bu yerda: x_2 – M_2 monomerning sopolimerdag'i miqdori, %;

A_2 – M_2 monomerning molekular massasi;

α - funktsional guruhlari miqdori;

$A_{f,g}$ - funktsional guruhning molekular massasi, g/mol.

Sopolimer tarkibi (mol %) quyidagi tenglamalar yordamida hisoblanadi:

$$m_1 = \frac{x_1/A_1}{x_1/A_1+x_2/A_2} \cdot 100; \quad m_{21} = \frac{x_2/A_2}{x_1/A_1+x_2/A_2} \cdot 100$$

bu yerda: x_1 va x_2 – M_1 va M_2 monomerlarning og'rlik % miqdori;

m_1 va m_2 – M_1 va M_2 monomerlarning mol % miqdori;

A_1 va A_2 – M_1 va M_2 monomerlarning molekular massasi.

Olingan qiymatlar jadvalga kiritiladi (M_1 – MMA, M_2 - AK).

Tagriba №	Boshlang'ich aralashma tarkibi				Sopolimer unumi		Sopolimer tarkibi, mol ulush	
	Xajmiy nisbat		Mol nisbat					
	MMA	AK	M_1	M_2	g	%	m_1	m_2

Xar bir monomerning boshlang'ich aralashmadagi ulushi va komponentlarning uch xil nisbatidagi sopolimer tarkibini bilgan holda sopolimerlanish konstantalari quyidagi tenglama (Mayo-Lyis usuli) yordamida hisoblanadi:


$$r_2 = \frac{M_1}{M_2} \left[\frac{m_2}{m_1} \left(1 + \frac{M_1}{M_2} r_1 \right) - 1 \right]$$

Ushbu tenglamadan ko'rinishdik r₂ qiymati r₁ qiymatiga bog'liqligi to'gri chiziqli ko'rinishga ega bo'ladi. r₁ uchun turli qiymatlar (3-5 tadan kam bo'limgan) berish, hamda tenglamadagi M_1 , M_2 , m_1 , m_2 qiymatlarini bitta tajriba uchun kiritish orqali r_1 - r_2 koordinatalari tizimida to'gri chiziq hosil qilinadi. Huddi shunday to'g'ri chiziqlar monomerlarning boshqa nisbatlari uchun ham hosil qilinadi. Shu tarzda tuzilgan to'g'ri chiziqlar bir nuqtada kesishishi lozim. Lekin tajriba xatosi natijasida ushbu to'g'ri chiziqlar uch burchak hosil qilishi mumkin va uning markazining koordinatalari aniqlanishi kerak qiymatlag'a mos keladi.

2. Faynman-Ross usuli bo' uicha sopolimerlanish konstantalarini hisoblashda xar bir tajriba uchun quyidagi tenglama yordamida x va y qiymatlari hisoblanadi:

$$\left(\frac{M_1}{M_2}\right)^2 \cdot \left(\frac{m_2}{m_1}\right) = x; \quad \frac{m_1}{m_2} \cdot \frac{M_1}{M_2} \left(\frac{m_1}{m_2} - 1\right) = y.$$

So'ngra x -y koordinatalarida grafik bog'liqlik tuzish natijasida to'g'ri chiziq olinadi. To'g'ri chiziqning ordinata o'qi bilan kesishgan qismi r_2 qiymatiga, to'g'ri chiziqning burchak tangensi esa r_1 qiymatiga teng.



B) POLIKONDENSATLANISH REAKTSIYASI


1.21-ISH. GEKSAMETILENDIAMINNING ADIPIN KISLOTASI BILAN POLIKONDENSATLANISHI

Ishdan maqsad: Poligeksametilenadipamid (neylon 6,6) olish va uni tavsiflash.

Reaktivlar: Adipin kislotasi, geksametilendiamin, etil spirti, distillangan suv, inert gaz.

Jihozlar: Shisha stakan (3 dona), Byuxner voronkasi, tomchilovchi voronka, 100 sm³ sig'imli uch og'izli kolba, termometr (300°C lik), Vud qotishmasi, soat oynasi.

Ishning bajarilishi: Polimer hosil qilish jarayoni 2 bosqichdan iborat bo'lib, dastlab geksametilendiamin-adipat-diamin bilan kislotaning tuzi tayyorlanadi (AG-Tuz). Keyin tuz eritilgan holda yoki erituvchi muhitida polikondensatlanadi. AG tuzi hosil qilish uchun reaktsion kolbaga 21,9 g (0,192 mol) adipin kislota, 170 ml etil spirt eritilib, eritma Byuxner voronkasida filtrlanadi. Eritma 250 sm³ sig'imli uch og'izli kolbaga quyiladi. Alohida stakanda 17,4 g geksametilendiamin (0,15 mol) 45 sm³ spirt va 16,5 sm³ distillangan suvda eritilib 15 minut davomida asta-sekin yuqorida aytilgan kolbaga qo'shiladi. Kolbadagi eritma doimo aralashtirilib turiladi. 2 soatdan so'ng hosil bo'lgan kristallar filtrlanib yuviladi va havoda quritiladi. Nihoyat, olingan AG tuzining polimerini hosil qilish uchun 33 g geksametilendiaminadipat reaktsion kolbaga (100 sm³ sig'imli) solinadi. (7 - rasm)



7-rasm. Uch og'izli, teskari termometr, nay, Din-Stark tutgichi bilan jihozlangan kolba.

Ustiga 5 sm³ suv va 0.75 g adipin kislotasi qo'shiladi. Reaktsion massadan inert gaz (yoki azot) o'tkaziladi. Shundan so'ng reaktsion eritma aralashtirilib turgan holatda Vud qotishmasi hammomida 50-270°C 4 soat davomida qizdiriladi.

Reaktsiya tamom bo'lgach reaktsion suyuqlanma farfor kosachasiga o'tkazilib uy haroratigacha sovutiladi. Hosil bo'lgan polimer tortiladi va undagi qoldiq karboksil guruhlarini miqdori, eruvchanligi va polimerning molekulyar massasi aniqlanadi (V - bobga qarang).

Karboksil guruhlarini miqdorini tavsiflash uchun kislota soni (KS) qabul qilingan bo'lib u 1 g polimerdag'i karboksil guruhlarini neytrallash uchun sarf bo'lgan KOH ning mg.da belgilangan miqdorini ko'rsatadi.

KS ni topish uchun kolbaga ma'lum miqdorda polimerdan tortib olinadi va ustiga KOH ning 0,1 n spirtli eritasidan 25 ml quyiladi. Polimer erib

ketgandan so'ng eritma HCl ning 0,1 n eritmasi bilan fenolftalein indikatori yordamida neytral holatgacha titrlanadi. KS ni qiymati quyidagi ifoda bilan topiladi:

$$K.S. = \frac{(V_1 - V_2)T \cdot 10^3}{g};$$

V_1 - 25 ml KOH ning 0,1 n spirtli eritmasini (kontrol eritma) titrlash uchun sarf bo'lgan 0,1 n HCl eritmasini hajmi, ml.

V_2 -polimer eritmani titrlaganda sarf bo'lgan 0,1 n HCl eritmasining hajmi, ml.

T-HCl eritmasining KOH bo'yicha titri, g/ml. G-polimerning ogirligi, g.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

Reaktsiya vaqtি, daq.	V_1 , ml	V_2 , ml	g, g	M_n	P_n

Vazifa: Poliamidning hosil bo'lish reaktsiyasini yozish, hosil bo'lgan polimerning eruvchanligini aniqlash, KS asosida polimerning molekulyar massasini hisoblash. O'qituvchi tomonidan reaktsiya davomida KS ni qiymatini o'zgarib borishini tekshirish ham vazifa sifatida tavsiya etish mumkin.

1.22-ISH. FAZALARARO CHEGARADA ADIPIN KISLOTASI DIXLORANGIDRIDI BILAN GEKSAMETILENDIAMINNING POLIKONDENSATLANISHI

Ishdan maqsad: Aralashmaydigan erituvchilarining chegara sirtida polikondensatlash reaktsiyasini o'rganish.

Reaktivlar: Geksametilendiamin, adipin kislotasining dixlorangidridi, KOH, benzol, distillangan suv.

Jihozlar: 100 sm³ sig'imli stakan (2 dona), shisha tayoqcha, soat oynasi.

Ishning bajarilishi: 100 sm³ sig'imli stakanda 1,16 g geksametilendiamin, 50 sm³ suvda eritilgan 2,24 g KOH aralashtiriladi. Ikkinci stakanda 50 sm³ benzolda 1,83 g adipin kislotasining dixlorangidridi eritiladi. Reaktsiya uy haroratida 15 daqiqa davomida olib boriladi. Buning uchun ikkinchi stakandagi eritmani shisha tayoqcha orqali asta-sekin birinchi stakandagi eritmaga quyiladi. Chegara sirtda hosil bo'layotgan polimerni shisha tayoqcha orqali ajratib olinadi. Polimerni suv bilan neytral muhitgacha (lakmus qog'ozni bilan tekshiriladi) yuviladi. Tortilgan soat oynasida 50-60°C da polimer qurilib, reaktsiya unumi hisoblanadi.

Hosil bo’lgan polimerda qoldiq amin guruhlarining soni (AS) topiladi. AS 1 g polimerdagi amin guruhlarini neytrallash uchun sarf bo’lgan HCl ning mg da ifodalangan miqdorini ko’rsatadi. AS ni topish uchun poliamid maydalaniib krezolda (suv hammomida qizdirish orqali) eritiladi. Iliq eritmaga oz-ozdan spirt qo’shiladi. Kolbadagi eritma sovutilib, cho’kmasi filtrlanadi. Ajratib olingan polimer spirt bilan yuviladi va 30-40°C da havoda quritiladi. Tayyorlangan polimer og’zi berk idishga solib quyiladi.

AS ni topish uchun polimerdan 0,2-0,5 g atrofida aniq namuna tortib olinadi va ustiga 0,01 n ishqor eritmasidan 10-20 ml quyiladi. 2 soatdan so’ng kolbadagi cho’kma filtrlanib, filtrat probirkaga yig’iladi. Filtrdagи polimer 3-4 marta oz miqdordagi suv bilan yuviladi. Filtrat va yuvilgan suvlar hammasi kolbaga yig’ilib 2 tomchi metiloranj ishtirokida 0,01 n HCl eritmasi bilan titrlanadi. Analizga ikki xil namuna olinadi va kontrol eritma ham titrlanadi. Hisoblash quyidagi ifoda yordamida bajariladi:

$$AC = (V_1 - V_2) F \cdot 0,00036 \cdot 1000/g$$

V_1 -kontrol tajribada sarf bo’lgan 0,01 n HCl eritmasining hajmi, ml; V_2 -namunali eritmalarni titrlash uchun sarf bo’lgan HCl ni hajmi, ml; F—tuzatma koefitsient, 0,00036 - 0,01 n HCl eritmasini titri, g —polimer namunasini og’irligi, g.

Vazifa: Reaktsiya mexanizmi yoziladi. Polimerning eruvchanligi tekshiriladi va molekulyar massasi topiladi.

1.23-ISH. ADIPIN KISLOTASINI DIETILENGLIKOL BILAN POLIKONDENSATLANISHI


Ishdan maqsad: Polikondensatlanish reaktsiyasiga haroratning ta’sirini o’rganish.

Reaktivlar: Adipin kislotasi, dietilenglikol p-toluolsulfokislota, xloroform, etil spirti, KOH (0,1 n spirtli eritmasi), fenolftalein, inert gaz (yoki azot).

Jihozlar: 100 sm³ sig’imli 4 og’izli kolba, mexanik aralashtirgich, termometr (200°C li), sovutgich, shisha tayoqcha, stakan yoki kolba, rezina nok, soat oynasi.


Ishning bajarilishi: Reaktsion kolbaga (8-rasm) 9,5 ml (0,1 mol) adipin kislotasi va 0,152 g (0,8 mol) p-toluolsulfokislota solinadi. Dastlab qizdirilgan Vud qotishmali hammomga kolba o’rnataladi. Naychadan inert gaz o’tkazib qo’yiladi va polikondensatlanishni 150°C da olib boriladi. Termometr o’rnatalgan joydan reaktsiya davomida namuna olib turiladi. Birinchi namuna 45 daq.da, keyingilari esa har 15 daqiqada olib turiladi. Shunday ishni 160°, 170° va 180°C larda ham o’tkaziladi. Kolbadan namuna olayotganda

aralashtirgich to'xtatib turiladi va kapillyarli rezina nomi bilan 1 ml lar atrofida namuna olinadi. Olingan namuna juda tezlik bilan avvalo tortilgan stakanga puflab tushiriladi. So'ng stakanga 10 ml xloroform quyiladi va ustiga 10 ml etil spirti quyilib polimer eritmasi hosil qilinadi. Eritma 0,1 n KOH ning spirtli eritmasi bilan titrlanadi.



8-rasm. Polikondensatlanish reaktori.

Reaksiya uchun balans tenglamasini yozilsa quyidagi ifoda hosil bo'ladi:



W-reaktsion aralashmadan olingan namunaning og'irligi, g; N_0 - namunadagi zvenolarning mollar soni, P-reaktsiyaning tugallanish darajasi, r-katalizatorni mollar sonini zvenoning mollar soniga nisbati. 190-n-toluolsulfokislotaning molekulyar massasi. $r=0,004$ ga teng, S esa bir efir bog'iga to'g'ri kelgan polimer zvenosining molekulyar og'irligi:

$$S = \frac{M_a + M_D - 2M_b \cdot H_2O}{2};$$

M_a -adipin kislotasining, M_b -esa dietilenglikolning molekulyar massasi. Olingan namunani titplash uchun sarf bo'lган ishqorni miqlori B quyidagi ifoda bilan xarakterlanadi:

$$B = (1-P)N_0 + rN_0$$

B ning ma'lum qiymatlarida polimerning molekulyar massasi hisoblanadi.

$$\bar{P}_n = \frac{1}{1-P} = \frac{E - 18}{S + 90 \cdot r - rE};$$

Bu yerda $E=W/B$; tekshirilayotgan sistemaga yuqoridagi ifoda shunday yoziladi:

$$\frac{1}{1-P} = \frac{E - 18}{108.76 - 0.004E}$$

Olingen natijalar asosida $1/(1-P)$ ni vaqt bilan o'zgarish grafigi chiziladi. Hosil bo'lган to'g'ri chiziqning tga sidan reaktsiyaning tezlik konstantasi topiladi. Shu grafik yuqorida qayd etilgan 4 xil haroratga chizilib, har biri uchun tezlik konstantasi topiladi. So'ng $IgK=f(1/T)$ grafigidan E (aktivlanish energiyasi) topiladi. ($E=tgaR$ kJ/mol, $E=19,15$ tga kJ/mol)

Vazifa: Poliefir hosil bo'lish reaktsiyasi yozilsin. Haroratni reaktsiya tugallanish darajasiga ta'siri tushuntirilsin.

1.24-ISH. FTAL ANGIDRIDINI GLITSERIN BILAN POLIKONDENSATLANISHI

Ishdan maqsad: Ftal angidrid va glitserin asosida tarmoqlangan poliefir olish, poliefirni eruvchanligini aniqlash va molekulyar massasini topish.

Reaktivlar: Ftal angidridi, glitserin (suvsiz), atseton, KOH ning 0,1n eritmasi.



Jihozlar: Farfor stakan, shisha voronka, Vud qotishmali hammom, tigellar (6 dona), termometr, Erlenmeyer kolbasi (3 ta), shpatel, soat oynachasi.

Ishning bajarilishi: Farfor stakanga 22,0 g ftal angidridi va 13,3 g glitserin solinib shisha voronka bilan qopqoq qilib yopiladi. Stakanni tezda Vud qotishmali hammomda 180°C gacha qizdiriladi. Reaktsiya shu haroratda 2 soat davomida olib boriladi. So'ngra haroratni $200-220^{\circ}\text{C}$ ga ko'tarib yana reaktsiya davom ettiriladi. Reaktsiya atsetonda qiyin eriydigan polimer hosil bo'lguncha davom ettiriladi. Reaktsiya davomida reaktsion aralashmadan kislota sonini topish uchun namuna olib turiladi. Namuna stakandagi moddalar suyuqlangandan so'ng 15, 30, 45 minutda va 1, 2, 3 soatda olinadi. Ftal angidridi yuqori haroratda stakan qopqog'i vazifasini bajarayotgan shisha varonkada yig'ila boshlaydi. Shuning uchun reaktsion aralashmadan namuna olishda o'sha yig'ilgan ftal angidridining kristallarini qirib stakanga tushiriladi, aralashtirgach namuna olinadi; Reaktsiya davomida olingen namunalarni eruvchanligi tekshiriladi va ulardagi efir soni (ES) topiladi. Olingen natijalar quyidagi jadvalga yoziladi.

Reaktsiya boshlangandan ketgan vaqt, soat	Titrlash uchun ketgan 0,1 n KOH eritmasini hajmi, ml.	Namuna og'irligi, g.	ES	\bar{M}_n

Efir sonini aniqlash

Karboksil guruhi bo'lмаган полифирларда кислота сони (KS) эфир сони (ES) га тенг болиб, 1 г полимердаги гурuhlарни нейтраллаш үчун сарф бо'лган KOHning mg билан о'lчangan miqdorini belgilaydi. Murakkab эфир гурфи полимернинг асосија занжирда юки ўон занжирда бо'лиши мумкин.



Эфир сони полимернинг молекуляр массасига bog'liq bo'ladi.

ES ни топиш үчун иккита конусимон колбага тескариsovutgich о'rnatilib полимер намунасидан ма'lум miqdorda (0,5-1 g) aniq tortilgan holda solinadi. Har bir kolbaga 25 ml dan KOH ning 0,5 n spirtli eritmasidan qo'shilib suv hammomida 3 soat (ba'zi -bir polimerlar үчун 12 soat) qizdiriladi. So'ngra kolbadagi eritma sovutilmasdan turib 0,5 n HCl eritmasi билан fenolftalein ishtirokida titrlanadi.

ES quyidagi ifoda bilan topiladi;

$$ES = (a - v)T1000/g$$

a - kontrol tajribada (полимер намунасициз) titrlash үчун сарф бо'лган 0,5 n HCl eritmasining hajmi, ml. v - полимер намунаси solingan eritmani titrlash үчун сарф бо'лган 0,5 n HCl eritmasining hajmi, ml; T-kislotaning titri, KOH ning mg билан belgilangan miqdori, g -полимер намунасининг og'irligi, g.

Vazifa: Reaktsiyaning sxematik mexanizmi yozilsin. Polikondensatlanish reaktsiyasida tarkibning va полимернинг молекуляр массасини o'zgarishi ko'rsatilsin.

1.25-ISH. CHIZIQSIMON POLIURETANNING OLINISHI


Ishdan maqsad: Poliuretanning 2,4-toluilendiizotsianat va trietylenglikoldan olish.

Reaktivlar: Haydab олинган 2,4-toluilendiizotsianat, trietylenglikol, xlor benzol.

Jihozlar: Uch og'izli kolba (0,5 l sig'imlik), mexanik aralashtirgich, farfor kosacha, sovutgich, termometr, suv pari билан haydash үчун moslama, isitgich kolbasi.

Ishning bajarilishi: 9-rasmida ko'rsatilgandek reaktsion kolbaga avvalo 240 g xlorbenzol, 15 g 2,4-toluilendiizotsianat va 15 g trietylenglikol quyiladi. Sovutgichni, termometrni kolbaga о'rnatib reaktsion aralashmani 6 soat


aralashtirib turgan holda qaynatiladi. So'ngra reaktsion aralashma sovutiladi, reaktsiyaga kirishmagan moddalar suv pari bilan haydaladi. Qolgan massa farfor kosachasiga o'tkazilib, kondensatni ajratib tashlab, polimer 80°C da quritgich shkafida quritiladi.



9-rasm. Poliuretan olish uchun reaktor

Vazifa: Reaktsiya sxemasi yoziladi. Polimer eruvchanligi topiladi va izotsianat guruhlarini miqdori topiladi.

Izotsianat guruhini aniqlash. Izotsianat guruhini topish quyidagi reaktsiyaga asoslangan:



100-200 ml sig'imli kolbaga (2 dona) 0,3-0,4 g polimer (analitik tarozida tortib olinadi) ustiga 10 ml dietilaminning atsetonli eritmasi quyiladi. Kolbalarni og'zi berkitiladi. Aralashma 40°C da shkafda 1 soat qizdirib quyiladi. So'ngra ko'k rangli brom fenol indikatori yordamida 0,5n HCl eritmasi bilan titrlanadi. Izotsianat guruhining miqdori (X%) da quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{(a - v) \cdot K \cdot 0.021 \cdot 100}{g}$$

a-kontrol tajribada sarf bo'lgan 0,5 n HCl eritmasining hajmi, ml. v-namunali eritmalarni titrlash uchun sarf bo'lgan 0,5 n HCl eritmasining hajmi, ml. 0,021 - 1 ml HCl eritmasiga to'g'ri kelgan izotsianat guruhining miqdori, g-polimer namunasining og'irligi, g.

1.26-ISH. EPOKSID SMOLASINI OLINISHI

Ishdan maqsad: Adipin kislotasi va diglitsidil efiridan epoksid smolasini

olish.

Reaktivlar: Adipin kislotasi, diglitsidil efiri, dioksan, temir xlorid, 0,05 n KOH eritmasi, atseton, geptan, fenolftalein.

Jihozlar: Uch og'izli kolba, Erlemeyer kolbasi, byuretka, pipetka.

Ishning bajarilishi: Mexanik aralashtirgich, termometr o'rnatilgan uch og'izli kolbaga 2 g (0,01 g/mol) adipin kislotasi, 3,6 g (0,027 g/mol) diglitsidil efiri va 17 ml dioksan solinadi. Reaktsion aralashma 10 daq. aralashtiriladi. So'ngra 0,02 g temir xloridi katalizator sifatida (kislota og'irligida 1 %) qo'shilib, 90°C da kolba 5 soat davomida qizdiriladi. Reaktsiyaning kinetikasi o'rganilishi maqsadida vaqtiga vaqtiga bilan reaktsion aralashmadan 0,1 ml namuna olinib turiladi.

Namunalar eritmasi neytral ekanligiga ishonch hosil qilinib, 0,05 n KOH eritmasi bilan titrlanadi. Hosil bo'lган oligomer geptan yordamida cho'ktirilib, suv oqimli nasos yordamida quritiladi. Reaktsiyada yonuvchi moddalar bo'lгani uchun tajriba ventilyatsion kimyoviy shkaf ostida olib boriladi.

Vazifa: Reaktsiya sxemasi yoziladi. Namunalarda epoksid guruhini miqdori topiladi. Reaktsiya davomida har bir bosqichdagi reaktsiyaning tugallanish darajasi (P) topiladi. Buning uchun quyidagi ifodadan foydalaniladi:

$$P = \frac{C_0 - C}{C_0} \cdot 100\%$$


C₀-birinchi bosqichda olingan namunani titrlash uchun sarf bo'lган ishqor eritmasining miqdori, ml;

C-t vaqtida olingan namunani titrlash uchun sarf bo'lган ishqor eritmasining miqdori, ml.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

Reaktsiya boshlangandan o'tgan vaqt, soat	0,05 n KOH ning miqdori, ml	Reaktsiyaning tugallanish darajasi, %	Epoksi guruhining miqdori, %

Epoksid guruhlari aniqlash. Epoksid guruhlarni miqdorini topish ularni vodorod xlorid bilan reaktsiyaga kirishib xlorgidrin hosil qilish xossasiga asoslangan:



Gidroxlorlash reaktsiyasi olib borish uchun turli erituvchilar ishlatiladi. Atseton, piridin, xloroform bilan piridin aralashmasi, dioksan, efirlar erituvchi sifatida ishlatilishi mumkin. Erituvchilar ishlatilishi oldidan obdon suvdan quritiladi.

Analitik tarozida 0,2-0,6 g atrofida tekshiriladigan polimer tortib olinadi

va kolbaga solinadi. So'ngra pipetka yordamida 30 ml HCl ning 0,2 n li atsetondagi eritmasi quyiladi. Kolbani probka bilan berkitilib 2,5 soat kutiladi. Reaktsiya tugagach yana 10 ml atseton kolbaga quyiladi. Kolbadagi eritma aralashtirilib 0,1 n NaOH eritmasi bilan fenolftalein ishtirokida titrlanadi. Shu bilan barobar kontrol tajriba ham olib boriladi. Epoksid guruhning % miqdori quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$X = (V_1 - V_2) \cdot F \cdot 0,0043 \cdot 100 / g$$

V_1 -kontrol kolbadagi eritmani titrlash uchun sarf bo'lgan 0,1 n NaOH eritmasini hajmi, ml.

V_2 -analiz qilinayotgan eritmani titrlash uchun sarf bo'lgan 0,1 n NaOH eritmasini hajmi, ml.

0,0043-1 ml 0,1n NaOH eritmasiga to'g'ri keladigan epoksid guruhini miqdori, g -polimerning og'irligi, g, F - tuzatish koefitsienti.

0,2 n HCl ni eritmasi toza, haydalgan 1 l atsetonda 17 ml kontsentrlangan HCl ni eritib tayyorlanadi.

1.27-ISH. FTAL ANGIDRIDNING ETILENGLIKOL BILAN POLIKONDENSATLANISHI

Ishdan maqsad: Poliefir olish bilan tanishish.

Reaktivlar: Ftal angidridi, etilenglikol;

Jihozlar: Shisha voronka, qum hammomi, chinni kosachalar, konussimon kolbalar, tigellar.

Ishning bajarilishi: 8,05 g ftal angidridi va 3,4 g etilenglikol chinni stakanga solinib ustini shisha voronka bilan jips qilib berkitiladi. Aralashmani vaqtiga bilan aralashtirib turgan xolda $180 - 185^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi. Suyuq holdagi reaktsion aralashma reaktsiya davomida quyuqlashib, yelimsimon ko'rinishga o'ta boshlaydi va nihoyat, uy haroratigacha sovutilganda (3-4 soatdan keyin) shishasimon ko'rinishga keladi. Reaktsiya kinetikasini o'rganish maqsadida reaktsion aralashmadan tigellarga namunalar olinib, reaktsiyaga kirishmagan kislotalarning miqdori titrlash bilan aniqlanadi. Buning uchun birinchi namuna ftal angidridi erishi bilanoq olinadi, so'nggi namunalar 15, 30, 45, 60, 90 daqiqa va 2 soatda olinadi. Ftal angidridi qizdirish natijasida sublimatlanadi va natijada shisha voronka devorlariga kristall holida turib oladi. Shuning uchun namuna olinishidan oldin voronka devorlaridagi kristallar reaktsion aralashmaga qirib tushirilib aralashtirilishi kerak bo'ladi. Namunalarda titrlash yordamida kislota soni yoki efir soni topiladi. (1.19 va 1.22 - ishga qarang).

Vazifa: Ftal angidridi bilan etilenglikol orasida boradigan reaktsiya tenglamasini yozing.

Reaktsiya davomida olingan namunalarning kislota va efir sonlari aniqlanib, vaqt birligidagi o'zgarish grafigi chizilsin.

1.28-ISH. MOCHEVINANING FORMALDEGID BILAN POLIKONDSNSATLANISHI

Ishdan maqsad: Mochevina-formaldegid smolasini olish.

Reaktivlar: Mochevina, 40% li formaldegid, 25% li ammiak, etil spirti.

Jihozlar: dumaloq tubli, teskari sovutgich o'rnatilgan kolba, termometr, suv hammomi.

Ishning bajarilishi: Formalinning 40% li eritmasidan 26,5 g olib, unga 25% li ammiakdan 0,65 g qo'shiladi va teskari sovutgich o'rnatilgan dumaloq tubli kolbada yarim soat davomida qizdiriladi. Shundan so'ng eritma qaynoq holida filtrlanib, uning pH tekshiriladi. Eritmaning pH -7,6-7,8 dan kam bo'lgan taqdirda, eritmaga biroz ammiak qo'shiladi. So'ngra filtratga mochevinadan dastlab 3,75 g solinib, aralashma yarim soat davomida qizdiriladi va yana aralashma ustiga 3,75 g mochevina bilan birga 5 ml etil spirti qo'shiladi. Eritmaning pH muhiti 4,6 - 5,0 ga yetguniga qadar aralashma 80°C da qizdiriladi. Odatda aralashmaning pH qiymati 4,6-5,0 ga 2-3 soatdan keyin keladi. Tiniq qiyomsimon reaktsiya mahsulotini chinni kosachaga solib, 50-70 mm bosimda 70-80°C atrofida vakuum shkafda bug'latiladi. Mahsulot quyuq qiyom darajasiga yetganda 45°S da shishasimon holatga kelgunga qadar quritiladi.

Vazifa: Reaktsiya tenglamasini yozing. Polimerning eruvchanligi va suyuqlanish haroratini aniqlang.

1.29-ISH. FENOLNI FORMALDEGID BILAN POLIKONDENSATLANISHI

Ishdan maqsad: Fenol-formaldegid smolalarini kislota muhitida (1-variant) va ishqoriy muhitda (2-variant) olish.

Reaktivlar: Fenol, formaldegid, xlorid kislota (1n eritma), urotropin.

Jixozlar: Yumaloq tubli kolba, Libix sovutgichi, Vyurts kolbasi, farfor kosacha, termometr.

Ishning bajarilishi: **Variant 1.** 200 ml sig'imli kolbaga (sovutgich va termometr bilan jihozlangan) 9,4 g (0,1 mol) fenol solib 40-50°C gacha qizdiriladi. Fenol suyuqlangach 8,5 ml (0,085mol) 36 % formalin quyiladi. Aralashtirib bo'lingach 1 n HCl eritmasidan 5 ml (0,005 mol) quyiladi. So'ngra aralashma 80°C da 10-15 daqiqa teskari sovutgich o'rnatilgan holda, kolbada qizdiriladi. 10-15 daqiqadan so'ng kolbadagi aralashma loyqalanadi va qavatlanadi. Shundan so'ng kolbani yana 0,5 soat davomida qizdiriladi. Kolbadan tepaga ajralib chiqqan qavatini ajratib olib, qolgan qismidan vakuumda (100 mm simob ust.) suvni haydab olinadi. Suvni haydab olinganda kolbani harorati 50°C dan pastga tushmasligi kerak. Reaktsiya tugagach kolbadan smolasini farfor kosachasiga to'kib olinadi. Ishning bajarilishida o'qituvchi tomonidan olingen smolani urotropin yordamida qotirish vazifasi

ham berilishi mumkin. Buning uchun 2 g smola olinib hovonchada 0,2 g urotropin bilan eziladi. 150°C gacha qizdirilgan pipetkaga temir plastinka qo'yib 45x45 mm maydonchada metall belkurakcha yordamida hosil bo'lgan aralashma yoyiladi. Ma'lum vaqtdan so'ng smola qotadi.

Vazifa: Reaktsiya sxemasini yozish, smolani suyuqlanish haroratini aniqlash, eruvchanligini tekshirish.

Variant 2. Bu variantda smola olish uchun 30% li ammiak eritmasi, stearin kislotasi va etil spiriti kerak.

Ishning bajarilishi: Kolbagaga 9,4 g (0,1 mol) fenol solinib ustiga 9,2 ml (0,11 mol) 36% formalin eritmasi qo'yiladi. Aralashtirilgan massaga 0.8 ml (0,01 mol) 30% li ammiak eritmasi quyiladi. So'ngra kolbani asbest setkasiga joylashtirilib 40 daqiqa davomida qaynaguncha isitiladi. Bu holda ham kolbadagi suyuqlik loyqalanadi va qavatlanadi. Hosil bo'lgan suvni bu usulda ham vakuumda haydab olinadi. Kolbadagi harorat 80°C ga yetganda suvni haydash to'xtatiladi. Hosil bo'lgan smola farfor kosachasiga solib olinadi.

1.30-ISH. LIMON KISLOTASINI ETILENGLIKOL BILAN POLIKONDENSATLANISHI

Ishdan maqsad: Limon kislotasi bilan etilenglikol polikondensatlanishi reaktsiyasini o'rghanish.

Reaktivlar: Limon kislotasi, etilenglikol

Jihozlar: 100 sm³ sig'imli 3 og'izli kolba, termometr (200°C li), teskarisovutgich, "Dina-Stark" tutgich, shisha tayoqcha, stakan yoki kolba, rezina nok, soat oynasi.

Ishning bajarilishi: Teskari sovutgich, termometr va ajralib chiqayotgan suvni tutib qolish uchun "Dina-Stark" tutgich bilan jihozlangan uch og'izli kolbagaga 3,2 g limon kislotasi va 1,3 g etilenglikol solinadi. Sistema qum hommomiga o'rnatilib $150-155^{\circ}\text{C}$ haroratgacha qizdiriladi. Reaktsiya davomida namuna olib turiladi. Birinchi namuna monomerlar aralashmasi suyuq holatga o'tgach, keyingilari esa reaktsiya tugagach olinadi. Reaktsiya tugaganligini smola holatiga qarab baholash mumkin: agar namuna sovutilganda shoshasimon massa hosil bo'lsa qizdirish to'xtatiladi (taxminan 1 soatlar vaqt ketadi).

Boshlang'ich monomerlar aralashmasining nazariy kislota soni hisoblanadi. Monomerlar aralashmasining tajribadagi boshlang'ich kislota soni va polimerning kislota soni aniqlanadi.

Kislota sonini aniqlash usuli

0,05-0,10 g monomerlar aralashmasi va polimer namunasi 10 ml atsetonda qizdirib turgan holda eritiladi, so'ngra sovutilib 0,1 n li KOH eritmasi bilan fenolftalein ishtirokida pushti rang hosil bo'lguncha titrlanadi. Shuningdek kontrol

tajriba o'tkaziladi, ya'ni polimer namunasiz toza erituvchi (toza atseton) fenolftalein ishtirokida titrlanadi.

Kislota soni quyidagi tenglama orqali hisoblanadi:

$$K_{soni} = \frac{5,61 \cdot f \cdot (A - B)}{g};$$

Bu yerda A- namunani titrlash uchun sarf bo'lgan KOH miqdori, ml;
B- toza erituvchini titrlash uchun sarf bo'lgan KOH miqdori, ml;
g- namuna og'irligi, g;
f-0,1 n KOH eritmasi tuzatish koeffitsienti;
5,61 – 1 ml 0,1 n eritmadi KOH miqdori.

Vazifa: 1. Limon kislotasi bilan etilenglikol polikondensatlanishi reaktsiyasini yozing.

2. Polimerning kislota soni va tugallanish darajasini aniqlang.
3. Polimerning suyuqlanish haroratini aniqlang.

1.31-ISH. ADIPIN KISLOTASINI ETILENGLIKOL BILAN POLIKONDENSATLANISHI

Ishdan maqsad: Adipin kislotasi bilan etilenglikol polikondensatlanishi reaktsiyasini o'rghanish.

Reaktivlar: Adipin kislotasi, etilenglikol

Jihozlar: Uch og'izli kolba, termometr (200°C li), teskari sovutgich, "Dina-Stark" tutgich, shisha tayoqcha, chinni idish.

Ishning bajarilishi: Teskari sovutgich, termometr va ajralib chiqayotgan suvni tutib qolish uchun "Dina-Stark" tutgich bilan jihozlangan uch og'izli kolbaga 3,6 g adipin kislotasi va 1,5 g etilenglikol ($d=1,14 \text{ g/sm}^3$) solinadi. Sistema qum hommomiga o'rnatilib $175-180^{\circ}\text{C}$ haroratgacha qizdiriladi. Reaktsiya Ikk soat davomida hosil bo'lgan quyuq suyuqlik issiq holatda chinni idishga quyib olinadi va sovib quyuq qovushqoq massa hosil bo'lguncha qoldiriladi.

Olingan polimerning kislota soni aniqlanadi.

Kislota sonini aniqlash usuli

0,25-0,50 g polimer namunasi 10 ml atsetonda qizdirib turgan holda eritiladi, keyin sovutilib tezda 0,1 n li KOH eritmasi bilan fenolftalein ishtirokida pushti rang hosil bo'lguncha titrlanadi. Shuningdek kontrol tajriba o'tkaziladi, ya'ni polimer namunasiz toza erituvchi (toza atseton) fenolftalein ishtirokida titrlanadi.

Kislota soni quyidagi tenglama orqali hisoblanadi:

$$K_{soni} = \frac{5,61 \cdot f \cdot (A - B)}{g};$$

Bu yerda A- namunani titrlash uchun sarf bo'lgan KOH miqdori, ml;

B- toza erituvchini titplash uchun sarf bo`lgan KOH miqdori, ml;
g- namuna og`irligi, g;
f-0,1 n KOH eritmasi tuzatish koeffitsienti;
5,61-1 ml 0,1 n eritmadiagi KOH miqdori.

Vazifa: 1. Reaksiya tenglamasini yozing.
2. Polimerning kislota soni aniqlang.
3. Polimerning turli erituvchilarda eruvchanligini aniqlang.

1.32-ISH. FENOLNI BENZALDEGID BILAN POLIKONDENSATLANISHI

Ishning maqsadi: Fenol bilan benzaldegidni polikondensatlanish reaksiyasini o`tkazish.

Reaktivlar: Fenol, xlorid kislota, benzaldegid.

Jihozlar: Yumaloq tubli kolba, teskari sovutgich, suv hammomi, chinni idish, termometr.

Ishning bajarilishi: Teskari sovutgich bilan jihozlangan yumaloq tubli kolbaga 3,3 g fenol, 3,7 ml benzaldegid va 0,55 ml konsentrangan xlorid kislota solinadi. Aralashma suv hammomida 80-90⁰ C da 2-3 soat davomida qizdiriladi. Hosil bo`lgan smola chinni (farfor) idishga quyiladi, suv bilan yuvib, quritish shkafida quritiladi.


Vazifa: 1. Polimer unumini aniqlang.
2. Reaksiya tenglamasini yozing.
3. Polimerning eruvchanligini suv va organik erituvchilarda aniqlang.

II BOB. POLIMERLARNING KIMYOVIY O'ZGARISHLARI

Polimerlarning kimyoviy o'zgarishlarga qobiliyati makromolekulaning asosiy va yon zanjirlarini hosil qiluvchi bog'lar tabiatini hamda ular tarkibida u yoki bu funksional guruhlar mavjudligi bilan belgilanadi. Polimerlar kimyosi ushbu bo'limining amaliy ahamiyati quyidagi uch asosiy sabablar bilan belgilanadi.

1. Polimerlanish darajasi o'zgarmasdan kuzatiladigan reaktsiyalar-polimeranalogik o'zgarishlar va ichki molekulyar reaktsiyalar;
2. Polimerlanish darajasi ortishi bilan boradigan reaktsiyalar-choklanish, payvand va blok-sopolimerlar;
3. Polimerlanish darajasi kamayishi bilan boradigan reaktsiyalar-destruktsiyalanish.

Polimer funksional guruhlarining reaktsiyaga kirishish qobiliyati bilan quyi molekulyar birikmalarining reaktsiyaga kirishish qobiliyati orasida tabiatan hech qanday farq yo'q.



N-izopropil- γ -valerolaktam

Xuddi shuningdek, polivinilatsetat va vinilatsetatning gidrolizlanish tezlik konstantalari ham bir xil qiymatga ega.

2.1. Polimerlarning kimyoviy xossalariini o'ziga xosligi

Yuqorida polimerlarning kimyoviy reaktsiyalari tabiatini jihatidan quyi molekulyar birikmalar reaktsiyasidan keskin farq qilmasligini ko'rdik, ammo makromolekulaning katta o'lchami va uning polifunktionalligi polimerlarning kimyoviy reaktsiyalariga faqat polimerlarga xos bo'lgan qator xususiyatlarni kiritadi. Avvalo, polimer zanjiridagi funksional guruhlar sterik noqulayliklari tufayli reaktsiya oxirigacha bormaydi.

Polimer zanjiridagi kimyoviy o'zgarish makromolekula va undagi funktsional guruhlarning kimyoviy reaktsiyaga kirishish qobiliyati bilan bog'liq.

Makromolekulalargagina xos bo'lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat:

Zanjir effekti.

Konfiguratsion effektlar.

Kontsentratsion effektlar.

Konformatsion va ustmolekulyar effektlar.

Elektrostatik effektlar.

2.2. Polimerlanish darajasi o'zgarmasdan sodir

bo'ladigan kimyoviy reaktsiyalar


Polimeranalogik o'zgarishlar. Polimerlarda zanjir uzunligi va tuzilishi o'zgarmasdan yon funktsional guruhlarning quyi molekulyar birikmalar bilan almashinishi hisobiga boradigan reaktsiyalar polimeranalogik o'zgarishlar deyiladi. Bunday reaktsiyalar natijasida yon funktsional guruhlar tabiatи o'zgaradi. Bu reaktsiyalar tufayli quyi molekulyar birikmalarning atom yoki atomlar guruhi polimer tarkibida o'zgaradi.

Bu reaktsiya quyidagi hollarda katta ahamiyatga ega:

Monomerlardan sintez qilinishi mumkin bo'lмаган polimerlar olish, ya'ni monomeri ma'lum bo'lмаган yoki beqaror birikma bo'lgan yoxud polimerlanish reaktsiyasiga uchramaydi. Masalan, polivinil spirti (PVS)ni polivinilatsetatdan (PVA), polivinilaminni polivinilsuktsinimiddan yoki polivinilftalimiddan ishqor ishtirokida gidrolizlab olish mumkin.

Bu reaktsiyalar jarayonida makromolekulaning polimerlanish darajasi «*p*» o'zgarmaydi.

Kimyoviy o'zgarishlar tufayli yangi xossaga ega polimerlar olish. Polimeranalogik o'zgarishlar reaktsiyasiga, ikki funktsional guruhning o'zaro birikib tsiklik strukturaga ega bo'lgan makromolekula hosil bo'lish reaktsiyasini ham kiritish mumkin. Masalan, polivinil spirtini atsillash shular jumlasidan.




Ko'pchilik polimeranalogik o'zgarishlar sanoatda keng qo'llaniladi, masalan, tsellyulozaning oddiy va murakkab efirlarini, polivinil spirtini olish, polietilen va polivinilxloridni xlorlash reaktsiyalari shular jumlasidan.


Ichki molekulyar reaktsiyalar kimyoviy reaktsiyalar qatoriga kirib, unda makromolekulalar qayta guruhlanishi yoki bir makromolekulaning atomlari yoki funksional guruhlari o'zaro birikishi sodir bo'ladi va reaktsiya uchun olingan polimerlarning polimerlanish darajasi esa o'zgarmay qoladi. Bu reaktsiyalar fizikaviy va kimyoviy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Polimer zanjirining tuzilishiga qarab ichki molekulyar reaktsiyalarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

a) o'zida to'yinmagan bog' tutuvchi makromolekulalar hosil bo'lishi quyi molekulyar birikmalarning ajralishi bilan kuzatiladi va bunday reaktsiyalar qatoriga issiqlik, yorug'lik, radiatsion nurlar va har xil katalizatorlar (ishqor, kislota, tuz) ishtirokida boradigan reaktsiyalar kiradi.

Polivinilxorid va polivinil spirtini qizdirib o'zida juftlanmagan bog'lar tutuvchi yarimo'tkazgich va magnit xossalari ega bo'lgan polivinilenlar olish mumkin:



b) o'zida tsiklik guruhlar tutgan makromolekulalarning hosil bo'lishi; bularga o'zida qisqa bog'li yon o'rinosbosarlar tutgan va uning ochilishi natijasida zanjirdagi qo'shni guruhlar bilan yangi kimyoviy bog'lar hosil qilib hech qanday quyi molekulyar birikmalar ajralib chiqmaydigan reaktsiyalar kiradi.




Bunday tsiklik tuzilishga ega bo'lgan polimerlar yuqori issiqlikka chidamli bo'lib, poliakrilonitril asosida olingan tola "qora orlon" nomi bilan yuritiladi va u yonmaydigan xususiyatga ega.

2.3. Polimerlanish darajasining ortishi bilan boradigan reaktsiyalar


Makromolekulalarning kimyoviy o'zgarishlari natijasida ko'ndalang bog'lar hosil bo'lishi mumkin, bunda chiziqli zanjirsion molekulalar sistemasi

erish yoki suyuqlanish qobiliyatiga ega bo'limgan uch o'lchamli polimer to'rini hosil qiladi.

Har xil polimerlarning bir-biri bilan ta'sirlashuvi agar ular o'zaro reaktsiyaga kirisha oladigan funktsional guruhlarga ega bo'lsa amalgaloshishi mumkin. Masalan, vinil spirtining poliakril kislotasi bilan ta'sirlashuvi natijasida ko'ndalang bog'lar hosil bo'lishi mumkin:



Shunga o'xshash, yon xlormetil guruhlar tutuvchi polisilok-sanlarning polidialkoksifosfazenlar bilan ta'sirlashuvidan alkilxlorid ajrab chiqadi va bu oksimetilen ko'priklar bilan bog'langan siloksan va fosfazen zanjirli birikmalar hosil bo'lishiga olib keladi:




bu yerda R - quyi alkil (C_{1-4}).


Makromolekulalararo reaktsiyalar. Makromolekulalararo reaktsiyalar ikki yoki undan ortiq makromolekulalarning kimyoviy bog'lar ishtirokida choklanishi natijasida sodir bo'ladi va mazkur reaktsiyalar qo'shimcha birikma kiritmasdan yoki kiritish yo'li bilan olib boriladi.

Makromolekulalararo reaktsiyalarga kauchuklarni vulkanlash misol bo'ladi.


Polimer funktsional guruhlarining molekulalararo birikishi tufayli ham to'rsimon polimer hosil bo'ladi:



Ko'ndalang bog'lar hosil bo'lishida ishtirok etadigan funktsional guruhlar, masalan, polisilosanlardagi hidroksil guruhlar kabi, bir xil bo'lishi mumkin:




yoki polifosfazlarda amin guruhlarning deaminoliz reaksiyasi bo'yicha vulkanlash:



Payvand va blok polimerlanish polimerlarni kimyoviy modifikatsiyalash va xossalariini takomillashtirish maqsadida keng qo'llaniladi. Payvand polimer kimyoviy tarkibi jihatidan rasmiy sopolimerga o'xshamasa ham makromolekulasida ketma-ket qaytariladigan uzun bir xil zvenolar tutadi. Blok polimer esa yaxlit qaytariladigan chiziqsimon zanjirlardan iborat bo'ladi.


-AAAAAAAABBBBBBBBBBBBBBAA-
-A-A-A-A-A-A-A-A-A-A-A-A-A-

Payvand polimerning makromolekulalari tarmoqlangan tuzilishga ega bo'ladi. Asosiy zanjirni tashkil etuvchi A zvenolar yon tarmoqlarini tashkil etuvchi B monomer zvenolaridan iborat bo'ladi:




Bu usul to'yinmagan bog'li polimerlarning payvand polimerlarini olishda keng qo'llaniladi, jumladan har xil kauchuklarning xossalalarini modifikatsiyalash uchun ularga vinil monomerlari (metilmekatrilat, stirol, akrilonitril) payvand qilinadi.


Blok polimerlar olishda zanjir oxiridagi initsirlovchi vazifasini polimer va oligomerning bifunktional birikmalaridan foydalanish mumkin. Etilenoksidning polimerlanishida initsirlovchi bo'lib polipropilenoksidi tarkibidagi oxirgi gidroksil guruhlari xizmat qiladi, natijada quyidagi tuzilishli blok-sopolimer hosil bo'ladi:



Polimerlar yoki makromolekulalarning o’z-o’zi bilan ta’sirlashishi. Bu usul asosida payvand va blok polimer olishga polimer va oligomer tarkibidagi funktional guruhlarning kondensatlanishi yoki turli tarkibli makromolekulalarning rekombinatsiyasi tufayli erishiladi:



yoki



Polimerlarga turli mexanik kuchlar (ekstruziya, valtslash, ultratovush ta'siri, elektrogidravlik urilish va boshqalar) ta'sir ettirilganda makromolekulaning parchalanishi oqibatida faol radikal tabiatli zanjir bo'lakchalari hosil bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Polimerlar kimyoviy xossalaringin asosiy turlari nimalardan iborat?
 2. Nima sababdan polimerlar funktsional guruhlarining reaktsion qobiliyati oddiy moddalarning funktsional guruhlari xossalardan farqlanadi?
 3. Polimerlarning kimyoviy o'zgarishlariga elektrostatik, konfiguratsion va konformatsion hamda strukturaviy samaralar qanday ta'sir ko'rsatadi?
 4. Eng ko'p tarqalgan polimerlarning kimyoviy xossalariiga misollar yozing.
 5. Faqat kimyoviy o'zgarishlar natijasida boshqa polimerlardan olinadigan polimerlarga misol keltiring.
 6. Makromolekulalardagi "qo'shni zvenolar effekti" kimyoviy o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin?
 7. Tsellyulozaning qanday hosilalarini bilasiz?
 8. Payvandli va blok sopolimerlanishning qanday ahamiyati bor?
 9. Qanday reaktsiyalar makromolekulalarning choklanishiga olib keladi?
 10. Quyidagi polimerlarni choclash uchun qaysi reaktsiyalardan foydalanish mumkin?
 - a) etilenglikol va malein angidridi asosidagi murakkab poliefir;
 - b) etilenglikol, ftal kislotasi va olein kislotasi asosidagi murakkab poliefir;
 - v) 1,4-poliizopren;
 - g) polietilen;
 - d) polidimetilsilosan.

11. Ko'rsatilgan reaktsiyalar tenglamalarini yozing.
12. Quyidagi polimerlarni hosil qilish reaktsiyalari tenglamalarini yozing.
 - a) tsellyuloza atsetati;
 - b) tsellyuloza nitrati;
 - v) metiltsellyuloza;
 - g) polivinilformal.
12. Quyidagi reaktsiyalar tenglamalarini yozing
 - a) polietilenni xlorlash;
 - b) 1,4-poliizoprenni xlorlash;
 - v) polietilenni sulfoxlorlash;
 - g) 1,4-poliizoprenning KBr ta'sirida tsikllanishi;
13. Quyidagilarning formulalarini yozing:
 - a) propilen va stirolning blok-sopolimeri;
 - b) stirol va metilmekrilitning payvand sopolimeri;
 - v) metilmekrilit va stirolning payvand sopolimeri;
 - g) metilmekrilit va stirolning takroriy sopolimeri.
14. Mazkur sopolimerlarning hosil bo'lish reaktsiyalari tenglamalarini yozing.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

2.1 -ISH. POLIVINILATSETATNING ALKOGOLIZI

Ishning maqsadi: Polivinilatsetatni ishqoriy (kislotali) muhitda alkogolizlab, polivinil spirti olish.

Reaktivlar: Polivinilatsetat, etil spirti, natriy gidroksidining spirtdagi 20% li eritmasi (ishqoriy usul) yoki $d=1,84 \text{ g/sm}^3$ li sulfat kislotasi (kislotali usul), atseton, uglerod (IV) xlorid.

Jihozlar: 250 ml li uch og'izli kolba, teskari sovutgich, tomchilatgich voronka, 100°C li termometr, suv hammomi, Byuxner voronkasi, Bunzen sklyankasi, 2 ta 500 ml li stakan, 250 ml li yumaloq tubli kolba, shpatel, soat shishasi, 6 ta probirka.

Ishning bajarilishi: 1) polivinilatsetatning ishqoriy (yoki kislotali) alkogolizini o'tkazish; 2) olingan sopolimerning tarkibini gidroksil guruhlarning miqdori orqali topish; 3) olingan sopolimerni va polivinilatsetatning eruvchanligini aniqlash.

Ishqoriy usul. 250 ml li uch og'izli kolbani tomchilatgich voronka, teskari sovutgich va aralashtirgich bilan birga yig'ib, 15 g polivinilatsetat va 100 g etil spirtini solib, $60-70^{\circ}\text{C}$ da suv hammomida qizdirib eritiladi. Olingan eritmani $30-35^{\circ}\text{C}$ gachasovutib, eritmani aralashtirilgan holda natriy gidroksidning spirtdagi 20% li eritmasini qo'shiladi. Ishqorning miqdori polivinilatsetatga nisbatan 1:5 miqdorida hisobga olinadi. Polivinilatsetatni gidrolizi davomida hosil bo'lган polimer iviq holda cho'kmaga tushadi. Reaktsiya 2-3 soat davomida boradi. Iviqsimon mahsulotni shiddat bilan aralashtirib, unga 30 ml sovutilgan etil spirti qo'shiladi, natijada talqonsimon mahsulot hosil bo'ladi. Shundan so'ng aralashmani qaynaguncha qizdirib, gidroliz reaktsiyasini 20-30 daqiqa davomida aralashmani qaynatib davom ettiriladi.

Olingan polimerni Byuxner voronkasida filtrlab, uni oz-ozdan qo'shilgan atseton yoki etil spirti bilan muxit neytral bo'lguncha yuviladi va $50-60^{\circ}\text{C}$ da vakuum quritgich shkafida quritiladi. Filtrlangan polimerni tozalash uchun $60-70^{\circ}\text{C}$ li issiq distillangan suvda eritilib, 5-7 hissa (hajmiy) atseton yoki etil spirt bilan cho'ktiriladi. Cho'ktirib filtrlangan polimerni doimiy og'irlilikka kelguncha vakuum quritgich shkafda quritiladi.

Kislotali usul. 250 ml li uch og'izli kolbani tomchilatgich voronka va teskari sovutgich, aralashtirgich, termometrni birga yig'ib, 10 g polivinilatsetat va 100 g etil spirtini solib, $60-70^{\circ}\text{C}$ da eritiladi. Polimer erib bo'lgandan so'ng, eritmani 30°C gacha sovutilib, uning ustiga tomchilatgich voronkasidan 15 ml etil spirtida eritilgan 3,5 ml sulfat kislotasi qo'shiladi. So'ngra eritmani 4 soat davomida aralashtirgan holda qaynatiladi. Reaktsiya tamom bo'lgandan keyin

kolbadagi aralashmani sovutiladi. Gidroliz natijasida cho'kkан polimer filtrlanadi va yuqorida ishqoriy gidroliz usuli uchun ko'rsatilganidek ishlanadi.

Topshiriq: Olingan polimerning foiz miqdorini, polivinilatsetat va hosil bo'lган polimer eruvchanligini atseton, suv va uglerod (IV) xloridda 0,5-1,0 soat davomida aniqlanadi va jadvalga yoziladi. Gidroksil guruhining miqdorini topib, olingan polimer tarkibi hisoblanadi.

Gidroksil guruhi miqdorini topish

Bu usul gidroksil guruhlar bilan sirka angidridini o'zaro birikib, murakkab efir hosil bo'lishiga asoslanadi.



Atsetillash uchun sirka angidridi va piridin aralashmasi ishlatiladi. Piridin ajralayotgan sirka kislotasini bog'laydi, suv qo'shilganda parchalanadi va ajralayotgan sirka kislotasini ishqor bilan titrlanadi.

0,2- 0,5 g maydalangan va quritilgan gidroksil guruhi tutgan birikma kolbaga solinadi (0,0002 g aniqlikda tortilgan), unga 20 ml atsetillovchi aralashmasi qo'shib, kolbaning bir uchi xlorkaltsiyli nay tutgan havosovutgichiga biriktirib, 1-2 soat davomida qaynayotgan suv hammomida qizdiriladi. Kolbanisovutgandan so'ng sovutgichning yuqori tomonidan 50 ml distillangan suv qo'shiladi va aralashma 2-3 soat uy haroratida ushlagandan keyin 10 daqiqa suv xammomida qizdiriladi. Sovutilgan aralashmani ishqor bilan fenolftalein ishtirokida pushti rang paydo bo'lguncha titrlanadi. Ikki analiz natijasidan o'rtachasi olinadi. Parallel nazorat tajribasi o'tkaziladi.

Gidroksil guruhining miqdori (%) X quyidagi ifodadan hisoblanadi:

$$X = \frac{(V_1 - V_2)K \cdot 0.0085 \cdot 100}{q}$$

V_1 va V_2 - nazorat va analiz uchun olingan namunani 0,5 n natriy gidroksidi eritmasi bilan titrlash uchun sarflangan miqdori, ml; K - 0,5 n natriy gidroksidi eritmasi uchun tuzatish koeffitsienti; 0,0085 - 1 ml 0,5 n natriy gidroksidi eritmasiga to'g'ri kelgan OH⁻ guruhining miqdori, g; q - polimerning og'irligi, g.

Gidroksil soni 1 g moddadagi gidroksil guruhlari bilan reaktsiyaga kirishgan angidridni neytrallash uchun sarf bo'ladigan KOH ning mg da hisoblangan miqdorini ko'rsatadi.

Gidroksil sonini topish uchun poliefirni yuqorida bayon etilgan usul bilan atsetillash reaktsiyasiga uchratiladi. 1-2 g atrofda tortib olingan gidroksil guruhli polimer namunasini 60°C da 2 soat davomida atsetillovchi aralashma bilan qizdiriladi.

Gidroksil soni (GS, mg KOH, g) quyidagi ifoda bilan hisoblanadi;

$$GS = (V_1 - V_2) \cdot F \cdot 0.0028 \cdot 100/g$$

V_1 va V_2 lar nazorat va tajriba namunalarini titrlash uchun sarf bo'lган 0,5 n KOH eritmasini hajmlari, ml; F-0,5 n KOH eritmasi uchun tuzatma koeffitsienti; 0,028 - KOH eritmasini titri, g/ml; g - namunani og'irligi, g;

Gidroksil guruhining miqdoridan foydalanib, polimer tarkibi hisoblanadi:

$$m_1 = \frac{X \cdot A_1}{A_2};$$

m_1 -polimerdag'i gidroksil guruh tutgan zvenolarning miqdori, % (og'irl.);

X - gidroksil guruhlarning miqdori, %;

A_1 -gidroksil guruhli zvenoning (monomer) molekulyar massasi;

A_2 - gidroksil guruhning molekulyar massasi.

2.2-ISH. POLIVINIL SPIRTINI SIRKA ANGIDRIDI BILAN ETERIFIKATSIYALASH

Ishning maqsadi: Polivinil spirtini sirkaga angidridi bilan eterifikatsiyalab polivinilatsetat olish.


Reaktivlar: Polivinil spirti, sirkaga angidridi, natriy atsetati (suvsiz), 0,5 n natriy gidroksid eritmasi, fenolftalein, 0,5 n xlorid kislotasi eritmasi.

Jihozlar: 100 ml.li yumaloq tubli kolba, teskari sovutgich, 2000 ml. hajmli stakan, shisha tayoqcha, Bunzen kolbasi, Byuxner voronkasi, Petri chashkasi, 100 ml li stakanlar, suv hammomi, shpatel, soat shishasi, elektr plitkasi.

Ishning bajarilishi: 1). polivinil spirtini sirkaga angidridi bilan eterifikatsiyalash reaktsiyasini o'tkazish; 2) olingan sopolimerning tarkibini atsetat guruhlar miqdori orqali topish; 3) olingan sopolimerni va polivinil spirtining eruvchanligini aniqlash.

100 ml li kolbani teskari sovutgichga ulab, 4,5 g polivinil spirti, 60 g sirkaga angidridi, 4,5 g natriy atsetati solinadi va 1,5-2 soat davomida suv hammomida, so'ngra elektroplitka yordamida polimer eriguncha qizdiriladi. Olingan eritmani 3/4 qismini issiq suv to'ldirilgan stakanga (2000 ml hajmli) oz-ozdan aralashtirib solinadi. Cho'ktirilgan polimerini Petri chashkasiga solinadi. Stakandagi issiq suvni almashtirib, polimerning keyingi qismi yuqoridagidek ajratiladi. Polimer Byuxner voronkasi yordamida neytral muhitgacha (metiloranj yordamida) yuviladi. Yuvilgan polimerdag'i sirkaga kislotasini to'la yo'qotish uchun oz miqdordagi atsetonda eritiladi va yuqoridagidek issiq suvda cho'ktiriladi. Olingan polimer maydalanganadi va 50-60°C da quritish shkafida quritiladi. So'ngra olingan sopolimer va polivinil spirtining eruvchanligi va sopolimerdag'i atsetat guruhining miqdori aniqlanadi.

Atsetat guruhlar miqdorini aniqlash. Ushbu usul polimerdag'i atsetat guruhlarning ishqoriy gidroliziga asoslanadi va ortiqcha ishqorning miqdori xlorid kislotasi bilan titrlanadi.



Aniqlash usuli. Maydalangan va quritilgan 0,3-1,0 g (atsetat guruhining

miqdoriga qarab) polivinilatsetat (0,0002 g aniqlikda tortilgan) yumaloq tubli kolbaga joylashtiriladi va byuretkadan 50 ml 0,5 n natriy gidroksidi qo'shiladi. Yuqori qismi xlorkaltsiyli nayga biriktirilgansovutgichni kolbaga biriktirib, 5-6 soat davomida qaynayotgan suv hammomida yoki qum hammomda qizdiriladi. Sovutilgan kolbadagi aralashmani 0,5 n xlorid kislotasi eritmasi bilan fenolftalein ishtirokida pushti rang yo'qolguncha titrlanadi. Parallel nazorat tajribasi o'tkaziladi. Ikki tajriba natijasidan o'ttacha qiymat olinadi.

Atsetat guruuhlar miqdori X(%) quyidagi formuladan topiladi:

$$X = (V_1 - V_2) \cdot f \cdot 0.0295 \cdot 100/q$$

V_1 - va V_2 -nazorat va analiz uchun olingan namunani titrlash uchun sarflangan 0,5 n xlorid kislotasining hajmi; ml; f - 0,5 n xlorid kislotasi uchun tuzatish koeffitsienti; 0,0295 - 1 ml 0,5 n xlorid kislotasi eritmasiga to'g'ri kelgan atsetat guruhining miqdori, g; q - sopolimerning og'irligi, g.

Analiz natijalaridan foydalanib, sopolimerdag'i vinilatsetat zvenolari miqdori X (%) ni hisoblanadi.

$$X = (V_1 - V_2) \cdot f \cdot 0.043/q$$

0,043-1 ml 0,5 n xlorid kislotasi eritmasiga to'g'ri kelgan vinilatsetat miqdori.

Sopolimer tarkibi yuqorida (2.1-ish) keltirilgan usulda aniqlanadi. Eterifikatsiyalanish darajasi α (%) quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$\alpha = (\Delta m_{taj}/\Delta m_{naz}) \cdot 100$$

Δm_{taj} -polimer massasining eterifikatsiya natijasida tajribada o'zgarishi; Δm_{naz} -polimer massasining to'liq kimyoviy o'zgarishidan keyingi o'zgarishi.

Topshiriq: Polivinil spirtining sirka angidridi bilan eterifikatsiyalash reaktsiyasini yozing, polivinil spirti va olingan sopolimer eruvchanligini taqqoslang va atsetat guruhlarning miqdori va eterifikatsiyalash darajasini toping.

2.3-ISH. POLIVINIL SPIRTINI FORMALDEGID BILAN ATSETALLASH

Ishning maqsadi: Polivinil spirtini formaldegid bilan spirtli eritmada atsetallab, polivinilformal olish.

Reaktivlar: Polivinil spirti, etil spirti, sulfat kislotasi ($1=1,84$), 37% formalin eritmasi, 10% li bariy xlorid eritmasi, 1 n gidroksilaminning xlorid kislotali tuzi eritmasi, bromfenol ko'ki (zangori).


Jihozlar: 250 ml uch og'izli kolba, teskarisovutgich, 100°C li termometr, Byuxner voronkasi, Bunzen kolbasi, Petri tovoqchasi, 50 ml hajmli stakan, suv hammomi, shpatel, soat shishasi, 500 ml li yumaloq tubli kolba, 8 ta probirka.

Ishning bajarilishi: 1) polivinil spirtini formaldegid bilan atsetallahni o'tkazish; 2) olingan sopolimerdag'i atsetil va gidroksil guruhlar miqdorini aniqlash; 3) polivinil spirti va polivinilformalning eruvchanligini aniqlash.

Reaktsion kolbaga 45 g etil spirti, 37% li formalin eritmasi (uning miqdori 4,1 g formaldegidga teng bo'lishi kerak), 0,15 g sulfat kislotasi

(katalizator)ni solib, uning ustiga 10 g polivinil spirtini aralashtirib solinadi. Suspenziyani bir necha minut aralashtarilgandan so'ng, sekin - asta suv hammomida 70 - 75°C da qizdiriladi va shu haroratda tiniq eritma hosil bo'lguncha atsetallashni davom ettiriladi. Olingan polivinilformalni sovutgandan so'ng, suvda aralashtirib cho'ktiriladi va SO_4^{2-} ionlari qolmaguncha (BaCl_2 bilan sinash) yuviladi. Sopolimerni 40-50°C da vakuum quritgich shkafida doimiy og'irlikka kelguncha quritiladi va massasi aniqlanadi. So'ng polivinil spirti va hosil bo'lgan sopolimerni suvda, atsetonda, etil spirtida va uglerod (IV) xloridda eruvchanligi aniqlanadi. Olingan natajalar jadvalga ko'chiriladi. Shundan so'ng sopolimerdag'i gidroksil (2.1-ishga qarang) va atsetal guruhlaring miqdori aniqlanadi.

Atsetal guruhlarni aniqlash. Bu usul gidroksilaminning xlorgidrati va atsetalning o'zaro birikib, xlorid kislotasi hosil bo'lishi va uning ishqor bilan titrlanishiga asoslangan. Sarflangan ishqorning miqdoridan atsetal guruhlarning yoki vinilatsetat zvenolarining miqdori aniqlanadi.



Aniqlash usuli. 1,5-2 g (0,0002 g aniqlikda tortilgan) maydalangan va quritilgan polivinilatsetalni tagi yumaloq tubli kolbaga solib, ustiga 50 ml etil spirti quyib, teskari sovutgichga ulab, suv hammomida polimer eriguncha yoki juda bo'kkuncha qizdiriladi. Analiz uchun olingan polimer spirtda erimasa, u holda erituvchi sifatida spirt-suv aralashmasi ishlataladi. Spirt-suv nisbatini tajriba yo'li bilan topiladi. So'ngra 25 ml 1 n li gidroksilaminning (spirt yoki suvdagi) eritmasidan solinadi va 1,0-1,5 soat davomida teskari sovutgich bilan yengil qaynaguncha qizdiriladi. Polivinil spirti qoldig'ini eritish uchun teskari sovutgichning yuqori qismlaridan 100 ml suv quyiladi. Aralashmani aralashtirib, yana polivinil spirti eriguncha 10-15 daqiqa qizdiriladi. Eritma sovutiladi va 0,5 n li natriy gidroksidi bilan 4-5 tomchi bromfenol ko'ki ishtirokida sariqdan kulrangga o'tguncha titrlanadi. Parallel nazorat tajribasi o'tkaziladi.

Analiz uchun ikki namuna olinadi va ulardan o'rtacha natijalari qabul qilinadi. Oldindan polivinilatsetaldagi kislotasi soni (1.19-ishga qarang) aniqlanadi va kerakli tuzatma (V3) kiritiladi.

Analiz natijalariga qarab atsetal guruhlarning [-0-CHR-0-] tarkibini X (%) hisoblanadi.

$$X = (V_1 - V_2 - V_3) \cdot f \cdot k \cdot 100/q$$

V_1 va V_2 -nazorat va analiz uchun olingan namunani titrlash uchun sarflangan 0,5 n li natriy gidroksidi eritmasining hajmi, ml; V_3 -atsetalning

kislotali tuzatmasi, ml; f -0,5 n li natriy gidroksidi eritmasining tuzatish koeffitsienti; k -I ml 0,5 n li natriy gidroksidi eritmasiga to'g'ri kelgan atsetal guruhlar miqdori, g; $k=0,5M/1000$, bu erda M-atsetal guruhining [-0-CHR-0-] molekulyar massasi; q-atsetalning og'irligi, g.

Sopolimerdag'i vinilatsetal zvenolarining migdorini quyidagi formula orqali topiladi:

$$X = (V_1 - V_2 - V_3) \cdot fK^1 \cdot 100$$

K^1 -1 ml 0,5 n li natriy gidroksidi eritmasiga to'g'ri keladigan vinilatsetal guruhlarining miqdori, g; $K^1=0,5M^1/1000$, bu erda M^1 -vinilatsetal guruhining molekulyar massasi.

Polivinilatsetal tarkibini aniqlash. Polivinilatsetal makromolekulasida vinilatsetal guruhidan tashqari vinil spirti zvenosi va ozgina vinilatsetat zvenolari bo'ladi. Polivinilatsetal tarkibini hisoblash uchun ikki turdag'i zvenolarning tarkibi topilsa, ularning ayirmasidan uchinchi guruhnini topish mumkin. Shuni nazarda tutish lozimki, bir atsetal zvenosi ikki elementar vinil zvenosini biriktiradi. Shuning uchun atsetal guruhining molyar qismini hisoblashda bir elementar atsetal zvenosi massasiga to'g'ri kelgan atsetal molyar massasining yarmiga bo'lish kerak.

Polivinilatsetalning molyar tarkibi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$A = \frac{m/2 \cdot x \cdot 100}{M}; \quad B = \frac{17y \cdot 100}{M}; \quad C = \frac{59(100-x-y) \cdot 100}{M};$$

A, B va C-makromolekuladagi atsetal, gidroksil va atsetat guruhlarning tarkibi, % massa; m -atsetal guruhning molekulyar massasi; M - 100 elementar zvenoga to'g'ri kelgan polivinilatsetal zanjirining molekulyar massasi.

$$M=27 \cdot 100 + m \cdot x/2 + 17u + 59(100-x-u) = 8600 + X(m/2-59)$$

Topshiriq: Polivinilformal olish reaktsiyasini yozing, olingan sopolimer tarkibini tavsiflang va polivinil spirti, polivinilformal eruvchanligini taqqoslang.

2.4-ISH. POLIVINIL SPIRTINI MOY ALDEGIDI BILAN ATSETALLASH*

Ishning maqsadi: Polivinil spirtini moy aldegidi bilan suvli sharoitda atsetallab, polivinilbutiral olish.

Reaktivlar: Polivinil spirti, moy aldegidi, distillangan suv, sulfat kislotasi ($d=1,84 \text{ g/sm}^3$).

Jihozlar: 250 ml li uch og'izli kolba, teskari sovutgich, tomchilatgich voronkasi, 100°C li termometr, Bunzen kolbasi, Byuxner voronkasi, Petri tovoqchasi, suv hammomi, shpatel, soat shishasi, 8 ta probirka.

Ishning bajarilishi: 1) polivinil spirtini moy aldegidi bilan atsetallahni o'tkazish; 2) sopolimerdag'i atsetal va gidroksil guruhlarning miqdorini

aniqlash; 3) polivinilbutiralning eruvchanligini aniqlash.

250 ml li uch og'izli kolbani teskari sovutgich va tomchilatgich voronkasi bilan yig'ib, unga 100 ml suv solinadi, 60-70°C gacha qizdirib va aralashtirib, oz-ozdan (erish davomida) 10 g polivinil spirtini 30-40 daq. davomida qo'shiladi. So'ngra polivinil spirti eritmasiga 0,6 g kontsentrlangan sulfat kislotasidan qo'shib, eritmaga 9,8 g moy aldegididan aralashtirib qo'shiladi. Reaktsiya 60°C haroratda bir necha daqiqa davomida aralashtirib olib boriladi. Atsetallash natijasida hosil bo'lgan polivinilbutiral cho'kmaga tushadi. Reaktsiya tugagandan so'ng kolbadagi polimerini uy haroratigacha sovutib, Byuxner voronkasida filtrlab, iliq suv (40°C) bilan yuviladi va vakuum-quritgich shkafida 40°C da doimiy og'irlikka kelguncha quritiladi va massasi aniqlanadi. So'ngra polivinil spirti va olingan sopolimerning eruvchanligi suv, etil spirti va uglerod (IV) xloridda aniqlanadi. Olingan natijalar jadvalga ko'chiriladi. Keyin olingan sopolimerdagi atsetal (2.3-ishga qaralsin) va gidroksil (2.1 -ishga qaralsin) guruuhlarining miqdori topiladi.

Sopolimerning tarkibi 2.3-ishda keltirilgan usulda hisoblanadi. Atsetallash darajasi Q (%) quyidagi formuladan hisoblanadi:

$$Q = (\Delta m_{taj}/\Delta m_{naz}) \cdot 100$$

Δm_{taj} -tajriba yo'li bilan topilgan atsetallash natijasida polimer massasining o'zgarishi; Δm_{naz} -polimerning to'la o'zgarishidan keyingi massa o'zgarishi.

Topshiriq. Polivinilbutiral olish reaktsiyasini yozing, sopolimer tarkibini tavsiflang va polivinil spirti bilan sopolimerning eruvchanligini solishtiring. Sopolimer tarkibi va atsetallash darajasini topping.

2.5-ISH. POLIMETAKRIL KISLOTASINI ϵ -KAPROLAKTAM BILAN AMINLASH

Ishning maqsadi: Polimetakril kislotasini ϵ -kaprolaktam bilan aminlab, metakril kislotasi bilan N-metakoiloikaprolaktam sopolimerini olish.

Reaktivlar: Polimetarkril kislotasi, dimetilformamid, ϵ -kaprolaktam, etil spirti, xlorid kislotasining 5-10% li eritmasi, dietil efiri, kaliy gidroksidining 0,1 n li spirtli eritmasi, fenolftalein.

Jihozlar: 250 ml li uch og'izli kolba, teskari sovutgich, 250°C li termometr, hajmi 200 ml li kimyoviy stakan (8 ta), soat shishasi (8 ta), termoregulyatorli moy hammomi, 5 ml li pipetka.

Ishning bajarilishi: 1) polimetakril kislotasi bilan ϵ -kaprolaktam eritmasida aminlashni o'tkazish; 2) reaktsiya jarayonida aralashmadagi karboksil guruuhlar miqdorini aniqlash; 3) olingan sopolimer va polimetakril kislotasining eruvchanligini aniqlash.

250 ml li uch og'izli kolba, teskari sovutgich, termometr va aralashtirgich bilan birga yig'ib, unga 25,8 g polimetakril kislotasi va 100 ml dimetilformamid

quyib, polimer eriguncha aralashtiriladi va 70°C da qizdiriladi. Polimer to'liq erigandan so'ng, 34 g ϵ -kaprolaktam qo'shiladi, so'ng dimetilformamid (153°C) qaynaguncha qizdiriladi. Reaktsiya shu haroratda 4-6 soat davomida olib boriladi. Reaktsiya jarayonida reaktsion aralashmadan 5 ml dan olinadi: birinchisi-komponentlar erigandan so'ng, keyingisi 30 daqiqadan keyin va har soatda dimetilformamid qaynayotganda olinadi. Polimerni ajratish uchun kolbadagi aralashmani 5-10% li xlorid kislotasi tutgan 200 ml.li stakanga aralashtirib quyiladi, ajralgan polimerni distillangan suv bilan xlor ionlari (AgNO_3) qolmaguncha yuviladi. Polimerni tozalash uchun qayta cho'ktiriladi. Olingan 2-3 chi namunalarni spiritda eritib, dietil efirida cho'ktiriladi, qolganlarini dimetilformamidli eritmadan suv bilan cho'ktiriladi. Polimer avval havoda, so'ngra $50-60^{\circ}\text{C}$ da vakuum quritgich shkafida quriladi. Karboksil guruhlarning miqdori (1.14-ishga qarang) aniqlanib, sopolimerning tarkibi aniqlanadi. Natijalar jadvalga yoziladi.

Reaktsiya vaqtি, daqqa	Titrlash uchun olingan polimer og'irligi, g.	Titrlash uchun sarflangan ishqor eritmasining miqdori, ml.	COOH-guruuhlar miqdori, % (massa).

Olingan natijalar asosida karboksil guruhlар miqdori o'zgarishining kinetik bog'liqligi chiziladi. So'ngra polimetakril kislotasi va olingan sopolimerning suv, etil spiriti, atseton va dimetilformamidda eruvchanligi aniqlanadi. Natijalar jadvalga ko'chiriladi.

Topshiriq. Polimetakril kislotasi bilan ϵ -kaprolaktamni aminlash reaktsiyasini yozing, polimetakril kislotasi va sopolimer eruvchanligini taqqoslang.

2.6—ISH. POLIAKRILAMIDNING ISHQORIY GIDROLIZI VA OLINGAN POLIMERNI TAVSIFFLASH*

Ishning maqsadi: Poliakrilamidning suvli eritmasida natriy gidroksidi ishtirokida gidroliz tezligini aniqlash va olingan sopolimerning molekulyar massasini baholash.

Reaktivlar: Poliakrilamidning suvdagi 1% li eritmasi, distillangan suv, natriy gidroksidining 0,05 va 5,0 M eritmasi, xlorid kislotasining 0,1 M eritmasi, natriy xloridning 0,5 va 1,0 M eritmasi.

Jihozlar: Polimerni gidroliz qilish uchun ishlataladigan asbob (10-rasm) elektromexanik aralashtirgich, termostat, sekundomer, viskozimetrik uchun termostat, kapillyari $0.56 \cdot 10^{-3}$ m diametrli viskozimetrik, uzun ignali 2ml li shprits mikrobyuretka, shisha va kumush xlor elektrodi, pH metr, 70 ml li hajmdagi stakan, 50 ml hajmli o'lchov tsilindri, 50 ml li byukslar (8 ta).

Ishning bajarilishi: 1) poliakrilamidning ishqoriy gidrolizini o'tkazish; 2) reaktsion aralashma namunalarining gidroliz darajasini aniqlash; 3) sopolimerning molekulyar massasini uning eritmasi qovushqoqligi orqali aniqlash.

Ishqoriy gidroliz jarayoni 10-rasmida ko'rsatilgan asbobda amalga oshiriladi. 70 ml li reaktsion idishga 50 ml poliakrilamidning 1% li suvli eritmasidan quyib, 50°C li doimiy haroratda aralashtiriladi. Shu haroratga yetgach, reaktsion aralashmaga 2,5 ml natriy gidroksidining 5,0 M eritmasidan qo'shiladi, shunda jarayon boshlangan hisoblanadi. Reaktsiya 50°C da 2 soat davomida olib boriladi. Gidroliz kinetikasi potentsiometrik usul bilan nazorat qilinadi. Gidroliz darajasini aniqlash uchun reaktsiya boshlangandan so'ng 5 daqiqa o'tgach shprits yordamida namuna (2 ml) olinadi. Keyingi namunalar 1 soat davomida har 15 daqiqa va 2 soat davomida har 30 daqiqada olinadi. Polimer gidroliz darajasini aniqlash uchun 50 ml distillangan suv solingan byuksga reaktsion aralashma solinadi va rN-metr yordamida potentsiometrik titrlanadi.

Gidroliz darajasini aniqlash

Polimerning gidrolizlanish darajasini potentsiometrik titrlash asosida gidrolizlangan poliakrilamidning makromolekulasiagi natriy akrilatning miqdori (% mol) aniqdanadi.

$$GD = \frac{(V - V_0) \cdot 71 \cdot 0.001}{\frac{c \cdot V_1}{100} (V \cdot V_0) \cdot N \cdot 23 \cdot 0.001}$$

V va V₀ - analiz va nazorat uchun olingan namunani titrlash uchun sarflangan natriy gidroksidining hajmi, ml; N-natriy gidroksidi eritmasining kontsentratsiyasi; mol/l; S-polimer namunasining kontsentratsiyasi, g; V₁-oligan namunaning hajmi, ml.

Olingan natijalar jadvalga yoziladi.


Namuna olish vaqtি, daq.	Qo'shilgan ishqorning miqdori, ml.	Gidroliz darjasи, % mol.

Natijalarni jamlash. Olingan natijalar asosida poliakrilamidning gidroliz darajasini kinetik o'zgarish egrisi chiziladi.


Sopolimerning molekulyar massasini viskozimetrik usul bilan topiladi. Polimer eritmasining viskozimetrik analiz usuli polimerning molekulyar massasi bobida berilgan. $[\eta]_{sol}/S-S$ bog'liqlik grafigidan $[\eta]$ - xarakteristik qovushqoqlikni topib, sopolimer molekulyar massasi Mark-Kun-Xauvink formulasidan $[\eta]=K \cdot M^\alpha$ aniqdanadi, K na α -konstantalari poliakrilamidning gidroliz darajasiga bog'liqligi (11 -rasm) grafigidan topiladi.

Topshiriq. Poliakrilamidning gidrolizlanish reaktsiyasini yozing. Gidrolizgacha va gidrolizdan keyingi kimyoviy tarkiblarni taqqoslang. Olingan

sopolimerning molekulyar massasini aniqlang.



10-rasm. Polimerni gidrolizlash reaktsiyasi olib boriladigan asbob. 1-reaktor; 2-namuna olinadigan teshik; 3-termometr; 4-arashtirgich; 5-sovutgich; 6-CaCl₂ li shisha nay.



11-rasm. $[\eta] = K \cdot M^\alpha$ tenglamadagi K va α doimiyliklariniig PAA gidrolizlanish darajasiga bog'liqligi.

2.7-ISH. POLIAKRILAMID VA AKRILAMIDNING ISHQORIY GIDROLIZI

Ishning maqsadi: Polimer va monomerning suvli eritmalarida ishqor ishtirokida gidrolizlanish tezligini aniqlash.

Reaktivlar: Poliakrilamidning suvdagi 1% li eritmasi, akrilamidning suvdagi 1% li eritmasi, distillangan suv, natriy gidroksidining 0,05 va 5,0 M eritmasi, xlorid kislotasining 0,1 M eritmasi.

Jihozlar: Polimerni hidroliz qilish uchun ishlatiladigan asbob (10-rasm), elektrik aralashtirgich, termostat, sekundomer, uzun ignali 2 ml li shprits, shisha va kumush xlor elektrodli pH-metr, 20 ml li byuretka, 70 ml hajmli stakan, 2 ml li mikrobyuretka, 50 mlli byukslar (8 ta), 50 ml hajmli o'lchov tsilindri.

Ishning bajarilishi: 1) poliakrilamid va akrilamidning suvli eritmalarida ishqoriy hidroliz o'tkazish; 2) polimer va monomer namunalarining

gidrolizlanish darajasini aniqlash.

Poliakrilamid va akrilamidning gidrolizi 1% li eritmasini 2,5 ml 5 M natriy gidroksidi ishtirokida 2 soat davomida 50°C da olib boriladi. Gidroliz usuli, reaksiyon aralashmalar namunalarini potentsiometrik analizi va gidrolizlanish darajasini hisoblash 2.6-ishda keltirilgan. Olingan natijalar asosida poliakrilamid va akrilamidning gidrolizlanish egri chiziqlari bir grafikda chiziladi.

Topshiriq. Polimer va monomerning ishqoriy gidrolizlanish kinetik egri chiziqlarini taqqoslang.

2.8-ISH. POLIAKRILAMID GIDROLIZINI ISHQOR VA POLIMERNING HAR XIL KONTSENTRATSIYALARIDA O'RGANISH*

Ishning maqsadi: Poliakrilamid gidrolizlanish tezligini ishqor va polimerning turli kontsentratsiyalarida aniqlash va gidroliz reaksiyasining gidrolizlovchi agent va polimer bo'yicha tartibini topish.

Reaktivlar: Poliakrilamidning suvdagi 1% li eritmasi, distillangan suv, natriy gidroksidining 0,05 va 5 M eritmasi, xlorid kislotasining 0,1 M eritmasi.

Jihozlar: Polimerni gidroliz qilish uchun ishlatiladigan asbob (10-rasm), elektromexanik aralashtirgich, termostat, uzun ignali 2 ml li shprits, shisha va kumush xlorid elektrodli pH-metr, magnitli aralashtirgich, 70 ml hajmli stakan, 50 ml li byukslar (8 ta), 50 ml hajmli o'lchov tsilindri, 2 ml li mikrobyuretka.

Ishning bajarilishi: 1) polimerning (ishqorning kontsentratsiyasi doimiy) va ishqorning (polimerning kontsentratsiyasi doimiy) turli kontsentratsiyalarda poliakrilamidning ishqoriy gidrolizini o'rganish; 2) reaksiyon aralashma namunalarida gidroliz mahsulotining kimyoviy tarkibini aniqlash; 3) polimer va ishqor bo'yicha poliakrilamidning gidrolizlanish reaksiya tartibini aniqlash.

10-rasmdagi reaksiyon idishga poliakrilamidning 1% li eritmasidan 50 ml solib, termostat haroratini 50°C gacha ko'tariladi va shu haroratga yetgach, reaksiyon aralashmaga 2,5 ml 5 M natriy gidroksidi qo'shiladi va shu ondan reaksiya boshlangan hisoblanadi. Reaksiyani 2 soat davomida 50°C da olib boriladi va potentsiometrik titrlash uchun 2 ml dan namunalar olinadi. Birinchi namunani 5 daq. dan so'ng, qolganlarini 1 soat davomida har 15 daqiqada va 2 soat davomida har 30 daqiqada olinadi.

Poliakrilamidning gidroliz darajasini potentsiometrik aniqlash usuli 2.6-ishda berilgan.

Xuddi shunga o'xshash tajribalarni gidrolizlovchi agentning turli kontsentratsiyalari bilan olib boriladi. Buning uchun reaksiyon idishga poliakrilamidning 1% li eritmasidan 50 ml dan solib, unga 1,5; 1,0 va 0,5 ml dan natriy gidroksidining 5 M eritmasidan qo'shiladi. Har bir tajriba natijalari jadvalga yoziladi.

Natijalarini jamlash. Olingan natijalar asosida bir grafikda poliakrilamidning gidroliz darajasini 4 xil kontsentratsiyadagi gidrolizlovchi agentlar uchun kinetik o'zgarishi egri chizig'i chiziladi. Egri chiziqning boshlanish qismidan o'tkazilgan urinmaning og'ish burchak tangensi gidrolizning boshlang'ich tezligi V ning qiymatini beradi. Keyin V va natriy gidroksidining kontsentratsiyasi qiymatlari logarifmlanadi. Tajriba natijalari jadvalga yoziladi.

№	NaOH, mol/l	lg [NaOH]	V,% (mol')/daq	lgV

Olingan natijalar asosida $\lg V - \lg [NaOH]$ bog'liqlik grafigi chiziladi va hosil bo'lган to'g'ri chiziqning abtsissa o'qiga nisbatan burchak tangensidan natriy gidroksidi bo'yicha poliakrilamidning gidrolizlanish reaktsiyasi tartibi topiladi.

Polimer bo'yicha reaktsiya tartibini aniqlash uchun natriy gidroksidining berilgan kontsentratsiyasida polimerning har xil kontsentratsiyalarida tajribalar o'tkaziladi. Buning uchun poliakrilamidning 1% li eritmasi distillangan suv bilan suyultirilib, 50 ml dan 0,75; 0,5 va 0,25% li polimer eritmalari tayyorlanadi va magnit aralashtirgich yordamida aralashtirilib, har biriga natriy gidroksidining 5 M eritmasidan 2,5 ml dan qo'shiladi. Olingan natijalar jadvalga yoziladi.

Namuna olingan vaqt	[PAA], mol/l	Qo'shilgan ishqor miqdori, ml	Gidroliz darjası, % (mol)

Natijalar asosida gidrolizlanish tezligining polimer kontsentratsiyasiga bog'liqlik kinetik egri chizig'i grafigi chiziladi. Kinetik egri chiziqdan gidrolizning boshlang'ich tezligi topiladi, logarifmlanadi va natijalar quyidagi jadvalga yoziladi.

№	[PAA], mol/l	lg [PAA]	V, % (mol)/min	lgV

$\lg V - \lg [PAA]$ bog'liqlik grafigi chiziladi va hosil bo'lган to'g'ri chiziqning abtsissa o'qiga nisbatan burchak tangensidan poliakrilamid bo'yicha reaktsiya tartibi topiladi

Topshiriq. Poliakrilamid gidroliziga polimer va gidrolizlovchi agent kontsentratsiyasi ta'sirini tushuntiring.

2.9-ISH. TURLI HARORATLARDA POLIAKRILAMIDNING ISHQORIY GIDROLIZI*

Ishning maqsadi: Turli haroratlarda poliakrilamidning suvdagi eritmalarini ishqoriy gidrolizi tezligini aniqdash va gidroliz jarayonining faollanish energiyasini hisoblash.

Reaktivlar: Poliakrilamidning suvdagi 1% li eritmasi, distillangan suv, natriy gidroksidining 0,05 va 5 M eritmasi, xlorid kislotasining 0,1 M eritmasi.

Jihozlar: Polimerini gidroliz qilish uchun ishlataladigan asbob (2.3-rasm), elektromexanik aralashtirgich, termostat, sekundomer, uzun ignali 2 ml li shprits, shisha va kumush xlorid elektrodli pH-metr, magnitli aralashtirgich, 20 ml li byuretka, 70 ml hajmli stakan, 2 ml.li mikrobyuretka, 50 ml.li byukslar (8 ta), 50 ml hajmli o'lchov tsilindri.

Ishning bajarilishi: 1) turli haroratlarda poliakrilamidning suvdagi eritmasida ishqoriy gidroliz o'tkazish; 2) reaktsion aralashmadan olingan polimer namunalarining gidrolizlanish darajasini aniqlash; 3) gidroliz jarayonining faollanish energiyasini hisoblash.

2.3-rasmdagi reaktsion idishga poliakrilamidning 1% li eritmasidan 50 ml solib, termostat haroratini 50°C gacha qizdiriladi va shu haroratga yetishgach, reaktsion aralashmaga 2,5 ml 5 M li natriy gidroksidi qo'shiladi va shu vaqt dan reaktsiya boshlangan hisoblanadi. Reaktsiyani 2 soat davomida 50°C da olib boriladi va potentsiometrik titrlash uchun 2 ml dan namunalar olinadi. Birinchi namunani 5 daqiqadan so'ng, qolganlarini 1 soat davomida har 15 daqiqada va 2 soat davomida har 30 daqiqada olinadi.

Poliakrilamidning gidrolizlanish darajasini potentsiometrik aniqlash usuli 2.6-ishda berilgan.

Xuddi shunga o'xshab tajribalarni 40, 60 va 70°C larda olib boriladi. Olingan natijalarни quyidagi jadvalga ko'chiriladi.

№	Namuna olingan vaqt, daqiqa	Tajriba harorati, $^{\circ}\text{C}$	Qo'shilgan ishqor, ml.	Gidroliz darajasi, % (mol).

Natijalarini jamlash. Olingan natijalar asosida bir grafikda poliakrilamidning gidrolizlanish darajasini 4 xil harorat uchun kinetik o'zgarish egri chizig'i chiziladi. Egri chiziqning boshlanish qismidagi o'tkazilgan urinmaning og'ish burchak tangensi gidrolizning boshlang'ich tezligi V ning qiymatini beradi. Olingan natijalar quyidagi jadvalga ko'chiriladi.

№	Harorat, K	V, % (mol)/min	Lg V	E, kJ/mol

Jadvaldag'i natijalar asosida IgV-1/T grafigi chiziladi va abtsissa o'qiga nisbatan hosil bo'lgan to'g'ri chiziqning burchak tangensidan poliakrilamidning ishqoriy gidrolizi faollanish energiyasi aniqlanadi $E = (4,57t\alpha) - 4,19$

Topshiriq. Poliakrilamidning ishqoriy gidrolizlanish kinetikasiga haroratning ta'sirini tushuntiring.

2.10-ISH. POLIMETILMETAKRILATGA VINILATSETATNI PAYVANDLASH

Ishning maqsadi: Polimetilmekrilit va vinilatsetat asosida payvand sopolimer olish.

Reaktivlar: Polimetilmekrilit, vinilatsetat, benzoil peroksidi, atseton, etil spirti.

Jihozlar: Shisha ampula (3 ta), shisha stakanlar (4 ta), Byuxner voronkasi, Bunzen kolbasi, inert gaz, termostatlar (3 ta).

Ishning bajarilishi: 1) polimetilmekrilitga vinilatsetatning payvandlash reaksiyasini o'tkazish; 2) payvandlash reaksiyasi natijasida namuna massasining o'zgarishini aniqlash.

100 ml hajmli stakanda 10 g vinilatsetatda 2,5 g polimetilmekrilit eritiladi. Polimer erigandan so'ng unga 0,05 g benzol peroksididan solib, aralashma aralashtiriladi. Olingan eritma uch ampulaga teng bo'linadi. Ampulalardagi eritmalarga 5 minut davomida inert gaz yuboriladi va ampulalar kovsharlab, termostatlarda 5 soat davomida kerakli haroratlarda (I ampula 70°C , II ampula 80°C va III ampula 90°C da) ushlanadi.

Reaksiya tugagach, ampulalarni termostatdan olib, suvda uy haroratigachasovutiladi va ehtiyyotlik bilan (sochiqqa o'rab) sindiriladi. Ampuladagi mahsulotni 4-5 ml atsetonda eritiladi va to'xtovsiz aralashtirish bilan 5 hissa ko'p etil spirtida cho'ktiriladi. Olingan polimer cho'kmasini dekantatsiyalanadi, cho'ktiruvchi bilan yuviladi, Byuxner voronkasida filtrlanadi va vakuum-quritgich shkafda $20-30^{\circ}\text{C}$ da doimiy og'irlilikka kelguncha quritiladi.

Gomopolimer polivinilatsetat eritmada qoladi, uni suv bilan cho'ktirib ajratiladi.

Payvandlash natijasida namuna massasining o'zgarishi X - ni (%) quyidagi formuladan topiladi:

$$X = (\Delta m_{pr} / \Delta m_{bosh}) \cdot 100$$

Δm_{pr} -payvandlash natijasida namuna massasining o'zgarishi; m_{bosh} -namunaning payvandlashgacha bo'lgan massasi.

So'ngra payvandlangan sopolimerni va polimetilmekrilitni atseton, spirt, dimetilformamid va uglerod (IV) xloridda eruvchanligi aniqlanadi. Olingan natijalar jadvalga yoziladi. Natjalarni yozish tartibi 2.1-ishda

keltirilgan.

Topshiriq. Polimetilmekrilat va vinilatsetat asosida payvandli sopolimer olish reaktsiyasini yozing va olingan sopolimer va polimetilmekrilat eruvchanliklarini taqqoslang.

2.11-ISH. SINTETIK (YOKI TABIIY) KAUCHUKKA METILMETAKRILATNI PAYVANDLASH

Ishning maqsadi: Zanjir uzatilish usuli bilan butadien kauchukka (yoki tabiiy kauchukka) payvandlangan polimetilmekrilat olish va har xil cho'ktiruvchilar ishtirokida eritmadan cho'ktirilgan polimerning xossalarini tekshirish.

Reaktivlar: Tabiiy yoki butadien kauchugi, metilmekrilat, benzoil peroksidi, toluol, etil spirti, benzol, atseton, petrolein efiri.

Jihozlar: 100 ml li uch og'izli kolba, suv hammomi, teskari sovutgich, 150⁰C li termometr, 2 ta Petri chashkasi, elektromexanik aralashtirgich, latr (reostat).

Ishning bajarilishi: 1) polibutadienga metilmekrilatni payvandlash reaktsiyasini o'tkazish; 2) payvand sopolimer xossalarini o'rganish.

100 ml hajmli uch og'izli kolbaga kauchukning toluoldagi 1,5-2,0% li eritmasidan 20-25 ml solib, uning ustiga 5 ml metilmekrilat va 5 mg benzoil peroksid aralashmasini qo'shib, teskari sovutgich kolbaga ulanadi va reaktsion aralashma orqali 15-20 daqiqa davomida inert gaz (azot) o'tkaziladi. Gaz o'tkazishni to'xtatmasdan aralashmani aralashtirgan holda kolbani suv hammomida 98-100⁰C gacha qizdiriladi (qizdirish 75⁰C gacha tez, so'ngra haroratni daqiqasiga 1-1,5⁰C dan ko'tarish kerak). Payvandlash reaktsiyasini 1-1,5 soat davomida 98-100⁰C haroratlarda olib boriladi. Reaktsiya tugagach, inert gaz yuborishni to'xtatib, asboblar ajratiladi va reaktsion aralashma 60 ml etil spirti solingan 250 ml li yumaloq tubli kolbaga o'tkaziladi. Bunda nima hodisa yuz berishi kuzatiladi. 10-15 daqiqa o'tgandan keyin erituvchi maxsus idishga quyiladi. Asbob yig'ilgach, ketma-ket payvand sopolimer aralashmasidan gomopolimerlar (polimetilmekrilat va kauchuk) quyidagicha ekstraksiya qilinadi.

Polimetilmekrilatni ajratish. Polimer eritmasiga 30 ml atseton quyib, teskari sovutgichni ulab, 15 daqiqa davomida qizdiriladi. Hosil bo'lган eritmani cho'kmadan ajratib, maxsus idishga quyiladi.

Sintetik (tabiiy) kauchukni ajratish. Qolgan polimerlar eritmasiga 100 ml petrol efiri quyib, teskari sovutgichga ulab, 30 daqiqa davomida suv hammomida qizdiriladi. Eritmani cho'kmadan ajratib, maxsus idishga quyiladi. Qolgan cho'kmaga 5-10 ml benzin quyib, uni 15-20 daqiqa davomida qizdirib eritiladi. Eritmani 50 ml li stakanga quyib, ikki qismga ajratiladi.

Payvand polimerni ajratish. Polimer eritmasi quyilgan birinchi stakanga asta-sekin 15 ml etil spirti, ikkinchisiga esa 15 ml petrol efiri quyiladi. Qanday

hodisa yuz berishi kuzatiladi. Polimerlarni 60-65°C da 30 daqiqa davomida vakuumda quritiladi.

Topshiriq. Polibutadien kauchugi va metilmekrilat asosida payvand polimer olish reaktsiyasini yozing va olingan polimerning erituvchilarda eruvchanligini hamda fizikaviy-mexanik xossasini (elastikligini) dastlabki polimer bilan solishtiring.

2.12-ISH. TSELLYULOZANING MURAKKAB EFIRLARINI OLİSH (ish mo'rili shkaf ostida bajariladi)

Ishning maksadi: Tsellyulozaning diatsetat bilan triatsetat efirlarini olish.

Reaktivlar: Tsellyulzoza, konts. sulfat kislota, suvsiz sirka kislota (muzsimon), sirka angidridi, metilenxlorid, metanol, benzol, etanol.

Jihozlar: 250 ml li keng og'izli kolba yoki zich berkitiladigan qopqoqli shisha idish, shisha tayoqcha, 200-250 ml hajmli stakan, elektroplitka, 100°C li termometr.

Ishning bajarilishi: 1) tsellyulzoza diatsetat va triatsetat efirlarini olish: 2) olingan tsellyulzoza hosilalarining xossalari solishtirish.

2 g maydalangan tsellyulozani 250 ml li keng og'izli kolbaga solib, uning ustiga 3 ml konts. sulfat kislotasi bilan 7 ml sirka kislota aralashmasi qo'shiladi. Tsellyulzoza bir xilda ho'llash uchun shisha tayoqcha bilan aralashma aralashtiriladi. Kolba og'zini shisha yopqich (probka) bilan mahkam berkitib, uy haroratida 15 daqiqa qoldiriladi. Keyin kolbadagi aralashma ustiga 15 ml toza sirka angidridi bilan 5 ml sirka kislota aralashmasi quyiladi va kolba og'zini berkitib, 50°C li suv hammomida qizdiriladi. 15 daqiqa o'tgandan keyin tsellyulzoza eriydi va 20 daqiqadan so'ng reaktsiya tugaydi. Olingan eritmani teng ikki qismga bo'lib, tsellyulzoza diatsetati va tri atsetati olish uchun keyin foydalaniladi.

1. Tsellyulzoza triatsetatini olish

Olingan eritmaning bir qismini ehtiyojkorlik bilan 250 ml li stakanga quyib, undagi ortiqcha sirka angidridini parchalash uchun unga 8 ml 80% li sirka kislota (60°C) qo'shiladi. Bunda tsellyulzoza atsstatni ni cho'ktirmaslikka e'tibor berish kerak. Eritmani 60°C da 5 minut davomida qizdirilgandan so'ng tsellyulzoza triatsetati oson yuviladigan oq g'ovak cho'kma holida cho'kadi. Cho'kmani filtrlab, 100 ml distillangan suv bilan yuvib, 15 daqiqadan keyin dekantatsiya qilinadi. Oqava suv neytral sharoitga kelguncha yuvish davom ettiriladi. Filtrlash yo'li bilan polimerni suvdan ajratiladi va 150°C da doimiy og'irlikka kelguncha quritiladi.

2. Tsellyulzoza diatsetatini olish. Tsellyulzoza diatsetatini olish uchun eritmani ikkinchi qolgan qismiga 60°C da isitilgan 10 ml 70% li sirka kislotasi bilan 3-4 tomchi sulfat kislota aralashmasi sekin-asta aralashtirib quyiladi. Reaktsion aralashmani berkitilgan holda 1-1,5 soat davomida 80°C da ushlab, xuddi 1 -

punktida ko'rsatiltanidek ishlanadi.

Topshiriq: a) tsellyuloza diatsetatini olish reaktsiyasini yozing; b) tsellyuloza diatsetati miqdorini foizlarda aniqlang; v) tsellyuloza diatsetati metilenxlorid va metanol (9:1) aralashmasi va atsetonda eruvchanligini kuzating.

Atsetal guruuhlar miqdorini aniqlash

3 ta 250 ml li konussimon kolbalarga tsellyulozaning monoatsetat, diatsetat va triatsetat efirlaridan 0,2 g dan olib, har birini 20 ml ertuvchida (2 ml distillangan suv bilan 18 ml atseton aralashmasi) eritib, 20 ml 0,5 n natriy gidroksidi eritmasidan quyib, 45 daqiqa qoldiriladi. Eritmani filtrlab, 0,5 n li sulfat yoki xlorid kislota eritmasi bilan titrlanadi. Bir vaqtning o'zida polimer namunasiz tajriba o'tkaziladi. Namunasiz o'tkazilgan tajribada atsetonga yutilgan ishqor uchun kerakli tuzatma aniqlanadi.

Hisoblash: Bog'langan sirka kislota miqdorini foiz hisobida (X) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$X = \frac{0.03 \cdot (V_1 - V_2)}{Q} \cdot 100 = \frac{3 \cdot (V_1 - V_2)}{Q} K$$

bunda: V_1 -namunasiz eritmani titrlash uchun ketgan 0,5 n li sulfat kislotasi hajmi, ml; V_2 -atsetatlarni titrlash uchun ketgan 0,5 n li sulfat kislotasi hajmi, ml; K-sulfat kislota eritmasi kontsentratsiyasini aniq 0,5 n ga keltirish uchun kerakli tuzatma koeffitsienta; q-tsellyuloza atsetatining og'irligi, g; 0,03-1 ml 0,5 n sulfat kislotasiga to'g'ri kelgan sirka kislota og'irlik miqdori, g.

Atsetil guruuhlar miqdorini topish uchun bog'langan sirka kislota miqdori (X) ni 0,7167 ga ko'paytiramiz:

$$\text{atsetil guruuhlar \% miqdori} = X \cdot 0,7167$$

2.13-ISH. KARBOKSIMETILSELLYULOZA OLİSH

Ishning maqsadi: Tarkibida karboksil guruh tutgan tsellyuloza olish.

Reaktivlar: Ishqoriy tsellyuloza, natriymonoxloratsetat, metil spirti.

Jihozlar: 250 ml sigimli, ogzi mahkam yopiladigan kolba-1 dona, chayqatish asbobi, Byuxner voronkasi, chinni kosacha, Sokslet asbobi, 1 l.li stakan.

Ishning bajarilishi. Tsellyulozaga kontsentrlangan ishqor eritmasi ta'sir ettirilsa, ishqoriy tsellyuloza hosil bo'ladi. Natijada tsellyulozaning kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalari o'zgaradi.

Tarkibida 30% atrofida alfa-tsellyuloza bo'lgan ishqoriy tsellyulozadan 10 g va natriymonoxloratsetatdan 8 g chinni kosachada shisha tayoqcha bilan 20 daqiqa davomida yaxshilab aralashtiriladi. Aralashma 250 ml li kolbaga solinib, chayqatish asbobi yordamida 1 soat chayqatiladi. Shundan keyin kolba oldin 45°C li termostatda 4 soat, so'ngra uy haroratida bir necha soat saqlanadi.

Hosil bo'lgan modda 60 ml suvda eritilib, 1 l.li stakanga quyiladi. Stakandagi eritmaga asta-sekin metil spirti quyilsa, karboksimetiltellyuloza cho'ka boshlaydi. Cho'kma Byuxner voronkasida filtrlab olinib, hovonchada ozgina metil spirti bilan aralashtiriladida, yana filtrlanadi. Karboksimetiltellyuloza tarkibidagi osh tuzini yo'qotish uchun u Sokslet asbobiga solinib, metil spirti bilan 20-24 soat ekstraktsiya qilinishi kerak.

Topshiriq. a) Hosil bo'lgan karboksimetiltellyulozaning miqdori aniqlansin; b) karboksimetiltellyulozaning efirlanish darajasi aniqlansin.

Karboksimetiltellyuloza (KMTS) ning efirlanish darajasini aniqlash Bu usul KMTS ning misli tuzini hosil qilib, undagi mis miqdorini aniqlashga asoslangan. KMTS ning misli tuzi quyidagicha hosil qilinadi: KMTS ning natriyli tuzidan 8 g olib, 1 l li stakanda 800 ml distillangan suvda eritiladi. Eritma sulfat kislotaning 0,1 n li eritmasi yordamida fenolftalein ishtirokida neytrallanadi. Eritmada kuchsiz kislota muhiti hosil qilishi uchun unga 0,1 n li sulfat kislota eritmasidan 5 ml qo'shiladi. Hosil bo'lgan tiniq eritma filtrlanib, uning ustiga mis sulfatning 0,25 n li eritmasidan byuretka yordamida 150 ml quyiladi. Karboksimetiltellyulozaning misli tuzi to'la cho'kishi uchun u uy haroratida 20 daqiqa saqlanadi. So'ngra KMTS ning cho'ktirilgan misli tuzi chinni hovonchaga ohistalik bilan olinadi. Hovonchadagi tuz ustiga 30 ml etil spirti solib aralashtiriladi va spirtning 20 % li eritmasi bilan bir necha marta dekantatsiya qilinadi. So'ngra tuzga yana 30 ml spirt qo'shib, u yana 3-4 marta yuviladi. Natijada tuz tarkibidagi sulfat ionlari yuvilib ketadi. KMTS ning tozalab yuvilgan misli tuzini siqib, uning tarkibidagi suyuqlik chiqarib yuboriladida, tuzning o'zi soat shishasiga solinib, 40°C da 20 daqiqa quritiladi. KMTS ning hosil bo'lgan tuzi maydalanib, undagi misning miqdori va namligi aniqlanadi. Mis miqdorini aniqlash asosida KMTS ning efirlanish darajasi topiladi.

Misning miqdori quyidagicha aniqlanadi:

250 ml li konussimon kolbaga KMTS ning misli tuzidan 0,5-0,6 g va distillangan suvdan 100 ml solinadi. Natijada tuzning suvdagi suspenziyasi hosil bo'ladi. Uning ustiga ammiakning 5% li eritmasidan 5-8 ml tomiziladi. Agar suspenziya tinmasa, ammiak eritmasidan 2-3 ml quyiladi.

Bunda eritma oqara boshlaydi. So'ngra eritma ustiga sirkva kislotaning 6 n li eritmasidan 5 ml va 15 g kaliy yodid solinadi. Oradan 2 daqiqa o'tgach, eritma natriy tiosulfatning 0,1 n li eritmasi bilan titrlanadi.

KMTS dagi mis miqdori quyidagicha topiladi:

$$\text{mis miqdori} = \frac{a \cdot 0.006357 \cdot 100}{V}$$

bunda: a-0,1 n li natriy tiosulfat eritmasining titrlashga sarflangan miqdori, ml hisobida; v-KMTS ning mutlaqo suvsiz holdagi og'irligi, g; 0,006357-natriy

tiosulfatning 0,1 n.li eritmasidagi 1 ml ga to'g'ri kelgan misning miqdori, g.

So'ngra KMTS ning efirlanish darajasi (γ) quyidagi formula bilan hisoblab topiladi:

$$\gamma = \frac{Cu \cdot 100}{12.67};$$

bunda: Cu-misning miqdori, %; 12,67-KMTS ning monoefiridagi mis miqdori.

2.14-ISH. TSELLYULOZANING TSIAN ETIL EFIRINI OLISH

Ishning maqsadi: Tarkibida tsian guruhi tutgan tsellyuloza birikmasini olish.

Reaktivlar: Paxta momig'i, akrilonitril, natriy gidroksidining 0,75% li eritmasi, benzol.

Jihozlar: Teskari sovutgich bilan jihozlangan yumaloq tubli kolba, Byuxner voronkasi, suv hammomi.

Ishning bajarilishi: 1-usul. 250 ml li konussimon kolbaga paxta momig'idan 2 g va natriy gidroksidining 0,75% li eritmasidan 100 ml solinib, kolba 15 daqiqa beto'xtov chayqatiladi. So'ngra momiq ikki varaq filtr qog'oz orasiga olinib ishqor eritmasi momiqning og'irligi 3,4 g ga kelguncha siqib chiqariladi. Momiq ikkita qisqich bilan tililadida, 150 ml li kolbaga solinib, usgiga 10 ml akrilonitril va 40 ml benzol kuyiladi. Kolba 85°C li suv hammomida 1 soat isitiladi. Hosil bo'lган tsianetiltsellyuloza Byuxner voronkasida filtrlanib, avval metanol, keyin suv bilan neylrallanguncha yuviladi. Olingan efir 80-90°C da og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi.

2-usul. 150 ml li kolbaga 2 g paxta momig'i, 10 ml akrilonitril 40 ml benzol va natriy gidroksidning 1,25% li eritmasidan 15 ml solinadi. Aralashma vaqtı-vaqtı bilan chayqatilib turilgan holda 85°C li suv hammomida 1 soat isitiladi. So'ngra hosil bo'lган tsianetiltsellyuloza avval metanol, keyin suv bilan yaxshilab yuviladida, 80-90°C da og'irligi o'zgarmay qolguncha quritiladi.

Topshiriq. a) Hosil bo'lган tsianetiltsellyulozaning miqlori aniqlansin; b) tsianetiltsellyulozaning efirlanish darajasi aniqlansin.

2.15-ISH. YOG'OCH QIPIG'IDAN TSELLYULOZA OLISH

Ishning maqsadi: Yog'och qipigidan tsellyuloza olish.

Reaktivlar: Yog'och qipig'i, 3% li nitrat kislota eritmasi, natriy gidroksidining 3% li eritmasi.

Jihozlar: 200 ml li stakan, Byuxner voronkasi.

Ishning bajarilishi: 200 ml li stakanga 60 ml 3% li nitrat kislotasi eritmasi va 3 g yog'och qipig'i solinib, aralashma 1 soat davomida qaynatiladi. So'ngra stakandagi kislota eritmasi to'kib tashlanib, tsellyuloza bor namuna

Byuxner voronkasidan o'tkaziladi va 50 ml qaynoq distillangan suv bilan 4-5 marta yuviladi. Keyin u yana stakanga solinib, ustiga natriy gidroksidining 3% li eritmasidan 60 ml quyib, 1 soat davomida qaynatiladi. Shundan keyin ishqor eritmasi to'kib tashlanib, olingan tsellyuloza qaynoq distillangan suv bilan elyuat neytral muhitga kelguncha yuviladi va 105°C da doimiy og'irlilikka kelguncha quritiladi. Ko'pincha olingan tsellyulozaning miqdori dastlabki namuna miqdorining 40-43% ini tashkil qiladi.

Topshiriq. Olingan tsellyulozaning mis-ammiak eritmasida eruvchanligi va uning unumi (%) aniqlansin.

2.16-ISH. POLIAKRILONITRIL (NITRON) TOLASI ASOSIDA TOLASIMON ANIONIT OLISH

Ishdan maqsad: Poliakrilonitril (nitron) asosida anion almashinuvchi tolasimon polimer sintez qilish.

Reaktivlar: Nitron tolasi, gidroksilaminning sulfat kislotali tuzi, 0,1 n li HCl va NaOH eritmalar, 1% li fenolftalein eritmasi.

Jihozlar: Suv xammomili maxsus rektor,sovutgich, elektromexanik aralashtirgich, 250 ml sig'imli yassi tubli kolba, termometr, stakanlar, byuretka, alikvot pipetkalar (10; 50 ml).

Ishning borishi: 3 gr gidroksilaminning sulfat kislotali tuzi, 1,46 g NaOH yoki 2,04 g KOH tortib olinadi va 95 ml distillangan suvda eritiladi. Qaytar sovutgich bilan ta'minlangan 150 ml sig'imli kolbaga ushbu eritma solinadi va 90-95°C haroratgacha qizdiriladi. So'ngra 1 g atrofida tola analistik tarozida tortib olinib ushbu reaksiyon aralashmaga sekin asta shisha tayoqcha yordamida solinadi. Reaksiya jarayoni 0,5-1,0 soat davom ettirilgandan so'ng tola reaksiyon muhitdan chiqarib olib neytral sharoitgacha distillangan suv bilan yuviladi. Havoda quritiladi va massasi o'lchanib HCl eritmasi bo'yicha statik almashuv sig'imi (SAS) aniqlanadi.

Anionitning statik almashinish sig'imi (SAS) ni aniqlash

Hajm 250 ml bo'lgan tagi yassi kolbaga analistik tarozida o'lchanagan 0,5 g OH⁻ shaklidagi anionit solinib, ustiga byuretka yordamida 100 ml 0,1 n li HCl eritmasi solinadi. Kolbani vaqtigaqtib bilan chayqatib turgan xolda 24 soat qoldiriladi. Keyin eritma filtrlanib, filtratdan 25 ml alikvot qism olib, fenolftalein ishtirokida 0,1 n li NaOH eritmasi bilan titrlanadi.

Statik almashinish sig'imi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$SAS = \frac{100 \cdot K - \frac{100}{V} \cdot a \cdot K_1}{10 \cdot g} \quad [mg - ekv/g]$$

a- titrlash uchun sarf bo'lgan 0,1 n NaOH eritmasining hajmi, ml; V- alikvot qism hajmi, ml; K- HCl ni kontsentratsiyasini 0,1 n ga keltirish uchun

qo'llaniladigan tuzatish koeffitsenti; K₁- NaOH ni kontsentratsiyasini 0,1 n ga keltirish uchun qo'llaniladigan tuzatish koeffitsenti; g- anionit og'irligi, g.

Olingan polimerning massasi qancha % ga oshganligi (Δm , % da) quyidagi formula asosida topiladi: $\Delta m = \frac{m_2 - m_1}{m_1} \cdot 100$.

bu erda Δm - polimer massasining oshganligi, %; m₁- nitron tolasining dastlabki massasi, g; m₂- nitron tolasining reaktsiyadan keyingi massasi, g.

Topshiriq:

Nitronni gidroksilamin bilan modifikatsiyalanish reaktsiyasini yozing.

2.17-ISH. POLIAKRILONITIRIL (NITRON) TOLASINING GIDROLIZLANISH KINETIKASINI O'RGANISH

Ishning maqsadi: Poliakrilonitiril (PAN, nitron) tolasini natriy gidroksidi ishtirokida gidrolizlanish darajasini vaqtga bog'liqligini o'rGANISH.

Reaktivlar: Nitron tolesi, HCl va NaOHning 0,1 N, fenolftaleinning 1% li eritmalar.

Jihozlar: Suv nammomili maxsus rektor, elektromexanik aralashtirgich,sovutgich, 250 ml sig'imli yassi tubli kolba, termometr, stakanlar, byuretka, alikvot pipetkalar (10; 25; 50; 100 ml).

Ishning bajarilishi: Ishqoriy gidroliz jarayoni teskari sovutgich, aralashtirgich va termometr bilan jihozlangan termostatda amalga oshiriladi. Hajmi 250 ml bo'lган uch og'izli kolbaga NaOH ning 1% li eritmasidan 150 ml solinib suv hammomida 80°C gacha qizdiriladi. Ushbu eritmaga 5 bo'lak nitron tolesi (har birining massasi 1,0 g atrofida) tushirilib 80°C haroratda aralashtirilib reaktsiya davom ettiriladi. Gidroliz darajasini aniqlash uchun reaktsiya boshlangandan so'ng 30 daqiqa o'tgach, pintset yordamida 1-nitron tolesi namunasi olinadi. keyingi namunalar har 30 daqiqadan so'ng olinadi.

Olingan namunalarning barchasi neytral sharoitgacha distillangan suv bilan yuviladi. Havoda quritiladi va HCl eritmasi bo'yicha statik almashuv sig'imi (SAS) aniqlanadi va gidrolizlanish darajasi hisoblanadi.

Statik almashinish sig'imi (SAS) ni aniqlash

Hajmi 250 ml bo'lган yassi tubli kolbaga analitik tarozida o'lchangan 0,5 g tolalarni solinib, ustiga byuretka yordamida 100 ml 0,1 n li HCl eritmasi solinadi. Kolbani vaqtiga bilan chayqatib turgan xolda 24 soat qoldiriladi. Keyin eritma filtrlanib, filtratdan 25ml alikvot qism olib, fenolftalein ishtirokida 0,1 n li NaOH eritmasi bilan titrlanadi.

Statik almashinish sig'imi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$SAS = \frac{100 \cdot K - \frac{100}{V} \cdot a \cdot K_1}{10 \cdot g} [mg - ekv/g]$$

a- titrlash uchun sarf bo'lgan 0,1 n NaOH eritmasining hajmi, ml; V- alikvot qism hajmi, ml; K- HCl ni kontsentratsiyasini 0,1 n ga keltirish uchun qo'llaniladigan tuzatish koeffitsenti; K₁- NaOH ni kontsentratsiyasi-ni 0,1 n ga keltirish uchun qo'llaniladigan tuzatish koeffitsenti; g- tolanning og'irligi, g.

Namunalarni SAS asosida gidrolizlanish darajasi γ (%) hisoblanadi:

$$\gamma = \frac{CAC_{\tau} - CAC_0}{CAC_{max}} \cdot 100 = \frac{CAC_{\tau} - CAC_0}{13,9} \cdot 100 ; [mg - ekv/g]$$

bu yerda, CAC_0 -dastlabki tolanning almashuv sig'imi; CAC_{τ} vaqtida olingan namunaning almashuv sig'imi; CAC_{max} -to'la gidrolizlangan polimerlarning almashuv sig'imi, u poliakril kislotasining SAS iga, ya'ni 13,9 mg-ekv/g ga teng.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi.

Nº	Namunani olingan vaqtি (τ), daqiqa.	Titrlash uchun sarflangan NaOH eritmasi hajmi (a), ml.	Gidrolizlanish darajasi γ , (%).

Topshiriq: 1. Poliakrilonitril (nitron) tolasini ishqoriy gidrolizlanish sxemasini yozing.

2. Gidrolizlanish darajasini (γ , %) vaqt (τ , daqiqa) bilan o'zgarish grafigini chizing.

2.18-ISH. POLIAKRILONITRIL (NITRON) TOLASINI GIDROKSILAMIN BILAN KIMYOVİY O'ZGARISHI

Ishning maqsadi: Poliakrilonitril (nitron) asosida anion almashinuvchi tolasimon polimer sintez qilish.

Reaktivlar: Nitron tolesi, hidroksilaminning sulfat kislotali tuzi, NaOH va HCl larning 0,1 n li eritmalar, 1% li fenolftalein eritmasi.

Jihozlar: Suv xammomili maxsus rektor, sovutgich, elektromexanik aralashtrigich, 250 ml sig'imli yassi tubli kolba, termometr, stakanlar, byuretka, alikvot pipetkalar (10; 50 ml).

Ishning borishi: 3 gr hidroksilaminning sulfat kislotali tuzi, 1,46 g NaOH yoki 2,04 g KOH tortib olinadi va 95 ml distillangan suvda eritiladi. Qaytar sovutgich bilan ta'minlangan 150 ml sig'imli kolbaga ushbu eritma solinadi va 90-95°C haroratgacha qizdiriladi. So'ngra 0,5 g analitik tarozida tortib olingan tola ushbu reaktsion aralashmaga sekin asta shisha tayoqcha yordamida

tushiriladi. Reaktsiya jarayoni 0,15-0,5 soat davom ettirilgandan so'ng tola reaktsion muhitdan chiqarib olib neytral sharoitgacha distillangan suv bilan yuviladi. Havoda 40-50°C da quritiladi va massasi aniqlanadi.

Mahsulot quritilgandan so'ng undan 0,2 g tortib olib, 50 ml 0,1 n HCl solinadi va vaqtı-vaqtı bilan aralashtirib turgan holda 1-1,5 soatga qoldiriladi. Keyin kislotadan 10 ml dan olib 2 marotaba 0,1 n li NaOH bilan fenolftaleyn ishtirokida titrlanadi va quyida berilgan formula asosida polimerning static almashinish sig'imi (SAS) aniqlanadi:

$$SAS = \frac{100 \cdot K - \frac{100}{V} \cdot a \cdot K_1}{10 \cdot g} [mg - ekv/g]$$

Bu yerda K- 0,1 n li HCl ni tuzatish koeffitsenti;

K₁- 0,1 n NaOH ni tuzatish koeffitsenti;

V- titrlash uchun olingan ishchi eritma hajmi, ml;

a- namunani titrlash uchun sarf bo'lган 0,1 n NaOH hajmi, ml;

g- polimer namunasi og'irligi, g.

Olingan polimerning massasi qancha % ga oshganligi (Δm , % da) quyidagi formula asosida topiladi:

$$\Delta m = \frac{m_2 - m_1}{m_1} \cdot 100 \text{ .}$$

bu erda Δm - polimer massasining oshganligi, %;

m₁- nitron tolasining dastlabki massasi, g;

m₂- nitron tolasining reaktsiyadan keyingi massasi, g.

Topshiriq:

Nitronni gidroksilamin bilan modifikatsiyalanish reaktsiyasini yozing.

2.19-ISH. POLIAKRILONITIRIL (NITRON) TOLASINING QISMAN GIDROLIZI

Ishning maqsadi: Poliakrilonitiril (PAN, nitron) tolasini natriy gidroksidi ishtirokida gidrolizlanish tezligini aniqlash.

Reaktivlar: Nitron tolesi, NaOH ning 1% va 0,1 n li, HCl ning 0,1 n li va fenolftaleinning 1% li eritmalari.

Jihozlar: Uch og'izli kolba, elektromexanik aralashtirgich,sovutgich, 250 ml sig'imli yassi tubli kolba, termometr, stakanlar, byuretka, alikvot pipetkalar (10; 25; 50; 100 ml).

Ishning bajarilishi: Ishqoriy gidroliz jarayoni termostatga joylangan, teskari sovutgich, aralashtirgich va termometr bilan jihozlangan uch og'izli kolbada amalga oshiriladi. Hajmi 250 ml bo'lган uch og'izli kolbaga NaOH ning 1% li eritmasidan 150 ml solinib suv hammomida 80°C gacha qizdiriladi.

Ushbu eritmaga 5 bo'lak nitron tolasi (har birining massasi 1,0 g atrofida) tushirilib 80°C haroratda aralashtirilib reaktsiya davom ettiriladi. Gidroliz darajasini aniqlash uchun reaktsiya boshlangandan so'ng 30 daqiqa o'tgach, pintset yordamida 1-nitron tolasi namunasi olinadi. keyingi namunalar har 15 daqiqadan so'ng olinadi.

Olingan namunalar neytral sharoitgacha distillangan suv bilan 3-4 marta yuviladi va havoda quritiladi. Hajmi 50 ml li konussimon kolbalarga 0,1 n HCl eritmasdan o'lchov pipetkalar bilan 20 ml dan quyiladi. Kolbalar vaqtiga vaqtiga bilan chayqatib turgan holda 1 soatga qoldirilad. Keyin eritma filtrlanib, filtratdan 10 ml alikvot qism olib, fenolftalein ishtirokida 0,1 n li NaOH eritmasi bilan titrlanadi.

Titrlash natijasida namunalarning statik almashinish sig'imi (SAS) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$SAS = \frac{100 \cdot K - \frac{100}{V} \cdot a \cdot K_1}{10 \cdot g} [mg - ekv/g]$$

Bu yerda; a-titrlash uchun sarf bo'lgan 0,1 n NaOH eritmasining hajmi, ml;

K - 0,1 n HCl ni eritmasini koeffitsenti;

K_1 - 0,1 n NaOH ni eritmasini tuzatish koeffitsenti; V- alikvot qism hajmi, ml;

g- namunaning og'irligi, g.

Namunalarning SAS asosida gidrolizlanish darajasi γ (%) hisoblanadi:

$$\gamma = \frac{CAC_{\tau} - CAC_0}{CAC_{\max}} \cdot 100 = \frac{CAC_{\tau} - CAC_0}{13,9} \cdot 100 ; [mg - ekv/g]$$

bu yerda, CAC_0 -dastlabki tolaning almashuv sig'imi; CAC_{τ} - vaqtida olingan namunaning almashuv sig'imi; CAC_{\max} - to'la gidrolizlangan polimerlarning almashuv sig'imi, u poliakril kislotasining SAS iga, ya'ni 13,9 mg-ekv/g ga teng.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi.

No	Namunani olingan vaqtiga (τ), daqiqa.	Titrlash uchun sarflangan NaOH eritmasi hajmi (a), ml.	Gidrolizlanish darajasi γ , (%).

Natijalar asosida gidrolizlanish darajasini (γ , %) vaqt (τ , daqiqa) bilan o'zgarish grafigini chizing.

Topshiriq: 1. Poliakrilonitril (nitron) tolasining ishqoriy gidrolizlanish sxemasini yozing.

2.20-ISH. STIROL VA MALEIN ANGIDRIDI SOPOLIMERINING ISHQORIY GIDROLIZI

Ishning maqsadi: Stirol va malein angidridi sopolimerining ishqoriy gidrolizini o'rganish.

Reaktivlar: Stirol va malein angidridi sopolimeri, 2n NaOH, 2n HCl.

Jihozlar: O'lchov silindri, 100 ml hajmli yumaloq tubili kolba, teskari sovutgich, isitgich pechi, stakan (100 ml hajmli), shisha tayoqcha.

Ishning bajarilishi: Teskari sovutgich bilan jihozlangan yumaloq tubili kolbaga 0,5 g stirol va malein angidrid sopolimeri va 12,5 ml 2n NaOH eritmasi solinib, qizdiriladi. Bir necha daqiqada polimer erib ketadi. 70°C da bir necha daqqa qizdirilgandan so'ng, kolbadagi aralashma sovutiladi va olingan mahsulot 30 ml HCl eritmasiga quyiladi. Cho'kmaga tushgan polimer kislotsasi voronkada filtrlab olinadi. Agar cho'kma yomon ajralsa, ajratgich voronkada kislotali dispersiyaga 25 ml petroleyn efiri qo'shib chayqatiladi. Bunda polimer elastik massa ko'rinishida ikki suyuq qatlam chegarasida hosil bo'ladi. Sopolimer filtrlanadi, sovuq suvda neytral muhitga qadar yuviladi (sopolimer suvda eruvchan) va havoda qurutiladi.

Dastlabki stirol va malein angidrid sopolimeridan farqli ravishda hosil bo'lgan polikislota issiq suvda eriydi. Polikislotaning suvli eritmasi kislotali reaktsiyani beradi.

- Vazifa:* 1. Sopolimerning gidroliz reaktsiya tenglamasini yozing.
2. Hosil bo'lgan sopolimerning eruvchanligini tekshiring.
3. Hosil bo'lgan sopolimerning kislota sonini aniqlang.

Kislota sonini aniqlash.

05-0,10 g polimer namunasi 10 ml issiq suvda qizdirib turgan holda eritiladi va sovutilgandan so'ng zudlik bilan KOH ning 0,1 n suvli (spirtli) eritmasi bilan fenolftalein indikatori ishtirokida titrlanadi. Kontrol tajriba erutuvchini titplash orqali amalga oshiriladi. Polimer namunasining kislota soni 1 gramm namunani titplashga sarf bo'lgan KOH eritmasining hajmi orqali hisoblanadi:

$$K_{soni} = \frac{0,00561 \cdot f \cdot (A - B) \cdot 1000}{E} ;$$

$$K_{soni} = 5,61 \cdot f \cdot \frac{A - B}{E} ;$$

$$K_{soni} = 5,61 \cdot f \cdot \frac{V}{E} ;$$

Bunda: A- namunani titplash uchun sarf bo'lgan KOH hajmi, ml;

B- erituvchini titplash uchun sarf bo'lgan KOH hajmi, ml;

E- namuna massasi;

F- KOH eritmasini kontsentratsiyasini 0,1 n ga keltirish uchun tuzatish koeffitsenti;

5,61- 0,1 n KOH eritmasining 1 ml dagi KOH migdori.


III BOB. POLIMERLAR DESTRUKTSIYASI VA ULARNI STABILLASH

Polimer materiallarida ularni qayta ishlash va foydalanish jarayonida issiqlik, nur, havo kislороди, kimyoviy reagentlar, mexanik kuchlar, mikroorganizmlar va boshqa omillarning ta'siri natijasida turli xil fizikaviy va kimyoviy hodisalar sodir bo'ladi. Makromolekulaning turli xil fizikaviy va kimyoviy agentlar ta'sirida parchalanishi *destruktsiya* deyiladi. Shunday qilib, destruktsiya natijasida polimerning molekulyar massasi kamayadi, kimyoviy tuzilishi, fizikaviy va mexanik xossalari o'zgaradi.


Polimerlar kimyoviy va fizikaviy ta'sirlar ishtirokida destruktsiyaga uchraydi. Kimyoviy destruktsiyani turli kimyoviy reagentlar (suv, kislota, ishqor, tuz, spirt, kislород va h.k.), fizikaviy destruktsiyani esa fizikaviy ta'sirlar (issiqlik, yorug'lik, mexanik energiya, turli nurlar va h.k.) keltirib chiqaradi.

3.1. Polimerlarning kimyoviy destruktsiyasi

Kimyoviy destruktsiya reagentlarning belgilariga qarab gidroliz, alkogoliz, aminoliz va h.k.ga bo'linadi. Gidroliz eng ko'p tarqalgan kimyoviy destruktsiyalarning biri bo'lib, suv ishtirokida gidroliz H^+ va OH^- ionlari ta'sirida boradi. Tabiiy polimerlarning destruktsiyasi fermentlar (katalizatorlar) ishtirokida tezlashadi, chunki ferment ayrim bog'larni tanlab ta'sir qiladi; masalan, sanoatda polisaxaridlar (kraxmal)ni gidrolizlab glyukoza, undan esa spirt olinadi:



Gidrolitik destruktsiya geterozanjirli polimerlar (tsellyuloza, oqsillar, poliamidlar, poliefirlar va boshqalar) uchun juda harakterli bo'lib, uning gidrolizlanish darajasi kimyoviy bog'larning xarakteriga bog'liq.



Oqsillar, poliamidlar va poliefirlarning gidrolizida so'nggi mahsulot sifatida aminokislotalar, dikarbon kislotalar, diaminlar, glikollar hosil bo'ladi.

Destruktsiya jarayon kinetikasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Zanjir uchidagi guruhlar qonuni bo'yicha depolimerlanish.


Tasodifylik qonuni bo'yicha parchalanish.

Parchalanishning aralash xili.


3.2. Polimerlarning oksidlanish destruktsiyasi

Polimerlarning oksidlovchi moddalarga chidamliligi unda oson oksidlanadigan guruhlari bo'lish yoki bo'lmasligiga bog'liq. Oksidlanish destruktsiyasi ultrabinafsha (UB) – nuri, radiatsiya, issiqlik, kislород, kuchli oksidlovchilar (HNO_3 , KMnO_4 , xrom kislotasi, ozon) va boshqa metallar (Fe, Cu, Mn, Ni) ta'sirida sezilarli tezlashadi.

Oksidlanish destruktsiyasi zanjirli reaktsiyalarga xos mexanizmda boradi.




Agar polimerda harakatchan vodorod atomi (masalan, bu atomlar uchlamchi uglerodda va fenil guruhi faollashganda) bo'lsa, oksidlanish darhol peroksid hosil bo'lishiga olib keladi.



3.3. Polimerlarning termik destruktsiyasi


Polimerlarning termik destruktsiyasi inert gaz atmosferasida yoki vakuumda qizdirish bilan olib boriladi.

Polimetilmekrilatni $\sim 300^{\circ}\text{C}$ da vakuumda termik destruktsiyalaganda polimerning yarmi juda tez monomergacha depolimerlanadi, so'ngra depolimerlanish tezligi keskin tushib ketadi (12-rasm). Agar metilmekrilatning polimerlanishida zanjirning uzilishi disproportsiyalanish bilan tugasa, makromolekulaning so'nggi zvenolarida 50% ga yaqin qo'shbog' tutgan polimer hosil bo'ladi. Bunday polimetilmekrilat destruktsiyasi to'yingan makromolekulaga nisbatan kam energiya talab qiladi (2-reaktsiya), chunki bunda nisbatan barqaror allil radikali hosil bo'ladi.




*12-rasm. Polimetilmekrilat depolimerlanishining qizdirish vaqtiga bog'liqligi:
1-boshlang'ich polimerlanish darajasi 390; 2-960; 3-4260.*

Polistirolning destruktsiyasida dimer va trimer fraktsiyalarning hosil bo'lishini polistirolning fenil guruhidagi faol vodorod atomining mavjudligi bilan bog'liqligini quyidagicha tushuntirish mumkin:



Zanjir uzatish reaksiyasi stirol zvenolaridan vodorodni ko'chirish va zvenolararo yuz berishi mumkin.

Monomer hosil bo'lishi makromolekulaning depolimerlanish reaksiyasi tufayli sodir bo'ladi:



Monomer, dimer, trimer fraktsiyalarning nisbati hosil bo'layotgan boshqa uchuvchan mahsulotlarning miqdori birinchi navbatda jarayonning haroratiga bog'liq. Polistirol destruktsiyasida harorat 280°C dan 500°C ga ko'tarilsa destruktsiya mahsulotida monomer miqdori oshadi va 40% ga yetadi.

Polimer o'rtacha molekulyar massasining o'zgarishiga qarab termodestruksiya mexanizmi ustida fikr yuritish mumkin.


1. Bog'larning tasodifiy uzilishi bilan boradigan reaktsiyalarda polimerning depolimerlanishi o'rtacha molekulyar massaning tez kamayishi AV chizig'i orqali ifodalanadi (6-rasm).

2. Pog'onali depolimerlanishda o'rtacha molekulyar massa asta-sekin kamayadi, ammo jarayonning tezligi hosil bo'lgan monomerning miqdoriga mutanosib bo'ladi. Bu AB to'g'ri chizig'idan iborat.

3. Polimerlanish jarayonining aksi, ya'ni faqat depolimerlanish

jarayoni borgan taqdirda o'rtacha molekulyar massa sekinroq kamayadi va umumiy tezlik AB chizig'i orqali ifodalanadi. Geterzanjirli polimerlarning termik destruktsiyasi geteroatom - uglerod bog'inining uzilishi bilan karbozanjirli polimerlardan farqlanadi.

Xuddi shuningdek, uglerod-geteroatom bog'i miqdorining ko'payishi bir vaqtida zanjirda uchlamchi va to'rtlamchi uglerod atomi borligi bilan bog'liq bo'lib



13-rasm. Termik destruktsiya ning vaqtga bog'liqligi.

polimer termostabilligini pasaytiradi.

3.4. Polimerlarning fotokimyoviy destruktsiyasi

Polimerlar destruktsiyasining bunday jarayonlari juda katta amaliy ahamiyatga ega, chunki polimerlar ekspluatatsiya davomida deyarli hamma vaqt yorug'lik ta'sirida bo'ladi. Polimerlarning nurlanishida sodir bo'ladigan reaktsiyalar polimerlarning *eskirish* jarayonlarida katta rol o'ynaydi va ko'pincha tabiiy va sintetik tolalar, rezina va plastmassa buyumlar, lok-bo'yoq qoplamlarning xizmat muddatini belgilaydi.

Nurlar ta'sirida boradigan kimyoviy destruktsiya jarayoni *fotoliz* deyiladi. Bir vaqtning o'zida nurlar, kislород, namlik, kimyoviy agentlar ta'sir etsa makromolekulada murakkab jarayonlar, ya'ni ularning fotooksidlanishi va gidrolizi sodir bo'ladi. Polimerlarning fotokimyoviy destruktsiyasi fotosensibilizatorlar ishtirokida tezlashadi.

3.5. Polimerlarning radioaktiv nurlar ta'sirida destruktsiyasi

Polimer turiga bog'liq holda radioaktiv nurlar ta'sirida quyidagi asosiy jarayonlar sodir bo'lishi mumkin:

makromolekulalarning choklanishi;


makromolekulalarning uchuvchan mahsulotlar va kichik o'lchamli molekulalar hosil qilib destruktsiyalanishi va parchalanishi;

qo'shbog'larning xarakteri va sonining o'zgarishi;


nurlatish orqali initsirlangan oksidlanish (kislород mavjud bo'lganda) va boshqa reaktsiyalar.

Mazkur jarayonlar bir vaqtning o'zida sodir bo'lishi mumkin, chunki har birining tezligi polimer tabiatiga, kislородning bor yoki yo'qligiga va h.k.larga turlicha bog'liq.

To'rtlamchi uglerod atomlari tutgan polimerlar, masalan poliizobutilen, poli- α -stirol, polimetilakrilatlar, tsellyuloza va uning hosilalari, politetraftoretilen va boshqalar nurlantirilganda destruktsiyaga uchraydi:



Uzilish to'rtlamchi uglerod atomida sodir bo'ladi. To'rtlamchi atomlar bo'lmanida, masalan, polietilenda choklanish reaktsiyasi quyidagicha ketadi:



Qattiq zanjirli polimerlar yuzasida makroradikallar hosil bo'lشining ahamiyati katta. Massada hosil bo'lgan radikallar diffuziya jihatidan chegaralangan bo'lib, o'zining reaktsiyaga kirishish qobiliyatini saqlagan holda bo'ladi va ular polimerlarni modifikatsiyalashda ishlatilishi mumkin.

3.6. Polimerlarning mexano-kimyoviy destruktsiyasi

Polimerlar yoki ularning to'ldiruvchilar bilan aralashmalarini mexanik qayta ishlash jarayonida (valtslash, maydalash, presslash, kalandrash)

makromolekula zanjirining uzilishiga, mexano-kimyoviy destruktsiyaga olib keluvchi katta ichki kuchlanish vujudga keladi. Xuddi shunday uzilishlar polimerlarning suvli eritmalarini muzlatish, qovushqoq eritmalarining ingichka kapillyardan oqib o'tish vaqtida, ultratovush ta'sirida va h.k.da sodir bo'ladi. Mexanik energiya ta'sirida birinchi navbatda ularning molekulyar massasi kamayadi. Mexano-kimyoviy destruktsiyadan foydalanib texnikada, xalq xo'jaligida va sanoatda ishlatiladigan har xil mahsulotlar olish mumkin.


3.7. Polimerlarning eskirishi va unga qarshi kurash usullari

Yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida sodir bo'ladigan destruktsiyaning oldini olish uchun polimer ashyolarning issiqlik, yorug'lik va turli nurlar ta'siriga chidamlilagini oshirish maqsadida ular tarkibiga turli quyi molekulyar birikmalar-stabilizatorlar, plastifikatorlar, to'ldiruvchi moddalar kiritiladi.


Stabilizatorlar destruktsiya reaktsiyasini susaytiradi, ajralayotgan quyi molekulyar agressiv mahsulotlarni neytrallaydi va keraksiz mahsulotlar chiqishini kamaytirishga yordam beradi.

Stabillash ikki asosiy usul-polimer tarkibiga stabilizator kiritish va fizik-kimyoviy usullar bilan modifikatsiyalash orqali amalga oshiriladi.


Antioksidantlar sifatida har xil aromatik aminlar, fenol birikmalari, tarkibida oltingugurt tutgan organik birikmalar ishlatiladi. Bulardan tashqari tarkibida harakatchan vodorod atomi bo'lgan organik moddalar ham ishlatiladi. Masalan:



Nur stabilizatorlari sifatida salitsil kislotasining aromatik efirlari, benzofenon birikmalari va boshqalar qo'llaniladi:



4-tret-butylfenilsalitsilat



2-gidroksi-4-metoksibenzofenon

Stabilizatorlarning unumi: Molyar nur yutish koeffitsienti, nur o'tkazish chegarasi, nur ta'siriga chidamliligi, polimerga moyilligi, yutilgan energiyani tarqatish qobiliyati bilan belgilanadi.

Nazorat savollari

1. Polimerlarning destruktsiyasi qanday reaktsiya; uning xususiyati nimadan iborat?
2. Fizikaviy va kimyoviy destruktsiyalanishni tavsiflang.
3. Destruktiv jarayonlarning foydali va zararli xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Depolimerlanishning xususiyati nimadan iborat? Qanday polimerlarning depolimerlanishi qiyin?
5. Stabillovchi moddalar qanday tanlanadi?
6. Polimerlarning termik destruktsiyasi va uning mexanizmi.
7. Poliamidlarning gidroliz va aminoliz reaktsiyalarini yozing.
8. Polietilentereftalatning gidroliz, alkogoliz va atsedoliz reaktsiyalarini yozing.
9. Polivinilklorid va polietilenning destrukтив jarayonlari orasida qanday farq bor?
10. Tsellyuloza va uning destruktsiyasi.
11. Polimerlarni stabillash nima?
12. Stabizatorlar sifatida qanday moddalar ishlatiladi?


AMALIY MASHG'ULOTLAR

3.1-ISH. POLIVINILXLORIDNING TERMIK DESTRUKTSIYASI

Ishning maqsadi: Polivinilxlorid (yoki perxlorvinil)ning termik destruktsiyasini inert gaz atmosferasida tekshirish.

Reaktivlar: Polivinilxlorid (yoki perxlorvinil), NaOH va HCl ning 0,05N eritmasi.

Jihozlar: Polivinilxloridning termik destruktsiyalash uchun ishlatiladigan uskuna (14-rasm), elektr plitkasi, azotli gaz balloni, 6 dona 250ml li konussimon kolba.



14-rasm. Termik destruktsiyani o'tkazish uchun foydalaniladigan uskuna.

Ishning bajarilishi: 1) polivinilxlorid (perxlorvinil)ning termik destruktsiyasini inert gaz atmosferasida o'tkazish; 2) destruktsiya natijasida hosil bo'lgan xlorid kislotasi orqali destruktsiya darajasini aniqlash.

14-rasmda ko'rsatilgan uskunaning germetikligi tekshiriladi. Buning uchun (2) quritgich orqali gaz balloonidan 1 soniyada 1 ta pufakcha hosil bo'ladigan o'zgarmas tezlikda azot yuboriladi. O'zida 15 ml distillangan suv tutgan 250 ml li konussimon kolba (7) orqali gaz chiqishini kuzating. Yetarli germetiklikka erishgach (2) va (7) idishlardagi gazning chiqishi tenglashadi va (5) jo'mrak berkitiladi. Elektr plitkani (3) tokka, sovtgich (4) ni esa suvgaga ulab, (10) suvni qaynaguncha qizdiriladi. NaOH ning 0,05 N li eritmasidan 5ta 250 ml li konussimon kolbaga 15 ml dan quyiladi. Kolbalarni navbat bilan ajralib chiqayotgan vodorod xlorid gazini yuttrish uchun (9) naychani kolbaga tushiriladi. (8) qalpoqsimon qopqoqni olib (1) kosachaga (0,12-0,20g)

polivinilxlorid (perxlorvinil) namunasini joylashtirib, maxsus ilgichga osiladi va kolbaga tushiriladi. Asta-sekinlik bilan (6) jo'mrak ochiladi. O'tayotgan vodorod xlorid gazining o'tishi sekundiga 1 ta pufakcha bo'lishi kerak. Gazning yutilishi 10, 15, 20, 25 va 30 minut davomida o'tkaziladi va har bir kolbadagi ortiqcha NaOH eritmasini vodorod xloridning 0,05 N li eritmasi bilan titrlanadi.

Olingen natijalar quyidagi jadvalga yoziladi.

Nº	0,05 N li NaOH miqdori, ml	Gazning yutilish vaqtি, daqiqa	Titrlash uchun ketgan HCl miqdori, ml	Ajralgan HCl miqdori, ml	Reaksiya boslanishidan ajralgan HCl miqdori, ml
0	15	0			
1	15	10			
2	15	15			
3	15	20			

Topshiriq: a) ajralgan HCl ning miqdorini destruktsiya vaqtiga bog'liqlik grafigini chizing; b) destruktsiya mexanizmini yozing; c) qoldiqning eruvchanligini tekshiring.

3.2—ISH. O'ZGARMAS HARORATDA POLIMETILMETAKRILATNING TERMIN DESTRUKTSIYASI

Ishning maqsadi: Polimetilmekrilat (yoki polistirol)ning vakuumda termik destruktsiyasini tekshirish.


Reaktivlar: Polimetilmekrilat, polistirol, poli- α -metilstirol.

Jixozlar: Polimerning termik destruktsiyasini o'tkazish uchun ishlatiladigan Mak-Ben tarozisi (15-rasm), katetometr, 350°C li termometr, namuna uchun shisha tayoqcha, suyuq azotli Dyuar idishi.

Ishning bajarilishi: Polimetilmekrilat (polistirol)ning termik destruktsiyasini vakuumda o'tkazish:

Mak-Ben tarozisida ishslash qoidalari bilan tanishish.

Katetometri sozlash. 3 g polimerni volfram spiraliga ilingan (4) kosachaga joylashtiriladi. Mak-Ben tarozisining (2) pastki qismini (1) yuqori qismi bilan birlashtirib sistema vakuum nasosga ulanadi. Sistemanı 15 minut davomida havosi so'rib olingandan so'ng, (9) qizdirgich (elektr plitkani) ni harorati ko'tariladi. Qizdirish boslangandan 5 daqiqa o'tgandan keyin (10) katetometr yordamida birinchi kuzatish natijasi yoziladi va uni boslang'ich sifatida qabul qilinadi. O'lchash vaqtida (6, 7) jo'mraklarni yopish tavsiya etiladi. Keyin o'lchash 10-15 daqiqa o'tgandan keyin davom ettiriladi. Hammasi bo'lib 8-10 marta o'lchab, yo'qotilgan og'irlikni volfram spiralining darajalash grafigidan hisoblanadi



15-rasm. Polimerlarning termik destruktsiyasini vakuumda o'rganish qurilmasi.

Masalan: $r=a/l=0,12 \text{ mg/mm}$; yo'qotilgan og'irlilik (%) = $r\cdot\Delta l/q\cdot100$; r-spiralning sezgirligi; Δl -spiralning cho'zilishi, mm; q-namunaning og'irligi, mg; a-darajalash uchun qo'yilgan yuk, mg.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga joylashtiriladi.

Vaqt, daqiqa	Katetometrning ko'rsatishi	Yo'qotilgan og'irlilik, g.	Yo'qotilgan og'irlilik, %	Boshlang'ich tezlik, %/daq.
0				
5				

Topshiriq: a) polimerning termik destruktsiyalanish mexanizmini yozing va tushuntiring; b) yo'qotilgan og'irlilik (%) ni vaqtga bog'liqlik grafigini chizing.

Mak-Ben tarozisi va unda ishslash tartibi

Mak-Ben tarozisi (15-rasm) ikki bo'lakli (1,2) shisha idishdan iborat. Pastki yarim bo'lak (2) olinadigan bo'lib, u polimerni joylashtirish uchun xizmat kiladi. Yuqori qismining ichida, qo'zgalmaydigan ilmoqqa darajalangan volfram yoki kvarts (3) spirali ilingan, u polimer namunasi joylashtiriladigan (4) chashka bilan tutashtiriladi. Yog' nasosi yordamida bosimi 10^{-1} torrga kelguncha havosi so'rildi. Destruktsiya davomida ajralgan engil uchuvchan mahsulotlarni ushlab qolish uchun sistemaga (5) ushlagich biriktiriladi. Sistema jo'mraklar (6,7) yordamida boshqariladi. (6) jo'mrak ushlagichni sistemadan, (7) jo'mrak esa sistemani nasos va havo bilan ajratish uchun xizmat qiladi. (8) tutashtirgich shlifti, (9) isitish manbai, (10) katetometr.

Ishslash tartibi:

1. Asbobda biror kamchiligi bo'lmasligi uchun uni kuzatib chiqiladi;
2. Dyuar idishiga suyuq azot solingan, (5) ushlagichni sistemaga tutashtiriladi va (11) Dyuar idishi ko'tariladi.

3. Pastki (2) yarim bo'lakni ajratib, polimer namunasi solingan (4) kosachani (3) volfram simiga ilinadi;

4. Tutashtiruvchi shliftni vakuum yog'lagichi bilan yog'lab, pastki (2) yarim bo'lakni ehtiyyotkorlik bilan yuqori (1) qismiga kiygiziladi va tutashgan qismi shaffof bo'l guncha ishqalanadi.

5. Jo'mrak berkitiladi, (7) jo'mrakni "nasos" holatiga kelguncha buraladi va nasos ulanadi.

6. Ehtiyyotlik bilan (6) jo'mrak ochiladi va 10 daqiqa davomida sistemaning havosi so'rildi va (7) jo'mrak bekitiladi.

7. Isitish manbaini jadvalda keltirilgan rejim asosida kerakli haroratgacha qizdiriladi va isitgichni kerakli balandlikkacha ko'tariladi (polimer namunasi solingan kosacha 10-15 sm chuqurlikda joylashishi kerak).

8. Katetometr yordamida ishlash o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. Volfram spiralini muvozanatdan chiqmasligi uchun (6) jo'mrak berk turishi kerak. Har gal o'lchab bo'lingandan so'ng (6) jo'mrak qaytadan ochiladi.

9. Tajriba tugagach isitish manbai uziladi va isitgich pastga tushiriladi.

Isitgichni me'yorga keltirish uchun tavsiya

Kerakli harorat, $^{\circ}\text{C}$	Kuchlanish, v	Vaqt, daqiqa	Kuchlanish, v	Vaqt, daqiqa	Kuchlanish, v	Vaqt
290 \pm 5 $^{\circ}\text{C}$	50	15	100	15	110	doimiy
310 \pm 5 $^{\circ}\text{C}$	50	15	120	15	130	doimiy

3.3-ISH. STABILLANGAN POLIVINILXLORIDNING TERMIK DESTRUKTSIYASI

Ishning maqsadi: Stabillangan va stabillanmagan polivinilxloridning degidroxlorlanish reaktsiyasini tekshirish.

Reaktivlar: Lakmus qog'ozi, polivinilxlorid namunalari, qo'rgoshin stearat.

Jihozlar: Ikkita issiqliq chidamlı probirka, 170-175 $^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladigan moy hammomi.

Ishning bajarilishi: Turli xil polivinilxloridlarning termik destruktsiyasini o'tkazish.

Birinchi probirkaga 0,5 g polivinilxlorid, ikkinchi probirkaga 0,5 g polivinilxlorid bilan 0,05 g qo'rgoshin stearati aralashtirib solinadi. Probirkalarning pastki qismiga suv bilan ho'llangan lakmus qog'ozini joylashtirib, astagina yog'och (po'kak) yopqich bilan yopiladi. Probirkalarni moy hammomiga tushirib 10-15 daqiqa davomida qizdirib destruktsiya davomida indikator va polimer rangining o'zgarishi kuzatiladi.

Topshiriq: a) stabillanmagan polivinilxloridning degidroxlorlash reaktsiyasi mexanizmini tushuntiring va yozing; b) stabilizator rolini

tushintiring.

3.4-ISH. POLIMERLARNING TERMOOKSIDLANISH DESTRUKTSIYASI

Ishning maqsidi: Gravimetrik usul bilan polimerlarning termoooksidlanish destruktsiyasi kinetikasini o'rganish.

Reaktivlar: Polimetilmetakrilat, polistirol.

Jihozlar: Torsion tarozi, havo sovutgichi bilan termostat, 350°C li termometr, shisha tayoqcha, kosachani osishga mo'ljallangan shisha ilmoqcha.

Ishning bajarilishi: Gravimetrik usul bilan polimetilmetakrilat (polistirol) ning termoooksidlanish kinetikasini o'rganish uchun:

1. Torsion tarozisiga bo'sh kosacha ilinib vazni o'lchanadi va unga 0,2 g polimer namunasini joylab yana taroziga tortiladi va kursatkichlar farqidan polimer namunasining og'irligi topiladi.

2. Tortilgan namuna shisha ilmoqcha bilan birgalikda olinadi. Gaz gorelkasi yordamida tezda termostat harorati $280-282^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi va alanga balandligi shunday sozlanadiki, bunda issiqlik saqlagich bir me'yorda qaynasin.

3. Tortilgan namuna joylangan kosacha termostatga joylashtiriladi va 5 daqiqa o'tgandan so'ng birinchi o'lhash boshlanadi. Destruktsiya davomida torsion tarozining arretiri yopiq holatda turadi.

4. Keyingi o'lhashlar har 10-15 daqiqada o'tkaziladi. Hammasi bo'lib 8-10 marta o'lhab, yo'qotilgan og'irlilik (%) vaqtga bog'liqlik grafigi chiziladi.

Olingan natijalar jadvalga ko'chiriladi.

Namuna og'irligi-

Reaktsiya vaqtி, daqiqa	Tarozi ko'rsatkichi	Yo'qotilgan og'irlik, mg	Yo'qotilgan og'irlik, %

Topshiriq: a) polimetilmetakrilat (polistirol)ning termoooksidlanish destruktsiyasi mexanizmini yozing; b) yo'qotilgan og'irlik (%) -vaqt grafigini chizing; v) destruktsyaning boshlang'ich holatdagi tezligini (%/min) hisoblang.

3.5-ISH. POLIVINIL SPIRTINING OKSIDLANISH DESTRUKTSIYASI

Ishning maqsadi: Viskozimetrik usul bilan polivinil spirti (PVS) ning oksidlanish destruktsiyasining kinetikasini tekshirish.

Reaktivlar: PVS ning 3% li suvli eritmasi, peryodat kislotasining (HIO_4 $2\text{H}_2\text{O}$) 3,2% li eritmasi, distillangan suv.

Jihozlar: Ostvald viskozimetri, (kapillyarining diametri 0,4-0,6 mm), suv termostati, 5 ml li pipetka - 2 dona, sekundomer, noksimon rezina.

Ishning bajarilishi: 1) Viskozimetrik usul bilan polivinil spirtining oksidlanish destruktsiyasi kinetikasi o'rganish; 2) Oksidlangan PVS ning molekulyar massasini aniqlash.

Suv termostati haroratini 25°C ga to'g'rilanadi.

Eritma tayyorlash: 5 ml 3,2% li peryodat kislotasi erimasiga 5 ml distillangan suv qo'shib 25°C da 10-15 daqiqa saqlaganidan keyin Ostvald viskozimetri yordamida eritmaning oqib o'tish vaqtini aniqlanadi va t_0 -deb belgilanadi. Eritma aynan viskozimetrning o'zida tayyorlanadi.

Viskozimetrik ehtiyyotlik bilan distillangan suv bilan yuviladi, buning uchun kapillyar orqali bir necha marta suv tortib qo'yib yuboriladi va suvni to'kib tashlab, uning o'rniga 5-10 ml atseton quyib yuviladi. Keyin viskozimetrik noksimon rezina orqali puflab quritiladi.

5 ml 3% li PVS eritmasiga 5 ml suv qo'shib, eritmaning oqish tezligining o'rtacha qiymati, ya'ni t_1 aniqlanadi.

5 ml 3% li PVS eritmasiga 5 ml 3,2% li peryodat kislotasi qo'shib aralashtiriladi va eritmaning o'rtacha oqish vaqtini 3-6 marta aniqlanadi. PVS eritmasi va peryodat kislotasini 1 daq. davomida termostatda ushlanadi va aralashmaning oqish vaqtini t_2 ni 4-5 marta o'lchab, o'rtachasi olinadi.

Keyingi o'lchashlar har 5 daqiqada davom ettiriladi. Hammasi bo'lib 6-7 marta o'lchash kerak bo'ladi.

Olingan natijalar jadvalga yoziladi.

Tekshiri- layotgan eritma kontsen- tratsiyasi g/100ml	Oqish vaqtini τ , soniya	Solishtirma qovushqoqlik		Xarak- teristik qovush- qoqlik [η], dl/g	Molek- ulyar massa	Kons- tanta (o'zgar- mas)	
		$\eta_c = \frac{t_1}{t_0} - 1$	$\eta_c = \frac{t_2}{t_0} - 1$			K_m	α

Xarakteristik qovushqoqlik Shults-Blashke tenglamasi orqali hisoblanadi:

$$[\eta] \frac{\eta_c/S}{1 + K_2 \cdot \eta_c};$$

bunda: $K_c=0,27$ ga teng deb olinadi.

Molekulyar massa Kun-Xauvink tenglamasidan topiladi:

$$\lg[\eta] = \lg K_m + \alpha \lg M$$

bunda $K_m=3 \cdot 10^{-4}$, $\alpha=0,50$ ga teng.

Topshiriq: a) PVS ning molekulyar massasining destruktsiya davomida o'zgarish grafigini chizing; b) destruktsiya mexanizmini yozing.

3.6-ISH. POLIAMIDLARNING GIDROLITIK DESTRUKTSIYASI

Ishning maqsadi: Gravimetrik usul bilan poliamidlarning gidrolitik destruktsiyasining kinetikasini sulfat kislota eritmasida tekshirish.

Reaktivlar: Poliamid (kapron, neylon) donachalari; 15, 20, 25 va 30% li sulfat kislota eritmalar, distillangan suv.

Jihozlar: Gidroliz olib borishga mo’ljallangan asbob, teskari sovutgich, elektr plitkasi (16-rasm).

Ishning bajarilishi: Gravimetrik usul bilan kapron (neylon)ning gidrolitik destruktsiya kinetikasini sulfat kislotasi eritmalarida o’tkazish.


1. Asbobning butunligi va sovutgichda suv borligini tekshiriladi.

2. 0,1 g kapron donachalarini analitik tarozida tortib, uni maxsus chashka (2) ga joylashtiriladi.

3. Kolba (2) ga namuna botadigan bo’lguncha sulfat kislota eritmasi quyib, asbob ichiga polimerli kosacha (1) ni joylashtiriladi va kislota eritmasi qaynaguncha elektr plitka (3)sida tez qizdiriladi.

4. Reaktsiya davomida har 10 daqiqada polimerli kosacha (1) ni olib namunani filtr qog’oz orasiga qo’yib siqiladi va namuna analitik tarozida tortiladi. Hammasi bo’lib o’lchash 6-8 marta takrorlanadi.

Topshiriq: a) poliamidning kislotali gidrolizi mexanizmini yozing va tushuntiring; b) namuna og’irligini vaqtga bog’liqlik grafigini chizing va uning yo’nalishini tushuntiring.



16-rasm. Gidrolitik destruktsiya o’tkaziladigan qurilma

3.7-ISH. CHIZIQSIMON ALIFATIK POLIEFIR ERITMASINING DESTRUKTSIYASI

Ishning maqsadi: Chiziqsimon poliefir eritmasining gidrolitik destruktsiyasi natijasida molekulyar massaning o’zgarishini aniqlash.

Reaktivlar: Chiziqsimon poliefir namunasi, etil spirti, 30% li sulfat kislota eritmasi, kaliy gidroksidining 0,1 n li spirtli eritmasi.

Jihozlar: 100 ml li stakanlar (2 ta), 250 ml hajmli stakanlar, 5 ml li pipetka, 10 ml li o’lchov tsilindri, Byuxner voronkasi, Bunzen kolbasi, Petri kosachasi, teskari sovutgich (2 ta), suv hammomi, soat shishasi (6 ta), shpatel.

Ishning bajarilishi:

1. Poliefirning gidrolitik destruktsiyasini o'tkazish;
2. Poliefirning reaktsion aralashmasidagi kislotalar sonini aniqlash;
3. Poliefirning destruktsiya jarayonida molekulyar massasining o'zgarishni aniqlash.

100 ml li 2 ta kolbaga 10 g poliefir va ustiga 50 ml etil spirti solib uy haroratida aralashtirib eritiladi. Poliefir erigandan keyin kolbalarning biriga sulfat kislotasining 30% li eritmasidan 6 ml qo'shiladi. Kolbalar teskari sovutgichga ulanadi va suv hammomida 40°C gacha qizdirib, har soatda reaktsion aralashmadan 3 ml namunalar olinadi. Olingan eritma namunalarini stakanlarga solib, ularni cho'ktirish uchun 50 ml dan distillangan suv qo'shiladi. Cho'kkani polimerni filtrlab quritiladi va polimerdag'i kislotalar sonini topib, so'ngra ularning molekulyar massasi aniqlanadi (5.11. ishga qarang).


Olingan natijalar asosida katalizator ishtirokida va katalizatorsiz destruktsiyaga uchragan polimerning molekulyar massasining o'zgarishini vaqtga bog'liqlik grafigi chiziladi.

Topshiriq: a) poliefirning gidrolitik destruktsiya reaktsiyasini yozing; b) poliefirning destruktsiyagacha va destruktsiyadan keyingi molekulyar massalarini taqqoslang.

3.8-ISH. POLIAKRILAMIDNI ERITMADA DESTRUKTSIYASI

Ishning maqsadi: Kaliy persulfat ta'sirida poliakrilamidni destruktsiyasida molekulyar massasi o'zgarishini tekshirish.

Reaktivlar: Poliakrilamidning ($\bar{M} > 10^6$) 0,1% li suvli eritmasi, distillangan suv, kaliy persulfat, osh tuzining 0,5 M va 1 M eritmalar.



17-rasm. Polimer destruktsiyasini olib borish uchun qurilma.

1-reaktor; 2-eritma quyish uchun shtutser; 3-termometr; 4-viskozimetr; 5sovutgich; 6-kaltsiy xlorid trubkasi; 7- aralashtirgich.

Jihozlar: Destruktsiya o'tkazish uchun uskuna (3.11-rasm), viskozimetr VPJ-3 (kapilyar diametri $0,561 \cdot 10^{-3}$ m) termostat, magnitli aralashtirgich, sekundomer, viskozimetriya uchun termostat, 5 ml li uzun ignali shprits, 2 ml li mikrobyuretka, soat oynasi, shtativ, 50 ml li o'lchov tsilindri.

Ishlash tartibi: 1) Kaliy persulfat ishtirokida poliakrilamidni destruktsiyalash; 2) destruktsiya davomida poliakrilamid eritmasining qovushqoqligini o'lchash; 3) destruktsiyadan oldin va keyin poliakrilamidning

molekulyar massasini viskozimetrik usulda aniqlash.

Ishning bajarilishi: 70 ml hajmli reaktsion idishga (17-rasm) 50 ml poliakrilamidning 0,1 % li suvli eritmasi quyilib, 50°C da aralashtirilib turgan holda eritma termostatlanadi.

Reaktsion aralashmada harorat turg'unlangach 0,04 g kaliy persulfat solinadi va destruktsiya vaqtি belgilab olinadi. Reaktsiyani 50°C da 3 soat davomida olib boriladi. Reaktsiya boshlangandan 5 daqiqa o'tgach va bir soat davomida, har 15 daqiqada viskozimetr yordamida eritmani oqish davri o'lchanadi. Bir soatdan so'ng, har 30 daqiqada eritmani viskozimetrda oqish vaqtি o'lchab boriladi. Olingan natijalar jadvalga yoziladi.

Jadvaldagи $t=t_1+t_2/2$ ifoda bo'yicha yozib boriladi. t_1 -destruktsiya boshlangan vaqtidan to qovushqoqlik o'lchanguncha ketgan vaqt; t_2 -viskozimetr kapilyaridan eritmaning o'tish vaqtি.

№	Eritmani olish vaqtি t, daq.	Polimer kontsentratsiyasi, C, g/ml.	$\eta_{nisb.}$	$\eta_{sol.}$	η_{sol}/C

Olingan natijalardan foydalanib poliakrilamid eritmasini keltirilgan qovushqoqligini vaqt bilan o'zgarishi egrisi chiziladi. Poliakrilamidni molekulyar massasi o'zgarishini aniqlash uchun viskozimetrik usul bilan destruktsiyadan oldingi va keyingi molekulyar massalari topiladi. Viskozimetrik usul bilan molekulyar massani topish uchun eritmagan 5 ml ni shprits bilan olinib, toza viskozimetrga quyiladi va ustiga 5 ml 1 M NaCl eritmagan quyiladi. Qovushqoqlik 25°C da o'lchanadi. So'ngra 0,75; 1,00; 1,25; 2; 4 ml dan 0,5 M NaCl eritmagan quyib turib, ketma-ket qovushqoqlik o'lchanadi. Keltirilgan qovushqoqlik hisoblanib, uni kontsentratsiya bilan o'zgarish grafigi chiziladi va xarakteristik qovushqoqlikning qiymati topiladi. Mark-Kun-Xauvnik tenglamasidan M hisoblanadi

$$[\eta] = 7,19 \cdot 10^3 \cdot M^{0.77}$$

Topshiriq. Poliakrilamidning destruktsiyalanish sxemasini yozing; keltirilgan qovushqoqlikning jarayon davomida o'zgarishini tushuntiring va destruktsiyadan oldingi va keyingi molekulyar massalarini solishtiring.

3.9-ISH. TURLI XIL XARORATDA POLIAKRILAMIDNING ERITMADA DESTRUKTSIYASINI O'RGANISH

Ishning maqsadi: Poliakrilamidni suvli eritmada kaliy persulfat ishtirokida destruktsiyalanishiga harorat ta'sirini o'rganish va jarayonning faollanish energiyasini topish.

Reaktivlar: Qisman gidrolizlangan poliakrilamidni 0,4% li eritmasi,

distillangan suv, kaliy persulfat.

Jihozlar: 17-rasmida ko'rsatilgan reaktor, viskozimetr va boshqa 3.8 ishda ko'rsatilgan jihozlar.

Ishlash tartibi: 1) turli xil haroratlarda poliakrilamid eritmasini kaliy persulfat yordamida destruktsiyalash; 2) qisman gidrolizlangan poliakrilamidni va uni destruktsiyadan keyingi eritmalar qovushqoqligini o'lchash; 3) destruktsiyani faollanish energiyasi qiymatini topish; 4) polimerni viskozimetrik usulda molekulyar massasini topish.

Ishning bajarilishi. Ishning bajarilishi 3.8. ishda bayon etilgan usulda olib boriladi. Destruksiya 40, 50, 60, 70⁰C da 2 soat davomida olib boriladi. Destruksiya jarayoni reaktsiya boshlangandan so'ng 5 daqiqada va 2 soat davomida har 15 daqiqada viskozimetrik usulda eritmani qovushqoqligi o'lchanadi. Oldingi ishda keltirilgan jadval bo'yicha natijalar yozib boriladi.

Natijalar tahlili. Har bir haroratda keltirilgan qovushqoqlik qiymatini vaqt bilan o'zgarish grafigi chiziladi.

Grafikdan chiziqlarni boshlang'ich to'g'ri chiziqli qismidan tga hisoblanib destruktsiya tezligi topiladi. So'ngra IgV ni I/T ga bog'liqlik grafigi chizilib, hosil bo'lgan to'g'ri chiziqning tga sidan faollanish energiyasining qiymati hisoblanadi.

$$E = 19,15 \cdot tga$$


Topshiriq. Qisman gidrolizlangan poliakrilamid eritmalarini turli haroratda destruktsiyadan oldingi va keyingi qovushqoqliklari va polimerning molekulyar massalari solishtiriladi.

IV BOB. POLIMER ERITMALARI


4.1. Makromolekulalardagi ichki aylanishlar

Ichki aylanma harakat hodisasini eng oddiy organik birikma etan va uning hosilalari misolida ko'ramiz.

Vant-Goff ikkala tetraedrning cheksiz erkin aylanishi, ya'ni ikkala CH_3 guruhning ularni bog'lab turuvchi kimyoviy bog' atrofida aylanishi mumkinligini taxmin qildi. Molekula qismlarining bir-biriga nisbatan bunday aylanishi molekuladagi *ichki aylanishlar* deb nomlanadi. Ma'lumki erkin aylanishda energiya o'zgarmaydi.




18-rasm. Etan molekulasi modeli.



19-rasm. Etan molekulasidagi vodorod atomlarining har xil fazoviy joylanishi (pastda-molekulaning soyasi). a-tsis-holat; b-trans-holat.


Etan molekulasi potentsial energiyasining metil guruhi burilish burchagi φ ga bog'liqligi 20-rasmida keltirilgan. Molekulaning potentsial energiyasi minimal qiymatga ega bo'lgan holatdan shu energiyasi maksimal qiymatga ega bo'lgan holatga o'tishi uchun zarur bo'lgan energiya *potentsial to'siq* deyiladi. Etan molekulasidagi aylanish potentsial to'sig'i $\sim 2,8$ kkal/mol ni tashkil qiladi. Oddiy sharoitlarda molekula noqulay holatdan qulay holatga o'tishga intiladi. Etan molekulasining zaxira energiyasi 2,8 kkal/moldan yuqori bo'lganda eng qulay holatdan (potentsial chuqurlik) eng noqulay holatga (do'nglik) o'tishi mumkin. Bunda kimyoviy bog' uzilmaydi va molekulaning konformatsiyasi o'zgardi deyiladi.



20-rasm. Etan molekulasi potentsial energiyasining metil guruhi burilish burchagiga bog'liqligi.

Endi tarkibida qo'shbog' bo'lgan, ya'ni ikki uglerod atomiga tegishli bo'lgan ikki juft elektronlar tufayli vujudga kelgan molekula (etilen)ni ko'ramiz. Etilen hosilalari uchun qo'shbog'ga nisbatan o'rindoshlarning turlicha joylashishi tufayli fazoviy izomeriya (stereoizomeriya) bo'lshi mumkin.

Fazoviy izomerianing bu ko'rinishi *tsis-trans-izomeriya* deb ataladi. Bunga malein va fumar kislotalari misol bo'la oladi. Atomlar guruhining qo'shbog' atrofida aylanishi (masalan, etilendagi metilen guruhlar) stereoizomerlarning o'zaro bir-biriga almashinishiga olib kelgan bo'lardi. Demak, bunday burilishlar uglerod atomlari orasidagi π -bog'ning vaqtinchalik uzilishi va yana qaytadan tiklanishiga olib kelishi kerak, lekin kimyoviy



21-rasm. Etilen molekulasi modeli.

bog'ning uzilishi katta miqdordagi energiyani talab qiladi. Shuning uchun bir stereoizomerning boshqasiga aylanishi kuzatilmaydi, ammo harorat yuqori bo'lgan holatlarda bundan mustasno.

Issiqlik harakati ta'sirida yoki tashqi ta'sir natijasida kimyoviy bog' uzilmasdan sodir bo'ladigan molekula shaklining o'zgarishi *konformatsiya*


o'zgarish deyiladi. Kimyoviy bog'lar uzilmasdan bir-biriga aylanadigan molekulaning energetik jihatdan teng bo'lмаган shakllari *konformatsiya* deyiladi.

4.2. Polimer zanjirining konformatsiyasi. Zanjir bukiluvchanligi

Polimer zanjirining konformatsiyasi haqidagi tasavvurlar V. Kun, G. Mark va E. Gut fikricha, polimer zanjirining har xil konformatsiyasi kimyoviy bog'lar uzilmagan holda zvenolarning bir-biriga nisbatan erkin aylanishidandir.

Uglerod atomlari faqat bog'lar bilan bog'langan alohida olingan polimer zanjiri zvenolari issiqlik harakatida bo'ladi, ya'ni bir zveno qo'shni zvenoga nisbatan aylana oladi va ayni zanjirning valent burchaklari belgilanmagan bo'lib, aylanish σ - bog'lar atrofida erkin bo'lsin deb faraz qilaylik. Bunday zanjir *erkin a'zolangan* deb atalib, fazoda qo'shni zvenolar holatidan qat'iy

nazar har qanday holatni egallashi mumkin. Bunday zanjir o'ta bukiluvchan bo'ladi. Bularning barchasi polimer makromolekulasingin bukiluvchanligini




22-rasm. Uglevodorodli zanjir aylanishi faollanish energiyasining zveno burilish burchagiga bog'liqligi.

belgilaydi (22-rasm). ΔU polimer polimer zanjirining bukiluvchanligini belgilaydi va u termodinamik bukiluvchanlik deyiladi. Zanjirning termodinamik bukiluvchanligi uning konformatsion o'zgarishlarga qobiliyati haqida tasavvur qilish imkonini beradi, lekin bukilishdan tashqari bir holatdan ikkinchi holatga o'tish tezligi ham katta ahamiyatga ega.

Konformatsion o'zgarishlar tezligi aktivatsion yoki potentsial to'siqlar nisbati (U_o) ga bog'liq. U_o (kinetik bukiluvchanlik) qiymati qancha katta bo'lsa zvenolar burilishi shuncha sekin amalga oshadi, demak, bukiluvchanlik shuncha kam bo'ladi.

Poli-n-fenilentereftalamid polimerining tuzilishini tahlil qilaylik. Bu polimerda fenilen guruhlari amid guruhlari bilan juda ta'sirchan tuzilishga ega:



Bunday zvenolardan tashkil topgan segmentlarning harakati qiyin, makromolekula juda qattiq, tayoqchasimon tuzilishga ega. Shuning uchun bu polimer asosida *k e v l a r* tolasi olinib, undan o'q o'tmas nimchalar tayyorlashda foydalaniladi.

Makromolekula bukiluvchanligini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat: aylanishning potentsial to'sig'i qiymati, polimerning molekulyar massasi, o'rindoshlar o'lchami, harorat va choklangan makromolekulalar orasidagi ko'ndalang bog'lar zichligi.

4.3. Polimer eritmalar

Yuqori molekulyar birikmalar, xuddi quyi molekulyar moddalarga o'xshab, har qanday suyuqliklarda eriyvermaydi. Ba'zi bir suyuqliklarda polimer o'z-o'zicha erisa, ba'zilarida umuman erimasligi mumkin.

Polimer erishdan oldin bo'kadi. Bo'kish cheksiz va chekli bo'ladi.

Cheksiz bo'kish. Yuqorida ta'kidlanganidek cheksiz bo'kish erishning birinchi bosqichi bo'lib, polimer zanjirlari bir-biridan ajraydi va quyi molekulyar erituvchi molekulalari bilan aralashadi.


Bo'kkan polimer vaqt o'tishi bilan eritma hosil qiladi.

Chekli bo'kish. Bo'kish har doim ham erish bilan tugayvermaydi. Ko'pincha jarayon ma'lum bo'kish darajasiga etishi bilan to'xtaydi. Buning sababi polimer bilan erituvchining chekli aralashishidir. Natijada jarayon oxirida sistemada ikkita faza hosil bo'ladi-yuqori molekulyar birikmaning erituvchidagi to'yingan eritmasi va erituvchining polimerdagi to'yingan eritmasi (iviq).

Bo'kish jarayoni bo'kish darajasi α bilan tavsiflanadi:

$$\alpha = \frac{m - m_o}{m_o} \quad \text{yoki} \quad \frac{V - V_o}{V_o} \quad \text{yoki} \quad \frac{V - V_o}{m_o}$$

Bu yerda, m_o , V_o -polimerning bo'kishgacha bo'lgan massasi va hajmi; m , V -polimerning bo'kkandan keyingi massasi va hajmi.



23-rasm. Choklangan polimerning bo'kish kinetikasi.

Bo'kish darajasi α vaqt bilan o'zgaradi. Bo'kishning vaqt bilan o'zgarishi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\frac{d\alpha}{d\tau} = K(\alpha_{\max} - \alpha_{\tau})$$

Bo'kishning vaqt bilan o'zgarishi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:
bu erda $\frac{d\alpha}{d\tau}$ -bo'kish tezligi; K -bo'kish tezligi konstantasi; $d\tau$ -
 τ vaqtida yutilgan suyuqlik miqdori.


Polimerlarning bir jinsli termodinamik barqaror sistemalar hosil qilish qobiliyati erituvchi va polimerning tabiatiga, polimer zanjirining bukiluvchanligiga, polimerlarning molekulyar massasiga, polimerlarning kimyoviy tarkibiga, polimerlarning ustmolekulyar tuzilishiga, harorat va zanjirlararo kimyoviy bog'larga bog'liq.

4.4. Fazalar qoidasining polimer eritmalariga tatbiq etilishi

Odatda, polimer eritmalarining holat diagrammalari ikki komponentli suyuqlik-suyuqlik sistemalari holat diagrammalariga o'xshab ketadi. Polimer eritmalarida holat diagrammasini ifodalovchi aralashish egrisi chiziqlari polimerning past kontsentratsiyalari tomon siljigan bo'ladi. Masalan, tsellyuloza atsetatining 6,5% dan yuqori eritmalar har qanday haroratda ham bir jinsli bo'ladi. 6,5% dan suyuqroq eritmalar 55°C dan pastda qatlamlarga ajrab ketadi (24-rasm). 55°C aralashishning yuqori kritik harorati deyiladi.


Etiltsellyuloza-suv sistemasi esa aralashishning pastki kritik haroratiga ham ega.

Polimer tutgan uch komponentli sistemalarda holat diagrammasining ko'rinishi aralashayotgan komponentlarning tabiatiga bog'liq. Agar ikki suyuqlikning birida polimer cheksiz bo'ksa va ikkinchisida chekli bo'ksa, cheksiz aralashish holat diagrammasining katta qismini tashkil etadi (25 a-rasm). Agarda cheksiz bo'kadigan va umuman bo'kmaydigan polimerlar aralashmasi olinsa, aksincha holat kuzatiladi (25 b-rasm).



24-rasm. Holat diagrammalari: a-tsellyuloza atsetati-xloroform; b-tsellyuloza atsetati-dixloretan.


Demak, polimer eritmalar termodinamik barqaror sistemalardir. Bular chinchin eritmalar bo'lib, ularda polimerlar molekula holida tarqalgan bo'ladi.



25-rasm. a) Polistirol-m-krezol atsetat sistemasining holat diagrammasi. A - cheksiz aralashadigan qism; V - chekli aralashadigan qism. b) Polistirol-metillaurat-n-butil spirti sistemasining holat diagrammasi; A - cheksiz aralashadigan qism; V - chekli aralashadigan qism.


Polimer-erituvchi sistemalari uchun har xil turdagи fazaviy diagrammalar mavjud (**26-rasm**).

Erishning yuqori kritik harorati (EYUKH) ga ega bo'lgan sistemalar mavjud. Bu haroratdan yuqorida polimer kontsentratsiyasi qanday qiymatga ega bo'lishidan qat'iy nazar sistemada qavatlanish (fazalarga ajralish) sodir bo'lmaydi (**27-rasm, a**). Bunda egri chiziqdan yuqorida sistema gomogen (bir fazali), pastda esa ikki fazali geterogen sistema bo'ladi. Erishning quyi kritik harorati (EQKH) bilan tavsiflanuvchi sistemalar ham bor. EQKH shunday haroratki, bundan past haroratda polimerning hech bir kontsentratsiyasida sistema qavatlanishi sodir bo'lmaydi (**27-rasm, b**). Har bir haroratga har kontsentratsiyasi, ya'ni bitta o'zgaruvchan fazaga mos keladigan moddaning ma'lum (harorat yoki fazalar kontsentratsiyasi) sistema holatini to'liq belgilaydi. Bunda sistemaning xossalari: suyultirish, kontsentrlash, sovutish yoki qizdirish (**26-rasmida** B nuqta atrofidagi strelkalar bilan ko'rsatilgan) muvozanatga kelish yo'liga bog'liq bo'lmaydi. Fazaviy diagrammalarning yana bir turi mavjud. Bular uchun EQKH $<$ EYUKH dan va erituvchining qaynash haroratidan yuqorida, ammo erituvchi uchun suyuqdan bug'ga o'tish kritik haroratidan pastda bo'ladi. Bunday EQKH erituvchi molekulalarining o'lchami ortishi bilan ko'tariladi.



*26-rasm. YUKEH li sistema uchun
harorat-tarkib egrisi*

27-rasm, B xilidagi holat diagrammalari juda ko'p polimer-erituvchi sistemalari uchun hosil qilingan; masalan, polietilen-alkanlar, polistirol-tsiklogeksan, polivinilatsetat-etilatsetat, polivinil spirti-suv va boshqalarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin (**27-rasm**).



27-rasm. Polimer-erituvchi sistemasining fazalarga qavatlanish haroratining polimer hajmiy ulushiga bog'liqligi.

a-EQKH li sistema; b-EYUKH>EQKH li sistema; c-EYUKH<EQKH li sistema.

4.5. Polimerlar erishining termodinamik omillari

Polimerlar eruvchanligini termodinamik qonuniyatlar asosida izohlash mumkin. O'z-o'zicha erish izobar-izotermik potentsialning kamayishi bilan boradi ($\Delta G > 0$), bu holat esa ΔH va ΔS larning ma'lum nisbatlarida kuzatilishi mumkin. Yuqori elastik polimerlar eiganida $\Delta H > 0$ va $\Delta S > 0$ bo'ladi. $T\Delta S > \Delta H$ bo'lganligi uchun $\Delta G < 0$ bo'ladi. Shu sababli yuqori elastik polimerlar qutbsiz erituvchilarda cheksiz eriydi. Ularning erishiga zanjirning bukiluvchanligi sabab bo'ladi. G'ovak molekulyar tuzilishga ega bo'lgan shishasimon polimerlarda erish ekzotermik bo'ladi, ya'ni $\Delta H < 0$ va $\Delta S > 0$. Agar $[\Delta H] > [T\Delta S]$ bo'lsa erish jarayoni sodir bo'ladi (polistirol mo'l erituvchida, polimetilmekrilat dixloretanda) $[\Delta H] < [T\Delta S]$ bo'lganda esa, (tsellyuloza suvda, agar-agar suvda va h.k.) chekli bo'kish sodir bo'ladi.

Zanjirlari tartibli zinch joylashgan shishasimon polimerlarda aksincha holat kuzatiladi. Bunday polimerlar quyi molekulyar suyuqliklarda issiqlik yutish bilan eriydi (ya'ni $\Delta H > 0$). Entropiya ham juda oz o'zgaradi.

4.6. Polimerlar uchun «yaxshi», «yomon» va «teta» erituvchilar

Yuqorida bayon qilinganlardan ko'rinish turibdiki, polimer har qanday suyuqlikda ham chin eritma hosil qilavermaydi. Ba'zi bir suyuqliklarda polimer o'z-o'zicha eriydi, ba'zi birlari bilan umuman aralashmaydi, ya'ni berilgan polimer uchun bir suyuqlik yaxshi erituvchi bo'lsa, boshqasi yomon bo'lishi mumkin.

Yaxshi erituvchi deb shunday quyi molekulyar suyuqlikka aytildi, unda polimer termodinamik barqaror sistema hosil qiladi ($\Delta G < 0$) va bu sistemaning barqarorligi har qanday kontsentratsiya va haroratda saqlanib qoladi.

Yomon erituvchi esa polimer bilan hech qanday kontsentratsiya va haroratda termodinamik barqaror sistema hosil qilmaydi, lekin oraliq holatlar ham kuzatiladi. Masalan, polimer quyi molekulyar erituvchi bilan ma'lum bir tartibda yoki haroratda chin eritma hosil qiladi (ko'pincha bunday holat sopolimerlarda kuzatiladi) va tarkib yoki harorat o'zgarishi sistemaning fazalarga ajralishiga olib keladi, ya'ni bu holda chekli aralashish kuzatiladi.

4.7. Polimer eritmalarining osmotik bosimi

Kimyoviy potentsial va osmotik bosim o'rtasida moyillik mavjud bo'lib, osmotik bosim ko'tarilishi bilan kimyoviy potentsial ortadi, bu esa erituvchining sifatiga bog'liq. Erituvchining sifatini baholashda *ikkinchi virial koeffitsient* muhim parametr hisoblanadi.

Osmotik bosimning kontsentratsion bog'liqligi ancha murakkab tenglamalar bilan ifodalanadi. Bu kontsentratsiya (c) ni quyidagi darajali qator bilan almashtirib olinadi:

$$\pi = RT (A_1 c + A_2 c^2 + A_3 c^3 + \dots)$$

yoki $\frac{\pi}{c} = RT (A_1 + A_2 c + A_3 c^2 + \dots)$


bu yerda c – polimerning eritmadagi kontsentratsiyasi, g/ml;

A_1, A_2, A_3 va h.k. – *virial koeffitsientlar* deb atalib, ularning

qiymatini $\pi/c = f(c)$ bog'liqlikdan tajribada topiladi.

Umumiyl holda bu bog'liqlik ordinata o'qiga nisbatan botiq egri chiziq bilan ifodalanadi, ammo kontsentratsiyaning kichik qiymatlarida tenglamaning ikki a'zosi bilan chegaralanish mumkin. Birinchi virial koeffitsient A_1 polimer molekulyar massasi bilan quyidagi nisbatda bog'liq: $A_1 = 1/M_2$.

Polimerning bitta fraktsiyasi turli erituvchilardagi eritmalar uchun $\frac{\pi}{c} = f(c)$ bog'liqlik yelpig'ichsimon to'g'ri chiziqlar bilan ifodalanadi (28-rasm). To'g'ri chiziqning ordinata o'qi bilan kesishishidan hosil bo'ladigan kesma RT/M_2 ga teng va u erituvchi tabiatiga bog'liq bo'lmaydi.



28-rasm. π/c ning polimerning turli erituvchilardagi eritmalarining kontsentratsiyasiga bog'liqligi.

ya'ni virial koeffitsient bilan ifodalanadi. Shunday qilib

$A_2 = 0$ da "ideal" erituvchi

$A_2 > 0$ da "yaxshi" erituvchi

$A_2 < 0$ da "yomon" erituvchi

A_2 ning musbat qiymati qancha katta bo'lsa, erituvchi shuncha yaxshi bo'ladi. Ikkinci virial koeffitsientni osmotik bosimning kontsentratsion bog'liqligidan yoki polimer eritmalarining yorug'lik nurini yoyish xossasidan aniqlash mumkin.

Nazorat savollari

1. Polimer zanjirining bukiluvchanligi nima va u qanday omillarga bog'liq?
2. Polimer zanjirining konformatsiyasi nimalarga bog'liq?
3. Polimer chin eritmalarini belgilarini sanang.
4. Polimerlar erish termodinamikasining o'ziga xos qanday tomonlari bor?
5. Cheksiz va chekli bo'kish nima?
6. Polimer eritmalarining polimerlar sintezi va ularni qayta ishslash texnologik jarayonlarida qanday ahamiyati bor?
7. Polimerlarning molekulyar massasi quyi molekulyar birikmalarning molekulyar massasidan qanday farqlanadi?
8. Polimerlarning o'rtacha arifmetik molekulyar massasi qanday hisoblanadi?
9. Polimerlarning o'rtacha vazniy molekulyar massasi qanday hisoblanadi?
10. Polimerlarning polidispersligi nima va u sifat hamda miqdoriy jihatdan qanday tavsiflanadi?

Ikkinci virial koeffitsient (A_2) og'ma to'g'ri chiziqlarni tavsiflaydi. π va $\Delta\mu_i$ ning mutloq qiymati qancha katta bo'lsa, ekvikontsentrlangan eritmalar uchun u shuncha katta. Demak, A_2 erituvchining polimerga nisbatan termodinamik moyilligi o'lchami bo'ladi. Ideal eritmalar uchun $\pi/c = f(c)$ bog'liqlik Vant-Goff qonuni bilan, grafikda esa abstsissa o'qiga parallel tarzda o'tuvchi,

11. «Yaxshi», «yomon» va «teta» erituvchilar haqida tushuncha bering.
12. « θ » - harorat va uning fizik ma’nosи.
13. Nima uchun bukiluvchan polimerlar qattiq zanjirli polimerlarga qaraganda nisbatan yaxshi eriydi?
14. Flori-Xaggins nazariyasi va « χ » parametri tushunchasi haqida nima bilasiz?
15. Ikkinchи virial koeffitsient va « χ » parametri orasida qanday bog’lanish bor?
16. Ustmolekulyar struktura polimerlar eruvchanligiga qanday ta’sir qiladi?
17. Makromolekula uchlari orasidagi o’rtacha kvadratik masofaga erituvchining tabiatи qanday ta’sir qiladi?
18. Polimer molekulyar massasi uning bo’kishi va erishiga qanday ta’sir qiladi?
19. Kun segmenti va makromolekula bukiluvchanligi orasida qanday bog’lanish mavjud?

AMALIY MASHG'ULOTLAR

4.1-ISH. TO'RSIMON POLIMERNING BO'KISH TEZLIGIGA ERITUVCHI TABIATINING TA'SIRI

Ishning maqsadi: Vulqonlangan natriy butadien kauchugi (rezina)ning toluol va etilatsetatda bo'kish tezligi va bo'kish koeffitsientini aniqlash.

Reaktivlar: SKV-2 rezinası, toluol, etilatsetat.

Jihozlar: Nabuxometr (2 dona), sekundomer, rezina nok, analitik tarozi.

Ishning bajarilishi: Bo'kish tezligi nabuxometrda hajmiy usul bilan o'lchanadi. 0,1-0,2 g atrofida 2 ta rezina bo'laklarini analitik tarozida tortib biriga toluol ikkinchisiga etilatsetat solingan, avvaldan darajalangan, nabuxometrlarga tushiriladi. Rezinaning bo'kishini har ikki erituvchida parallel holda xar 10 daqiqada 3 soat davomida yutilgan suyuqlik miqdorini o'lhash orqali kuzatiladi.

Natijalarни yozish shakli: Tekshirilayotgan sistemalar: Shartli belgilar: t-tajriba boshlanishidan o'lchanayotgan vaqt, daqiqa; h-nabuxometr naychasidagi suyuqlik balandligi (darajalangan naychadagi bo'linishlarga to'g'ri keladigan suyuqlik miqdori nabuxometrda ko'rsatilgan); V₁-yutilgan suyuqlik hajmi, ml; m₀-rezinaning dastlabki og'irligi, g; q_∞-maksimal bo'kish darajasi, ρ-suyuqlikning zichligi.

t	h	V ₁	q=V ₁ ·ρ/m ₀	lg(q _∞ -q)

Olingen natijalar asosida bo'kish darajasi q va lg(q_∞-q) larning vaqtga bog'liqlik grafiklarini ikkala erituvchi uchun ham chiziladi. Rezinaning toluol va etilatsetatdagi bo'kish doimiylarini

$$lg(q_{\infty}-q)=lgq_{\infty}-k.t$$

tenglama asosida topiladi. lg(q_∞-q) ning vaqtga bog'liqlik grafigidagi to'g'ri chiziq og'ishining tangens burchagi k (bo'kish doimiysi)ning qiymatini beradi.

Topshiriq. Rezinaning ikkala erituvchida bo'kish tezliklari har xil bo'lishini tushuntiring.

4.2-ISH. CHOKLANGAN POLIMER TO'RNING BA'ZI-BIR STRUKTURAVIY PARAMETRLARINI MUVOZANATLI BO'KISH DARAJASI BO'YICHA BAHOLASH

Ishning maqsadi: Choklanish darajasi bilan farqlanuvchi natriy butadien kauchugi asosida olingen ikkita rezina namunasini toluolda bo'kish tezligini o'lhash va fazoviy to'rning qo'shni tugunlari orasidagi zanjir bo'laklarining o'rtacha molekulyar massasini hisoblash.

Reaktivlar: Choklanish darajasi har xil bo'lgan SKB-2 va SKB-8

rezinalari, toluol.

Jihozlar: Nabuxometr (2 ta), sekundomer, analitik tarozi.

Ishning bajarilishi: Bo'kish tezligini hajmiy usul bilan nabuxometrda o'lchanadi (4.1-ishga qarang). Choklanish darjasini har xil bo'lgan rezinadan uncha katta bo'lmanan ikkita bo'lak (0,2 g) ni analitik tarozida tortib olib, toluol solingan nabuxometrga joylashtiriladi. Namunalarning bo'kish darajasini parallel ravishda har 10 daqiqada 3 soat davomida yutilgan toluol miqdorini o'lchash orqali aniqlanadi.

Natijalarini quyidagi jadvalga yoziladi:

t	h	V ₁	q=V ₁ ·ρ/m ₀

Bu yerda t -tajriba boshlanishidan o'lchangan vaqt, (daqqa); h -nabuxometr nayidagi toluol sathining balandligi; V_1 -yutilgan toluolning hajmi, ml (nabuxometr nayining har bir darjasini necha ml ga to'g'ri kelishi o'qituvchi tomonidan beriladi); m_0 -rezina namunasining bo'kishgacha bo'lgan dastlabki massasi, ρ -suyuqlikning zichligi.

Natijalarini hisoblash. Olingan natijalar asosida ikkala rezina namunasi uchun bo'kish darjasini q ning t vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi chiziladi.

Polimer fazoviy to'rining qo'shni tugunlari orasidagi zanjir bo'lagining molekulyar massasi M_s ni hisoblash uchun muvozanatli bo'kish qiymatidan foydalilanadi. Bo'kkан geldagi dastlabki polimerning hajmiy ulushini quyidagi formula orqali hisoblab topiladi:

$$\varphi_2 = \frac{m_0/\rho_2}{m_0/\rho_2 + V_{1\infty}}$$

bunda $V_{1\infty}$ - muvozanat vaqtida yutilgan suyuqlik (toluol)ning hajmi; ρ_2 -SKB asosidagi rezinaning zichligi ($0,91 \text{ g/sm}^3$ deb olinadi).

Suyuqlikning molyar hajmini toluolning molekulyar massasi (92,1) va zichligi ($0,87 \text{ g/ml}$) orqali hisoblanadi. SKB asosida olingan rezina-toluol sistemasi uchun Flori-Xaggins parametri 0,40 ga teng deb olinadi.

M_s ning qiymati quyidagi tenglama orqali hisoblanadi:

$$\bar{M}_c = \frac{p_2 \cdot \bar{V}_1 (\varphi_2^{\frac{1}{3}} - \varphi_2/2)}{\lg(1 - \varphi_2) + \varphi_2 + \chi \varphi_2^2}$$

\bar{M}_c ma'lum bo'lgach rezinaning choklanishgacha bo'lgan elastomerning bitta makromolekulasiga to'g'ri keladigan fazoviy to'p tugunlari o'rtacha soni γ hisoblanadi:

$$\gamma = \frac{M_0}{M_c}$$

M_0 -choklanishgacha bo'lgan rezinaning molekulyar massasi, natriy

butadien kauchugi uchun ($0,85-2,0 \cdot 10^6$). Bunda vulqonlash dastlabki polimerda destruktsiya jarayoni sodir bo’lmaydi deb olinadi. Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

Sistema	φ_2	M_c	γ
I Rezina- toluol			
II Rezina- toluol			

Topshiriq. Choklangan polimer to’rining strukturaviy parametrlarini aniqlash nimaga asoslanganligini tushuntiring.


4.3-ISH. POLIMER ERITMALARINING REOLOGIK XOSSALARINI O’RGANISH

Ishning maqsadi: Polimer eritmasining oqish grafigini chizish va eritmaning effektiv qovushqoqligini aniqlash.

Reaktivlar: Suvda eriydigan polimer (polivinil spirti yoki poliakrilamidning 2% li eritmasi), distillangan suv, glitserin.

Jihozlar: Koaksial tsilindrli rotatsion viskozimetri, 100 sm^3 hajmli o’lchov tsilindri, sekundomer, 200 sm^3 hajmli stakan, soat oynasi, shisha tayoqcha.

Ishning bajarilishi: Polimerning 1-5% eritmasini tayyorlash uchun analistik tarozida tortib olingan polimer namunasini stakanga solib, ustiga distillangan suv quyladi va shisha tayoqcha bilan polimer to’liq erib ketguncha aralashtirib turiladi. Viskozimetrda (29-rasm) avval Nyutonning standart suyuqligi-glitserin qovushqoqligi o’lchanadi. Buning uchun glitserinni tsilindrler orasidagi bo’shliqqa quyladi va tashqi tsilindrni chiqarib olib ichki tsilindrning darajalangan belgilari bo'yicha tsilindrning suyuqlikka botish chuqurligi h o’lchanadi. So’ngra asbobni yig’ib asbob ko’rsatgichini nolga keltirilib minimal yuk qo'yiladi va shkiv fiksatorini bo’shatib ichki tsilindrni aylantiriladi. Sekundomerde tsilindrning uch marta aylanish vaqtini o’lchanadi. Agar qo'yilgan yukda tsilindr bir tekisda aylanmasa, yuk ko’paytiriladi. Glitserin bilan ishlaganda sekundomer aylanish boshlanishi bilan, polimer eritmasi bilan ishlaganda esa tsilindr aylanish statsionar holatga kelganda (tsilindr 3-4 marta aylangandan keyin) yurgiziladi. O’lchashlar to’gallangandan keyin fiksator yana mahkamlab qo'yiladi. Har bir yuk qo'yilganda o’lchashlar soni uchtadan kam bo’lishi kerak emas. Keyin yukni oshirib tajriba yana qaytariladi. Tsilindrning 3 marta aylanish vaqtini aniq o’lchab olmaguncha yukni orttirib borib o’lchashlar davom ettirilaveradi.



29-rasm. Rotatsion viskozimetr: 1-limb; 2-blok; 3-stopor; 4-ichki tsilindr; 5-termostatdagi tashqi tsilindr; 6-ko'tarma maydoncha; 7-vint; 8-maxovik; 9-ko'tarma mexanizm; 10-stopar vinti.

Tajriba natijalari jadvalga yoziladi.

Suyuqlik	Tsilindrning uch marta aylanish vaqtি t, sek				Yuk, q. g	Aylanish soni N, ayl./sek
	τ_1	τ_2	τ_3	τ_4		

Natijalarni hisoblash. Qovushqoqlik qiymatini rotatsion viskozimetrdan o'tkaziladigan tajribalarga tatbiq qilish mumkin bo'lgan Nyuton tenglamasi bo'yicha hisoblanadi:

$$N = k \frac{q}{\eta}$$

bu yerda: N -viskozimetr ichki tsilindrining aylanish soni; q -yo'yilgan yuk; k -viskozimetr doimiysi (suyuqlikka ichki tsilindrning botish chuqurligi va viskozimetr o'lchamiga bog'liq [$k=f(h)$] (standart suyuqlik uchun viskozimetrga qo'shib beriladigan darajalash grafigidan topiladi); η -qovushqoqlik.

Olingan natijalar asosida standart (glitserin) suyuqlik va polimer eritmasining oqish grafigi $N-q$ koordinatalarida chiziladi. Grafikdagi standart suyuqlik uchun egrining abstsissa o'qi bilan kesishgandagi kesmasi viskozimetr koordinatlarida ishqalanish kuchi qiymatiga to'g'ri keladi. Viskozimetrga ilova qilingan $k=f(h)$ darajalash grafigidan standart suyuqlik va polimer eritmasi uchun k ning qiymati topiladi va η hisoblanadi: $\eta = k(q/N)$

Shundan so'ng standart suyuqlik qovushqoqligi va har xil og'irlikdagi yuklar (q) uchun effektiv qovushqoqlik topiladi va $\eta=f(q)$ grafigi chiziladi.

Topshiriq. Polimer eritmasining effektiv qovushqoqligini baholang; polimer eritmasi uchun olingan oqish egri chizig'ini tahlil qiling va u qanday suyuqliklar xiliga mansub ekanligini aniqlang.

4.4-ISH. POLIMERNING ERISH KRITIK HARORATLARIDAN Θ HARORATINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Polistirol fraktsiyalarining fazaviy diagrammasini hosil qilish va polimerning tsiklogeksandagi θ -haroratini aniqlash.

Reaktivlar: Har xil molekulyar massali polistirol fraktsiyalarining tsiklogeksandagi turli kontsentratsiyali eritmalar.

Jihozlar: Havo termostati, T-16 xilidagi termostat, eritmalar solingen ampulalar.

Ishning bajarilishi: Fazaviy diagrammalarni har xil tarkibli aralashmani ketma-ket qizdirish va sovitish orqali loyqalanish haroratini nuqtalaridan hosil qilinadi.

Polistirol fraktsiyalari va tsiklogeksanning har xil tarkibli aralashmalari solib kavsharlangan ampulalarni $40-50^{\circ}\text{C}$ gacha qizdirilgan havo termostatiga kiritib shu haroratda gomogen tiniq eritmalar hosil bo'lguncha vaqt-vaqt bilan ampulalardagi aralashmalarni aralashtirgan holda 30 daqiqa ushlab turiladi.

So'ngra ampulalarni 35°C li suvli termostatga ko'chiriladi. Ampulalarni shu haroratda 6 daqiqa davomida ushlab turib, keyin ularni sovuta boshlanadi. Buning uchun termostat haroratini 5°C ga kamaytiriladi va h.k. Suvli termostatning harorati har 10 daqiqada $1-2^{\circ}\text{C}$ ga kamayishi kerak. Ampulalardagi eritmalarning loyqalanishini oddiy ko'z bilan kuzatiladi. Fazaviy bo'linish harorati $T_{f.b.}$ deb, termostatdagi ampulalar orqasiga joylashtirilgan gazetadagi bosma matnni eritma orqali o'qib bo'lmaydigan darajadagi loyqalanish harorati olinadi. Haroratni suvli termostatga joylashtirilgan nazorat termometri bo'yicha belgilanadi. Hamma ampulalardagi eritmalar loyqalanib bo'lgach termostat haroratini oshirish orqali ularni qizdira boshlanadi. Eritmalar orqasidagi gazeta matnni o'qish mumkin bo'lgan holdagi haroratni belgilab olinadi. Polimer -erituvchi aralashmasini qizdirilgandagi vasovugandagi fazalarga bo'linish haroratlari $0,5^{\circ}\text{C}$ dan ko'pga farq qilishi kerak emas. Har bir aralashma uchun o'rtacha $T_{f.b.}$ topiladi. Natijalar jadvalga tushiriladi.

Nagijalarni yozish shakli:

<i>Fraktsiyaning molekulyar massasi</i>	<i>Ampulalar tartib raqami</i>	<i>Kontsen-tratsiya, g/dl</i>	<i>T_{f.b.}</i>		
			<i>sovut-gandagi</i>	<i>qizdir-gandagi</i>	<i>o'rtacha</i>

Natijalarni hisoblash. Olingan natijalar asosida ordinata o'qiga $T_{f.b}$ abstsissa o'qiga esa eritma kontsentratsiyasini qo'yib polimerning hamma fraktsiyalari uchun fazaviy diagrammalar chiziladi. Tsiklogeksandagi har xil molekulyar massali polistirolning erish kritik haroratlari T_{kr} aniqlanadi. θ -haroratni topish uchun $1/T_{kr}=f(l/M^{0.5})$ bog'lanishda grafik chiziladi. Bunda M-polimerning molekulyar massasi. Hosil bo'lgan chiziqni $1/M^{0.5}=0$ gacha ekstrapolyatsiya qilib $1/\theta$ ning qiymati topiladi.

Natijalarni yozish shakli:

<i>M</i>	<i>I/M^{0.5}</i>	<i>T_{kr}, K</i>	<i>I/T_{kr}</i>	<i>θ, K</i>	<i>θ, °C</i>

Topshiriq: Polistirol-tsiklogeksan sistemasining fazaviy diagrammasini tahlil qiling va tushuntiring.

V BOB. POLIMERLARNING MOLEKULYAR MASSASI VA MOLEKULYAR-MASSAVIY TAQSIMLANISHI

Polimerlarning molekulyar massasini aniqlash usullari

Polimer makromolekulalarining molekulyar massasi va o'lchami suyultirilgan eritmalari xossalari o'rganish orqali aniqlanadi.

5.1. Termodinamik usullar

Krioskopik usul. Polimer molekulyar massasini aniqlashning bu usuli Raul qonuniga asoslangan. Mazkur qonunga binoan polimerning o'rtacha arifmetik molekulyar massasi bilan polimer eritmasining muzlash harorati pasayishi ΔT_k orasidagi bog'liqlik quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:


$$\lim_{c \rightarrow 0} \left(\frac{\Delta T_k}{c} \right) = \left(\frac{RT^2}{\rho \cdot L_k} \right) \cdot \left(\frac{1}{\bar{M}_n} \right)$$

Bunda s -polimer kontsentratsiyasi; R -universal gaz doimiysi; T -mutloq harorat; ρ -erituvchining zichligi; L_k -suyuqlanish harorati.

Eritmada 1 mol erigan polimer bo'lganda suyuqlanish haroratining pasayish o'lchami hisoblangan $RT^2 / 1000 L_k$ qiymat krioskopik doimiy K_k deyiladi. Ba'zi erituvchilarining krioskopik va ebulioskopik konstantalari ushbu darslikning ilova qismida berilgan. Polimer eritmasining turli kontsentratsiyalarida ΔT_k ni aniqlash asosida $\Delta T_k / c$ nisbat topiladi va $\Delta T_k / c = f(c)$ grafigi chiziladi. Hosil bo'lgan to'g'ri chiziqni cheksiz suyultirish nuqtasigacha ekstrapolyatsiya qilib $\left(\frac{\Delta T_k}{c} \right)_{c \rightarrow 0}$ ning qiymati topiladi va

$$\bar{M}_n = \frac{K_k}{(\Delta T_k / c)_{c \rightarrow 0}}$$

formuladan \bar{M}_n hisoblanadi. Bu usul bilan $(2-2,5) \cdot 10^5$ dan (Bekman termometridan foydalanib) $5 \cdot 10^4$ (termometrdan foydalanib) gacha bo'lgan molekulyar massalar topiladi.



30-rasm. Polimerlar molekulyar massasini krioskopik usulda topish uchun asbob: 1-yon shohob-chali krioskopik yacheyka; 2-probirka; 3-stakan; 4-Bekman termometri; 5,6- aralashshtirgichlar; 7-yon shohobcha.

Osmometrik usul. Polimer molekulyar massasini osmometrik usulda aniqlash uchun yarimo'tkazgich membrana bilan ajratilgan qismlardan (biri polimer eritmasi va ikkinchisi toza erituvchi uchun) iborat asbob yordamida π/c ning qiymati tajriba yo'li bilan eritmaning osmotik bosimini bir nechta kontsentratsiyada o'lchab $\pi = f(c)$ grafigidagi to'g'ri chiziqni cheksiz suyultirilgan kontsentratsiya ($c = 0$) gacha ekstrapolyatsiya qilib topiladi.

Polimer molekulyar massasi quyidagi tenglamadan hisoblanadi

$$\overline{M}_n = \frac{RT}{\pi / c}$$

Bu usul o'rtacha arifmetik molekulyar massani ($3 \cdot 10^4 - 2 \cdot 10^6$) topish imkonini beradi, chunki osmotik bosim polimer molekulalari soniga bog'liq.


Osmometrik usul bilan 3000-20000 oraliqdagi molekulyar massalarni aniqlash mumkin.

5.2. Molekulyar massani aniqlashning boshqa usullari

Molekulyar massani nur yoyish usulida aniqlash. Suyuqlik yoki qattiq moddalarga o'xshash moddaning zarrachalari (molekulalari) bir-biriga yaqin joylashgan bo'lsa, bir zarrachadan yoyilgan nur boshqa zarrachalardan yoyilgan nurlar bilan interferentsiyalanishi mumkin, agar molekulalar tartibli qatorlarga joylashgan bo'lsa, ulardagi interferentsiya butunlay nur yoyilishini yo'q qiladi. Polimer eritmalarida tasodifiy molekulalarning bir joyda to'planishi (fluktuatsiya) berilgan juda kichik hajmda uzluksiz kontsentratsiyaning o'zgarishi eritmada qanday bo'lsa, shunday qoladi. Bu fluktuatsiyalar interferentsiya natijasida nur tarqalishining to'liq o'chishiga xalal beradi va kuzatilayotgan nur yoyilishiga sabab bo'ladi.

Demak, eritmada zinchlik va kontsentratsiya fluktuatsiyalari yuqori bo'lsa, nur yoyilishi katta bo'ladi.

Agar makromolekula o'lchamlari $\lambda=0,05-0,1$ dan yuqori bo'lsa, u bir-biridan salgina uzoqlashgan va har xil fazalarda nur yoyadigan markazlar yig'indisidan iborat bo'ladi. Nur yoyish burchagi θ qancha katta bo'lsa, fazalar farqi ham shuncha katta bo'ladi. Buning uchun avval $\frac{Hc}{\tau} = f(c)$ chiziqlar turkumi chiziladi, ularning har biri θ ning bitta doimiy qiymatiga javob beradi, so'ngra $c=0$ ga teng turli burchakli nuqtalar umumiy $\frac{Hc}{\tau} = f(\theta)$ chizig'i bilan tutashtirilib $\theta=0$ gacha ekstrapolyatsiya qilinadi (**31- rasm**). Shunday qilib ordinata o'qidan ajratilgan kesma bo'yicha



31-rasm. Nur yoyish yordamida olingan natijalarni ekstrapolyatsiya qilish uchun qo'llaniladigan B.Zimm diagrammasi. (Tsellyuloza nitrating atsetondagi eritmasi), c ni 2000 marta oshirish chizmani chizishni osonlashtirish uchun qilingan. 1-o'zgarmas θ larda $c=0$ gacha ekstrapolyatsiya qilish natijalari; 2-o'zgarmas C larda $\theta=0$ gacha ekstrapolyatsiyalash natijalari.

$$\left(\frac{Hc}{\tau} \right)_{c=0} = \frac{1}{M} \text{ qiymati va bundan molekulyar massa aniqlanadi.}$$

Molekulyar massani diffuzion usul bilan aniqlash. Makromolekulalarning eritmadi diffuziyasi ularning o'lchamlari va shakli bilan bevosita bog'langan. Diffuziya koeffitsienti D va polimer zichligi ρ yordamida molekulyar massani aniqlash mumkin.

Molekulyar massa (M) Eynshteyn tenglamasi orqali aniqlanadi:

$$\overline{M} = \frac{K \cdot \rho}{D^3 (f/f_0)^3} \quad \text{bunda} \quad K' = \frac{R^3 T^3}{16 r \pi^2 \eta^3 N_A^2}$$

bu yerda, T -mutloq harorat; η -muhit qovushqoqligi; r -diffuzlanayotgan sharsimon zarracha radiusi; N_A -Avogadro doimiysi; f/f_0 -asimmetriya omili; D -diffuziya koeffitsienti (D_0 -tekshirilayotgan polimer o'lchamiga ega bo'lgan sharsimon zarrachaning diffuzlanish koeffitsienti), u asimmetrik zarrachalar suspenziyalarining qovushqoqligi nazariyalari asosida hisoblanadi.

Ultratsentrifugalash usuli. Qattiq modda suspenziyasi baland tsilindrga solinganda, zarrachalari muhit qarshiligini yengib asta-sekin idish tubiga cho'ka

boshlaydi. Sedimentatsiya (cho'kish) tezligi zarrachalarning o'lchami va shakliga, muhit bilan osilib turgan zarrachalar zichliklarining (ρ_0 va ρ) farqiga va muhit qovushqoqligi (η) ga bog'liq. Stoks qonuni bo'yicha sferik zarrachalarning cho'kish tezligi

$$\frac{dx}{dt} = \frac{2}{9} \cdot \frac{r^2 (\rho - \rho_0) g}{\eta} \quad \text{ga teng.}$$

Bu erda tushayotgan zarrachalarning τ -vaqt ichida yurib o'tgan masofasi; g -og'irlilik kuchining tezlanishi.

Bu tenglamaga asosan zarrachaning radiusi r kichrayishi bilan dx/dt kamayib boradi. Agar suspenziyalarda cho'kishi tezligi katta bo'lib oson o'zgarsa, maydaror zarrachalarga o'tganda u shunchalik kamayib ketadiki, uni amalda aniqlash juda qiyin bo'ladi.

Polimer molekulalari cho'kishini tezlashtirish uchun ultratsentrifugadan foydalaniladi.

Ultratsentrifugada molekulyar massani faqat sedimentatsiya tezligi orqali emas, balki zarrachalarning cho'kishi va qayta diffuzlanish jarayonlari muvozanat paytidagi (sedimentatsion muvozanat) kontsentratsiyalar taqsimlanishini o'rghanish yo'li bilan ham aniqlash mumkin. Muvozanat paytida bu tezliklar bir-biriga teng bo'ladi va erigan polimer moddaning ko'chishi to'xtaydi. Bu usulda molekulyar massani hisoblash uchun quyidagi tenglama qo'llaniladi:

$$M = \frac{2RT \ln \frac{c_2}{c_1}}{\omega^2 (1 - V \rho_0) (x_2^2 - x_1^2)}$$

Viskozimetrik usul. Polimerlar suyultirilgan eritmalarining qovushqoqligi ko'pincha kapillyar viskozimetrlarda V hajmli suyuqlikning laminar oqish vaqtini t orqali aniqlanadi. Puazeyl qonuni bo'yicha kapillyardagi laminar oqim uchun

$$[\eta] = \frac{\pi \cdot r^4 p \tau}{8V \cdot l}$$

bu yerda, r -bosim; l -va r kapillyarning uzunligi va radiusi. Nisbiy qovushqoqlik esa quyidagi tenglama orqali topiladi:

$$\eta_{huc} = \frac{t_1}{t_0}$$

bu yerda, t_0 va t_1 erituvchi va eritmaning kapillyardan oqib o'tish vaqt. Keltirilgan qovushqoqlik va eritma kontsentratsiyasi orasidagi munosabatdan $c=0$ gacha ekstrapolyatsiya qilib xarakteristik qovushqoqlik topiladi.

Viskozimetrik o'lchashlar makromolekulaning o'ralish darjasini va konformatsion shakli haqida ham ma'lumot beradi.

Kimyoviy usullar. Bu usul makromolekula uchlaridagi funksional guruhlar (gidroksil, carboksil, amin va boshqalar)ni, initsiatorlarning nishonlangan fragmentlari (peroksid, azobirikmalar va boshqalar) yoki makromolekuladagi alohida atomlar (xlor, brom, oltingugurt va boshqalar)ni aniqlashga asoslangan.

Polimerlarning molekulyar massasi ortishi bilan makromolekula uchlaridagi guruhlarning zanjirdagi ulushi kamayib boradi va kimyoviy usulning aniqligi pasayadi. Kimyoviy usul bilan $\overline{M}_n \leq 5 \cdot 10^4$ bo'lgan molekulyar massani aniqlash mumkin.

Zanjir uchlarida guruhlarning tahlili asosida o'rtacha arifmetik molekulyar massani quyidagi formula vositasida aniqlanadi:

$$\overline{M}_n \leq 5 \cdot 10^4 \frac{xy}{z}$$

bunda, x -bitta zanjirga to'g'ri kelgan guruhlar soni; y -zanjir uchlaridagi guruhning molekulyar massasi; z -tajribada topilgan zanjir uchlaridagi guruhlar miqdori.

Kimyoviy usul o'rtacha arifmetik molekulyar massanining qiymatini beradi.

a) *Poliefirlarning molekulyar massasini aniqlash.* Poliefir makromolekulalari uchlarida carboksil va gidroksil guruhlar tutadi. Poliefirlarning molekulyar massasini kislota soni (KS) va gidroksil soni (GS) ni aniqlash orqali quyidagi formulalar vositasida topiladi:

$$\overline{M}_n = \frac{56,11 \cdot 1000}{K.C.}$$

$$\overline{M}_n = \frac{56,11 \cdot 1000}{\Gamma.C.}$$

Poliefirda uchlarida ikkita carboksil yoki ikkita gidroksil guruh tutgan ma'lum miqdordagi makromolekulalarning bo'lishi molekulyar massani hisoblashda xatolikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun molekulyar massanining aniq qiymatlarini topish maqsadida makromolekula uchlaridagi ikkala guruhning miqdori aniqlanadi. Molekulyar massani quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\overline{M}_n = \frac{56,11 \cdot 2 \cdot 1000}{K.C. + \Gamma.C.}$$

b) *Poliamidlarning molekulyar massasini aniqlash.* Poliamidlar makrozanjiri uchlarida amin va karboksil guruhlar tutadi. Poliamidlar molekulyar massasi ana shu guruhlarni aniqlash orqali topiladi:

$$\overline{M}_n = \frac{36,5 \cdot 1000}{A.C.}$$

$$\overline{M}_n = \frac{56,11 \cdot 1000}{K.C.}$$

Bittadan guruh tutgan polimer molekulyar massasini aniqlashdagi xatoliklarni minimumga keltirish uchun hisoblashni uchlaridagi ikkita guruhnini hisobga olib amalga oshiriladi. Agar amin soni 1 g polimerga to'g'ri kelgan KOH mg larida ifodalangan bo'lsa, molekulyar massa quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\overline{M}_n = \frac{56,11 \cdot 2 \cdot 1000}{A.C. + K.C.}$$

v) *Epoksid smolalar molekulyar massasini aniqlash.* Epoksid smolalar makromolekulalari uchlarida epoksid guruhlar bo'ladi. Chiziqsimon epoksid smolaning molekulyar massasini epoksid guruhlar tarkibiga (E) ko'ra hisoblanadi:

$$\overline{M}_n = \frac{43 \cdot 2 \cdot 1000}{\Theta}$$

Gel-filtratsiya yoki gel-xromatografiya usuli. Gel-xromatografiya usulida maxsus kolonkalar (zanglamas po'latdan tayyorланади) har xil suyuqliklarda yaxshi bo'kadigan choklangan polimer iviqlar bilan to'ldirilgan bo'ladi. Suvli eritmalarida ishlash uchun sefadeks-S (epixlorgidrin bilan choklangan dekstran), biogel-R (bis-metilendimetakrilamid bilan choklangan poliakrilamid), sferon-R (dimetakrilat-etilenglikol bilan choklangan polioksietilenmetak-rilat), organik eritmalar uchun sefadeks-LH, stirogel (divinilbenzol bilan choklangan polistirol) va maxsus tayyorlangan g'ovak shishalar qo'llanadi.

a) *Chiziqsimon amorf polimerlarning molekulyar massasini ularning oquvchanlik harorati orqali aniqlash.* Poliizobutilen asosida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, polimerlarning oquvchanlik harorati (T_{oq}) molekulyar massa ortishi bilan tez ortadi, shishalanish harorati (T_{sh}) esa o'zgarmaydi. Polimerlanish darajasi va haroratlar farqi ($T_{oq} - T_{sh}$) orasida oddiy munosabat mavjud:

$$\lg \overline{P} = A + B \frac{T_{oq} - T_{sh}}{C + (T_{oq} - T_{sh})}$$

bu yerda, \overline{P} – polimerlanish darajasi; A , V , C lar berilgan polimergomologik qator uchun mos keladigan o'zgarmas kattaliklar.

b) Polimerlar molekulyar massasini ularning suyuqlanmalari qovushqoqligi yordamida aniqlash. Bu usul polimer suyuqlanmalarining qovushqoqligi va polimerlanish darajasi orasidagi bog'lanishga asoslangan:

$$\lg \eta = 6,40 + \frac{1897}{T} + 0,1764 \sqrt{\bar{P}_w}$$

bunda, η -suyuqlama qovushqoqligi; T -mutlaq harorat; \bar{P}_w - polimerlanish darajasi.

Bu tenglama poliefirlar uchun topilgan. Boshqa polimerlar uchun ham shunday bog'lanishlarni aniqlash mumkin.

Nazorat savollari

1. Nima uchun polimerlarning aniqlangan molekulyar massasi o'rtacha qiymatni tashkil qiladi?
2. Polimerlarning polidispersligi nima?
3. O'rtacha arifmetik va o'rtacha massaviy molekulyar massalar o'rtasida qanday farq bor?
4. Polimer eritmalarini nima uchun qovushqoqlikka ega?
5. Mark-Kun-Xauvink tenglamasidagi K va α konstantalarning fizik-ma'nosini tushuntiring.
6. Polimer eritmasining qovushqoqligi bilan erituvchi tabiatini orasida qanday bog'lanish bor?
7. O'rtacha arifmetik molekulyar massa qanday usullar bilan aniqlanadi?
8. O'rtacha massaviy molekulyar massa qanday usullar bilan aniqlanadi? O'rtacha qovushqoq molekulyar massa qanday aniqlanadi?
9. Osmometrik usul bilan molekulyar massa qanday aniqlanadi?
10. Krioskopik usul bilan molekulyar massa qanday aniqlanadi?
11. Molekulyar massani aniqlashning diffuziya usuli nimaga asoslangan?
12. Molekulyar massani aniqlashning ultratsentrifugalash usuli va uning imkoniyatlari nimalardan iborat?
13. Polimerlarni cho'ktirib va eritib fraktsiyalashning eksperimental mohiyatini tushuntiring.
14. Nima uchun polimer eritmalarining osmotik bosimi erituvchi tabiatiga bog'liq bo'ladi?
15. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning diffuziya va sedimentatsiya usullari nimaga asoslangan?
16. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning nur yoyish usuli nimaga asoslangan?
17. Gel-xromatografiya usuli va uning ahamiyati.
18. Polimerlar molekulyar massasini aniqlashning zanjir uchlaridagi funktsional guruhlar usuli nimaga asoslangan?
19. Molekulyar-massaviy taqsimotning integral va differentsial egrilari qanday tuziladi?

AMALIY MASHG'ULOTLAR

5.1-ISH. POLIMERLARNING MOLEKULYAR MASSASINI VISOZIMETRIK USUL BILAN ANIQLASH

Ishning maqsadi: Turli xil kontsentratsiyali polimer eritmalari qovushqoqligini aniqlab, molekulyar massani hisoblash.

Reaktivlar: Poliakrilamid, polivinilpirrolidon, polistirol, polimetilmekatrilat yoki boshqa polimerlar (o'qituvchi tomonidan beriladi) ni 0,2 g/100 ml kontsentratsiyali eritmalari.

Jihozlar: Termostat, modifikatsiyalangan Ubbelode viskozimetri sekundomer, pipetka, (10 ml li), rezina naycha, rezina nok.

Ishning bajarilishi: Ishning bajarilishi uchun polimer, erituvchi va xarorat kitobning ilova qismida keltirilgan jadvalga asosan tanlanadi. Bu jadvalda tajriba sharoiti uchun Mark-Kun-Xauvink tenglamasining K va α qiymatlari ham keltirilgan.

Avvalo toza quritilgan viskozimetrga erituvchi quyiladi va sharchaning yuqori qismigacha, naycha berkitilib turgan xolda, rezina nok bilan ko'tariladi. Naychaning og'zi ochilganda erituvchi sharchadan viskozimetrnинг pastki qismiga oqib tusha boshlaydi. Sharchaning tepasiga qo'yilgan belgidan to kapillyarning yuqori qismidan oqib o'tish vaqtiga 3-4 marta sekundomer yordamida o'lchanadi. Shundan so'ng toza, quritilgan viskozimetrga birinchi eritma quyiladi. Eritmaning hajmi (odatda 7-8 ml) viskozimetrnинг kapillyar, yuqori va pastki sharchalarining to'lishiga yetarli bo'lishi kerak. Polimer eritmasi pipetka orqali aniq o'lchanishi lozim. Birinchi quyilgan eritmani ham xuddi erituvchi bilan ishlangan tartibda viskozimetr sharchasidan oqib o'tish davri o'lchanadi. Polimer eritmalarini suyultirish shu viskozimetrnинг o'zida bajariladi. Buning uchun dastlab olingan eritmaning ustiga teng hajmda pipetka orqali erituvchi quyiladi, 15-20 daqiqa eritmani muvozanatga kelguncha va uning xarorati termostat xaroratiga tenglashguncha kutib turiladi. Eritmani suyultirish kamida 3 marta amalga oshiriladi. Eritmaning har bir kontsentratsiyasida bajariladitan ishlar xuddi yuqorida bayon etilganidek bajariladi. Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

Nº	Eritmaning kontsentratsiyasi	Toza erituvchining oqish vaqtি, sek, τ	Eritmaning oqish vaqtি, sek, τ	$\frac{\eta_{nis}}{t_1} = \frac{\eta_{sol}}{t_0}$	$\eta_{sol} = \frac{t_1}{t_0} 1$	$\eta_{kel} = \frac{\eta_{sol}}{t_0}$

Toshpirlig: Olingan natjalardan η_{kel} qovushqoqlikning kontsentratsiyaga bog'liqlik grafigi chiziladi. Grafikdan xarakteristik qovushqoqlik topiladi va Mark-Kun-Xauvink tenglamasi $[\eta] = KM^\alpha$ dan foydalanib polimerning

molekulyar massasi xisoblanadi. K va α larning qiymatlari ilovada keltirilgan jadvaldan olinadi.

5.2.-ISH. MAKROMOLEKULANING BO'KISH KOEFFITSIENTINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Polimer zanjirining qo'zg'almagan o'lchamlarini, polistirol makromolekulalarining yaxshi erituvchida bo'kish koeffitsientini va makromolekulaning statistik segmenti o'lchamini aniqlash.

Reaktivlar: 0,5 g/dl kontsentratsiyali polistirol fraktsiyalarining tsiklogeksanli eritmalarini.

Jihozlar: T-16 xilidagi termostat, Ubbelode viskozimetri, sekundomer, rezina nok, 10 ml li pinetka (2 dona), magnitli aralashtirgich.

Ishning bajarilishi: Ushbu ishda tsiklogeksandagi polistirol eritmasining xarakteristik qovushqoqligini θ -haroratda (polistirol-tsiklogeksan sistemasi uchun 34°C) va 44°C da aniqlash. Har ikkala xaroratda toza erituvchi va undan keyin polimer eritmasining oqish vaqtini o'lchanadi. Buning uchun xona xaroratida bir-biridan ajralib qavatlanib qoladigan polistirol va tsiklogeksan aralashmasini magnitli aralashtirgichda qizdirib turib eritma holiga ksltiriladi.

Ishni Ubbelode viskozimetrida amalga oshiriladi. Viskozimetri termostatga (34°C) o'rnatib undagi toza erituvchining oqish vaqtini kamida 3 marta o'lchanadi. Bunda sekundomerda o'lchanigan vaqt 0,4 soniyadan ko'pga farq qilmasligi kerak. Viskozimetrdagi erituvchini to'kib tashlab uni quritib polimer eritmasidan 7 ml quyiladi va uning ham kapillyardan oqib o'tish vaqtini o'lchanadi. Eritmani suyultirishni bevosita viskozimetrning o'zida avval 7, keyin 14 va oxirgi suyultirishda 28 ml toza erituvchi qo'shib amalga oshiramiz, va har suyultirishdan so'ng eritmaning oqish vaqtini aniqlanadi.

Olingan natijalarni jadvalga yoziladi. Har bir harorat uchun alohida jadval tuziladi.

No	Eritma kontsentratsiyasi	Toza erituvchining oqish vaqtini soniya, τ	Eritmaning oqish vaqtini, soniya, τ	$\eta_{nis} = \frac{t_1}{t_0}$	$\eta_{sol} = \frac{t_1}{t_0} 1$	$\eta_{kel} = \frac{\eta_{sol}}{C}$

Natijalarni hisoblash. Olingan natijalar asosida keltirilgan qovushqoqlikning eritma kontsentratsiyasiga bog'liqlik grafigini ikkala harorat (34 va 44°C) uchun chiziladi va hosil bo'lgan to'g'ri chiziqlarni ordinata o'qigacha davom ettirib xarakteristik qovushqoqlikni har bir harorat uchun topiladi. Polistirol qo'zg'almagan makromolekulasingning o'lchamini quyidagi formula orqali hisoblaymiz:

$$[\eta]_0 = F \cdot \frac{(h^2)^{3/2}}{M}$$

bunda h^2 -zanjir uchlari orasidagi o'rtacha kvadratik masofa; F-doimiy qiymat, 2,84 1023; M-monomer zvenosining molekulyar massasi.

Polistirol makromolekulalari uramasining yaxshi erituvchidagi (44^0C da tsiklogeksanda) bo'kish koeffitsientini $\alpha = \left(\frac{[\eta]}{[\eta]_\theta}\right)^{1/3}$ orqali aniqlanadi.

Polistirol statistik segmentining o'lchami, karbozanjirli vinil polimerlar uchun C-C bogining uzunligi 0,154 nm va valent burchati $\nu = 109,5^\circ$ ($\sin V/2 = 0,816$) ekanligini hisobga olgan holda quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$b = \frac{\bar{h}_\theta^2}{n \cdot \ell \cdot \sin \nu / 2}$$

Bular asosida segmentdagagi monomer zvenolari sonini hisoblash mumkin:

$$n_s = \frac{b}{2\ell \cdot \sin \nu / 2}$$

Olingan natijalarni jadvalga yoziladi:

$(\bar{h}^2)_\theta^{1/2}$, nm	α_{44}^0	b, nm	n_s

Topshiriq. Haroratning erituvchi sifatiga va makromolekula o'lchamlariga ta'sirini; polimerning statistik segmenti va uning o'lchami nimalarga bog'liq ekanligini tushuntiring.

5.3-ISH. MARK-KUN-XAUVINK TENGLAMASIDAGI K va α PARAMETRLARINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Polistirol-tsiklogeksan sistemasi uchun 34^0S da Mark-Kun-Xauvink tenglamasidagi K va α doimiyлarni aniqlash.

Reaktivlar: Tsiklogeksan va kontsentratsiyasi 0,5 g/dl bo'lgan polistirol 3 ta fraktsiyasining tsiklogeksandagi eritmalarini.

Jihozlar: T-16 xildagi termostat, Ubbelode viskozimetri, sekundomer, rezina nok, 10 ml li pipetka (2 dona), magnitli aralashtirgich.

Ishning bajarilishi: 5.1-ishda ko'rsatilgan usul bilan polistirolning 3 ta fraktsiyasi xarakteristik qovushqoqligini 34^0C da aniqlanadi. Xona haroratida polistirol va tsiklogeksan aralashmasi qavatlarga ajralib qolishi sababli uni qizdirib, magnitli aralashtirgich yordamida aralashtirib eritma holiga keltiriladi.

O'lchash ishlarini Ubbelodening kapillyar viskozimetrida amalga oshiriladi (5.1-ishga qarang). Natijalarni yozish shakli ham xuddi 5.1-dagidek. Keltirilgan qovushqoqlikning kontsentratsiyaga bog'liqlik grafigi chiziladi va

undan polistirol 3 ta fraktsiyasi uchun xarakteristik qovushqoqlik topiladi. Molekulyar massa va xarakteristik qovushqoqlikni bilgan holda $\lg[\eta]$ ning $\lg M$ ga bogliqlik grafigi chiziladi. Undan foydalanib $\lg[\eta] = \lg K + \alpha \lg M$ tenglamasidagi K va α aniqlanadi.

Natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

Fraktsiyalarning molekulyar massasi	$\lg M$	$\lg[\eta]$	K	α

Topshiriq: Eritmadagi polistirol makromolekulasining shakli haqida xulosa qiling; polistirolning hamma fraktsiyalari uchun qo'zg'almagan o'lchamlar va segmentni hisoblang (5.1-ishga qarang); polimer molekulyar massasi bilan segmentning o'lchami orasida bog'liqlik bor yoki yo'qligini tushuntiring.

5.4-ISH. ULTRABINAFSHA NUR BILAN NURLANTIRILGAN POLIMERNING MOLEKULYAR MASSASINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Polimetilmekrilat eritmasini ultrabinafsha nur bilan nurlantirib, uning molekulyar massasini aniqlash.

Reaktivlar: Polimetilmekrilatning 0,5 g/dl kontsentratsiyali xloroformdagi eritmasi, xloroform.

Jihozlar: T-16 xilidagi termostat, Ubbelode viskozimetri, simob-kvarts chirog'i, sekundomer, rezina nok, 10 ml li pipetka, 10 ml li o'lchov tsilindri, kvarts probirka.

Ishning bajarilishi: O'lchov ishlari 25°C da Ubbelode viskozimetrida bajariladi (5.1-ishga qarang). Avval nurlantirilmagan polimer eritmasining xarakteristik qovushqoqligi 5.1-ishda ko'rsatilganidek aniqlanadi. O'sha eritmadan kvarts probirkaga 8 ml quyilib ultrabinafsha nur bilan nurlantiriladi. Nurlatish vaqt o'qituvchi tomonidan belgilanadi (10-30 min.). Nurlatilgan eritmadagi polimer xarakteristik qovushqoqligi aniqlanadi. Natijalar 5.1-ishdagi jadval shaklida yoziladi.

Natijalarni hisoblash. Nurlantirilmagan va nurlantirilgan polimer eritmalarini keltirilgan qovushqoqligining kontsentratsiyaga bog'liqlik grafigi ($\eta_{\text{kel}}=f(C)$) chiziladi. Ekstrapolyatsiya yo'li bilan xarakteristik qovushqoqlik har ikki eritma uchun aniqlanadi. Nurlantirilmagan va nurlangirilgan eritmalaridagi polimetilmekrilatning molekulyar massalari $[\eta]=KM^\alpha$ formulasi yordamida hisoblanadi. Polimetilmekrilat xloroform sistemasi uchun 25°C da $K=0,48 \cdot 10^{-4}$ va $\alpha=0.80$.

Topshiriq. Polimer molekulyar massasining o'zgarish sabablarini tushuntiring va nurlantirishda sodir bo'ladigan reaktsiyalar tenglamalarini yozing.

5.5-ISH. POLIMER MAKROMOLEKULARINING POLIDIS-PERSLIGINI VISOZIMETRII USULDA BAHOLASH

Ishning maqsadi: Polistirol molekulyar massasini yaxshi na yomon erituvchilarda aniqlash hamda polimer polidisperslik darajasini baholash.

Reaktivlar: Polistirolning toluoldagi 1 g/dl kontsentratsiyali eritmasi, toluol, etanol.

Jihozlar: T-16 xilidagi termostat, Ubbelode viskozimetri, sekundomer, rezina nok, 10 ml li pipetka, 50 ml li yassi tubli kolba.

Ishning bajarilishi: Yaxshi erituvchi sifatida toluol, yomon erituvchi sifatida esa tarkibida 25 haj.% etanol tutgan toluol-etanol aralashmasi ishlataladi. O'lchamlar 25°C da Ubbelode viskozimetrida bajariladi (5.1-ishga qarang). Dastlab polistirolning yaxshi erituvchidagi xarakteristik qovushqoqligi aniqlanadi.

Yomon erituvchida polistirol eritmasini tayyorlash uchun polistirolning toluoldagi 5 ml eritmasiga ($C=1$ g/dl) 2,5 ml toluol va 2,5 ml etanol qo'shiladi. Eritma tiniq qolishi uchun etanolni eritmaga aralashtirib turib asta-sekinlik bilan qo'shiladi. Natijada polistirolning toluol va etanol aralashmasidagi 10 ml eritmasi ($C=0,5$ g/dl) hosil bo'ladi. O'lchashlarni bajarish vaqtida suyultirish uchun 30 ml toluol va 10 ml etanoldan iborat aralashma tayyorlab olinadi. So'ngra yomon erituvchidagi polistirol eritmasining xarakteristik qovushqoqligi aniqlanadi. Natijalarni 5.1-ishdagidek jadvalga yoziladi.

Natijalarni hisoblash. Polistirolniig yaxshi va yomon eritmalari uchun $\eta_{\text{kel}}=f(C)$ bog'liqlik grafigi chiziladi. Hosil bo'lgan to'g'ri chiziqlarni nolinchi kontsentratsiyagacha ekstrapolyatsiya qilib xarakteristik qovushqoqlik qiymati topiladi va yaxshi, yomon erituvchilarda polistirolning molekulyar massalari ($M_{\eta 1}$ va $M_{\eta 2}$) hisoblanadi. Molekulyar massalarni $[\eta]=KM^{\alpha}$ formulasi yordamida hisoblanadi. Bunda K va α doimiylarining qiymatlari 5.2-jadvalidai olinadi.

Mark-Kun-Xauvink tenglamasi doimiyları

Polimer-erituvchi sistemasi	$K \cdot 10^{-4}$	α	T, °C
Polistirol-toluol	1,18	0,72	25
Polistirol-toluol (75%)+etanol (25%)	10,80	0,50	25

Yaxshi va yomon erituvchilarda topilgan molekulyar massalar qiymatlarining nisbati hisoblanadi.

Polimer-erituvchi	$[\eta]$	M_η	$M_{\eta 1}/M_{\eta 2}$

Topshiriq. Polimer eritmasi qovushqoqligiga erituvchi sifatining ta'sirini tushuntiring.

5.6-ISH. POLIMER MAKROMOLEKULALARI POLIDIS-PERSLIGINI TURBIDIMETRIK TITRLASH USULI BILAN BAHOLASH

Ishning maqsadi: Polimer eritmalarining turbidimetrik titrlash integral va differentsial egri chiziqlarini olish.

Reaktivlar: Polimetilmetakrilatning atsetondagi 0,01% li eritmasi, atseton, suv.

Jihozlar: Fotoelektrik kolorimetr (FEK), 18x50 mm 3 dona kyuveta, magnitli aralashtirgich, 25 ml li byuretka, 50 ml li yassi tubli kolba.

Ishning bajarilishi: Polimetilmetakrilatning atsetonli eritmasini cho'ktiruvchi (suv) yordamida turbidimetrik titrlash xona haroratida FEK da bajariladi. Dastlab qo'pol titrlash amalga oshiriladi. Buning uchun yassi tubli kolbaga 15 ml polimetilmetakrilatning atsetonli eritmasidan quyib magnitli aralashtirgichning tayoqchasi tushiriladi va kolbani magnitli aralashtirgich ustiga quyib eritmada sezilar-sezilmas loyqa hosil bo'lguncha suv bilan titrlanadi. Titrlashga sarf bo'lgan cho'ktiruvchining hajmi aniqlanadi. Shundan so'ng kyuvetada aniq titrlash o'tkaziladi. Kyuvetaga polimer eritmasidan 15 ml quyib, eritmaga magnitli aralashtirgich tayoqchasi tushiriladi va to'xtovsiz aralashtirib turib kyuvetaga tezlik bilan suv qo'shiladi (bunda qo'shilgan suv qo'pol titrlashdagiga qaraganda 2 ml kam bo'lishi kerak). Boshqa ikkita kyuvetaga toza erituvchi quyiladi. Bunda kyuvetalarning nur o'tayotgan devorlari toza bo'lishiga alohida ahamiyat berish kerak. Kyuvetalarni FEK ning maxsus qismiga joylashtirib polimer eritmasining optik zichligi o'lchanadi. So'ngra eritmali kyuvetani magnitli aralashtirgichga qo'yib asta-sekinlik bilan cho'ktiruvchi qo'shib borib titrlash davom ettiriladi. Har 0,3 ml cho'ktiruvchi qo'shgandan so'ng eritmaning optik zichligi o'lchanadi. Bu optik zichlik o'zgarmay qolguncha davom ettiriladi. Natijalar jadvalga yozib boriladi.

Natijalarini yozish shakli:

Tekshirilayotgan sistema: Eritmaning dastlabki kontsentratsiyasi va hajmi: Qo'pol titrlashga sarflangan cho'ktiruvchining hajmi:

Shartli belgilari: V-qo'shilgan cho'ktiruvchining hajmi; D-polimer eritmasining optik zichligi: D_0 -cho'kish bo'sag'asigacha bo'lgan optik zichlik, ya'ni eritmadan polimer ajralib chiqishi boshlanguncha bo'lgan tiniq eritmaning optik zichligi: γ -cho'ktiruvchining hajmi qismi; D₁-polimer ajrab chiqqandagi

eritmaning optik zichligi: D₂-eritmani cho'ktiruvchi bilan suyultirilganda kiritilgan tuzatmali optik zichligi.

V	$V = \frac{V}{V_0 - V}$	1-γ	D	D ₁ =D-D ₀	$D_2 = \frac{D_1}{1 - \gamma}$

Natijalarni hisoblash. Abstsissa o'qiga γ ning, ordinata o'qiga esa D₂ ning qiymatlarini qo'yib turbidimetrik titrlashning integral egri chizig'i chiziladi. γ bo'yicha hosil qilingan egri chiziqlari grafik differentsiallab titrlash differentsiyal egrisi olinadi. Buning uchun abstsissa o'qidan bir-biridan bir xil masofada bo'lган nuqtalar olinadi va shu nuqtalar orqali egri chiziq bilan kesishadigan perpendikulyar chiziqlar o'tkaziladi va shu kesishgan nuqtalardan abstsissa o'qiga parallel bo'lган to'g'ri chiziqlar o'tkaziladi. Har bir tanlangan nuqta uchun ΔD₂/Δγ o'sish nisbati hisoblanadi. Abstsissa o'qiga γ ni, ordinata o'qiga ΔD₂/Δγ ning qiymatlarini qo'yib differentsiyal egri chiziq chiziladi. Integral va differentsiyal egri chiziqlar bitta grafikka chiziladi.

Topshiriq. Turbidimetrik titrlashning integral va differentsiyal egri chiziqlarini va turbidimetrik titrlash egri chiziqlaridan molekulyar-massaviy taqsimlanish egri chiziqlariga qanday o'tish mumkinligini tushuntiring.

5.7-ISH. POLIMER MAKROMOLEKULALARI POLIDISPERS- LIGINI GEL-XROMATOGRAFIYA USULI BILAN BAHOLASH

Ishning maqsadi: Polivinilpirrolidon fraktsiyalari uchun elyuirlanish egri chiziqlarini chizish va polimer makromolekulalarining molekulyar massasi hamda hajmiy taqsimlanish koeffitsientini baholash.

Reaktivlar: Polivinilpirrolidon fraktsiyalarining 0,5 g/dl kontsentratsiyali suvli eritmalarini.

Jihozlar: Xromatografik kolonka, SF-26 xilidagi spektrofotometr, 10x10 mm li kyuveta (2 dona), probirkalar to'plami bilan shtativ, 10 ml li o'lchov tsilindri 1 ml li pipetka.

Ishning bajarilishi va natijalarni hisoblash. Ishni G-100 rusumli sefadeks-dekstranning suvda bo'kkан gel bilan to'ldirilgan xromatografik kolonka yordamida bajariladi. Kolonkada gel qavatining balandligi 30 sm bo'lishi kerak. Ishni boshlashdan avval gel qavati ustidagi ortiqcha distillangan suv tushirib yuboriladi. Pipetka yordamida kolonkaga 1 ml polivinilpirrolidon eritmasi quyiladi va eritma gelga shimilib ketguncha kutiladi. So'ngra gel ustida qalinligi 1 sm bo'lган suv qatlami hosil bo'lguncha pipetka yordamida distillangan suv quyiladi. Ishchi eritma gelga shimilib ketishi bilan kolonkaga to'xtovsiz distillangan suv yuborib turib va o'lchov tsilindriga fraktsiyalarni yig'ib polimerni elyuirlashni boshlanadi. Har bir fraktsiya alohida probirkaga

quyiladi. Fraktsiya hajmi aniq o'lchanishi lozim. Birinchi fraktsiya hajmi 10 ml, keyingi har biriniki esa 3 ml bo'lishi kerak. Jarayonni elyuatning umumiyligi hajmi 50 ml ga etguncha davom ettiriladi. Elyuat fraktsiyalaridagi polimer kontsentratsiyasini UF-spektroskopik usulda aniqlanadi. Buning uchun spektrofotometr yordamida har bir fraktsiyaning optik zichligi D ($\lambda=225$ nm) va kyuvetadagi eritma qatlaming qalinligi 1 sm) o'lchanadi. Ikkinchisi kyuvetada albatta erituvchi-distillangan suv bo'lishi kerak. *Natijalarni yozish shakli:*

Probirka tartib raqami	Elyuatning umumiyligi hajmi, V_e, ml	$D_{225\text{nm}}$

Ordinata o'qiga fraktsiyalarning optik zichligi D, abstsissa o'qiga esa-elyuillangan fraktsiyalar hajmi V_e qo'yib polivinilpirrolidonning elyuillanish egri chizig'i chiziladi. Elyuillanish egrisi polimerning molekulyar-massaniy taqsimlanish egrisiga mos keladi. Polivinilpirrolidon molekulalarining ayni molekulyar massadagi hajmiy taqsimlanish koeffitsienti K_a ni quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$V_e = V_0 + K_a \cdot V_i$$

bunda V_e -elyuillanayotgan hajm; V_0 -gelning erkin hajmi, ya'ni gel zarrachalari orasidagi hajm; V_i -gelnig ichki hajmi.

Odatda, eng yirik molekulalar birinchi bo'lib elyuillanadi. Shuning uchun $V_e = V_0$

Kolonkaning V_0 va (V_0+V_i) parametrlari o'qituvchi tomonidan beriladi. Ular juda katta na juda kichik zarrachalarning elyuillanish hajmlari bo'yicha avval aniqlangan bo'ladi. V_e ning qiymati sifatida elyuillanish egri chizig'idagi maksimumga to'g'ri kelgan elyuillanuvchi hajm olinadi. Shu hajmga ko'ra darajalangan egri chiziq bo'yicha molekulyar massa baholanadi.

Topshiriq. Xromatografik kolonkaning ishlash printsipini va olingan elyuillanish egrisi orasidagi o'xshashlik (mos tushish)ni tushuntiring. Hajmiy taqsimlanish koeffitsienti qanday ma'noga ega?

5.8-ISH. POLIMERLARNING MOLEKULYAR MASSASINI KRIOSKOPIK USULDA ANIQLASH

Ishning maqsadi: Har xil kontsentratsiyali polimer eritmasi muzlash haroratini aniqlash va uning molekulyar massasini hisoblash.

Reaktivlar: Polimer, erituvchi, sovituvchi aralashma.

Jihozlar: Krioskop, suv hammomi, 25 ml li pipetka, shpatel, soat oynasi.

Ishning bajarilishi: Krioskop yachejkasini tortib olib, unga 25 ml tozalangan erituvchi quyiladi va erituvchili krioskop analistik tarozida tortib erituvchining og'irligi (P_0) aniqlanadi. Krioskop yachejkasini kriostatga

joylashtirib, erituvchini aralashtirgan holda (kriostatdagi sovituvchi aralashmaning harorati erituvchining muzlash haroratidan $1-2^{\circ}\text{C}$. past bo'lishi kerak) muzlash harorati aniqlanadi. Bekman termometri yordamida yachevkadagi erituvchi haroratining o'zgarishi kuzatiladi. Erituvchining o'ta sovutilganligi natijasida avvaliga harorat kristallanish haroratidan pastga tushib ketadi, so'ngra kristallanish issiqligi hisobiga harorat ko'tarilib keyinchalik o'zgarmay qoladi. Shu harorat erituvchining kristallanish haroratiga to'g'ri keladi.

Yachevkani kriostatdan olib iliq suvli suv hammomiga tushiriladi (suv hammomining harorati erituvchi kristallarining suyuqlanish haroratidan $2-5^{\circ}\text{C}$ yuqori bo'lishi kerak). Erituvchi kristallari suyuqlangandan keyin uning kristallanish harorati yana qaytadan aniqlanadi. Ikkala tajribada aniqlangan kristallanish haroratlarini o'rtachasi erituvchining kristallanish xarorati (T_0) sifatida olinadi.

Analitik tarozida polimer namunasi 0,05 g atrofida tortib olinib (P_1) erituvchili krioskop yachevkasiga solinadi va to'liq eritiladi. So'ngra eritmaning kristallanish harorati (T_1) aniqlanadi. Suv hammomida yachevkadagi eritma eritilib, tajriba yana qaytariladi. Xuddi shunday tajribalar shu erituvchidagi polimerning uch xil kontsentratsiyali eritmasi bilan ham qilinadi. Bunda polimerning qolgan namunalari ham yachevkadagi erituvchiga solinaveradi ($\Delta r^1=\Delta r^{11}=\Delta r^{111}=0,05 \text{ g}$).

Natijalar jadvalga yoziladi.

No	Polimer miqdori, gr	Polimer eritmasi kontsen-tratsiyasi. %	Eritmaning kristallanish harorati. $^{\circ}\text{C}$	Muzlash haroratining pasayishi
1	P_1	$C_1=(P_1 \cdot 100)/P^0$	T_1	$\Delta T_1=T_0-T_1$
2	$P_1+\Delta p^1=P_2$	$C_2=(P_2 \cdot 100)/P^0$	T_2	$\Delta T_2=T_0-T_2$
3	$P_2+\Delta p^{11}=P_3$	$C_3=(P_3 \cdot 100)/P^0$	T_3	$\Delta T_3=T_0-T_3$
4	$P_3+\Delta p^{111}=P_4$	$C_4=(P_4 \cdot 100)/P^0$	T_4	$\Delta T_4=T_0-T_4$

Natijalarni hisoblash. Olingan natijalar asosida polimer eritmasining har bir kontsentratsiyasi uchun $\Delta T/C$ hisoblanadi va $\Delta T/C$ ning C bo'yicha grafigi chiziladi. Hosil bo'lган to'g'ri chiziqni cheksiz suyultirishgacha ekstrapolyatsiya qilib $(\Delta T/C)_{c \rightarrow 0}$ topiladi. Topilgan $(\Delta T/C)_{c \rightarrow 0}$ qiymati va erituvchi krioskopik doimiysi (ilovadagi jadvalga qarang) polimerning o'rtacha raqamiy molekulyar massasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$\bar{M}_n = \frac{K_K}{(\Delta T_K/c)_{c \rightarrow 0}}$$

5.9-ISH. POLIMER MOLEKULYAR MASSASINI OSMOMETRIK USUL BILAN ANIQLASH

Ishning maqsadi: Polimer eritmasining har xil kontsentratsiyali eritmalarini osmotik bosimini aniqlash va polimerning molekulyar massasini hisoblash.

Reaktivlar: Polimer-polistrol, erituvchi-toluol, simob.

Jihozlar: Tsimm-Meyerson osmometri, osmometr uchun idish, yarim o'tkazgich membranalar, termostat, katetometr, 100 sm^3 hajmli o'lchov kolbalari, shlifli qopqog'i bilan (4 ta), 50 sm^3 hajmli stakan, uzun ignasi bilan 10 sm^3 li shprits, shpatel, soat oynasi.

Ishning bajarilishi: Polimerning to'rt xil kontsentratsiyali eritmasini tayyorlash uchun hajmi 100 sm^3 bo'lgan 4 ta o'lchov kolbasiga 0,05; 0,075; 0,100 va 0,125 g miqdorida qayta cho'ktirilgan va doimiy og'irlikka ega bo'lguncha quritilgan polimer solib ustiga tozalangan erituvchidan 50 sm^3 dan quyiladi. Polimer to'liq erib ketgach shprits yordamida yachevkaga kapillyar orqali eritma quyiladi. So'ngra kapillyarga nixrom sim kiritib, kapillyarning kengaygan joyiga simob quyiladi. To'ldirilgan ushbu osmometr idishga solinadi va erituvchi sathi solishtirish kapillyari pastki qismidan 1 sm yuqorida qilib erituvchi quyiladi. Idishni qopqog'i bilan yopib, $30\pm0,01^\circ\text{C}$ li termostatga joylashtirib 30 daqiqa davomida eritma harorati muvozanatga keltiriladi. So'ngra sim vositasida kapillyardagi eritma sathini kapillyardagi erituvchi sathiga to'g'rilanadi. Bu o'lchashlarning boshlanishi deb olinadi. Katetometr yordamida Δh o'zgarmas qiymatga ega bo'lguncha osmometr kapillyarlaridagi suyuqliklar sathlarining farqi har soatda o'lchab turiladi. Muvozanatga kelgan Δh 3-4 soat mobaynida o'zgarmasligi kerak.

Olingen natijalarining ishonchli ekanligini tekshirish uchun sim vositasida o'lchov kapillyaridagi sathni muvozanat qiymatidan 0,5 sm yuqori ko'tariladi va uning o'zgarishini teskari yo'nalishda o'lchanadi. Suyuqlik sathining so'nggi holati bilan dastlabki holati orasidagi farq 0,05 sm dan ortiq bo'lmasligi kerak.

Eng past kontsentratsiyali polimer eritmasini o'lchab bo'lgandan so'ng yuqori kontsentratsiyali eritmalar o'lchanadi. Har bir kontsentratsiyali eritmani o'lchab bo'lgandan keyin osmometrni navbatdagi kontsentratsiyali eritmaning $2-3 \text{ sm}^3$ miqdori bilan 2-3 marta yuviladi. Osmometrni o'lchashlar oldidan erituvchi bilan yuvish mumkin emas.

Tajribani tugatib osmometr bo'shatiladi va erituvchi bilan kamida 3 marta yuviladi, so'ngra shu erituvchi bilan to'ldirib qo'yiladi.

Polimer eritmasining har bir kontsentratsiyasi uchun o'lchov kapillyaridagi (h_1) va solishtirish kapillyaridagi (h_2) suyuqliklar sathining vaqt bo'yicha o'zgarishi o'lchanadi va kapillyardagi suyuqliklar sathining farqi (Δh) topiladi. Natijalar jadvalga yoziladi.

Vaqt τ , soat	h_1 , mm	h_2 , mm	Δh , mm

Natijalarni hisoblash. Osmotik bosimi o'lchanishi lozim bo'lgan polimer eritmasi kontsentratsiyasi quyidagi formula orqali topiladi:

$$C = \frac{p \cdot 100}{P + p}$$

bunda: p -polimer miqdori, g; P -erituvchi miqdori, g.

Tajribada topilgan Δh asosida polimerning turli xil kontsentratsiyali eritmasi uchun $\Delta h/C$ topiladi va $\Delta h/C' = f(C')$ grafigi chiziladi. Grafikdagi tug'ri chiziqni ekstrapolyatsiya qilib ordinata chizig'ida hosil bo'lgan kesmani $\Delta h/C$ deb olinadi

Agar $\Delta h/C' = f(C')$ grafigi to'g'ri chiziq hosil qilmasa, u xolda $\sqrt{\Delta h/C'}$ ning C' ga bog'liqlik grafigi chiziladi va hosil bo'lgan to'g'ri chiziqni ekstrapolyatsiya qilib $\sqrt{\Delta h/C'}$ qiymati topiladi. Olingan natijani kvadratga ko'tarib $\Delta h/C'$ qiymat topiladi.

\bar{M}_n ni hisoblash uchun $\bar{M}_n = RT/(\pi/C)$ tenglama yordamida topilgan $\Delta h/C'$ qiymatidan π/C qiymatiga o'tiladi. π ning qiymati (Pa da) $\pi = 0,0980665\Delta h \cdot \rho$ (a) (ρ -erituvchi zichligi) formula bilan hisoblanadi.

Polimer eritmasi kontsentratsiyasini (g/sm^3) quyidagi nisbat orqali aniqlanadi: $C = \frac{C' \cdot \rho}{100}$ ning qiymatini (a) tenglamaga qo'yib quyidagi ifodani olamiz:

$$\frac{\pi}{C} = \left(\frac{\Delta h}{C'} \right) \cdot 0.0980665\rho(100/\rho) = \left(\frac{\Delta h}{C'} \right) \cdot 9.8066$$

π/C qiymatini (a) tenglamaga qo'yib:

$$\bar{M}_n = \frac{RT}{\frac{Dh}{C'} \cdot 9.8066} = \frac{8.3134 \cdot 10^3 T}{\frac{Dh}{C'} \cdot 9.8066} = \frac{8.479 T}{\frac{Dh}{C'}}$$

ifodani olamiz:

30^0 da $T = (273+30), K$;


$$\bar{M}_n = \frac{257000}{\frac{\Delta h}{C'}}$$

5.10-ISH. BO'LAKLAB CHO'KTIRISH USULI BILAN POLIMERNING MOLEKULYAR-MASSAVIY TAQSIMLANISHINI ANIQLASH.

Ishning maqsadi: Polimerni fraktsiyalarga ajratish, har bir fraktsiyaning miqdori va molekulyar massasini aniqlash hamda molekulyar-massaviy taqsimlanishining integral egri chizig'ini chizish.

Reaktivlar: Namuna-polistirol, erituvchi-metiletilketon, cho'ktiruvchi-metil spiriti, toluol-benzol.

Jihozlar: Fraktsiyalarga ajratish qurilmasi, elektromexanik aralashtirgich, U-10 xilidagi termostat (2 ta), $0,1^{\circ}\text{C}$ aniqlikdagi 50°C li termometr, 50 sm^3 hajmlı byuretka, 1000 sm^3 hajmlı konussimon kolba, 300 sm^3 (5 ta) va 500 sm^3 hajmlı stakanlar, Shotta shisha filtri (№3), shisha voronka, shisha paxta, suv nasosi, vakuum-eksikator, shpatel, soat shishasi. Fraktsiyalab cho'ktirish qurilmasi (**33-rasm**), termometr (3), elektromexanik aralashtirgich (6), voronka (5) fraktsiyalarni ajratib olish krani (8) va termostatlovchi qavat bilan jihozlangan hajmi 500 sm^3 uch og'izli kolbadan iborat.



33-Rasm. Fraktsiyalarga ajratish qurilmasi.

1-termostatlovchi qobiq; 2,7-naychalar;
3-termometr; 4-aralashtirgich uchun shlifli
naycha; 5-voronka; 6-aralashtirgich; 8-kran

Ishning bajarilishi: Fraktsiyalashni polimer eritmasiga cho'ktiruvchi qo'shib borish yo'li bilan amalga oshiriladi. Har gal cho'ktiruvchi miqdorini oshira borib, molekulyar massasi kamayib boruvchi polimer fraktsiyalari olinadi. Fraktsiyalash kolbasini 2 ta uchtarmoqli kran vositasida 2 ta suvli termostatga ulanadi. Kolbadagi eritma haroratini qurilmani termostatlarga navbatli bilan ulab boshqarib turiladi.

1000 sm^3 hajmlı konusli kolbaga 5 g qayta cho'ktirilgan va massasi o'zgarmas: holga keltirilgan polistirol kukuni va 500 sm^3 metiletilketon quyiladi. Polimer batamom erigandan so'ng. qattiq zarrachalardan tozalash uchun eritma shisha paxtadan o'tkazib filtrlanadi va fraktsiyalovchi qurilmaga quyib aralashtirgan holda $20+0,1^{\circ}\text{C}$ da termostat haroratigacha isitiladi. Eritmaga voronka orqali byuretkada barqaror loyqa hosil bo'lguncha tomchilatib metil spiriti qo'shiladi. Metil spiriti zaharli va oson alanganadi. Shuning uchun tajriba mo'rili shkaf ostida alangadan holi holda bajarilishi kerak. So'ngra polimer eritmasini loyqa yo'qolguncha aralashtirib turib qizdiriladi va aralashtirmasdan boshlang'ich haroratga kelguncha asta-

sekin sovutiladi, bunda polimer fraktsiyasi cho'kmaga tushadi. Fazalar to'liq qavatlarga ajraganidan keyin gelsimon fazani jo'mrak orqali yig'gich-stakanga quyib olinadi.

Ajratib olingan gel ozroq toluolda eritiladi va aralashtirib turib eritma hajmiga nisbatan o'n marta ko'p metil spiriti quyiladi. Tushgan cho'kmani bir necha marta metil spiriti bilan yuvib dekantatsiya qilinadi va №3 filtr orqali filtrlab, filtdagi cho'kmani yana metil spiriti bilan yuviladi. Cho'kmani filtrdan tortilgan byuksga solinadi. Byuksni vakuum-eksikatorga joylashtirib 60°C da massasi o'zgarmasdan qolguncha quritiladi.

Navbatdagi fraktsiyani olish uchun polimer eritmasiga 20°C tomchilatib metil spiriti quyamiz. Spirit aralashmani aralashtirib turgan holda oq loyqa hosil bo'lquncha qo'shiladi. Fraktsiyalash shu tarzda davom etaveradi. 10 ta fraktsiya ajratib olingandan so'ng qolgan eritma juda suyulib ketadi, bu esa keyingi fraktsiyalarni olishni murakkablashtirib qo'yadi va ko'p vaqt talab qiladi. Fraktsiyalash samarasini oshirish uchun polimer eritmasi kontsentrlanadi. Buning uchun 1% li eritma hosil bulguncha vakuumli suv nasosi vositasida eritmadagi erituvchining ma'lum qismi bug'latiladi va fraktsiyalash davom etgiriladi. So'nggi fraktsiyani erituvchini to'liq bug'latish natijasida olinadi.

Dastlabki 3-5 fraktsiyalarni yuqoridagi usul bilan qayta fraktsiyalanadi va yana 3-5 ta fraktsiya olinadi.

Dastlabki va qayta fraktsiyalash natijasida 15-20 ta fraktsiya olinadi. Har bir fraktsiyaning massasi P_i da vickozimetrik usul bilan molekulyar massalari M_i aniqlanadi. Tajriba natijalari jadvalga yoziladi.

1-jadval

Dastlabki fraktsiyalash			Qayta fraktsiyalash		
Fraktsiyalar tartib raqami №	Fraktsiyalar massasi P_i	Fraktsiyalar molekulyar massasi, M_i	Fraktsiyalar tartib raqami №	Fraktsiyalar massasi. P_i	Fraktsiyalar molekulyar massasi. M_i

2-jadval

Fraktsiyalar tartib raqami №	Fraktsiyalar massasi, P_i , g	Fraktsiyani ng massa ulushi, W_i	Fraktsiyaning integral massa ulushi $W_x = \sum_{i=1}^x P_i$	$[\eta]_i$, Sm^3/g	M_i

Natijalarni hisoblash. Olingan natijalar asosida har bir fraktsiyaning massa ulushini hamma fraktsiyalar massa ulushiga nisbati hisoblanadi:

$$W_i = \frac{P_i}{\sum_{i=1}^x P_i}$$


Hamma fraktsiyalarini M_i qiymatining ortib borishi tartibida bir qatorda joylashtiriladi va eng kichik molekulyar massali fraktsiyadan boshlab hamma fraktsiyalar ulushi yig'indisidagi har bir fraktsiyaning integral massa ulushi aniqlanadi. Natijalar 2-jadvalga yoziladi.

Fraktsiyalashning to'g'ri amalga oshirilganligini tekshirish quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$[\eta] = \sum_{i=1}^x W_i [\eta]_i$$

Hamma fraktsiyalar uchun $\sum_{i=1}^x W_i [\eta]_i$ qiymati fraktsiyalanmagan polimerning $[\eta]$ ga teng bo'lishi kerak. Yuqoridagi tenglama bilan hisoblangan $[\eta]$ qiymati va tajriba yo'li bilan topilgan $[\eta]$ farqlari orqali polimer fraktsiyalarining yo'qolgan qismi aniqlanadi. Agar $[\eta]$ ning hisoblab topilgan qiymati tajribadagidan katta bo'lsa, u holda yo'qotish quyimolekulyar fraktsiyalar hisobiga bo'ladi. Hisoblab topilgan $[\eta]$ qiymati tajriba asosida topilgan $[\eta]$ qiymatidan kichik bo'lsa yo'qotish yuqorimolekulyar fraktsiyalar hisobiga bo'ladi. 2-jadvaldagi natijalar asosida $W_x - M_i$ koordinatalarida polimerning molekulyar-massaviy taqsimlanish integral egri chizig'i chiziladi.

5.11 -ISH. POLIMERNING MOLEKULYAR-MASSAVIY TAQSIMLANISHINI BO'LAKLAB ERITISH ORQALI ANIQLASH.



34-rasm. Bo'laklab eritish orqali fraktsionirlash qurilmasi.

Ishning maqsadi: Polimerni fraktsiyalash, har bir (fraktsiya uchun polimerning massasi va molekulyar massasini aniqlash va molekulyar-massaviy taqsimlanish integral egri chizig'ini chizish.

Reaktivlar: Polimer-polistirol, erituvchi-benzol, ("krioskopiya uchun"), cho'qtiruvchi-metil spirti (x.ch).

Jihozlar: Fraktsiyalovchi qurilma (34-rasm), termostat, kristallizator ($d=15-20\text{sm}$), vakuum-eksikator, suv vakuum-nasosi, rektifikatsion kolonka uchun shisha nasadka ($d=0,5\text{ mm}$, aylanish soni 1-2), suv xammomi, Erlenmeyer kolbasi, keng og'izli 200 sm^3 hajmlli kolba, 100 sm^3 hajmlli tsilindr, Petri tovoqchasi, shpatel, soat oynasi.

Eritish yo'li bilan fraktsiyalash hajmi 500 sm^3 bo'lgan shlifli ikki og'izli kolbadan iborat qurilmada (34-rasm) olib boriladi. Kolbaning

bitta og'ziga shisha filtr (№2) ulangan. Ekstraktni ajratib olish uchun ikki og'izli kolba (1) kengaytiruvchi quvur (3) orqali Bunzen sklyankasi (4)ga va suvli vakuum-nasosga ulangan.

Ishning bajarilishi: Fraktsiyalash polimer pardasidan navbatma-navbat alohida fraktsiyalar ajratib olish bilan amalga oshiriladi. Buning uchun avval har xil tarkibli erituvchi-cho'ktiruvchi aralashmalari tayyorlab olinadi. Polimer pardasini navbatma-navbat erituvchi bilan boyib boruvchi aralashma bilan ishslash usuli vositasida molekulyar massasi oshib boruvchi polimer fraktsiyalari olinadi.

Fraktsiyalash tajribasini shisha donachalarni polimer pardasi bilan qoplashdan boshlanadi. Buning uchun 60 sm^3 miqdordagi shisha donachalar benzol bilan yuvilib quritiladi, tortiladi va bir xil qalinlikda kristallizatorga solinadi, so'ngra polistirolning benzoldagi 1% li eritmasi quyiladi. Mo'rili shkaf ostida erituvchi bug'latib yuborilgandan so'ng donachalar tortiltan Petri tovoqchasiga solinadi va vakuum-eksikatorda 50°C da massasi o'zgarmay qolguicha quritiladi.

Polimer parda bilan qoplangan donachalarni fraktsiyalash uchun kolba (1) ga solinadi va tarkibida 20% (hajmiy) benzol tutgan benzol va metil spirti aralashmasidan 100 sm^3 quyiladi. Benzol va metil spirti bug'lari zaharli va tez alangalanuvchi bo'lganligi sababli tajribani mo'rili shkafda olib boriladi.

Fraktsiyalash kolbasini qopqoq bilan yopib harorati $20^\circ\pm0,1^\circ\text{C}$ bo'lgan termostatga joylashtirib 15 daqiqa davomida chayqatiladi. Termostatdan kolbani chiqarib olib filtrli og'izdagi qopqog'i olib tashlanadi va kengaytiruvchi quvur orqali Bunzin sklyankasiga ulanadi, so'ngra suvli vakuum-nasos vositasida ekstrakt Bunzen sklyankasiga so'rib olinadi. Ekstraktda birinchi fraktsiya bo'ladi.

Polimerli donachalar bor kolbaga yana 100 sm^3 tarkibida 25-30 % (hajmiy) benzol bo'lgan benzol-metil spirti aralashmasi quyib ekstraktsiyalash qaytariladi. Keyingi fraktsiyalashlarda asta-sekin benzol-metil spirti aralashmasidagi benzol miqdori 100% gacha oshirib boriladi. Oxirgi, ya'ni eng katta molekulyar massali fraktsiyani ajratib olish uchun polimerli donachalarga benzol quyib bir sutka davomida qoldiriladi.

Polimer fraktsiyalarini ajratib olish uchun eritmani Bunzen sklyankasidan 200 sm^3 hajmli keng og'izli kolbaga solinadi va 70°C li suv hammomida $10-15 \text{ sm}^3$ eritma qolguncha mo'rili shkaf ostida bug'latiladi. Qolgan eritmani shrif qopqoqli Erlenmeyer kolbasiga quyib olinadi. Bug'latish amalga oshirilgan kolbaga ozgina benzol bilan chayqab Erlenmeyer kolbasini vakuumli quritish shkafida massasi o'zgarmay qolguncha 50°C da quritiladi. So'ngra har bir fraktsiya massasi P_i va o'rtacha qovushqoq molekulyar massa M_i aniqlanadi. Natijalar jadvalga yoziladi.

Fraktsiyalar tartib raqami	Fraktsiyalar massasi, P_i, g	Molekulyar massa, Mi

Natijalarni hisoblash. Amalga oshirilgan fraktsiyalashning to'g'riligini aniqlash va hisoblashlarning aniqligi 5.9-ishda ko'rsatilganidek tekshiriladi. Fraktsiyalab eritish natijalari quyidagi jadvalga yoziladi:

Aralashma tarkibi (hajm, %)	Fraktsiya massasi, P_i, g	Fraktsiyani ng massa ulushi, W_i	Fraktsiyaning integral massa ulushi $W_x = \sum_{i=1}^x P_i$	$[\eta]_i$	M_i	$[\eta]_i$ W_i
benzol	metil spirti					

Natijalar asosida $W_x \cdot M_i$ koordinatlarida molekulyar-massaviy taqsimlanish integral egri chizig'i chiziladi.

5.12-ISH. POLIEFIRLAR MOLEKULYAR MASSASINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Poliefir polimerning molekulyar massasini kislota va gidroksil sonlarini aniqlash orqali topish.

Reaktivlar: Poliefir polimeri, KOH ning 0,1 n li spirdagi eritmasi, 0,1 n li HCl eritmasi, fenolftalein, sirka angidridi bilan piridin aralashmasi, KOH ning 0,1 n li eritmasi.

Jihozlar: Qaytarma sovutgich, kaltsiy xlоридли shisha naylar, 25 ml hajmli pipetka, 250 ml li konussimon kolbalar, byuretkalar, suv hammomi.

Ishning bajarilishi: Agar chiziqli poliefirlarni yuqorimolekulyar oksikislotalar sifatida qabul qilinsa, ularning molekulyar massasini makromolekulalar uchidagi karboksil guruuhlar sonini aniqlash orqali topish mumkin:



Bunday polimerning eritmasini kaltsiy ishqori bilan titrlab kislota soni (KS) topiladi va undan molekulyar massa quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$M=56 \cdot 1000 / KS$$

bunda 56-KOH ning molekulyar massasi; KS-1 g polimerga to'g'ri kelgan KOH ning milligrammlarda olingan miqdori, ya'ni kislota soni.

Poliefir sintezida uchlarida ikkita gidroksil yoki ikkita karboksil guruuhlar tutgan makromolekulalar ham hosil bo'lishi mumkin. Buni hisobga olgan holda

ham gidroksil (gidroksil soni GS), ham karboksil (kislota soni KS) guruhlarni aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. U holda yuqoridagi hisoblash formulasi quyidagicha yoziladi:

$$M=56 \cdot 2 \cdot 1000 / KS + GS$$

Makromolekula uchlaridagi guruhlarni aniqlashdan avval polimer qayta cho'ktirilishi kerak.

Kislota sonini aniqlash. 250 ml li konussimon kolbalarga ikkita (1-2g) aniq tortilgan qayta cho'ktirilgan polimer namunasi solib ustiga KOH ning 0,1 n li spirtli eritmasidan 25 ml dan quyiladi. Bir vaqtning o'zida polimer namunasi solinmagan nazorat tajribasi ham o'tkaziladi.

Ikki soatdan keyin eritmalar filtrlanadi va filtratdan 10 ml olib 0,1 n HCl eritmasi bilan fenolftaleinning pushti rangi yo'qolguncha titrlanadi. Kislota soni quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$KS = (a - b)T \cdot 2,5 \cdot 1000 / g$$

bunda a-nazorat tajribasida sarf bo'lган 0,1 n HCl eritmasining miqdori (ml); b-namunali eritma uchun sarf bo'lган 0,1 n HCl eritmasining miqdori (ml); g-polimer miqdori (g); T-HCl ning KOH bo'yicha titri (g/ml).

Ikkita tajriba natijalari asosida KS ning o'rtacha qiymati olinadi.

Spirtda eriydigan polimerlar KS ni polimerning spirtli eritmasini KOH ning 0,1 n spirtli eritmasi bilan bevosida titrlab aniqlash mumkin.

Gidroksil sonini aniqlash. Shliflar orqali ulangan qaytarma sovutgichli ikkita konussimon kolbaliing har biriga 1 g dan polimer va atsetillovchi aralashmadan (12 hissa suvni sırka angidridi bilan 88 hissa piridin) 25 ml solinadi. Uchinchi kolbaga esa nazorat tajriba uchun faqat atsetillovchi aralashmadan 25 ml solinadi. Har bir sovutgich tepasiga kaltsiy xlорli shisha naylar o'rnatilib, kolbalarni 60°C li suv xammomida 2 soat kizdirilali.

Uchchala kolbani sovutgach har biriga 25 ml dan distillangan suv quyiladi va hosil bo'lган sırka kislotasini fenolftalein ishtirokida 0,5 n KOH eritmasi bilan titrlanadi.

1 g gidroksil tutgan birikmaga to'g'ri kelgan KOH (mg) miqdori-gidroksil soni quyidagi (formula yordamida hisoblanadi):

$$GS = (a - b)T \cdot 2,5 \cdot 1000 / g$$

bunda a-KOH ning nazorat tajribada titrlashga sarflangan 0,1 n li eritmasi miqdori (ml); b-KOH ning namunali tajribada titrlashga sarflangan 0,1 n li eritmasi miqdori (ml); (g-namunaning massasi (g); T-KOH eritmasining titri (g/ml).

5.13-ISH. POLIAMIDLARNING MOLEKULYAR MASSASINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Poliamidlardagi amin guruhlarini (amin sonini) aniqlab polimerning molekulyar massasini hisoblash.

Reaktivlar: Poliamid namunasi, HCl ning 0,1 n li spirtdagi eritmasi, KOH ning 0,1 n li spirtdagi eritmasi, metiloranj.

Jihozlar: Hajmi 250 ml li shlifli konussimon kolbalar, byuretkalar.

Ishning bajarilishi. Poliamidlar kimyoviy tuzilishiga ko'ra yuqorimolekulyar aminokislotalar deb qaralishi mumkin:



1 g polimerga to'g'ri keladigan karboksil guruhlar soni uning molekulyar massasiga bog'liq. Bu aminoguruhlarga ham tegishli.

Qator poliamidlar oddiy organik erituvchilarda erimaydi, ammo krezol va fenolda oson eriydi. Shunday poliamidlar (masalan, ba'zi sopolimerlar va N-o'rindosh poliamidlar) ham borki, ular spirtlarda yaxshi eriydi. Poliamidlar tahlili uchun ularning eruvchanligiga qarab tayyorlash usulini tanlash lozim. Spirtda erimaydigan poliamidni avval maydalab, so'ng krezol yoki dimetilformamidda eritiladi. Shu eritmani juda tez aralashtirgan xolda spirtga quyiladi. Hosil bo'lган kukunsimon polimer Byuxner voronkasida filtrlanib erituvchi batamom chiqib ketguncha spirt bilan yuviladi va havoda sovitiladi. Spirtda eriydigan poliamidning spirtli eritmasidan suvda cho'ktiriladi. Byuxner voronkasida cho'kma filtrlanib, issiq suv bilan ko'p marta yuviladi va vakuum eksikatorda sulfat kislota ustida quritiladi.

Amin sonini aniqlash. Ikkita aniq tortilgan (0,5-1,0 g) poliamid namunasini shlifli yopqichi bo'lган konussimon kolbaga solinadi va usgiga 25 ml 0,1 n li HCl ning spirtli eritmasidan quyiladi. Bir vaqtning o'zida polimersiz nazorat tajribasi qo'yiladi. 3 soatdan so'ng kolbalardagi aralashmalar filtrlanib, 10 ml filtrat olinadi va kaltsiy gidroksidning spirtdagi 0,1 n eritmasi bilan metiloranj ishtirokida titrlanadi.

1 g poliamidga to'g'ri kelgan xlorid kislota miqdori (mg) amin soni (AS) deyiladi va ushbu formula orqali hisoblanadi:

$$AS = (aT - bT') \cdot 2,5 \cdot 1000/g$$

bu yerda a- nazorat tajribasida sarf bo'lган 0,1 n HCl eritmasining miqdori, ml; b-KOH 0,1 n li eritmasining polimerli tajribada sarf bo'lган miqdori, ml; g-namuna massasi, g; T- HCl titri, g/ml; T'-KOH ning HCl bo'yicha titri, g/ml.

Spirtda eriydigan polimerlarning amin sonini polimerning spirtli eritmasini HCl 0,1 n li spirtli eritmasi bilan bevosita titrlab aniqlash mumkin.

Molekulyar massani quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$M = 36 \cdot 1000 / AS$$

Makromolekula ikkala uchidagi guruhlar bo'yicha molekulyar massani hisoblash uchun amin sonini 1 g moddaga to'g'ri kelgan KOH ning miqdori (mg) bilan ifodalash maqsadga muvofiq buladi. Buning uchun 0,1 n li kislotaning millilitrdagi miqdorini (a) KOH bo'yicha olingan 0,1 n li kislota eritmasi titriga ko'paytirish kerak. U holda molekulyar massani ushbu formula bilan hisoblanadi:

$$M=56 \cdot 2 \cdot 1000 / KS+AS$$

Poliamidlar kislota soni poliefirlar kislota soni kabi aniqlanadi.

Amin soni va kislota sonini suvsiz eritmalarni potentsiometrik titrlash usuli bilan (bu ayniqla, kuchsiz asos xususiyatiga ega bo'lgan, aromatik diaminlardan olingan polimerlarni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega) yoki polimer erigmalarini xlorid kislota bilan bevosita tayyorlagandagi elektr qarshilikni o'lhash usuli bilan ham aniqlash mumkin.

5.14-ISH. EPOKSID SMOLALARING MOLEKULYAR MASSASINI ANIQLASH.

Ishning maqsadi: Epoksid smolasidagi epoksid sonini aniqlash orqali uning molekulyar massasini hisoblash.


Reaktivlar: Epoksid smolasi, HCl ning 0,2 n li atsetondagi eritmasi, atseton, 0,1 n li NaOH eritmasi, fenolftalein.

Jihozlar: 250 ml li konussimon kolbalar, pipetka, byuretka.

Ishning bajarilishi: Epoksid smolalarning makromolekulalari uchlarida epoksid guruhlar tutadi. Epoksid guruhlar mikdorini (E) aniqlash orqali chiziqsimon epoksid smolalar molekulyar massasini quyidagi tenglama orqali hisoblash mumkin:

$$M_n = 43 \cdot 2 \cdot 1000 / E$$

Epoksid guruhlarni aniqlash usuli makromolekuladagi epoksid guruhlarning vodorod xlorid biriktirib olib, xlorgidrin hosil qilish qobiliyatiga asoslangan:



Ko'pincha epoksid guruhlar foizini emas, balki «epoksid ekvivalent» yoki «epoksid soni» aniqlanadi.

Epoksid ekvivalent-grammlarda ifodalangan bir gramm ekvivalent massadir.

Epoksid soni-100 g oligomerdagi epoksid guruqlar sonidir. Epoksid sonini 100 ga bo'lib epoksid ekvivalent qiymatini topiladi.

0,0002 g aniqlikda tortilgan oligomer namunasini (0,2-0,6 g) konussimon kolbaga solib ustiga HCl ning atsetondagi 0,2 n li eritmasidan pipetkada 30 sm³ quyamiz. Kolbani yopqich bilan yopib 2,5 soatga o'z holicha qoldiriladi va 10 sm³ atseton qo'shiladi (titrlash vaqtida eritma loyqalanishini oldini olish uchun). Kolbadagini aralashtirib keyin ortiqcha HCl ni fenoltalein ishtirokida 0,1 n li NaOH eritmasi bilan titrlanadi. Ikkita namuna tahlil qilinadi. Natijalariing o'rtacha qiymati olinadi. Parallel ravishda polimer namunasisiz tajriba qo'yiladi.

Epoksid guruqlar miqdori X ni (% da) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X = (V_1 - V_2) \cdot F \cdot 0,0043 \cdot 100/g$$

bunda V₁- polimersiz eritmani titrlash uchun sarf bo'lgan 0,1 n li NaOH eritmasining hajmi, sm³; V₂-tahlil qilinayotgan namunani titrlash uchun sarf bo'lgan 0,1 n li NaOH eritmasining hajmi, sm³; G'-0,1 n li NaOH eritmasining tuzatma koeffitsienti; 0,0043-0,1 n li NaOH eritmasining 1 sm³ ga to'g'ri kelgan epoksid guruqlar miqdori, g; g-namuna miqdori, g.

Eslatma: 1) HCl ning atsetondagi 0,2 n li eritmasini tayyorlash uchun haydalgan quruq atsetonning 1000 sm³ ga 17 sm³ kontsentrlangan HCl (d=1,18-1,9 g/sm³) qo'shiladi.

2) tahlil qilishdan avval polimerning kislotali yoki ishqoriyligi aniqlanadi (0,1 n li ishqor yoki kislota eritmasi bilan titrlanadi) va hisoblash vaqtida tegishli tuzatma kiritiladi.



VI BOB. POLIELEKTROLITLAR VA ULARNING FIZIK-KIMYOVIY XOS SALARI

6.1. Polielektrolitlarni sinflash



Eritmalarda ionlarga ajray oladigan funktsional guruhlarga ega yuqori molekulyar birikmalarga *polielektrolitlar* deyiladi. Polielektrolitlar ionlanadigan guruhlarning tabiatiga qarab uch turga bo'linadi:

1. *Polikislotalar*-tarkibida kislotali guruhlar tutgan polimerlar. Ular kuchli va kuchsiz polikislotalarga bo'linadi:

a) Kuchli polikislotalar



b) Kuchsiz polikislotalar




1. *Poliasoslar*-tarkibida asosli guruhlar tutgan polimerlar:

a) Kuchli poliasoslar




b) Kuchsiz poliasoslar




Polikislotalar va poliasoslarning tuzlari kuchli polielektrolitlar hisoblanadi.

3. *Poliamfolitlar*-tarkibida kislotali va asosli guruhlar tutgan polimerlar. Masalan, vinilamin bilan akril kislotasining sopolimeri:



Oqsillar turli xil (20 turga yaqin) α – aminokislotalarning sopolimerlari bo’lib quyidagi umumiy formulaga ega:



Bu yerda R_1 , R_2 va R_3 -ba’zilari kislotali, ba’zilari asosli guruhlar tutgan yon o’rindoshlar.

Polielektrolitlarning o’ziga xos xususiyatlari ularning makromolekulalarida joylashgan zaryadlarning zichligiga bog’liq bo’ladi va bu xossalalar poliiionlarning tarkibidagi zaryadlangan guruhlarning o’zaro va qarama-qarshi ionlar bilan ta’sirlanishi orqali aniqlanadi. Shuning uchun polielektrolitlarning suvli eritmalarida bo’ladigan ionlanish muvozanatini o’rganish katta ahamiyatga ega.

6.2. Polielektrolitlarning suvli eritmalarida bo’ladigan ionlanish muvozanati

Polielektrolitlarning suvli eritmalarida bo’ladigan ionlanish muvozanatini potentsiometrik titrlash yordamida o’rganish mumkin. Misol tariqasida polikislotalarni potentsiometrik titrlashni ko’rib chiqamiz.

Polikislotalarni ko’p asosli kislotalar sifatida ko’rish mumkin bo’lganligi uchun ularni potentsiometrik titrlash egri chiziqlarida rN ning keskin o’zgarishi kuzatilmaydi (35-rasmdagi 2-chiziq). Odatda potentsiometrik titrlash egri chiziqlari Genderson-Xasselbak tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$pH = pK_{\alpha} \pm Ig \frac{\alpha}{1 - \alpha}$$


Polielektrolitlarga bu tenglamani qo’llash uchun poliion qarama-qarshi ion orasidagi elektrostatik tortishuv va makromolekulaning konformatsion o’zgarish energiyalarini hisobga oluvchi a’zo qo’shilishi kerak:

$$pH = pK_{\alpha} \pm Ig \frac{\alpha}{1 - \alpha} + \Delta pK(\alpha) \quad \Delta pK_{\alpha} = \frac{0,43 (\Delta G_{el} + \Delta G_{konf})}{RT}$$

Bu yerda ΔG_{el} -protonni poliionning elektrostatik maydonidan chiqarib yuborish uchun kerak bo’lgan energiya miqdori; ΔG_{konf} -globula kalava, spiral

kalava kabi konformatszion o'zgarishlarni bajarish uchun kerak bo'ladigan energiya miqdori, ΔG_{el} va ΔG_{konf} qiymatlarini pK_α qiymat aniq bo'lgan holda, potentsiometrik titrlash yordamida aniqlash mumkin. pK_α ni aniqlash uchun esa, pK_α ni α ga bog'liqlik egri chizig'i chiziladi (**35-rasm, b)** va bu egri chiziq $\alpha \rightarrow 0$ qiymatgacha ekstrapolyatsiya qilinadi. pK_α -qiymati shu egri chiziq ordinata o'qidan kesilgan kesmaning o'lchamiga teng bo'ladi.

ΔG_{el} qiymati 2,3RT ko'paytirilgan (**35-rasm, b)** dagi OKD uchburchakning maydoniga, ΔG_{konf} qiymati esa 2,3RT ko'paytirilgan shtrixlangan shaklning maydoniga teng bo'ladi. Hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, ΔG_{el} va ΔG_{konf} qiymatlari polimerning molekulyar massasiga bog'liq bo'lmaydi, ammo ularning qiymati



35-rasm. Potentsiometrik titrlash egri chiziqlari.

(a)-pH-V koordinatasida; (b)- pK_α - α koordinatasida, 1-sirka kislotasi; 2-polimetakril kislotasi.

makromolekulaning konformatsiyasi, konfiguratsiyasi va eritmadaagi quyi molekulyar ionlarning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Ko'p hollarda pK_α ning qiymati $\lg\alpha/1-\alpha$ ning qiymatiga mutanosib bo'ladi va potentsiometrik titrlash egri chiziqlarini quyidagi tenglama orqali ifodalash mumkinligini ko'rsatadi:

$$pH = pK_0 \alpha + n \lg \frac{\alpha}{1 - \alpha}$$

bu yerda $n > 1$ va u elektrostatik tortishuv qiymatini ifodalaydi.

Polielektrolit eritmalarining termodinamik xossalari oddiy polimerlar va quyi molekulyar elektrolit moddalar eritmalarining termodinamik xossalardan farq qiladi. Donnan yoki membrana muvozanati faqat polielektrolit eritmalar uchun mayjud bo'lgan xususiyatdir. Donnan muvozanati chegara sirti bilan ajralgan va shu chegarani o'taoladigan va o'taolmaydigan sistemalarda qaror topadi. Chegara sirtini o'taolmaydigan ionlarga polionlar yoki katta hajmdagi organik ionlar kiradi.

6.3. Zaryadlangan zanjirlarning qarshi ionlar bilan ta'sirlashuvi.

To'rlar kollapsi


Polielektrolit eritmalarining qovushqoqligini kontsentratsiyaga bog'liqligi elektrolitmas polimerlarnikidan farq qiladi.

Qo'sh elektr qavat nazariyasidan ma'lumki, ionlarning bir qismi Gelmgolts qavati deb ataluvchi qavat hosil qilib bo'linish chegarasida adsorblanadi. Polielektrolitlarda qarshi ionlarning bir qismi bevosita zaryadlangan makromolekula yaqinida joylashadi. Bu hodisa qarshi ionlar (kontrionlar) kondensatsiyasi deb nomlangan. Kuchsiz polielektrolitlarda zaryadlangan makromolekulalar bilan bog'langan qarshi ionlarning ma'lum qismi erituvchining termodinamik sifatiga nihoyatda kuchli bog'liq bo'ladi. Yaxshi erituvchilarda ionlarning makromolekulalarga «yopishishi» umuman sodir bo'lmaydi. Erituvchining termodinamik sifati unga cho'ktiruvchi qo'shganda yoki haroratni o'zgartirganda yomonlashadi va qarshi ionlarning kooperativ yutilish jarayoni sodir bo'lib bloklar «marjoni» dan sharsimon globulaga o'tadi. Harorat pasayishi bilan θ -nuqta atrofida o'rالmaning globulaga fazaviy o'tishi sodir bo'ladi. Shunga o'xshash fazaviy o'tish θ -nuqta atrofida bo'kkан polimer hajmining sezilarli o'zgarishiga olib keladi, chunki choklanish tugunlari orasidagi zanjir bo'lagi xossalari bo'yicha gauss o'rالmasidan farqlanmaydi. Haqiqatan ham 1978 yilda Tanaka tomonidan polimer to'rining *kollapsi* deb atalgan hodisa kashf qilingan bo'lib, erituvchining termodinamik sifatini belgilovchi sharoitlarning biroz bo'lsa-da, o'zgarishi bo'kkан to'rsimon polimer hajmining qaytar tarzda juda katta o'zgarishiga olib keladi.

36-rasmida bo'kkан to'rsimon poliakrilamid uchun suv-atseton aralashmasidan iborat erituvchi tarkibining bo'kish jarayoniga ta'siri ko'rsatilgan. Bunda atseton erituvchi aralashmasining erituvchilik qobiliyatini pasaytiruvchi komponent sifatida olingan. Keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ayni sistema akrilamid zvenolarining gidrolizi oqibatida hosil bo'lган akrilamid va akril kislotasi sopolimeridan iborat bo'lган:



Shunday qilib, har qanday kuchsiz polielektrolitning polimer to'ridagi kollapsini quyidagicha ko'rsatish mumkin. Zaryadlangan zvenolarining juda kichik miqdorda mavjudligi ham polimer to'rlari kollaps hodisasining hajmiy o'zgarishi nisbiy qiymati nuqtai nazaridan ham, diskret o'tish nuqtai nazaridan ham juda yorqin namoyon bo'lishiga olib keladi.




Qarshi ionlarning osmotik bosimi to’rga qo’shimcha qayishqoqlik beradi. Erituvchining sifati yomonlashganda to’r tugunlari orasida joylashgan zanjir bo’laklarining siqilishi sodir bo’ladi va natijada to’rning hajmi kichrayadi, ammo kollaps hodisasini bu effekt belgilamaydi. Erituvchi sifati yomonlashganda qarshi ionlarning zanjirlarga «уопишши» sodir bo’ladi, oqibatda qarshi ionlar buluti kondensatlanadi va u bilan birga osmotik bosim ham yo’qoladi.

36-rasm. *Choklangan poliakrilamid geli hajmining erituvchi tarkibiga bog’liqligi.*

6.4. Polielektrolit eritmalarining gidrodinamik xossalari

Polielektrolit eritmalar qovushqoqligining kontsentratsiyaga bog’liqligi elektrolitmas polimerlarnikidan farq qiladi. **37-rasmdan** ko’rinib turibdiki, polielektrolit eritmasining suyultirilishi bilan uning keltirilgan qovushqoqligi, elektrolitmas polimerlarnikiga o’xshab kamayishi o’rniga, aksincha ortib boradi. «Qovushqoqlik anomaliyasi» deb ataluvchi bu hodisani quyidagicha tushuntirish mumkin: eritmaning suyultirilishi polielektrolit molekulalaridagi ionogen guruhlarning ko’proq dissotsilanishiga olib keladi, natijada makromolekula ichidagi bir nomli zaryadlar orasida elektrostatik itarilish kuchayadi va u yoyiladi. Bu hodisa «polielektrolit bo’kish» deyiladi. Bunday «bo’kish»dan elektrolit qo’shish bilan qutilish mumkin, chunki elektrolit tarkibidagi ionlar makromolekulaning zaryadlarini to’sib qo’yadi (ekranlaydi), natijada elektrostatik itarilish yo’qoladi (**37-rasm, 2-chiziq**). Amalda suyultirishni keltirilgan qovushqoqlik (η_{kel})ning kontsentratsiyaga bog’liqligi to’g’ri chiziq ko’rinishiga kelguncha tuzning har xil kontsentratsiyasi eritmalar bilan olib boriladi. Polielektrolit



37-rasm. Polielektrolit eritmasi keltirilgan qovushqoqligining kontsentratsiyaga bog'liqligi: 1-poliakril kislotasining suvdagi eritmasi; 2-poliakril kislotasining KCl li eritmasi.

eritmalari qovushqoqligining kontsentratsiyaga bog'liqligini ifodalash uchun Fuoss quyidagi empirik tenglamani taklif qilgan:

$$\frac{\eta_{col}}{c} = \frac{A}{1 + B\sqrt{c}}$$

Bu tenglamadan ko'rinish turibdiki, qovushqoqlik $1/\sqrt{c}$ ga mutanosib. Agar $C \rightarrow 0$ bo'lsa, tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\frac{c}{\eta} = \frac{1}{A} + \frac{B}{A} \sqrt{c}$$


bu yerda, A - maksimal ionlangan polimer molekulasining hajmini, V - poliion va unga qarama-qarshi


zaryadlangan ionlar orasidagi elektrostatik tortishuv qiymatlarini belgilovchi konstantalar.

Polielektrolit molekulasida har xil tabiatli guruhlar bo'lganligi makromolekula ichida turli xil ta'sirlar (elektrostatik, hidrofob va vodorod bog'lar) paydo bo'lishiga olib keladi va neytral polimerga qaraganda, polielektrolit zanjirlarning harorat, pH va erituvchilar ta'sirida konformatsion o'zgarishlarga moyilligi oshadi.

6.5. Polielektrolit makromolekulalari orasidagi kooperativ reaktsiyalar


Quyi molekulyar elektrolitlar orasida boradigan kimyoviy reaktsiyalar bilan polielektrolitlar orasida boradigan reaktsiyalar kooperativ xususiyatga ega bo’lganliklari bilan farq qiladi. Masalan, kislotali va ishqoriy muhitda boradigan poliakril kislotasi va polivinilamin orasidagi almashuv reaktsiyasini ko’raylik:





Ikkala reaktsiyada ham muvozanat o'ng tomonga siljigan, ya'ni kuchsiz polimer kislota kuchli quyi molekulyar kislotani uning polimer asos bilan bergen tuzidan siqib chiqaradi, kuchsiz polimer asos esa polimer kislotaning tuzi bilan ta'sirlashib kuchli asos hosil qiladi. Agar yuqorida ko'rsatib o'tilgan reaktsiyalar quyi molekulyar elektrolitlar orasida borganda, muvozanat asosan chap tomonga siljigan bo'lar edi.

Kooperativ reaktsiyaning yana bir misoli sifatida polimetakril kislota bilan polietilenglikol orasidagi ta'sirlanishni ko'rsatish mumkin:




Bu reaktsiya makromolekulalar orasida ketma-ket vodorod bog'lar hosil bo'lishi bilan boradi. Makromolekulalar qutbli guruhlarining o'zaro bog'lanishi polikompleks zarrachalarining gidrofobligi oshishi va ularning globula shakliga o'tishiga olib keladi. Shuning uchun reaktsiyaning borishini sistema qovushqoqligining o'zgarishi orqali kuzatish mumkin. **38-rasmdan** ko'rinish turibdiki, polimetakril kislotasining suvli eritmasiga polietilenglikol eritmasi qo'shsilsa, sistemaning qovushqoqligi keskin kamayadi va ekvimolyar nisbatda eng minimal qiymatga ega bo'ladi. Bunday reaktsiyalarda muvozanat konstantasining oligomer zanjiri uzayishi bilan

ortib boradi.

$$\Delta G = -RT\ln K = \Delta H - T\Delta S$$

Tenglamadan ko'rinish turibdiki, K-muvozanat konstantasining qiymati $\Delta H = n \cdot \Delta H_{zv}$, $\Delta S = n \cdot \Delta S_{zv}$ qiymatlariga bog'liq bo'ladi. Masalan, «n» ta quyimolekulyar molekulalar polimer zanjiri bilan ta'sirlashsa ma'lum miqdordagi energiya yutug'iga ega bo'lgan holda $\Delta S = n \cdot \Delta S_{zv}$ energiya yo'qolishi kuzatiladi.




38-rasm. Polimetakril kislotasi bilan polietilenglikol aralashmasi suvli eritmalari keltirilgan qovushqoqligining tarkib bilan o'zgarishi.

6.6. Poliamfolitlarning o’ziga xos xususiyatlari


Poliamfolit makromolekulalari bir vaqtda ham kislotali, ham asosli guruhlarga ega bo'lib, muhit *pH* iga qarab ular polikislota yoki poliasos xossasini namoyon qilishi mumkin va bu holatlarda ularga yuqorida bayon etilgan polielektrolitlar xossalaringning barchasi xos. Lekin poliamfolitlar har xil tabiatli guruhlar tutganliklari uchun o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'ladi.

Poliamfolitlarning o'ziga xos xususiyatlarini eritmalar qovushqoqligining pH ga bog'liqligini o'rganishda aniq ko'rish mumkin. Masalan, biror oqsil (jelatin) eritmasi qovushqoqligining pH ga bog'liqligini ko'raylik (39-rasm). Eritmada, vodorod ionlarining ma'lum bir kontsentratsiyasida, har qanday amfoter birikmada ionlangan asosli guruhlarning soni ionlangan kislotali guruhlar soniga teng bo'lib qoladi va bunday holat izoelektr holat deb ataladi. Oqsil molekulasi izoelektr holatida ionlangan guruhlarga ega bo'lishiga qaramasdan elektroneytral bo'ladi. Shartli ravishda bu holatni quyidagicha ifodalash mumkin:



Oqsillarning kislotaliligi asosliligidan kuchliroq bo'lgani uchun izoelektr nuqta pH=7 dan pastroq bo'ladi, ya'ni izoelektr nuqtada oqsil eritmasidagi ortiqcha karboksil guruhlarning ionlanishini bosib turishi uchun ozgina kislota bo'lishi lozim.

Izoelektr nuqtada makromolekula butun uzunligi bo'yicha bir xil miqdorda ionlangan asosli va kislotali guruhlar joylashganligi uchun, bukiluvchan makromolekula kalava shakliga o'tadi. Har xil zaryadlangan ionogen guruhlarning tortishishi




39-rasm. *Poliamfolit* eritmasi qovushqoqligining pH ga bog'liqligi.


hisobiga bu kalavaning zichligi maksimal entropiya yoki statistik ehtimollik hisoblariga javob beradigan kalavaga qaraganda zichroq bo'ladi. Shu sababli izoelektr nuqtaga javob beradigan pH=4,7 da jelatin eritmasi eng kichik qovushqoqlikka ega bo'ladi va bu holatda eritmadi makromolekulalar qo'zg'almagan kalava shaklini egallaydi.

Oqsillar makromolekulasida turli xil tabiatli guruhlardan ibarətdir.


mavjudligi ularga qator o'ziga xos xususiyatlarni beradi.




Dipolyar oqsil ionining hosil bo'lishi karboksil guruhdan amin guruhga protonning migratsiyalanishi hisobiga sodir bo'ladi:



Kislotali muhitda oqsil musbat zaryadlanadi:




Ishqoriy muhitda esa manfiy zaryadlanadi:



Shunday qilib, oqsil zaryadi muhitga, karboksil va aminoguruhlar nisbatiga va ularning dissotsilanish darajasiga bog'liq.

Kislotali muhitda kislota guruhlar dissotsilanishi to'siladi, asosli guruhlar dissotsilanishi natijasida makromolekula polikationga aylanadi. Ishqoriy muhitda esa, aksincha, asosan kislota guruhlar dissotsilanadi va makromolekula manfiy zaryadga ega bo'ladi. Oraliq sohada makromolekula dipolyar ionga ega bo'ladi. Bu o'zgarishlarni quyidagi sxema bilan ifodalash mumkin:



Agar kislotalarni proton beruvchi, asoslarni esa protonni biriktirib oluvchi moddalar desak, $-\text{NH}_3^+$ va $-\text{COOH}$ guruhlarni kislotali, $-\text{NH}_2$ va $-\text{COO}^-$ larni asosli deb qarash kerak. U holda nordon poliamfolit eritmasini ishqor bilan titrlasak, poliamfolit o'zini ikki asosli kislota sifatida tutadi.

Musbat va manfiy zaryadlari yig'indisi nolga teng bo'lgan poliamfolit eritmasining pH qiymati *izoelektr nuqta* deyiladi.

Poliamfolit suvli eritmasining *pH* i (begona ionlar bo'lмаган шароитда) faqat o'z tarkibidagi ionogen guruhlar dissotsilanishi bilan belgilanadi va u *izoion nuqta* deyiladi.

Nazorat savollari

1. Polieletrolitlar deb qanday polimerlarga aytildi?
2. Polieletrolitlarning sinflanishi, ularga misollar keltiring.
3. Polieletrolitlarning ionlanishi quyi molekulyar elektrolitlardan qanday farqlanadi?
4. Polieletrolitlar ionlanish darajasining ortishi nima uchun ionlanish konstantasi qiymatining kamayishiga olib keladi?
5. Polieletrolitlarning ionlanish jarayoniga elektrostatik va konformatsion o'zgarishlarning ta'sirini tushuntiring.
6. Polieletrolit eritmalaridagi Donnan muvozanatiga tushuncha bering.
7. «Polieletrolit bo'kish» nima?
8. Nima sababdan polieletrolitlar suvli eritmalarining xarakteristik qovushqoqligini aniqlashda izoion suyultirish olib boriladi?
9. Polieletrolitlar eritmalarining gidrodinamik xossalari orasida qanday farq bor?
10. Nima uchun polimer konsentratsiyasi kamayishi bilan polieletrolit eritmalarining qovushqoqligi ortadi?
11. Nima sababdan polieletrolit eritmalarining qovushqoqligi pH ga bog'liq?
12. Izooion suyultirish va uning ahamiyati.
13. Poliamfolitlarning izoelektr nuqtasi nima va u qanday aniqlanadi?
14. Poliamfolitlar sinfiga kiruvchi tabiiy polimerlarga misollar keltiring.
15. Interpolimer reaktsiyalarga misollar keltiring.
16. Nima sababdan interpolimer reaktsiyalarning tugallanish darajasi pH ga bog'liq bo'lmaydi?
17. Interpolimer reaktsiyalarning tirik organizm faoliyatidagi ahamiyati.
18. Poliamfolitlar sinfiga taalluqli tabiiy polimerlarga misollar keltiring.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

6.1 -ISH. POLIMER BA QUYIMOLEKULYAR KISLOTANING IONLANISH KONSTANTASINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: Polimer va quyimolekulyar kislotalar uchun pK-ning α -ga bog'liqlik egri chiziqlarini solishtirish; polikislotaning gidrodinamik xossalari va eritmaning ion kuchini polikislotani potentsiometrik titrlanishiga ta'sirini o'rGANISH.

Reaktivlar: 0,05 m poliakril yoki polimetakril kislotalarining suvli eritmalari. Sirka, propion yoki izomoy kislotalarining 0,05 m suvli eritmalari, NaOH-ning 0,1 n eritmasi, NaCl-ning quruq tuzi.

Jihozlar: pH-metr, analitik tarozi, viskozimetr, sekundomer, rezinali nok, 50 ml stakan, 20 ml byuregka.

Ishning bajarilishi. Polikislotani titrlash uchun uning 20 ml 0,05 m eritmasi 0,1 n NaOH bilan titrlanadi va bir vaqt ichida viskozimetr yordamida eritmaning qovushqoqligi o'lchanadi (viskozimetr bilan ishlash shu kitobning polimer eritmalar qismidan qaralsin). Qovushqoqlik dastlabki polikislotaning eritmasi va titrlash jarayonida quyidagi pH qiymatlari atrofida o'lchanadi: 4,0; 4,5; 5,0; 5,5; 6,0; 7,0; 8,5; 9,5; 11,0. Titrlanish tugaganidan so'ng, vizkozimetr toza qilib yuviladi va erituvchi-suvning oqish vaqtini aniqlanadi:

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi.

Toza erituvchi-suvning oqish vaqtini (sek.); $\tau_0 =$

Ishqorning qo'shilgan miqdori, ml	Eritmaning pH	Eritmaning oqish vaqtini, T (sek)	$\eta_{nis} = \frac{\tau}{\tau_o};$	$\eta_{sol} = \frac{\tau}{\tau_o} - 1$

Quyi molekulyar kislotani titrlash uchun uning 0,05 M eritmasini 0,1 n NaOH eritmasi bilan titrlanadi.

Polikislotalarni neytral tuz ishtirokida titrlash uchun PAK yoki PMAK ni 0,05 M suvli eritmalariga kontsentratsiyasi 0,1 M bo'lguncha quruq NaCl qo'shiladi va hosil bo'lgan eritma titrlanadi.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi

Ishqorning qo'shilgan miqdori, V ml	Eritmaning pH i

Natijalarini hisoblash. Bitta rasmga uchchala potentsiometrik titrlash egri chiziqlari chiziladi (pH-V). Polimer va quyi molekulyar kislotalar uchun pK-ning qiymati

$$pH = pK_a + \lg \frac{\alpha}{1-\alpha}$$

tenglama yordamida xisoblanadi. α -ni topish uchun, ishqor qo'shilмаган vaqtida $\alpha=0$ va neytrallanish nuqtasida $\alpha=1$ deb olinadi na α bilan ishqorni qo'shilgan miqdori orasi to'g'ri proportsional bog'lanish bor deb hisoblanadi.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

α	$\lg \frac{\alpha}{1-\alpha}$	PAK (yoki PMAK)		Sirka (yoki propion kislota)	
		pH	pK	pH	pK

Polimer va quyimolekulyar kislotalar uchun pK-ni α ga bog'liqlik egri chiziqlari chiziladi. pK-ni α ga bog'liqlik egri chizig'ini $\alpha=0$ qiymatga ekstrapolyatsiya qilib pK_0 -qiymat topiladi. Polimer kislota uchun solishtirma qovushqoqlikni (η_{sol}) pH ga bog'liq bo'lgan egri chizig'i chiziladi.

Vazifa. Polimer va quyimolekulyar kislotalarning xossalari orasidagi farqni tushuntiring; eritmaning ion kuchi polielektrolitni eritmadi xossalariiga ta'siri qanday bo'ladi; polimer kislotaning eritmasini qovushqoqligini pH ga bog'liqligini tushuntiring.

6.2-ISH. POLIMETAKRIL KISLOTASINIHG KONFORMATSION O'ZGARISHLARI JARAYONIDAGI ERKIN ENERGIYA O'ZGARISHINI ANIQLASH

Ishdan maqsad: Poliakril va polimetakril kislotalarining suvli eritmalarini elektrokimyoniy va gidrodinamik xossalari solishtirish; potentsiometrik titrlash yordamida polimetakril kislotasining konformatsion o'zgarishining ΔG qiymatini aniqlash.

Reaktivlar: Poliakril (PAK) va polimetakril (PMAK) kislotalarining 0,05 M suvli eritmalar; NaOH-ning 0,1 n suvli eritmasi.

Jihozlar: pH-metr, viskozimetr, rezinali nok, 50 ml li stakanchalar, 20 ml li byuretka.

Ishning bajarilishi: 20 ml 0,05 M PMAK (va so'ng 20 ml 0,05 m PAK) eritmalarini 0,1 n NaOH eritmasi bilan titrlanadi, bir vaqt ichida xuddi 6.1 ishda ko'rsatilgandek, eritmalarning qovushqoqligi ham har xil pH-larda o'lchab boriladi. Natijalar ni ifodalash xuddi 6.1 ishda ko'rsatilgandek bo'ladi.

PMAK uchun pK-ning qiymati xuddi 6.1 ishda ko'rsatilganidek (6.1)-tenglamadan hisoblanadi. pK-ni α -ga bog'liqlik egri chizig'i chiziladi. Bu egri chiziqlari konformatsion o'zgarish (ya'ni yuqori pH-lardagi) bo'limgan qismini

kichik α -lar tomon ekstropolyatsiya qilish uchun, pH-ni $\lg\alpha/(1-\alpha)$ ga bog'liqlik egri chizig'i chiziladi. PMAK uchun bu bog'lanish konformatsion o'zgarish bo'layotgan qismida sinishga ega bo'lgan 2 ta to'g'ri chiziqdan iborat bo'ladi. pH-ning yuqori qiymatlariga to'g'ri keladigan qiymati pH $\lg\alpha/(1-\alpha)$ bog'liqlikning to'g'ri chiziq qismi α -ni kichik qiymatlari tomon ekstrapolyatsiya qilinib α -ni 0,05-0,3 qiymatlara mos kelgan pH_{ekstr} -ni qiymatlari topiladi, ular orqali pK_{ekstr} ni qiymatlari topilib $pK-\alpha$ bog'liqlik rasmga tushiriladi va konformatsion o'zgarishlarga ega bo'lмаган гипотетик PMAK uchun pK -ni α - ga bog'liklik egri chizig'i topiladi.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

α	$\lg \frac{\alpha}{1 - \alpha}$	pH	$pK = pH - \lg \frac{\alpha}{1 - \alpha}$	pH_{ekstr}	$pK_{ekstr} = pH_{ekstr} - \lg \frac{\alpha}{1 - \alpha}$

PMAK ni konformatsion o'zgarish erkin energiyasini topish uchun, konformatsion o'zgarishga ega bo'lgan va gipotetik konformatsion o'zgarishga ega bo'lмаган поликислоталарнинг pK ni α ga bog'liq bo'lgan egri chiziqlari orasidagi maydon topiladi va bu maydonni qiymati 2,3RT ga ko'paytiriladi.

6.3-ISH. POLIAMFOLITNI IZOELEKTRIK NUQTASINI ANIQLASH

Ishdan maqsad: Viskozimetriya usuli bilan jelatinaning izoelektrik nuqtasini aniqlash.

Reaktivlar: Jelatina, NaOH-ning 0,02 n suvdagi eritmasi, HCl ning 0,03 n suvdagi eritmasi.

Jihozlar: pH-metr, analistik tarozi, viskozimetr, sekundomer, rezinali nok, 50 ml li stakan, 50 ml li tubi yassi kolba, 25 m tsilindr, 20 ml li byuretka 2 dona.

Ishning bajarilishi. Jelatining izoelektrik nuqtasini, ishqor va kislota bilan titrlash jarayonida, uning eritmasini qovushqoqligini o'zgarishiga qarab aniqlanadi. Jelatinani suvdagi 1% eritmasidan 50 ml tayyorланади; тайярлашда доимий арасиҳтириш ва гарорат 40°C дан ошмаслиги зарур.

20 ml tayyorlangan eritma olinib 0,03 n HCl eritmasi bilan titrlanadi, bir vaqt ichida eritmaning qovushqoqligi xuddi birinchi ishda ko'rsatilganidek o'lchanadi. Qovushqoqlik dastlabki eritma va titrlanish jarayonida pH ning 4,75; 4,5; 4,25; 4,0; 3,5; 3,0; 2,5 va 2,1 qiymatlari atrofida o'lchanadi. Titrlash to'gaganidan so'ng pH-metr elektrodlari distillangan suv bilan, viskozimetr esa issiq suv bilan yuviladi va distillangan suvning oqish vaqtini topiladi.

Xuddi shu tarzda jelatinaning yangi 20 ml eritmasi 0,02 n NaOH bilan titrlanadi. Qovushqoqlik dastlabki eritma pH ning 6,0; 7,0; 8,0; 9,0; 10,0 qiymatlari atrofida o'lchanadi.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi Erituvchi (toza suvning) oqish vaqtini τ_0 =:

Ishqor yoki kislotaning qo'shilgan miqdori, ml	pH	T- eritmaning oqish vaqtini, sekund	$\eta_{nis} \frac{\tau}{\tau_0}$	$\eta_{sol} \frac{\tau}{\tau_0} - 1$

Vazifa. Jelatina eritmasi uchun potentsiometrik titrlanish va solishtirma qovushqoqlikni pH ga bog'liqlik egri chiziqlari chiziladi. Jelatinani izoelektrik nuqtasi ko'rsatiladi.

6.4-ISH. POLIELEKTROLITNI SUVLI VA TUZLI ERITMALARINING GIDRODINAMIK XOSSALARI

Ishdan maqsad: Qisman neytrallangan poliakril kislotasining eritmasini izoion suyultirish sharoitini topish va makroionlar tomonidan qarama-qarshi ionlarni bog'lanish darajasini aniklash.

Reaktivlar: Neytrallanish darajasi 0,5 ga teng kontsentratsiyasi 0,1 dl/g bo'lgan poliakril kislotasining suvli eritmasi; NaCl ning 0,005 M; 0,0025 M; 0,00125 M; 0,000625 M eritmalarini.

Jihozlar: Termostat, viskozimetr, sekundomer, rezinali nok, 10 ml li tsilindr, 10 ml li pipetka.

Ishning bajarilishi. Ish Ubbelode viskozimetri da 25°C da bajariladi.

Toza termostatga qo'yilgan viskozimetrga 7 ml distillangan suv solinadi va suvning oqish vaqtini o'lchanadi. Suvni to'kib, polielektrolit eritmasidan 7 ml solinadi va oqish vaqtini o'lchanadi. So'ng eritmani ketma-ket 7 ml, 7 ml, 14 ml suv bilan bevosita viskozimetr ichida suyultirilib har bir hosil bo'lgan yangi kontsentratsiyali eritmani oqish vaqtini o'lchanadi. Har bir o'lhash to bir-biridan 0,2 soniya farq qiladigan uchta natija olingunga qadar bajariladi. O'lhashlar to'gaganidan so'ng viskozimetr yaxshilab toza suvda yuviladi.

Izoion suyultirishning sharoitini topish uchun polielektrolit eritmasi olinadi va ikki qator suyultirishlar olib boriladi. Suyultirish o'qituvchi ko'rsatgan C₁ va C₂ kontsentratsiyalarga ega bo'lgan NaCl ning suvli eritmasi bilan olib boriladi.

7 ml PAK ning eritmasi toza viskozimetrga solinadi, oqish vaqtini o'lchanadi, keyin C₁ kontsentratsiyali NaCl eritmasi bilan suyultiriladi. Suyultirish 3,5 ml; 7 ml; 7 ml eritma miqdori bilan olib boriladi va yuqorida aytib o'tilganidek, hosil bo'lgan yangi polielektrolit eritmalarining oqish vaqtini o'lchanadi. O'lhashlarni to'gatib viskozimetr yuviladi.

Yana 7 ml PAK ning dastlabki eritmasi olinadi, toza viskozimetrga solinadi va yuqorida ko'rsatilgan o'lchashlar olib boriladi. Faqat suyultirish uchun osh tuzining C₂ kontsentratsiyali eritmasidan foydalaniladi.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi: Polimerning dastlabki eritmasi: polimer 0,1 g/dl kontsentratsiyali PAK ning suvdagi eritmasi, erituvchi-suv (yoki NaCl eritmasi). O'lchash harorati 25°C,

τ_0 -toza erituvchining oqish vaqtি-__soniya.

C PAK eritmasining kontsentratsiyasi, g/dl	τ -eritmaning oqish vaqtি, soniya	$\eta_{nis} \frac{\tau}{\tau_0}$	$\eta_{sol} \frac{\tau}{\tau_0} - 1$	$\eta_{kel} \frac{\tau_{sol}}{S}$

Olingan natijalarni hisoblash. Polielektrolit eritmasini suv va tuzli eritmalar bilan suyultirish jarayonida keltirilgan qovushqoqlikning kontsentratsiyaga bog'liq bo'lgan uchta egri chiziq bitta rasmga chiziladi. To'g'ri chiziq ko'rinishidagi bog'lanishni polielektrolitning nolga teng bo'lgan kontsentratsiyasiga ekstropolyatsiya qilib berilgan ion kuchidagi polielektrolitni xarakteristik qovushqoqligi topiladi.

$X_\infty = C_0 \varphi$ tenglama yordamida polielektrolitni dastlabki kontsentratsiyasidagi bog'lanmagan qarama-qarshi ionlarning ulushi (φ) va qarama-qarshi ionlarning bog'lanish darajasi (1- φ) topiladi. Shuni ham eslatmoq zarurki, ko'rileyotgan holatda polielektrolitning dastlabki kontsentratsiyasi sifatida, to'la suvli eritmada ionlarga ajray oladigan tuz guruhlarning kontseptratsiyasini hisobga olish zarurdir.

Hisoblangan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi.

PAK ning dastlabki kontsentratsiyasi (mol/l)	[η]	I _{KME}	φ	1- φ

Vazifa. Makroion tomonidan qarama-qarshi ionlarning bog'lanish sabablarini va bog'lanish nimaga bog'likligini tushuntiring; polielektrolit bo'kish va uning kelib chiqish sabablarini tushuntiring.

6.5- ISH. POLIELEKTROLIT MAKROMOLEKULALARI ORASIDAGI KOOPERATIV REAKTSIYALAR

Ishdan maqsad: Potentsiometrik titrlash yordamida, kuchsiz polielektrolitlar bo'lgan, poliakril kislota (PAK) va poli-

dimetilaminoetilmekrilat (PDMAEMA) orasidagi reaktsiyaning muvozanatini o'rganish.

Reaktivlar: 0,01 n PAK ning suvli eritmasi; 0,01 poliakril kislotasining natriyli (PAK-Na) tuzining suvli eritmasi; 0,01 n polidimetilaminoetilmekrilatni hidroxloridini (PDMAEMA · HCl) suvli eritmasi; HCl ning 0,1 n eritmasi; NaOH-ning 0,1 n eritmasi.

Jihozlar: pH -metr; 10 ml li tsilindr; 50 ml li stakanlar; 2 ta 2 ml li mikrobyuretka.

Ishning bajarilishi: *Poliasos va polikislota eritmalarini titrlash.* 20 ml PAK (yoki PDMAEMA) 0,01 n suvli eritmasi olinib pH =11 bo'lgungacha 0,1 n NaOH bilan (yoki poliasos pH=3 bo'lgungacha 0,1n HCl eritmasi bilan) titrlanadi.

Polielektrolit aralashmalarini titrlash. 20 ml (PAK+ PDMAEMA · NCI) eritmalarining ekvimolyar aralashmasini 0,1 n NaOH eritmasi bilan to pH=8,5 bo'lguncha titrlanadi. Shunga o'xshash 20 ml (PAK-Na+PDMAEMA) ekvimolyar aralashmasi pH=3 bo'lguncha 0,1n HCl eritmasi bilan titrlanadi.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

V-NaOH yoki HCl ning qo'shilgan miqdori, ml	Eritma pH

Olingan natjalarni hisoblash. Bitta chizmaga olingan to'rtala potentsiometrik titrlash egri chiziqlari chiziladi. Kislotali muhitda boradigan almashuv reaktsiyasining to'gallanish darajasi (θ) ni

$$C_K = \theta C_0 = q_{NaOH} / V_0 + [H^+] - [H^+]_{p,k} \quad (1)$$

yoki $C_K = \theta C_0 = q_{HCl} / V_0 + [OH^-] - [OH^-]_{PA} \quad (2)$

tenglama bo'yicha hisoblanadi. Hisoblar uchun titrlanish egri chizig'idagi xoxlagan pH ning 5 ta ixtiyoriy nuqtasi uchun olib boriladi. Lekin bu nuqtalar dastlabki aralashmaning pH bilan PAK ning pH ga to'g'ri keladigan qiymatlari oralig'ida olinishi lozim.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

pH	[H ⁺], mol/l	NaOH			θC_0	θ
		1	mol	mol/l		

Ishqoriy muhitda boradigan reaktsiyaning tugallanish darajasini yuqoridagi (2) tenglamadan hisoblanadi va $pK_{xar.PA}=6,7$ deb qabul qilinadi. Hisoblar uchun

titrlanish egri chizig’idagi xoxlagan pH ning 5 ta ixtiyoriy nuqtasi uchun olib boriladi, bu nuqtalar dastlabki aralashma va poliasos eritmalarining pH lari oralig’ida bo’lishlari lozim.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

pH	[OH] mol/l	HCl			θC_0	θ
		1	mol	mol/l		

Olingan θ -pH bo’lgan egri chiziqlar grafik ravishda bitta rasmda ifodalanadi.

Vazifa: kuchsiz polikislota (poliasos) va kuchli dissotsiatsiyalangan poliasos (polikislota) tuzi orasidagi almashuv reaktsiyasining borish sabablarini tushuntirib bering. θ ni pH ga bog’liq bo’lgan egri chiziqlardan qanday xulosa qilish mumkin?

Hisob uchun tenglamalar

$$C_K = \theta C_0 = \frac{q_{NaOH}}{V_0} + [H^+] - [H^+]_{PK}$$

q_{NaOH^-} qo’shilgan ishqorning miqdori, mol; V_0 -aralashmaning hajmi, l; $[H^+]$ -eritmadiagi vodorod ionlarining kontsentratsiyasi, mol/l; $[N^+]_{PK}$ -reaktsiyaga kirisha olmagan polikislotani eritmaga chiqarayotgan protonlarining kontsentratsiyasi, $[H^+]_{PK} = \sqrt{K_{xar,pk} \cdot S_0}$, PAK uchun $K_{xar,pk}=3.7$

$$C_K = \theta C_0 = \frac{q_{HCl}}{V_0} + [OH^-] - [OH^-]_{PA}$$

q_{HCl} -qo’shilgan kislotaning miqdori, mol; $[OH^-]$ -aralashmadagi gidroksid ionlarining kontsentratsiyasi, mol/l; V_0 -aralashmaning hajmi, l; $[OH^-]_{PA}$ -reaktsiyaga kirishmagan poliasosning gidroksil ionlarining kontsentratsiyasi,

$$[OH^-]_{pk} = \sqrt{K_w \cdot S_0 / K_{xar.PA}} \quad K_{xar.PA}=6,7; \quad K_w 10^{-16}.$$

6.6-ISH. MATRITSA-OLIGOMER TURIDAGI MOLEKULALARARO TA’SIRLASHUVNI O’RGANISH

Ishdan maqsad: Matritsa-polimetakril kislotasi-oligomer har xil molekulyar massali polietilenglikolni ta’sirlashishini viskozimetrik usulda tekshirish.

Reaktivlar: Kontsentratsiyasi 0,2 g/dl bo’lgan yuqori molekulyar polimetakril kislotasi (PMAK) ning suvdagi eritmasi; har xil molekulyar massali polietilenglikolni kontsentratsiyasi 0,1 g/dl bo’lgan eritmalar.

Jihozlar: termostat, Ubbelode viskozimetri, rezinali nok, sekundomer, 2 dona 5 ml li pipetka.

Ishning bajarilishi: Ish 15-60°C oralig'ida olingan ikki xil haroratda Ubbelode viskozimetri yordamida olib boriladi.

Toza tsrmostatga joylangan viskozimetri ichiga 7 ml distillangan suv erituvchi sifatida quyiladi va uning oqish vaqtini o'lchanadi. So'ng suv to'kiladi va viskozimetrga 7 ml polimetakril kislotasining 0,1 g/dl kontsentratsiyadagi eritmasi quyiladi va uning oqish vaqtini o'lchanadi. Polikislotaning eritmasi viskozimetrdan to'kiladi.

PMAK va PEG ning har xil molekulyar massali eritmalarini ekvimolyar nisbatida tayyorlanadi; buning uchun 0,2 g/dl bo'lgan PMAK ning eritmasidan 3,5 ml va kontsentratsiyasi 0,1 g/dl bo'lgan PEG ning har xil molekulyar massali eritmalaridan 3,5 ml aralashtiriladi. Har bir aralashmdan 7 ml olinib viskozimetrga solinadi va oqish vaqtini o'lchanadi. Yuqoridagi o'lchashlar boshqa haroratda ham bajariladi.

Olingan natijalar quyidagi jadvalga yoziladi:

Eritma	τ -eritmaning oqish vaqtini, soniya	$\eta_{nis} \frac{\tau}{\tau_0}$	$\eta_{sol} \frac{\tau}{\tau_0} - 1$	$\eta_{kel} = \frac{\eta_{sol}}{C_{pmak}}$

So'ng ikki xil harorat uchun aralashmalarning keltirilgan qovushqoqligini PEG molekulyar massasiga bog'liq bo'lgan egri chiziqlari chiziladi.

Vazifa: Aralashmalarning qovushqoqligini o'zgarishini tushuntiring; oligomerning molekulyar massasini matritsa bilan bog'lanishiga ta'sirini tushuntiring; PMAK-PEG polikomplekslarini barqarorligiga harorat ta'sirini tushuntiring.

6.7-ISH. KUCHSIZ KATIONIT SINTEZI

Ishdan maqsad: Karboksil guruhlari tutgan kuchsiz kationit olish.

Jihozlar: Uch og'izli, yumaloq tubli kolba, mexanik aralashtirgich, teskari sovutgich, tomizgich voronkasi, suv hammomi, elektroplitka, shishali filtr.

Reaktivlar: Metakril kislotasi, benzoil peroksid, divinilbenzol, osh tuzining 10 va 20% li eritmalar, HCl ning 2 n eritmasi, polivinilspirtining 2% li suvdagi eritmasi.

Ishning bajarilishi. Tomizgich voronka, teskari sovutgich va mexanik aralashtirgich bilan jihozlangan uch og'izli, yumaloq tubli kolbaga osh tuzining 20 % li eritmasidan 50 ml, polivinilspirtining 2 % li eritmasidan 0,5 ml quyiladi. Aralashmani suv hammomida aralashtirib turib 80°C darajagacha qizdiriladi (unda hammomning darjasini 90°C ni tashkil qiladi). So'ng tomizgich voronkadan asta sekin 0,1 g benzoil peroksid va 0,1ml divinilbenzol qo'shib eritilgan metakril kislotasidan 5 ml qo'shiladi. Eritmani 2 soat ko'rsatilgan

darajada qizdiriladi va reaktsiya to'xtatiladi. Hosil bo'lgan mayda donador polimer eritmadan ajratiladi va shisha filtrda to'liq H⁺-ko'rinishga o'tkazish uchun 200 ml 2 n HCl bilan ishlanadi va oqib tushayotgan suvda neytral muhit hosil bo'lguncha distillangan suvda yuviladi. Polimer filtr qog'oz ustida, havoda bir necha soat doimiy vaznga ega bulguncha quritiladi.

Vazifa. Mahsulotning chiqishini aniqlang. Hosil bo'lgan ionitni tuzilishini yozib ko'rsating.

6.8 -ISH. KATIONITNING STATIK ALMASHINUV SIG'IMINI ANIQLASH

Ishdan maqsad: Kationitni statik almashinuv sig'imini aniqlash.

Reaktivlar: Kationit, 0,1 n NaOH eritmasi, 0,1 n HCl eritmasi, aralash indikator (8 mg metil qizili va 160 mg metilen ko'kini 100 ml 50% etil spirtida eritib tayyorланади).

Jihozlar: Hajmi 250 ml bo'lgan tagi yassi kolbalar, byuretka, 25 ml va 100 ml li pipetkalar.

Ishning bajarilishi. Hajmi 250 ml bo'lgan yassi tubli kolbaga analitik tarozida tortilgan 1,0 g H⁺-ko'rinishdagi* (*Kationitni H⁺-ko'rinishga o'tkazish 6.6-ishga qaralsin) kationit solinadi, unga 200 ml 0,1 n NaOH ning eritmasidan quyiladi va 24 soat qoldiriladi. Ertasiga kationit suyuq fazadan filtrlanib ajratiladi, filtratdan 25 ml olinib bir necha tomchi aralash indikator qo'shilib 0,1 n xlorid kislotasi bilan titrlanadi. Titrlash 3 marotaba olib boriladi va hisoblar uchun o'rtacha qiymat olinadi.

Kationitni statik almashinuv sig'imi quyidagi tenglama bo'yicha hisoblanadi:

$$X_1 = \frac{200K - 8aK_1}{10g};$$

bu yerda K-NaOH ni kontsentratsiyasini 0,1 n ga keltirish uchun qo'llaniladigan tuzatish koeffitsienti; K₁-HCl ni kontsentratsiyasini 0,1 n ga keltirish uchun qo'llanadigan tuzatish koeffitsienti; a-titrlanishga ketgan HCl ning hajmi; g-kationitning massasi.

6.9. ANIONITNING STATISTIK ALMASHINUV SIG'IMINI ANIQLASH

Ishdan maqsad: Anionitni statik almashinuv sig'imini aniqlash.

Reaktivlar: Anionit, 0,1 n va 2 n NaOH eritmasi, 0,1 n HCl eritmasi, fenolftalein eritmasi.

Jihozlar: Hajmi 250 ml bo'lgan yassi tubli kolbalar, byuretka, 25 va 100 ml pipetkalar, shisha filtr.

Ishning bajarilishi: Anionitni to'liq OH⁻-ko'inishiga o'tkazish uchun 1,0 g ni hajmi 250 ml bo'lgan yassi tubl kolbaga solinadi va ustiga 50 ml 2 n NaOH eritmasi quyilib 3 soatga qoldiriladi, so'ng shisha filtrga olinib, to oqib tushayotgan suv neytral muxit bermaguncha (indikator qog'oz yordamida aniqlanadi) distillangan suv bilan yuviladi va filtr qog'oz ustida eksikatorda vakuumda quritiladi. So'ng hajmi 250 ml bo'lgan yassi tubli kolbaga analitik tarozida tortilgan 1,0 g OH⁻-ko'inishdagi anionit, 200 ml 0,1 n HCl solinadi va 1 sutka qoldiriladi. Ertasiga anionit suyuq fazadan ajratiladi, filtratdan 25 ml olinib fenolftaleindan bir necha tomchi qo'shilib 0,1 n NaOH yordamida titrlanadi. Titrlash uch marotaba olib boriladi va hisoblar uchun o'rtacha qiymat olinadi. Anionitni statistik almashinuv sig'imi quyidagi tenglama bo'yicha hisoblanadi:

$$X_1 = \frac{200K - 8aK_1}{10g};$$

bu yerda K-HCl ning kontsentratsiyasini 0,1 n ga keltirish uchun qo'llaniladigan tuzatish koeffitsienti, K₁-NaOH ni kontsentratsiyasini 0,1 n keltirish uchun qo'llaniladigan tuzatish koeffitsienti, a-titrlanishga ketgan 0,1n NaOH ni hajmi, g-anionitning massasi.

VII BOB. POLIMERLARNING FIZIK-MEXANIK XOSSALARI

Polimerlar quyi molekulyar birikmalardan tubdan farq qiluvchi o'ziga xos mexanik xossalarga ega. Bunga polimerlar makromolekulalarining tuzilishi va ularning molekulyar massasining kattaligi sabab bo'ladi. Shuning uchun polimerlarning molekulyar massasi va ustmolekulyar tuzilishini o'zgartirib fizik-mexanik xossalariga ta'sir etish mumkin.

7.1. Polimerlarning fazaviy va fizik holatlari

Polimer molekulalarining uzun zanjirli tuzilishi quyi molekulyar jismlarning fazalar shakllanishi va ular orasidagi ma'lum o'tishlardan katta farq qiluvchi fazaviy hamda agregat holatlarni namoyon qilishiga sabab bo'ladi.

Polimer strukturasi ikki xil: molekulyar va ustmolekulyar (makromolekularning bir-biriga nisbatan joylashishi natijasida hosil bo'lgan struktura) darajasida o'r ganiladi. Molekulyar darajadagi strukturaga polimer makromolekulasi dagi zvenolarning tuzilishi va funktsional guruhlarning o'zaro joylashish tartibi (holati) kiradi. Ustmolekulyar strukturaga polimer makromolekulalari yoki ularning ayrim qismlarining bir-biriga nisbatan joylashishi va ularning shakli kiradi.

Moddaning u yoki bu fazaviy holatga (gazsimon, amorf yoki kristall) taalluqliligining asosiy mezoni bo'lib, ayni moddada zarrachalarning ma'lum tartibda joylashganligi (*strukturaviy elementlar*) hisoblanadi. Kristall fazaviy holatda modda zarrachalari kristall panjara hosil qilib uzoq uch o'lchamlik tartibda joylashadi (uzoq tartib deb, modda zarrachalari orasidagi masofadan bir necha yuz yoki ming marta katta masofaga aytildi). Quyi molekulyar kristall moddalar kristall panjarasi tugunlarida atomlar (olmos kristali), molekulalar (naftalin kristali) yoki ionlar (natriy xloridi kristali) joylashgan bo'lishi mumkin.



Amorf (suyuq) holat modda zarrachalarining yaqin tartibda joylashishi bilan xarakterlanadi (yaqin tartib deb, moddalar o'lchamiga teng masofada joylashishga aytildi). Amorf jism zarrachalari (qattiq yoki suyuq) guruhining yaqin tartibni saqlagan holda joylashishi odatda *zarrachalar galasi* deb ataladi. Bu galadan tashqarida zarrachalardagi o'zaro bog'liqlik buziladi.

7.2. Molekulyar struktura


Polimerlarning molekulyar strukturasi ular makromolekulasingning konfiguratsiyasi, konformatsiyasi va molekulyar taxlanishi tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Konfiguratsiya molekulani tashkil etuvchi atomlarning fazoviy joylashish tartibini ifodalaydi.

Elementar zvenolarning konfiguratsiyasi organik kimyoda ishlatiladigan tushunchalar va ta’riflar bilan ifodalanadi. Masalan, qo’shbog’ tutgan polimerlar tsis-(1) va trans-(2) izomerlar shaklida bo’lishi mumkin.






Zveno konfiguratsiyasiga zveno tuzilishidagi *d*, *l*-izomeriya ham kiradi.



Yaqin konfiguratsion tartib, ya’ni zvenolarning birikish konfiguratsiyasi ikkiga: zvenolarning polimer zanjiri bo’ylab birikish tartibi (struktura izomeriyasi) va zvenolardagi atomlarning fazoviy joylashish tartibi (fazoviy izomeriya)ga bo’linadi.

Struktura izomeriyasi. Polimer makromolekulasi hosil bo’layotganida elementar zvenolar uch xil usul bilan birikishi mumkin. Bular «boshi dumga» (α, β), «boshi boshiga» (α, α) yoki «dumi dumiga» (β, β) birikish deyiladi.

Fazoviy izomeriya. Vinil polimerlari makromolekulasining asosiy zanjiri joylashgan tekislik stereoizomeriya tekisligidir. Bunday polimerlardagi barcha *R* o’rinbosarlar stereoizomeriya tekisligining bir tomonida joylashsa *izotaktik konfiguratsiya*, navbat bilan bir u tomonda, bir bu tomonda joylashgan bo’lsa *sindiotaktik konfiguratsiya* deyiladi. O’rinbosarlari betartib joylashgan makromolekula *ataktik konfiguratsiyalidir*. Masalan, izotaktik (a), sindiotaktik (b) va ataktik (v) tuzilishli poliolefinlar:



Katta bloklarning birikish konfiguratsiyasi (uzoq tartib). Gomopolimerlarda uzoq konfiguratsion tartib zanjirning boshidan oxirigacha

bir xil chiziqli va fazoviy tuzilishi saqlanishini ifodalaydi. Faqat shu holdagina polimerning tartibli tuzilishi haqida fikr yuritish mumkin. Ma'lum bir konfiguratsion strukturaning miqdori polimerning stereoregulyarlik o'lchami hisoblanadi. Agar polimerdagi boshqa konfiguratsiyalarning ulushi bir necha foizdan oshmasa va uning asosiy xossalariiga ta'sir qilmasa, bunday polimerni stereoregulyar deyish mumkin. Masalan, polimerdagi *tsis*- va *trans*-izomeriyalarning miqdori bir-biriga yaqin bo'lsa polimer stereoregulyar bo'lmaydi.

Makromolekulalari o'zaro yagona to'r hosil qilib birikkan polimerlar *choklangan yoki to'rsimon polimerlar* deb ataladi.


Makromolekulalar konformatsiyasi- yakka bog'lar atrofida atomlarning tebranishi, burilishi va aylanishi natijasida o'zgarib turadigan fazoviy shakl bo'lib, har bir soniyada makromolekula ma'lum bir konformatsiyaga ega bo'ladi. Bunday konformatsion o'tishlar natijasida kimyoviy valent bog'lar uzilmaydi. Shuning uchun makromolekula bir-biriga o'tib turuvchi ko'p sonli konformatsion holatlarga ega bo'lishi mumkin. Makromolekulaning minimal energetik holatiga mos keladigan konformatsiyalar barqaror bo'lib, *konformerlar yoki konformatsion izomerlar* deyiladi.

Makromolekula konformatsiyasi issiqlik harakati va tashqi kuchlar ta'sirida statistik g'ujum, spiral, globula, tayoqcha, taxlama, tirsakli val ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, polipropilen makromolekulasining amorf holatdagi konfiguratsiyasi-statistik g'ujum, kristall holatda esa taxlama shaklida bo'ladi.

7.3. Polimerlarning fazaviy o'zgarishlari

Moddalarning bir fazaviy holatdan boshqasiga o'tishi *fazaviy o'zgarishlar* deyiladi. Fazaviy o'zgarishlarda molekulalarning o'zaro joylashish tartibi va moddaning termodinamik xossalari o'zgaradi.

Suyuqlanish va kristallanish, ya'ni polimerlarning kristall holatdan amorf holatga o'tishi va buning aksi, polimerlarning umumiyl fazaviy o'zgarishlaridir. Amorf polimerlarning kristallanishi yuqori elastik holatning harorat oralig'i kamayishi (yoki butunlay tugashi) va polimer mustahkamligining ortishi bilan boradi (37-rasm).



Harorat
37-rasm. Polimerlarning
termomexanik egri chiziqlari;
1-amorf polimer; 2-kristall
polimer.

O'zgarmas bosimda amorf polimerlarning kristallanishi har qanday o'z-o'zicha boradigan jarayonlar singari Gibbs energiyasining kamayishi bilan borishi mumkin, ya'ni

$$\Delta G_{kr} = \Delta H_{kr} - T\Delta S_{kr} < 0$$

bu yerda, ΔG_{kr} , ΔH_{kr} , va ΔS_{kr} kristall va amorf fazalarning Gibbs energiyasi, entalpiyasi va entropiyalari oralig'idagi farq.


Kristallari kichkina va ko'p defektli bo'lgan polimerlarda esa suyuqlanish harorati muvozanat haroratidan past bo'ladi.

7.4. Polimerlarning shishalanishi. Chiziqsimon amorf polimerlarning uch fizik holati


Polimerlar amorf va kristall fazaviy holatlarda mavjud bo'ladi. O'z navbatida polimerlar uch fizik: shishasimon, yuqori elastik va qovushoq-oquvchan holatlarda bo'lishi mumkin. Bu fizik holatlarning har biri ma'lum fizik xossalalar bilan xarakterlanadi. Polimerlarning bu fizik holatlari ularning deformatsiyasini o'rganish “termomexanik egri chizig'i” usuli bilan aniqlanadi. Quyi molekulyar kristall jismlarning termomexanik egri chizig'i 26-rasmda keltirilgan chiziqqa o'xshash bo'ladi.

Shishalanuvchi quyi molekulyar qovushqoq suyuqliklarning (glitserin, kanifol, amorf silikatlar) termomexanik egri chizig'i boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi (38- rasm).

Yuqori molekulyar amorf polimerlarning termomexanik egri chizig'i (39-rasm) ancha murakkab ko'rinishga ega. Past haroratlarda deformatsiya kam va u harorat bilan kam o'zgaradi. Amorf polimerning bu holati shishaga o'xshaydi va shu sababli uni shishasimon holat (T_{sh}) deb ataladi.



38-rasm. Quyi molekulyar shishalanuvchi suyuqlikning termomexanik egri chizig'i.



39-rasm. Amorf polimerning termomexanik egri chizig'i. 1-shishasimon holat; 2-yuqori elastik holat va 3-qovushoq-qouvchan holat oraliqlari.


Agar termomexanik egri chizig'ini olishda polimer termik destruktsiyaga uchramasa, u asta-sekin sovutilganda egri chiziq teskari tartibda qayta tiklanishi mumkin; polimer avval yuqori elastik, so'ngra shishasimon holatga o'tadi.

Yuqori elastik holat oralig'ida, shartli ravishda oquvchanlik harorati T_o bilan belgilangan haroratgacha, deformatsiya kam o'zgaradi. T_o yaqinida haroratning ko'tarilishi natijasida qaytmas deformatsiya paydo bo'lishi (qovushqoq-qouvchanlik) sababli deformatsiya qiymati keskin ortadi. Bundan yuqoriroq haroratlarda, qovushqoq-qouvchan holatda, polimer qovushqoq suyuqlik (qiymoq) singari oqadi.

Polimerlarda shishalanish harorati oqish haroratidan farq qilib, ular oralig'ida yuqori elastik holat namoyon bo'ladi. Xuddi shu holat zanjirli polimer molekulalari uchun xos bo'lgan xususiyat - bukiluvchanlikni ko'rsatuvchi belgi hisoblanadi.

Polimergomologik qatorning turli a'zolarida deformatsiyaning haroratga bog'liqlik grafigi o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi (40-rasm).


Quyi molekulyar gomologlar faqat ikki holatda (shishasimon va qovushqoq-qouvchan) bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda ularda T_{sh} bilan T_o bir xil qiymatga ega. Molekulyar massaning ortishi bilan polimerning T_{sh} o'zgarmay qoladi, T_o esa ortib boradi (5-9 egri chiziqlar). Demak, polimerning yuqori elastik holati harorat oralig'ini ifodalovchi T_o-T_{sh} qiymati molekulyar massa qancha katta bo'lsa, shuncha uzun bo'ladi.



Kargin va Slonimskiy tajriba ma'lumotlari asosida quyidagi tenglamani keltirib chiqarganlar:

$$IgM = IgM_c + \frac{B(T_0 - T_w)}{C + (T_0 - T_w)}$$

bu yerda, M -polimerning molekulyar massasi; M_s -segmentning molekulyar massasi; T_0 -oquvchanlik harorati; T_{sh} - shishalanish harorati; V va S -deformatsiya rejimi va polimerning kimyoviy tabiatiga bog'liq bo'lgan empirik konstantalar.




Yuqori elastiklikning harorat oralig'i kengayib, u polimerning kimyoviy parchalanish harorati ($T_{parch.}$) bilan tugaydi.

7.5. Polimerlarning kristall holati va ularning mexanik xossalari

Quyi molekulyar birikmalarni amalda 100% kristallangan holatga o'tkazish mumkin. Polimerlar esa to'la kristallanishi mumkin emas. Ularda yuqori tartibli kristall qismlar, albatta, betartib amorf qismlar bilan birlashtirilgan.

mavjud bo'ladi. Amorf qismlarning mavjudligi kristall polimerlarning fizik-mexanik xossalariga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Shishasimon polimerlardagi kabi kristall polimerlarning ham kuchlanish-deformatsiya egri chizig'i uch qismdan iborat (42-rasm). Birinchi bosqichda kristallitlarning tuzilishi buzilmagan holda namunaning cho'zilishi sodir bo'ladi. Kristall polimerning keyingi cho'zilishida bo'yinchaga hosil bo'ladi va asta-sekin namuna bo'yinchaga aylanadi (ikkinci bosqich), bu bosqichda kuchlanish doimiy bo'ladi (30, 31-rasmlar). So'nggi uchinchi bosqich shakllangan bo'yinchaning deformatsiyasiga to'g'ri keladi va bunda segmentlari kuch yo'nalishi bo'ylab joylashmagan kristallitlarning uzil-kesil sinishi kuzatiladi. Kristall polimerning cho'zilish egri chizig'idagi maksimumga to'g'ri keladigan kuchlanishga qayta kristallanish kuchlanishi deyiladi va u polimerning muhim mexanik tavsifi hisoblanadi.




Turli molekulyar massaga ega bo'lgan kristall tuzilishli polimergomoglarning cho'zilish egri chiziqlari ustma-ust tushadi, faqat chiziqsimon makromolekulalarning uzunligi bilan uzilish chog'idagi deformatsiya qiymati kamayib boradi. Molekulyar massasi kichik bo'lgan polimer namunalari bo'yinchaga paydo bo'lishidan avval kichik deformatsiyalarda uziladi.

Termomexanik usulning afzalligi shundaki, polimer materiallarning shishalanish va oquvchanlik haroratlari kabi muhim xarakteristikalarini oddiy va juda tez aniqlash imkonini beradi. Termomexanik usul yordamida polimer strukturalana olish, ko'ndalang bog'lar hosil bo'lishining boshlanish va to'liq qotish haroratini aniqlash mumkin. Bu xarakteristikalarini bilish polimerlarning texnologik xossalarini baholash uchun juda muhim.

Termomexanik usul yordamida turli xil moddalarning polimerlar qotishiga ta'sirini o'rganish mumkin. Masalan, urotropinning fenolformaldegid

oligomerlari qotishiga ta'siri ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinish turibdiki, urotropin 1,1% bo'lganda ham polimer qovushoq-oquvchan holatga o'tish qobiliyatini saqlab qoladi. Urotropinning katta miqdorlarida fazoviy to'r hosil bo'lishi hisobiga polimer oquvchanligini yo'qotadi.



44- rasm. Fenolformaldegid oligomerlarning qotishiga urotropin miqdorining (egri chiziqlardagi raqamlar) ta'siri.

Kiritilayotgan qotiruvchi miqdorining ortishi bilan shishalanish harorati ancha yuqori haroratlardan tomoniga suriladi; bunda bir vaqtning o'zida elastiklik moduli ortadi. Urotropinning katta miqdorlarida yuqori elastik deformatsiya sodir bo'lmaydi.

7.6. Polimerlarni plastifikatsiyalash

Polimerlarni strukturaviy modifikatsiyalashning muhim usullaridan biri materialning elastiklik va sovuqqa chidamliliginini yaxshilovchi hamda ularni qayta ishlashni engillashtiruvchi *plastifikatsiyalashdir*, ya'ni polimerlarga turli xil suyuqlik va qattiq jismalarni (*plastifikatorlar*) kiritishning amaliy variantidir. Plastifikatsiyaning fizik-kimyoviy mohiyati sistema qovushqoqligining o'zgarishi, molekulalar bukiluvchanligining ortishi va ustmolekulyar strukturalarning harakatchanligidan iborat, bu esa shishalanish va oquvchanlik haroratlarining ortishiga hamda materiallarning mutahkamlik, dielektrik yo'qotish, mo'rtlik va shunga o'xshash barcha xossalalarining o'zgarishiga olib keladi.

Jurkov fikricha, plastifikatsiya polimerning shishalanish mexanizmi bilan bog'liq va qutbli polimerning shishalanish harorati qo'shni zanjirning qutbli guruhlari ta'siri bilan belgilanadi. Bunday polimer uchun qutbli suyuqlik plastifikator bo'la oladi.

Shishalanish harorati ΔT_{sh} ning pasayishi kiritilgan plastifikator mollar soni (mol.%)ga mutanosib bo'lishi lozim. Shu nazariyaga ko'ra:

$$\Delta T_u = K \cdot n$$

bu yerda, ΔT_u -shishalanish haroratining pasayishi; n -plastifikatorning mollar soni; K -plastifikator tabiatiga bog'liq bo'lmasan koeffitsient (teng mol ulushlar qoidasi).

Plastifikatorlar orasida aromatik dikarbon kislotalar (ko'proq ftal kislotasi) va alifatik spirlarning, alifatik kislotalar va alifatik spirlarning murakkab efirlari, glikollar efirlari, fosfat kislota efirlari, poliefirlar (molekulyar massasi 800 dan 30000 gacha bo'lgan), o'simlik moylari, shu jumladan epoksidirlanganlari, neftni qayta ishlash mahsulotlari-naften va aromatik neft yog'lari, parafinlar va xloringan parafinlar juda keng tarqalgan.

Nazorat savollari

1. Polimerlar qanday fazaviy va fizikaviy holatlarda bo'lishi mumkin?
2. Amorf polimerning termodinamik egri chizig'ida qanday holatlarga mos sohalar kuzatiladi?
3. Nima uchun polimerlarning shishalanish harorati bilan oquvchanlik harorati orasida farq bo'ladi? Bu farqning kattaligi nimalarga bog'liq?
4. Oquvchanlik harorati polimer segmentining kattaligiga bog'liqmi? Molekulyar massaning kattaligiga-chi?
5. Makromolekulalari choklangan polimerlar qovushqoq-oquvchan holatda bo'ladimi?
6. Yuqori elastik deformatsiyada polimerning termodinamik funktsiyalari qanday o'zgaradi?
7. Polimerlar deformatsiyasida nima sababdan relaksatsion hodisalar kuzatiladi?
8. «Elastik gisterezis» ning ma'nosini tushuntiring.
9. Polimerlarning qovushqoq-oquvchan holati qanday omillarga bog'liq?
10. Polimerning oqish jarayoni quyi molekulyar suyuqliklarning oqishidan nimalar bilan farq qiladi?
11. Polimerlar shishasimon holatining o'ziga xos xususiyatlari.
12. «Bo'yincha» hosil bo'lishi polimerdag'i qanday o'zgarish natijasida sodir bo'ladi?
13. Kristall polimerlarning deformatsiyasiga harorat va molekulyar massaning o'zgarishi qanday ta'sir qiladi?
14. Polimerlardagi ustmolekulyar struktura nima?
15. Chiziqsimon amorf polimerlarning fizikaviy holatlarini tushuntiring.

16. Polimerning shishalanish harorati uning qutbliligi va makromolekulasi bukiluvchanligiga qanday bog'liq?
17. Polimerlarning yuqori elastiklik mexanizmini tushuntiring.
18. Polimerning oquvchanlik haroratini tushuntiring va uning qutblanganlik, molekulyar massa va makromolekulalarning polidispersligiga bog'liqligini tushuntiring.
19. Polimerlarni termomexanik tadqiq qilish usulining qanday ahamiyati bor?
20. Polimerni cho'zganda qanday jarayonlar sodir bo'ladi?
21. Polimerlarning mexanik xossalari qanday parametrlar belgilaydi?
22. Polimerlarning deformatsion xossalariiga harorat va deformatsiyalanish tezligi qanday ta'sir qiladi?

AMALIY MASHG'ULOTLAR

7.1-ISH. POLIMERLARNING TERMOMEXANIK XOSSALARINI O'RGANISH

Ishdan maqsad: Polimerning termomexanik xossalarini o'rghanish, bir fizik holatdan boshqasiga o'tish haroratini aniqlash.


Reaktivlar va namunalar: Polietilentereftalat, polikarbonat, tabiiy va butadien kauchuklaridan olingan rezinaning 2 mm qalinlikdagi namunalari, polietilen, polipropilen, polikaproamid, polivinilxlorid (kukuni), suyuq azot.

Jihozlar: Kargin tarozisi, isitgich elementlari bo'lgan Dyuar idishi, kriostat, metronom, chopqich pichoq, isitgichli zichlama qolip (press forma), gidravlik o'quv pressi, termoparali elektron potentsiometri.

Ishning bajarilishi: Diametri 10 mm va qalinligi 2 mm bo'lgan doira shaklidagi polimer namunalari kukunlarini presslab yoki yaxlit polimerni chopqich pichoq bilan kesib tayyorlanadi. Kukunlarni qoliplash zichlama qolipda polimerning oqish yoki suyuqlanish xaroratidan $20-30^{\circ}\text{C}$ yuqori haroratlarda gidravlik press bilan 0,3-0,4 MPa bosim berish orqali olib boriladi. Suyuqlangan massa qolipdan oqib ketmasligi uchun politetraftoretilen pardasi bilan yopilishi kerak.

Termomexanik egri chizig'i olish uchun MDU kimyo fakulteti yuqori molekulyar birikmalar kafedrasi taklif qilgan Kartin tarozisidan foydalanish qulay.

Asbobning asosiy qismi bo'lgan puanson 1 polimer namunasi 2 ga murvat 4 ni burash bilan tushiriladigan yuk (tosh) 3 bilan ta'sir qiladi, ya'ni bosadi. O'lchashni boshlashdan avval murvat 5 ni burab namuna puansonga tegiziladi. Puanson bilan yuk ta'siridagi namuna deformatsiyasi puansonga biriktirilgan optik moslama 6 yordamida aniqlanadi. Tajriba turli haroratlarda 10 s davomida doimiy kuch ta'sirida bo'lgan namuna deformatsiyasini o'lchashdan iborat. Namuna isitish pechi 7 bilan qizdiriladi. Haroratni termopara (8) yordamida minutiga $1,5^{\circ}\text{C}$ tezlik bilan ko'tarish kerak. Manfiy haroratlar oralig'idagi rezinalarni tekshirish uchun suyuq azot oqimi yuboriladigan kriostatdan foydalaniladi. Suyuq azot oqimining tezligi Dyuar idishiga tushirilgan isitgich elementlariga beriladigan tok kuchini o'zgartirib boshqariladi. Deformatsiya har 10°C harorat oralig'ida namunaga kuch ta'sir etish daqiqasida metronomning 10 zarbi (10 soniya) o'tish bilan o'lchanadi. O'lchashlar tugagach puanson dastlabki holatiga keltiriladi. Shundan so'ng, doimiy kuch ta'sirida turli haroratlardagi deformatsiyani o'lhash natijalari jadvalga yoziladi.




45-rasm. Polimerlarning termomexanik egri chiziqlarini olishda ishlataladigan Kargin tarozisiining ko'rinishi.

Yuqorida keltirilgan Kargin tarozisi bo'lмаган тақдирда ушбу тарози ўелкалари бир-бирiga teng oddiy analitik tarozidan yasalishi mumkin (45-rasm).

Natijalarни yozish shakli:

Polimer namunasi	Yuk massasi
Harorat, $^{\circ}\text{C}$	Deformatsiya

Analitik tarozining bir pallasi olinib tsilindrsimon yuk (1) o'rnataladi va uning ikkinchi pallasiga yuk qo'yish orqali muvozanatga keltiriladi. Yuk ta'sirida puansonga (3) polimer namunasi joylashtiriladi. Puansonning diametri 3 mm bo'lsa kifoya. Har xil haroratda o'lchashlarni olib borish maqsadida suyuq azot (6) yoki termopechdan (4) foydalanish mumkin. Sistemadagi haroratni termopara (5) yordamida o'lchanadi. Namunaning deformatsiyasi gorizontallik mikroskop yoki oynadan yasalgan qurilma orqali kuzatilib boriladi. Qolgan hisoblashlarni yuqoridagidek davom ettiriladi.



46-rasm. Polimerlarning termomexnik egri chiziqlarini olishda ishlataladigan dinamometrik tarozining ko'rinishi

Topshiriq: I. Jadvaldagи natijalar asosida deformatsianing haroratga bog'liqlik grafigini chizing;

2. Polimerning termomexanik egri chizig'ini o'rganib uning shishalanish va oquvchanlik haroratlarini aniqlash.

7.2-ISH. DINAMOMETRIYA USULI BILAN KRISTALL BA AMORF POLIMERLARNING MEXANIK XOSSALARINI O'RGANISH

Ishdan maqsad: Turli haroratlar va kuch qo'yilishining turli tezliklarida kristall va amorf polimerlarning kuch deformatsiya egri chiziqlarini chizish, qayta kristallanish kuchlanishi yoki majburiy-elastiklik chegarasi hamda ularning haroratga va cho'zilish tezligiga bog'liqligini aniqlash.

Namuna va asboblar: Polietilen (PE), polietilentereftalat (PETF), polivinilxlorid (PVX)larning qalinligi 0,1-0,15 mm bo'lgan pardalari, cho'zilish egri chiziqlarini yozadigan Polyani turidagi dinamometr, mikrometr, chopqichli pichoq, gidravlik o'quv pressi.

Ishning bajarilishi: Tekshirish uchun namunalar gidravlik pressda chopqich pichoq bilan kerakli shaklda kesib olinadi. Mikrometr bilan kurakchaning ishlataladngan kesimining uzunligi, kengligi va qalinligi o'lchanib uning ko'ndalang kesim yuzi hisoblanadi.

Namunalar dinamometr qisqichlariga mustahkam o'rnatiladi va turli haroratlarda hamda kuch qo'yilishining turli tezliklarida cho'ziladi. Namunalarning dinamometr isitgichida doimiy haroratga kelishi 15 daqiqa, PETF uchun eca 140°C da 60 daqiqa davom etishi kerak. Quyida tajriba o'tkazish sharoitlari keltirilgan.

Namuna	Fazaviy holati	Harorat, $^{\circ}\text{C}$	Cho'zilish tezligi, mm/min
PE	Kristall	20, 40, 60, 80	6
PETF	Amorf	70, 80, 90, 140	9
PVX	Amorf	20, 30	8, 15, 30

Har bir tajriba bir xil egri chiziqlar olinguncha 3 marta takrorlanadi.

Diagramma tasmasida chiqqan egri chiziqlarni σ - ϵ koordinatalar sistemasiga o'tkaziladi. (σ -kattaligi qo'yilgan yuk f namunaning ko'ndalang kesim yuzi S_0 ga nasbatiga teng bo'lgan shartli kuchlanish; ϵ -nisbiy uzayish; u namuna uzunligining o'zgarishini namunaning dastlabki uzunligi l_0 ga nisbatiga teng).

Grafiklarni chizishda diagramma tasmasidagi vertikal bo'yicha M_1 ning va gorizontal bo'yicha f ning yozilish mashtabini, shuningdek ularning turli cho'zilish tezliklarida o'zgarishini hisobga olish kerak.

Kuch-deformatsiya egri chiziqlaridan kristall polimerlarning qayta kristallanish kuchlanishi σ_k va amorf polimerlarning majburiy-elastiklik chegarasi σ_m aniqlanadi. Tajribalarning o'tkazish sharoitlari va natijalari jadvalga yoziladi.

Namuna	Tajriba harorati, $^{\circ}\text{C}$	Namunaning cho'zilish tezligi V, mm/min	σ_k, σ_m

Jadvaldagi natijalar asosida xar bir cho'zilish tezligi uchun σ_k yoki σ_m ning xapopatga bog'liqlik grafigi chiziladi.

Topshiriq:

1. Har xil polimerlarning σ - ϵ egri chiziqlarini o'rganing, σ_k va σ_m larning haroratga bog'liqlik egri chiziqlarini izohlab bering.

Olingan egri chiziqlardan foydalanim berilgan cho'zilish tezligida amorf polimerlar uchun T_{sh} va kristall polimerlar uchun T_c ni aniqlang.

PETF namunalarini (T_{sh} dan yuqori haroratlarda) qizdirish haroratining dinamometrik egri chiziqlar shakliga ta'sirini tushuntiring.

7.3-ISH. POLIMERLAR DEFORMATSIYALANISHIDA GISTEREZIS HODISASINI O'RGANISH

Ishdan maqsad: Yuqori elastik polimerlarda cho'ziluvchanlik deformatsiyasini kuchlanishga bog'liqligini o'rganish va mexanik yo'qotishlar koefitsientini hisoblash.

Namuna va asboblar: Polibutilmetakrilat, turli darajada choklangan butadien nitril kauchuklari asosidagi rezina bo'laklari (qalinligi 5 mm), kuch deformatsiya egri chiziqlarini yozadigan KCJ-33 turidagi uzuvchi mashina, chopqichli pichoq, gidravlik o'quv pressi, planimetr.

Ishning bajarilishi: Gidravlik pressda chopqichli pichoq bilan namunalar kurakcha shaklida kesiladi va uzuvchi mashinaning qisqichlariga mahkamalanadi. Mashinani avval to'g'ri namunani cho'zish, keyin teskarinamunani qisqartirish yo'nalishida ishlatiladi. Bu vaqtida yozuvchi qurilmaning diagramma tasmasida kuch qo'yish deformatsiya va kuch olish deformatsiya egri chiziqlari yoziladi.

Gisterezis halqasi bilan chegaralangan maydon yuzasi namunani cho'zishda sarflangan ish A_1 bilan namuna qisqarishida bajarilgan ish A_2 orasidagi farqni ifodalaydi. Gisterezis halqasining yuzasi planimetr bilan o'lchanadi. Mexanik yo'qotishlar koefitsienti k quyidagi tenglama bilan hisoblanadi:

$$k = \Delta A / A_1$$

Topshiriq: Turli darajada choklangan rezinalarning mexanik yo'qotishlar koefitsientlarini solishtiring.

ILOVA

Shartli belgilar

M - monomer;

I - initsiator;

S - zanjir uzatilish reaktsiyasida qatnashuvchi agent;

[] - ma'lum komponentning kontsentratsiyasi;

V - polimerlanish reaktsiyasining tezligi;

V_{in} - initsirlanish reaktsiyasining tezligi;

k_r - zanjirning o'sish reaktsiyasi tezlik konstantasi;

k_0 - zanjirning uzilish reaktsiyasi tezlik konstantasi;

τ_s - o'sayotgan radikallarni o'rtacha yashash davri;

V_o - uzilish reaktsiyasi tezligi.

Jadval 1.

Radikal polimerlanish reaktsiyasining kinetik kattaliklari

(parametrlari)

Kattalik	O'lchov birligi	Kattalikning umumiyligi	Metakrilamidning fotopolimerlanishida kattalik qiymatlari
V_{in}	Mol/(l·s)	10^{-8} - 10^{-10}	$8,75 \cdot 10^{-9}$
[I]	Mol/l	10^{-2} - 10^{-4}	$3,97 \cdot 10^{-2}$
[M]	Mol/l	10^{-1} - 10^{-1}	0,20
k_p	1/Mol·s	10^2 - 10^4	$7,96 \cdot 10^{-2}$
k_o	1/Mol·s	10^6 - 10^8	$8,25 \cdot 10^6$
τ_s	s	10^{-1} - 10^{-1}	2,62
k_p/k_o	-	10^{-4} - 10^{-6}	$9,64 \cdot 10^{-5}$
$k_p/k_o^{1/2}$	$1^{1/2}$ / mol·s	1 - 10^{-2}	$2,77 \cdot 10^{-1}$
V_o	Mol/(l·s)	10^{-8} - 10^{-11}	$8,73 \cdot 10^{-9}$

Jadval 2.

Monomerda zanjir uzatilish konstantasi

Nº	Monomer	$S_m \cdot 10^4 (60^\circ S \text{ da})$
1.	Akrilamid	0,6
2.	Akrilonitril	0,26-0,3
3.	Metilakrilat	0,036-0,325
4.	Metilmetakrilat	0,07-0,18
5.	Stirol	0,6-1,1
6.	Vinilatsetat	1,75-2,80
7.	Vinilxlorid	^a $\frac{6,75}{30^\circ C \text{ da}}$

Jadval 3.

Monomerlar va ularning asosiy xossalari

Monomer	Formulasi	Molekulyar massasi	Zichligi <i>d. g/sm³</i>	Ts. ⁰ C	Tq. ⁰ C	Sindirish ko'rsatkichi <i>n_d²⁰</i>	Suvda eruvchanligi	Organik erituvchilari
Akrilamid	CH ₂ =CHCONH ₂	71,08	1,122 ³⁰	84-85	215	-	ya.e.	sp., met. ats.
Akril kislotasi	CH ₂ =CHCOOH	72,06	1,0511	12,3	141	1,4224	ya.e.	sp., e.
Akrilonitril	CH ₂ =CHCN	53,06	0,8060	-83	77,3	1,3911	e.	sp., e.
Allilakrilat	CH ₂ =CHCOOCH ₂ =CH ₂	112,13	1,0452	-	122	1,4390 ⁹	q.e.	sp., e., ats.
Allil spiriti	CH ₂ =CH CH ₂ OH	58,08	0,855	-129	96	1,4135	ya.e.	sp., e.
Vinilatsetat	CH ₂ =CH OOCCH ₃	86,09	0,932	-84	75	1,3953	e.	sp., e.
Vinilxloril	CH ₂ =CHCl	62,49	0,9195 ¹⁵	-153,8	-13,4	-	q.e.	sp., e., xlf., dxe.
2-vinilpiridin	CH ₂ =CHC ₅ H ₄ N	105,13	0,9985 ⁰	-	80 ²⁰	1,5494	q.e.	sp., e.. xlf.
Metakrilamid	CH ₂ =C(CH ₃)COONH ₂	85,10	-	110	-	-	ya.e.	sp., e.
Metakril kislota	CH ₂ =C(CH ₃)COOH	86,09	1,0153	16	163	1,4314	e.	sp., e.
Metilmetakrilat	CH ₂ =C(CH ₃)COOCH ₃	100,12	0,936	-48,2	100	1,413	q.e.	sp-, e.
Metilakrilat	CH ₂ =CHCOO CH ₃	86,09	0,956	-75	80	1,3984	q.e.	sp., e.
Butilakrilat	CH ₂ =CHCOOC ₄ H ₉	128,17	0,8896	-	70 ⁶⁰	1,4150	-	sp., e.
Stirol	CH ₂ =CHC ₆ H ₅	104,15	0,9060	-36	145,2	1,5468	-	sp., e.. CS ₂
Formaldegid	HCHO	30,03	0,8153	-11 8(MUZ)	-19	-	e.	e., xlf., tol., ats.
Etilakrilat	CH ₂ =CHCOOC ₂ H ₅	100,12	0,924	-75	99,5	1,4054	q.e.	sp., e.
Etilen	CH ₂ =CH ₂	28,05	0,566 ⁻¹⁰²	-169,15	-103,7	1,363 ⁻¹⁰⁰	-	sp., e.

Initsiatorga zanjir uzatilish konstantasi

Initsiator	60^0C da polimerlanish uchun C_1	
	stirol	metilmekatilat
2,2'-Azo-bis-izobutironitril	0	0
3-Butilperoksidi	0,0003-0,0013	-
Kumol peroksidi	0,01 ^a	-
Lauril peroksidi	0,024 ^b	-
Benzoil perokimdi	0,048-0,055	0,02
3-Butilgidroperoksidi	0,035	1,27
Kumol gidroperokisi	0,063	0,33
^a 50^0C da		
^b 70^0C da		

Jadval 5.

Erituvchilar orqali zanjir uzatilish konstantalari

Zanjir uzatuvchi	$C_s \cdot 10^4$ (60^0C da polimerlanish uchun)		
	Vinilatsetat	Stirol	Metilmekatrilat
Atseton	11,7	0,40 ^b	0,195
Benzol	1,2	0,023	0,040
n-Butil spirti	20	0,40 ^b	0,85 ^b
Geptan	17,0 ^a	0,42	1,8 ^a
Izopropil benzol	89,9	0,82	-
Izopropil spirti	44,6 ^b	-	0,583
Toluol	21,6	0,125	0,400
Trietilamin	370	7,1	-
Uglerod (IV) xlorid	9600	90	5,0
Uglerod (IV) bromid	28700 ⁱ	22000	2700
Sirka kislota	10,0	0,20 ^b	0,24 ^b
Xloroform	150,0	0,5	1,77
Etilbenzol	55,20	0,67	-
^a 50^0 , ^b 80^0 , ⁱ 70^0C da			

Radikal sopolimerlanishda monomerlarning sopolimerlanish konstantalari

Monomer		r₁	r₂	T⁰C
M₁	M₂			
1	2	3	4	5
Akril kislotasi	n-Butilakrilat	0,58±0,01	1,07±0,095	50
	n-Butilmetakrilat	0,29±0,01	3,67±0,02	50
	Vinilatsetat	2,0±0,03	0,1±0,01	70
	Stirol	0,025±0,02	0,15±0,01	60
Akrilonitril	Akril kislotasi	0,35±0,01	1,15±0,02	50
	Allilxlorid	3,0±0,2	0,05±0,01	60
	Vinilatsetat	4,05±0,3	0,061±0,013	60
	Vinilxlorid	3,28±0,06	0,02±0,02	60
	n-Butilakrilat	1,2±0,1	0,89±0,08	60
	Metilakrilat	1,4±0,1	0,95±0,05	60
	Metilmekatrilat	0,13±0,05	1,16±0,22	60
	Stirol	0,2±0,02	0,3±0,08	40
Vinilxlorid	Metilakrilat	0,08±0,01	9,0±0,2	70
	Vinilatsetat	1,68±0,08	0,23±0,02	60
	n-Butilmetakrilat	0,05±0,2	13,5±0,05	45
	Stirol	0,045±0,01	12,4±0,04	60
Vinilatsetat	Metakril kislotasi	0,01±0,01	20,0±2,2	70
	Metilmekatrilat	0,035±0,03	28,6±1,1	30
	Stirol	0,01±0,01	55±10	60
	Tetraxloretilen	6,8±0,5	0	60
	Kroton kislotasi	0,33±0,02	0	68
4- Vinilpiridin	Akrilonitril	0,41±0,09	0,113±0,005	60
	Metilakrilat	1,7±0,2	0,22±0,01	60
	Metilmekatrilat	0,79±0,05	0,574±0,004	60
	Stirol	0,7±0,1	0,54±0,03	60
Stirol	Allilatsetat	90±2,0	0,01±0,01	60
	Allilxlorid	31,5±4	0,016±0,016	70
	Itakon kislotasi	0,3±0,1	0,2±0,2	70

1	2	3	4	5
	Malein angidridi	0,01 ±0,01	0	60
	Metakril kisnotasi	0,15+0,11	0,7±0,05	60
	Metilakrilat	0,75±0,07	0,18±0,02	60
Stirol	Metilmetakrilat	0,52±0,026	0,46±0,026	60
	Tetraxloretilen	185±20	0	60
	Trixloretilen	16±2	0	60
	N-Vinilkarbazon	5,5±0,8	0,012±0,002	70
	N-Vinilpirrolidon	15,7±0,5	0,045±0,05	50
β-Xloretilakrilat	Allilatsetat	5,5±1,0	0	60
	Metilakrilat	0,9±0,1	0,9+0,1	60
	Stirol	0,10+0,01	0,54±0,01	60
Metakrilamid	Metakril kislotosi	0,30±0,02	2,50+0,1	70
	Metilakrilat	0,22+0,01	2,0+0,1	65
	Metilmetakrilat	0,47±0,04	1,5±0,02	65
Metakril kislota	Dietilaminoetil-metakrilat (pH=1,5)	0,98+0,16	0,90+0,23	70
	2-Vinilpiridin	0,58±0,5	1,55±0,10	70
Akrilamid	Akril kislotosi	1,38±0,03	0,36±0,01	60
	Akrilonitril	1,35±0,02	0,87±0,03	30
	Metilakrilat	1,30±0,05	0,05±0,05	60
	2-Metil-5-vinil-piridin	0,56±0,09	0,01±0,09	60

Ba'zi monomerlarning Q ka s qiymatlari

Monomer	e	Q
Akrilamid	1,30	1,18
Akril kislotasi	0,77	1,15
Akrilonitril	1,20	0,60
Allil spirti	0,29	0,052
1,3-Butadien	-1,05	2,39
n-Butilakrilat	1,06	0,50
n-Butilmel'akrilat	-0,23	0,72
Vinilatsetat	-0,22	0,026
Vinilkarbozol	-1,40	0,41
2-vinilpiridin	-0,50	1,30
4- vinilpiridin	-0,20	0,82
N-vinilpirrolidon	-1,14	0,14
Glitsidilmekrilat	0,10	0,85
m-Divinilbenzol	-1,77	3,35
Itakon kislotasi	0,64	0,76
Metakrilamid	1,24	1,46
Metakril kislotasi	0,65	2,34
Metakrilat	0,60	0,42
2-Metil-5-vinilpiridin	-0,58	0,99
Metilmekrilat	0,40	0,74
Stirol	-0,80	1,00
Teraftoretilen	1,22	0,049
β -Xloretilakrilat	0,54	0,41
Etilakrilat	0,22	0,52
Etilen	-0,20	0,015
Etilenglikoldimetakrilat	0,24	0,88
Etilmekrilat	0,17	0,56

Ba'zi polimerlarning asosiy erituvchilari

Polimerlar	Erituvchilar
1	2
Poliakrilamid	suv, suvli bufer eritmalar
Poliakril kislotasi	suv, ishqorlarning suvli eritmalari
Poliakrilonitril	dimetilformamid, dimetilsulfooksid, etilen karbonat, nitrobenzol
Polivinilatsetat	murakkab efirlar, metanol, atseton, xlorli uglekodorodlar
Polivinilspirt	suv, suvli atseton
Polivinilxlorid	tsiklogeksanol, nitrobenzol, tetragidro-furan, xlorli uglekodorodlar
Polimetilmekrilat	murakkab efirlar, aromatik uglevodorodlar, xlorli uglevodorodlar
Polipropilen	ksilollar, o-dixlorbenzol, kerosin
Polistirol	aromatik uglevodorodlar, xlorli uglevodorodlar, butilketon, dekalin
Polietilen	tetalin, xlornaftalin, ksilollar, toluol (100-135°C da)
Polietilentereftalat	fenollar, benzil spirti, nitrobenzol (qizdirish yordamida)
Triatsetattsellyuloza	murakkab efirlar, ketonlar
Tsellyuloza (tsellyuloza gidrati)	mis-ammiak komplekslari, diaminlarning rux xlorid va kaltsiy xlorid bilan komplekslari
Etiltsellyuloza	metilatsetat, benzol va metanol aralashmasi, etilatsetat, dioksan, dixloretan, sirka kislotasi
Polivinilbutiral	Xloroform, izopropil spirti, tsiklogeksanol

Ba'zi polimerlarga fraktsiyalash usullarini qo'llash misollari

Polimer	Fraktsiyalash usullari	Erituvchi va cho'ktiruvchi yoki ularning aralashmasi
1	2	3
Guttapercha	bo'laklab cho'ktirish	benzol va metanol
Tabiiy kauchuk	-//-	benzol va atseton
Poliakrilamid	-//-	xloroform va atseton
Poliakril kislotasi	termodiffuziya	suv va metanol
Poliakrilonitril	bo'laklab cho'ktirish	dimegilformamid va geptan
	termodiffuziya	dimegilformamid
Polibutadien	bo'laklab cho'ktirish	benzol va atseton
	cho'ktirukchi	toluol va n-propanol
	xromatografiya	
	sedimentatsiya	geksan+geptan (1:1)
Polibutilmetakrilat	bo'laklab	atseton va metanol
Polivinilatsetat	cho'ktirish	
	-//-	atseton va suv
	-//-	atseton va n-geksan
	turbidimetriya	atseton va suv
	termodiffuziya	toluol
Poli-2-vinilpiridin	bo'laklab cho'ktirish	benzol va geksan
Poli-4-vinilpiridin	-//-	uch-Butanol va benzol
	-//-	nitrometan va benzol
Polivinilpirrolidon	-//-	suv va atseton
	-//-	xloroform va efir; etanol va benzol

1	2	3
Polikinilxlorid	bo'laklab cho'ktirish	tsiklogeksanol va n-butapol
	bo'laklab eritish	tsiklogeksanol va etilenglikol
	bo'laklab eritish	tsiklogeksanol va metanol atseton
Polimetakril kislotasi	bo'laklab cho'ktirish	metanol va efir
Polimetilmetakrilat	-//-	atseton va suv+metanol (7:3)
Po.shmstilmstakrnlat	-//-	atseton va geksan
	-//-	benzol va geksan
	turbidimetriya	xloroform va geptan
	termodiffuziya	benzol
Polipropilen	bo'laklab cho'ktirish	sovitish jarayonida benzol
Polistirol	-//-	xloroform va metanol
	-//-	metiletilkiton+butanol (erituvchini parlatish)
	-//-	Etilatsetat va etanol
	-//-	butilketon va metanol
	turbidimetriya	benzol va metanol
	termodiffuziya	toluol
Polietilen	bo'laklab cho'ktirish	ksilol va n-propanol (90°C)
Akrilonitril va metilmekrilit sopolimeri	-//-	dimetilformamid va n-geksan+efir (2:1)
Akrilonitril va stirol sopolimeri	-//-	xloroform va metanol
Metilmetakrilat va stirol sopolimeri	-//-	butanol va diizopropil efiri
	-//-	xloroform va metanol

Polimerlar uchun Mark-Kun-Xauvink tenglamasining

K va α qiymatlari

Polimer	Erituvchi	$K_\eta \cdot 10^4$	α	$T^0 S$	$M \cdot 10^{-3}$
1	2	3	4	5	6
Karboksimetil-tsellyuloza	NaCl (2,0% suvli eritmasi)	2,33	1,28	25	-
Nitrotsellyuloza	Atseton	2,53	0,795	25	68-224
	tsiklogeksanon	2,24	0,810	25	68-224
Poliakrilamid	suv	0,631	0,80	25	10-5000
Poliakrilonitril	Dimetilsulfo-oksid	3,21	0,75	20	90-400
	Dimetilformamid	3,0	0,767	35	20-400
Polibutilakrilat	atseton	0,715	0,75	25	50-300
Polibutilmetakrilat	atseton	1,84	0,62	25	1000
	xloroform	0,29	0,78	20	40-8000
Polivinilatsetat	atseton	1,90	0,66	25	42,8-1300
	benzol	5,63	0,62	30	26-860
	suv	8,0	0,58	25	83,7-339
Polivinil spirti	suv	5,95	0,63	25	11,6-195
Poli-4- vinilpiridin	suv	2,2	0,657	25	100-1850
Polivinilpirrolidon	suv	6,45	0,58	20	10,6-86
	suv	1,4	0,70	25	10-20
Polivinilxlorid	tsiklogeksan	20,4	0,56	25	19-150
Polietilenglikol adipinat	atseton	16,2	0,50	20	0,4-2
Poliizobutilen	toluol	8,7	0,56	25	110-340
Poliizopren	benzol	5,02	0,675	25	0,4-1500
Polikarbonatlar	Metilenxlorid	1,11	0,82	20	8-270

1	2	3	4	5	6
Polimetilakrilat	atseton	2,82	0,52	30	40-450
Polimetilmetakrilat	toluol	3,105	0,5798	30	51,5-473
	metiletilketon	5,907	0,5716	30	51,5-473
	xloroform	3,221	0,678	30	51,5-473
	benzol	0,835	0,73		100-1000
Polimetakril kislota	metanol	24,2	0,51	26	40-200
	0,002 n HC1	6,6	0,50	30	18-21
Poliistirol	benzol	2,7	0,66	25	1-200
	dixloretan	2,1	0,66	25	-
	toluol	1,18	0,72	25	100-600
	xloroform	0,716	0,76	25	120-2800
Polietilentereftalat	m-krezol	0,077	0,95	25	0,4-12
	fenol:dixloretan (40:60)	0,92	0,85	20	9-35
Etiltsellyuloza	benzol	2,29	0,81	25	40-140
	Metiletilketon	1,82	0,84	25	40-140
	etilatsetat	1,07	0,89	25	40-140

Ba'zi polimerlar uchun teta-harorat va teta – erituvchilar

Polimer	Teta-erituvchi	Teta- harorat
1	2	3
Poliakril kislotasi	1,4-dnoksan	30,0
Poliakril kislotasi (Na-tuzi)	NaBr (1,5 mol suvli eritmasi)	15,0
Polibutilmetakrilat	benzol:geptan (og'irlik bo'yicha 13:1)	44,0
Polibutilmetakrilat	izopropanol	21,5
Polivinilatsetat	3-geptanon	29,0
	metilizopropil keton: n-geptan (hajm bo'yicha 73,2:26,8)	25,0
Polivinilpirrolidon	suv:atseton (hajm bo'yicha 33,2:66,8)	25,0
Butil kauchuk	benzol	25,0
Naylon-66	90% suvli HCOOH va 2,3 mol. KC1	25,0
Polikarbonat	xloroform	20,0
Polivinilxlorid	benzil spiriti	155,4
Poliizopren	propil keton	14,5
Polimetakril kislotasi	0,002-mol. suvli HC1	30,0
Poli-2-metil-5-vinilpiridin	butilatsetat	21,8
Polimetilmekatrilat	atsetonitril	27,6
	n-propanol	84,8
	toluol:metanol (hajm bo'yicha 5:9)	26,2

1	2	3
Polipropilen:		
ataktik	tsiklogeksan	92,0
izotaktik	fenil efiri	145,0
Polistrol	tsiklogeksanol	86,0
ataktik	xloroform:metanol (74,7:24,3), tsiklogeksan	25,0 34,5
Polietilen	nitrobenzol	230,0
Etiltsellyuloza	metanol	25,0
Polistirol	tsiklogeksan	34

Turli erituvchilar uchun krioskopik doimiylar

Jadval 12.

Erituvchi	Suyuqlanish harorati, °C	K °C/mol
Benzol	5,5	5,1
Suv	0	1,85
Dimetilsulfoksid	18,4	4,8
Dioksan	11,7	4,7
Nitrobenzol	5,82	6,9
Xloroform	-63,2	4,9
Tsiklogeksan	6,5	20,2
CCl ₄	-23	29,8
Kamfara	178,4	39,7

ADABIYOTLAR RUYXATI

1. Babayev T.M. Yuqori molekulyar birikmalar. Toshkent. 2016. Fan va texnologiya. – 527 b.
2. Шур А.М. Высокомолекулярные соединения . М.: «Высшая школа», 1981.
3. Оудиан Дж. Основы химии полимеров. М.: «Мир», 1974
4. Хэм Д. Сополимеризация. М.: «Химия», 1971
5. Практикум по высокомолекулярным соединениям. Под.ред. Кабанова И.А. М.: «Химия», 1985
6. Практикум по химии и физики полимеров. Под.ред. Куренкова В.Ф. М.: «Химия», 1990
7. Феттес Э. Химические реакции полимеров. М.: «Высшая школа», 1974, Т. 1-2.
8. Платэ Н.А., Литманович А.Д., Ноа А.Б. Макромолекулярные реакции. М.: «Химия», 1974
9. Қурбонов Ш.А., Мұсаев Ў.Н., Қиличев С. “ Полимерларнинг кимёвий хоссалари ва деструкцияси” Тошкент, “Университет” 1998.
10. Рафиков С.Р., Павлова С.А., Твердохлебова И.И. Методы определения молекулярных весов и полидисперсности высокомолекулярных соединений. М.: Изд.АН СССР, 1963.
11. Мораветс Г. Макромолекулы в растворе М.: Мир. 1967.
12. Каргин И.А., Слонимский Г.Л. Краткие очерки по физико-химии полимеров. М.: Химия, 1967
13. Тагерь А.А. Физико-химии полимеров. М.: Химия, 1978
14. Кулезнев В.Н. Шершнев В.А. Химия и физика полимеров. М. Высшая и физика полимеров. М.: Высшая школа, 1988

МУНДАРИЖА

I BOB. POLIMERLAR SINTEZI.....	5
1.1. POLIMERLANISH REAKTSIYALARI	5
1.1.1. Radikal polimerlanish	5
1.1.2. Radikal sopolimerlanish reaktsiyalari	12
1.1.3. Ionli polimerlanish	14
1.2. POLIKONDENSATLANISH REAKTSIYALARI	19
1.2.1. Polikondensatlanish kinetikasi.....	21
1.2.2. Polikondensatlanish jarayonidagi destruktiv reaktsiyalar.....	22
1.2.3. Polikondensatlanishning amaliy usullari	23
AMALIY MASHG'ULOTLAR	26
A) POLIMERLANISH REAKTSIYASI	26
1.1-ISH. METILMETAKRILATNING INITSIATORNI TURLI KONTSENTRATSIIYALARIDA POLIMERLANISHI	29
1.2-ISH. MONOMER KONTSENTRATSIIYASINING POLIMERLANISH TEZLIGIGA TA'SIRI	30
1.3-ISH. BUTILMETAKRILATNING RADIKAL POLIMERLANISHIDA INITSIRLASH TEZLIGINI ANIQLASH.....	30
1.4-ISH. STIROLNING ERITMADA POLIMERLANISHI.....	31
1.5-ISH. AKRILONITRILNING OKSIDLANISH-QAYTARILISH INITSIATORI BILAN POLIMERLANISHI.....	32
1.6-ISH. STIROLNING MUNCHOQSIMON (SUSPENZION) POLIMERLANISHI	32
1.7.-ISH. STIROLNI MASSADA POLIMERLANISH KINETIKASI	33
1.8-ISH. ZAJIRNI UZATISH AGENTI ISHTIROKIDA STIROLNING MASSADA POLIMERLANISHI.....	34
1.9- ISH. METILMETAKRILATNI TURLI ERITUVCHILarda POLIMERLANISHI	35
1.10- ISH. 2-METILSTIROLNING KATIONLI POLIMERLANISHI	36
1.11-ISH. METILMETAKRILATNI MASSADA TURLI HARORATLarda POLIMERLANISHI.....	36
1.12-ISH. STIROLNING KATIONLI POLIMERLANISHI	37
1.13-ISH. MONOMER MOLEKULASIDAN ZANJIRNI UZATILISH KONSTANTASINI TOPISH	38
B) SOPOLIMERLANISH REAKTSIYASI	41
1.15-ISH. STIROLNI METAKRIL KISLOTASI BILAN SOPOLIMERLANISHI	41
1.16-ISH. METILMETAKRILATNI METAKRIL KISLOTASI BILAN SOPOLIMERLANISHI.....	42

1.17-ISH. TARKIBI BO'YICHA BIR JINSLI SOPOLIMERLARNING OLINISHI	43
1.18-ISH. STIROL BILAN METAKRIL KISLOTASINI TURLI ERITUBCHILAR ISHTIROKIDA SOPOLIMERLANISHI.....	44
1.19-ISH. METILMETAKRILAT BILAN METAKRIL KISLOTASINI TURLI DARAJADA SOPOLIMERLANISHI	45
1.20-ISH. METILMETAKRILAT BILAN AKRIL KISLOTASINING MONOMERLARINING TURLI NISBATLARIDA SOPOLIMERLANISHINI O'RGANISH	46
V) POLIKONDENSATLANISH REAKTSIYASI.....	49
1.21-ISH. GEKSAMETILENDIAMINNING ADIPIN KISLOTASI BILAN POLIKONDENSATLANISHI.....	49
1.22-ISH. FAZALARARO CHEGARADA ADIPIN KISLOTASI DIXLORANGIDRIDI BILAN GEKSAMETILENDIAMINNING POLIKONDENSATLANISHI	50
1.23-ISH. ADIPIN KISLOTASINI DIETILENGLIKOL BILAN POLIKONDENSATLANISHI	51
1.24-ISH. FTAL ANGIDRIDINI GLITSERIN BILAN POLIKONDENSATLANISHI	53
1.25-ISH. CHIZIQSIMON POLIURETANNING OLINISHI.....	54
1.26-ISH. EPOKSID SMOLASINI OLINISHI	55
1.27-ISH. FTAL ANGIDRIDNING ETILENGLIKOL BILAN POLIKONDENSATLANISHI	57
1.28-ISH. MOCHEVINANING FORMALDEGID BILAN POLIKONDENSATLANISHI....	58
1.29-ISH. FENOLNI FORMALDEGID BILAN POLIKONDENSATLANISHI.....	58
1.30-ISH. LIMON KISLOTASINI ETILENGLIKOL BILAN POLIKONDENSATLANISHI	59
1.31-ISH. ADIPIN KISLOTASINI ETILENGLIKOL BILAN POLIKONDENSATLANISHI	60
1.32-ISH. FENOLNI BENZALDEGID BILAN POLIKONDENSATLANISHI.....	61
II BOB. POLIMERLARNING KIMYOVIY O'ZGARISHLARI	62
2.1. Polimerlarning kimyoviy xossalari o'ziga xosligi.....	62
2.2. Polimerlanish darajasi o'zgarmasdan sodir bo'ladigan kimyoviy reaktsiyalar	63
2.3. Polimerlanish darajasining ortishi bilan boradigan reaktsiyalar.....	64
AMALIY MASHG'ULOTLAR	69
2.1 -ISH. POLIVINILATSETATNING ALKOGOLIZI.....	69
2.2-ISH. POLIVINIL SPIRTINI SIRKA ANGIDRIDI BILAN ETERIFIKATSİYALASH	71
2.3-ISH. POLIVINIL SPIRTINI FORMALDEGID BILAN ATSETALLASH.....	72
2.4-ISH. POLIVINIL SPIRTINI MOY ALDEGIDI BILAN ATSETALLASH*	74
2.5-ISH. POLIMETAKRIL KISLOTASINI ε-KAPROLAKTAM BILAN AMINLASH	75

2.6—ISH. POLIAKRILAMIDNING ISHQORIY GIDROLIZI VA OLINGAN POLIMERNI TAVSIFLASH*	76
2.7-ISH. POLIAKRILAMID VA AKRILAMIDNING ISHQORIY GIDROLIZI.....	78
2.8-ISH. POLIAKRILAMID GIDROLIZINI ISHQOR VA POLIMERNING HAR XIL KONTSENTRATSIYALARIDA O’RGANISH*	79
2.9-ISH. TURLI HARORATLARDA POLIAKRILAMIDNING ISHQORIY GIDROLIZI* ..	81
2.10-ISH. POLIMETILMETAKRILATGA VINILATSETATNI PAYVANDLASH.....	82
2.11-ISH. SINTETIK (YOKI TABIIY) KAUCHUKKA METILMETAKRILATNI PAYVANDLASH	83
2.12-ISH. TSELLYULOZANING MURAKKAB EFIRLARINI OLİSH	84
2.13-ISH. KARBOKSIMETILTSELLYULOZA OLİSH.....	85
2.14-ISH. TSELLYULOZANING TSIAN ETIL EFİRİNİ OLİSH.....	87
2.15-ISH. YOG’OCH QIPIG’IDAN TSELLYULOZA OLİSH.....	87
2.16-ISH. POLIAKRILONITRIL (NITRON) TOLASI ASOSIDA TOLASIMON ANIONIT OLİSH.....	88
2.17-ISH. POLIAKRILONITIRIL (NITRON) TOLASINING GIDROLIZLANISH KINETIKASINI O’RGANISH	89
2.18-ISH. POLIAKRILONITRIL (NITRON) TOLASINI GIDROKSILAMIN BILAN KIMYOVIY O’ZGARISHI.....	90
2.19-ISH. POLIAKRILONITIRIL (NITRON) TOLASINING QISMAN GIDROLIZI	91
2.20-ISH. STIROL VA MALEIN ANGIDRIDİ SOPOLIMERINING ISHQORIY GIDROLIZI	93
III BOB. POLIMERLAR DESTRUKTSIYASI VA ULARNI STABILLASH	95
3.1. Polimerlarning kimyoviy destruktsiyasi	95
3.2. Polimerlarning oksidlanish destruktsiyasi	96
3.3. Polimerlarning termik destruktsiyasi	97
3.4. Polimerlarning fotokimyoviy destruktsiyasi	98
3.5. Polimerlarning radioaktiv nurlar ta’sirida destruktsiyasi	99
3.6. Polimerlarning mexano-kimyoviy destruktsiyasi	99
3.7. Polimerlarning eskirishi va unga qarshi kurash usullari.....	100
AMALIY MASHG’ULOTLAR	102
3.1-ISH. POLIVINILXLORIDNING TERMIK DESTRUKTSIYASI.....	102
3.2—ISH. O’ZGARMAS HARORATDA POLIMETILMETAKRILATNING TERMIN DESTRUKTSIYASI	103
3.3-ISH. STABILLANGAN POLIVINILXLORIDNING TERMIK DESTRUKTSIYASI....	105
3.4-ISH. POLIMERLARNING TERMOOKSIDLANISH DESTRUKTSIYASI.....	106

3.5-ISH. POLIVINIL SPIRTINING OKSIDLANISH DESTRUKTSIYASI.....	106
3.6-ISH. POLIAMIDLARNING GIDROLITIK DESTRUKTSIYASI	108
3.7-ISH. CHIZIQSIMON ALIFATIK POLIEFIR ERITMASINING DESTRUKTSIYASI ...	108
3.8-ISH. POLIAKRILAMIDNI ERITMADA DESTRUKTSIYASI.....	109
3.9-ISH. TURLI XIL XARORATDA POLIAKRILAMIDNING ERITMADA DESTRUKTSIYASINI O'RGANISH	110
IV BOB. POLIMER ERITMALARI	112
4.1. Makromolekulalardagi ichki aylanishlar	112
4.2. Polimer zanjirining konformatsiyasi. Zanjir bukiluvchanligi.....	113
4.3. Polimer eritmaları	114
4.4. Fazalar qoidasining polimer eritmalariga tatbiq etilishi	115
4.5. Polimerlar erishining termodinamik omillari	118
4.6. Polimerlar uchun «yaxshi», «yomon» va «teta» erituvchilar	118
4.7. Polimer eritmalarining osmotik bosimi	119
AMALIY MASHG'ULOTLAR	122
4.1-ISH. TO'RSIMON POLIMERNING BO'KISH TEZLIGIGA ERITUVCHI TABIATINING TA'SIRI.....	122
4.2-ISH. CHOKLANGAN POLIMER TO'RNING BA'ZI-BIR STRUKTURAVIY PARAMETRLARINI MUVOZANATLI BO'KISH DARAJASI BO'YICHA BAHOLASH.	122
4.3-ISH. POLIMER ERITMALARINING REOLOGIK XOSSALARINI O'RGANISH	124
4.4-ISH. POLIMERNING ERISH KRITIK HARORATLARIDAN Θ HARORATINI ANIQLASH.....	126
V BOB. POLIMERLARNING MOLEKULYAR MASSASI <u>VA</u> MOLEKULYAR- MASSAVIY TAQSIMLANISHI.....	128
5.1. Termodinamik usullar.....	128
5.2. Molekulyar massani aniqlashning boshqa usullari	129
AMALIY MASHG'ULOTLAR	135
5.1-ISH. POLIMERLARNING MOLEKULYAR MASSASINI VISOZIMETRIK USUL BILAN ANIQLASH.....	135
5.2.-ISH. MAKROMOLEKULANING BO'KISH KOEFFITSIENTINI ANIQLASH	136
5.3-ISH. MARK-KUN-XAUVINK TENGLAMASIDAGI K va α PARAMETRLARINI ANIQLASH.....	137
5.4-ISH. ULTRABINAFSHA NUR BILAN NURLANTIRILGAN POLIMERNING MOLEKULYAR MASSASINI ANIQLASH	138
5.5-ISH. POLIMER MAKROMOLEKULALARINING POLIDIS-PERSLIGINI VISOZIMETRII USULDA BAHOLASH.....	139

5.6-ISH. POLIMER MAKROMOLEKULALARI TURBIDIMETRIK TITRLASH USULI BILAN BAHOLASH.....	140
5.7-ISH. POLIMER MAKROMOLEKULALARI POLIDISPERS- LIGINI GEL-XROMATOGRAFIYA USULI BILAN BAHOLASH	141
5.8-ISH. POLIMERLARNING MOLEKULYAR MASSASINI KRIOSKOPIK USULDA ANIQLASH.....	142
5.9-ISH. POLIMER MOLEKULYAR MASSASINI OSMOMETRIK USUL BILAN ANIQLASH.....	144
5.10-ISH. BO'LAKLAB CHO'KTIRISH USULI BILAN POLIMERNING MOLEKULYAR-MASSAVIY TAQSIMLANISHINI ANIQLASH.	146
5.11 -ISH. POLIMERNING MOLEKULYAR-MASSAVIY TAQSIMLANISHINI BO'LAKLAB ERITISH ORQALI ANIQLASH.	148
5.12-ISH. POLIEFIRLAR MOLEKULYAR MASSASINI ANIQLASH.....	150
5.13-ISH. POLIAMIDLARNING MOLEKULYAR MASSASINI	152
ANIQLASH.....	152
5.14-ISH. EPOKSID SMOLALARNING MOLEKULYAR MASSASINI ANIQLASH.....	153
VI BOB. POLIELEKTROLITLAR VA ULARNING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI.....	155
6.1. Polielektrolitlarni sinflash.....	155
6.2. Polielektrolitlarning suvli eritmalarida bo'ladigan ionlanish muvozanati.....	156
6.3. Zaryadlangan zanjirlarning qarshi ionlar bilan ta'sirlashuvi. To'rlar kollapsi.....	158
6.4. Polielektrolit eritmalarining gidrodinamik xossalari	159
6.5. Polielektrolit makromolekulalari orasidagi kooperativ reaktsiyalar.....	160
6.6. Poliamfolitlarning o'ziga xos xususiyatlari	162
AMALIY MASHG'ULOTLAR	165
6.1 -ISH. POLIMER BA QUYIMOLEKULYAR KISLOTANING IONLANISH KONSTANTASINI ANIQLASH.....	165
6.2-ISH. POLIMETAKRIL KISLOTASINIHG KONFORMATSION O'ZGARISHLARI JARAYONIDAGI ERKIN ENERGIYA O'ZGARISHINI ANIQLASH	166
6.3-ISH. POLIAMFOLITNI IZOELEKTRIK NUQTASINI.....	167
ANIQLASH.....	167
6.4-ISH. POLIELEKTROLITNI SUVLI VA TUZLI ERITMALARINING GIDRODINAMIK XOSSALARI	168
6.5- ISH. POLIELEKTROLIT MAKROMOLEKULALARI ORASIDAGI KOOPERATIV REAKTSIYALAR.....	169
6.6-ISH. MATRITSA-OLIGOMER TURIDAGI MOLEKULALARARO TA'SIRLASHUVNI O'RGANISH.....	171
6.7-ISH. KUCHSIZ KATIONIT SINTEZI.....	172

6.8 -ISH. KATIONITNING STATIK ALMASHINUV SIG'IMINI ANIQLASH.....	173
6.9. ANIONITNING STATISTIK ALMASHINUV SIG'IMINI ANIQLASH.....	173
VII BOB. POLIMERLARNING FIZIK-MEXANIK XOSSALARI.....	175
7.1. Polimerlarning fazaviy va fizik holatlari	175
7.2. Molekulyar struktura	175
7.3. Polimerlarning fazaviy o'zgarishlari	177
7.4. Polimerlarning shishalanishi. Chiziqsimon amorf polimerlarning uch fizik holati.....	178
7.5. Polimerlarning kristall holati va ularning mexanik xossalari.....	180
7.6. Polimerlarni plastifikatsiyalash	182
AMALIY MASHG'ULOTLAR	185
7.1-ISH. POLIMERLARNING TERMOMEXANIK XOSSALARINI O'RGANISH	185
7.2-ISH. DINAMOMETRIYA USULI BILAN KRISTALL BA AMORF POLIMERLARNING MEXANIK XOSSALARINI O'RGANISH	187
7.3-ISH. POLIMERLAR DEFORMATSIYALANISHIDA GISTEREZIS HODISASINI O'RGANISH	188